O‘zining mustaqil taraqqiyoti yo‘lidan borayotgan O‘zbekiston Respublikasida har bir fuqaroning ma’naviyati, shaxsiy rivoji va kamoloti shaxs va jamiyat manfaatlarining uyg‘unligi har qachongidan ham muhim qadriyat sifatida qaralmoqda. Barkamol avlod tarbiyasi va uning mukammal ta’lim olish masalalari davlat siyosati maqomi darajasida hal qilinayotganligi - bu fikrning yorqin isbotidir.

Har tomonlama etk barkamol avlodni tarbiyalashda maktablarda berilayotgan ta’lim va tarbiyaning roli beqiyosdir. Shu bilan birga kelajagimiz bo‘lmish yosh avlod tarbiyasi va ta’limida psixologlarning faol ishtiroki tan olinayotgani ta’lim tizimidagi buyuk yutuqlarimizdan biridir.

Insonning bilish faoliyati voqelikni, narsa va hodisalarni sezish va idrok qilishdan boshlanadi, so‘ngra asta - sekin tafakkurga, fikr yuritishni aqliy yo‘l bilan aks ettirishga o‘tadi. Fikr yuritishning sinteziga aylangan yuqori darajadagi bilish protsessi – tafakkur ham hissiy bilish organlarining mahsuli, ya’ni sezgilar, idrok va tasavvur materiallariga asoslangan holda namoyon bo‘ladi. Binobarin, tafakkur o‘zi uchun zarur materiallarni hissiy ob’ektlardan oladi, shu bilan birga u fikr yuritishning asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Bola dunyo yuzini ko‘rishi bilanoq voqelikdagi ayrim narsa va hodisalarni sezishi yoki his qilishi mumkin. Atrof – muhit bilan muloqotga kirishishi inson bilan aloqa bog‘lashi va ulardan ma’lum darajada taasurotga ega bo‘lishi bolaning emotsional dunyosida o‘z aksini topadi. Biroq, bu paytda unda narsa va hodisalar, insoniyat haqida mulohaza yuritish qobiliyati, uquvi hali etarli darajada tarkib topmagan bo‘ladi. Inson bolasining ham jismoniy, ham psixologik jihatdan rivojlanib borishi, turmush tajribasining boyishi, nutq boyligining ortishi tufayli, kishilar bilan muloqotga kirishi natijasida asta sekin uning tafakkuri rivojlanab boradi. Tafakkur bolada uning umumiy taraqqiyoti bilan bilish faoliyatining, shuningdek ijtimoiy muhitning bevosita ta’siri ostidagina vujudga keladi.

Bola maktabga kelgan kunidan boshlab, ta’lim jarayonida unda ilmiy tushunchalar va tasavvurlar miqdori soat sayin orta boradi, u asta - sekin o‘zlashtirayotgan tushuncha va tasavvurlarining asl ma’nosi, mohiyatiga tushuna boshlaydi. Umuman bolaning fikr yuritish doirasi, ko‘lami va mazmuni kengaya boradi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilimlar sistemasini, o‘quv ko‘nikmalari va malakalarini egallash orqali o‘zlarining bilim fondlarini ko‘paytiradilar, shuning bilan birga ilmiy tushunchalarning tub ma’nosi ular ongiga singa boradi. Bu ishlarning hammasini izchillik bilan ketma – ket, bir tekis amalga oshirish uchun o‘quvchi ma’lum darajada bilimlar va ko‘nikmalarni egallagan, qolaversa tafakkur formalari va mantiqiy fikr yuritish qoidalarini o‘zlashtirib olgan bo‘lishlari kerak.

Ko‘pchilik psixologlar va pedagoglar o‘yinning psixologik masalalari bilan bevosita shug‘ullanib, o‘yinlarning bolani psixik kamol toptirishdagi ahamiyatiga alohida to‘xtalib o‘tganlar. Ma’lumki, o‘yin bola uchun voqelikni aks ettirishdir. Bu voqelik bolani qurshab turgan voqelikdan

ancha qiziqarlidir. O‘yinning qiziqarliligi uni anglab etishning osonligidadir. Kattalar hayotida faoliyat, xizmat, yumush qanday ahamiyatga ega bo‘lsa, bola hayotida o‘yin ham shunday ahamiyat kasb etishi mumkin.

Eng sodda psixik jarayonlardan eng murakkab psixik jarayongacha hammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o‘yinlar katta rol o‘ynaydi.

Bolalik davrida eng soda psixik jarayondan eng murakkab psixik jarayongacha hammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o‘yinlar katta rol o‘ynaydi. Shuningdek o‘yinlarda bolalalr ko‘proq so‘zlarni eslab qolish, nutq boyligini oshirish kabi rivojlanishlar tez ro‘y beradi. Shunday ekan, kichik maktab yoshi davrida psixologik o‘yinlar bolalalar tafakkurining rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Tafakkur – ijtimoiy sababiy, nutq bilan chambarchas bog‘liq, muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir. Tafakkur voqelikni analiz va sintez qilish uni bevosita va umumlashtirib aks ettirishdan iborat jarayondir. Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilishdan paydo bo‘ladi va hissiy bilish chegarasidan ancha tashqariga chiqib ketadi.

Bilish faoliyati sezish va idrok qilishdan bog‘lanadi va keyin tafakkurga o‘tib ketishi mumkin. Biroq tafakkur, hatto eng rivojlangan tafakkur ham hamisha hissiy bilish bilan, ya’ni sezgilar, idrok va tasavvurlar bilan bog‘langan bo‘ladi. Tafakkur faoliyati o‘zining butun «materialani» faqat bitta manbadan, ya’ni hissiy bilishdan oladi. Tafakkur faqat sezgilar va idrok orqaligina tashqi muhit bilan bog‘lanadi va shu tariqa tashqi olamni aks ettiradi. Ammo sezgilar va idrok kabi hissiy bilish jarayonlari olamning turli xildagi aloqalarini, ular orasidagi bog‘lanishlarni, paydo bo‘ladigan turli muammolarni hal qilish imkonini bermaydi.

Tafakkur qilish davomida tashqi olamni bilish chuqurroq amalga oshiriladi. Buning natijasida narsalar, hodisalar va boshqa shuning kabilar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘lanishlarni ajratish, yechish mumkin bo‘ladi. Zarur hollarda turli vositalar qo‘llaniladi. Quyidagi uch xil hodisalarni o‘rganish davomida vositalar qo‘llaniladi:

Qachon tafakkur faoliyati boshlanadi? Biz doimo fikrlaymiz. Agar vaziyat bizga tushunarli bo‘lsa, yetarli hamma ma’lumot va vositalarga ega bo‘lsak, biz «o‘ylamaymiz». Tafakkur jarayoni muammo paydo bo‘lsa, muammoli vaziyatda paydo bo‘ladi. Muammoli vaziyat – biror masalani yechish uchun zarur bilimlar, vosita yoki ma’lumot, malakalarning yetishmasligi bilan bog‘liq bo‘ladi. Muammoli vaziyatda bizning avvalgi vosita va usullarimiz yetishmay qoladi. Shu sababli oddiy, tushunarli, o‘zida yangilikni aks ettirmaydigan ma’lumotni eshitayotgan talaba va o‘quvchi fikrlamaydi. Ularni fikrlashga undash uchun muammoli vaziyat yaratish kerak.

Psixologiya fani mantiq fani bilan birgalikda tafakkurning mantiqiy shakllarini o‘rgandi. Tafakkurning mantiqiy shakllari–tushuncha, hukm va xulosa chiqarishlardir.

O‘quvchi tevarak – atrofdagi voqelikning belgi, alomati va xususiyatlarini, ularning xossalarini, qonuniyatlarini va o‘zaro bog‘lanishlarini bilish faoliyatida hamda ta’lim jarayonida tushuna boradi, fikr yuritish faoliyatida esa ham miqdor, ham sifat o‘zgarishgi yuzaga keladi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar tafakkurining rivojlanishini yirik psixolog L.S.Vigotskiy tushunchalarning shakllanishi hamda nutqning o‘sishi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rgangan.

P.P.Blonskiy mazkur yoshdagi o‘quvchilar tafakkurining o‘sishiga xotiraning taraqqiyotini, tafakkurning ta’sir etishini genetik metod yordamida ochib beradi. Ayniqsa, tafakkurning «intizomlilik» sifatining namoyon bo‘lishini inson tomonidan tafakkurni boshqarish va nazorat qilish faoliyatidan aniqlash mumkinligini P.P.Blonskiy alohtdja ta’kidlaydi.

O‘quvchi maktabga kelgan kunidan e’tiboran ta’lim jarayonida unda ilmiy tushunchalar va tasavvurlar miqdori soat sayin orta boradi, u asta – sekin o‘zlashtirayotgan tushuncha va tasavvurlarining asl ma’nosi, mohiyatiga tushina boshlaydi. Umuman, o‘quvchida fikr yuritish doirasi, ko‘lami va mazmuni kengaya boradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilimlar tizimini, o‘quv ko‘nikmalari va malakalarini egallash orqali o‘zlarining bilim ko‘lamini kengaytiradilar, shuning bilan birga ilmiy tushunchalarning tub ma’nosi ular ongiga singib boradi.

X U L O S A tafakkur – inson aqliy faoliyatining, aql – zakovotning, ongli xatti – harakatning yuksak shakli hisoblanadi. Tafakkur tevarak – atrofni, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek insonning keng ko‘lamdagi faoliyatni oqilona amalgam oshirishning asosiy sharti sanaladi. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g‘oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular ongli tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning ruhiy dunyosi o‘sib borishda, takomillashuvida turli hildagi o‘yinlar alohida rol o‘ynaydi. Bolalarning yoshi ulg‘aygan sari ular o‘yinning mazmunini murakkablashtitrib, turlari ham ortib boradi, o‘ynash vaqti ham cho‘ziladi. Ular o‘zlarining syujetli o‘yinlarida turmushdagi voqealarni namoyish qilishga urinadilar. Guruh bo‘lib o‘ynashda o‘zaro bir – birlarini tushuna oladilar, o‘yin shartiga tez moslashadilar.

Bolalalrning aqliy o‘sishi haqida fikr yuritilganda, shuni ham aytib o‘tish kerakki, narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangicha nomlash holatidan kelib chiqib, subekt o‘yin paytida faol harakat qilishga urinadi. Chunki u moddiy narsalarga asoslangan harakat rejasidan tasavvur qilinayotgan, fikr yuritilayotgan jismlar mohiyatini aks ettiruvchi harakat rejasiga o‘tadi. Bola jismlarning moddiy shaklidan birdaniga hayoliy ko‘rinishiga o‘tishda unga tayanch nuqtasi bo‘lishi kerak, vaholanki shunday tayanch nuqtasi vazifasini o‘tovchi narsalarning aksariyatidan o‘yinda bevosita, ob’ekt sifatida foydalanadi.

O‘yin orqali bolalalrda aqliy harakatlarning yaqqol shakllari tarkib topa boshlaydi. Rolli o‘yin faqat alohida olingan psixik jarayon uchun ahamiyatli emas, balki bolada shaxs xususiyat va fazilatlarini shakllantirishda ham zarurdir. Binobarin, katta yoshdagi odamlar rolini tanlab, uni bajarish bolaning his – tuyg‘ularini qo‘zg‘atuvchilar bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Chunki o‘yin davomida bolada har xil xohish va istaklar tug‘ila boradi, bular boshqa narsalarning tashqi alomatlari, o‘ziga rom etishi sababli hamda bolaning ixtiyoridan tashqari, tengdoshlarining ta’siri ostida tug‘iladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. T.M.Adizova Psixokorrektsiya. Uchebnoe posobie. Tashkent., TDPU, 2006.
2. Jalalova G. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayerlash. T. 2004.
3. Goziev E. Ontogenez psixologiyasi. T.: Noshir. 2010y.
4. Nishanova Z.T. Psixologik xizmat. T. 2006.
5. Klıcheva Z., Xamidova A. Jas da’wirleri ha’m pedagogikalıq psixologiya

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING HARAKAT FAOLLIGINI OSHIRISHDA JISMONIY TARBIYANING O‘RNI VA AHAMIYATI

E.A.O‘rinboyev

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Adaptiv jismoniy tarbiya va parasport kafedrasi p.f.b.f.d. (PhD), dotsent v.b

D.Z.Abduvohidova

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti 1-kurs magistranti

Chirchiq, O‘zbekiston

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN INCREASING THE MOBILE ACTIVITY OF PRESCHOOL CHILDREN

E.A. O‘rinboyev

Department of Adaptive Physical Education and Parasports, Uzbekistan State University of Physical Education and Sports, p.b.f.d. (PhD), associate professor

D. Z. Abduvahidova

1st year graduate student of the Uzbekistan State University of Physical Education and Sports

Chirchik, Uzbekistan

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchi bolalarning harakat faolligini oshirishda jismoniy tarbiyaning o‘rni va ahamiyati haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bolalarning jismoniy sifatlarining rivojlanishida va salomatligida jismoniy tarbiyaning tutgan o‘rni haqida tushunchalar berilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, mashg‘ulot, maktabgacha ta’lim, sog‘lomlashtirish, sport, jismoniy sifatlar, harakat faoliyati.

Abstract: The article provides information about the role and importance of physical education in increasing the movement activity of children educated in preschool educational institutions. Concepts about the role of physical education in the development of children's physical qualities and health are given.

Key words: physical education, training, pre-school education, wellness, sports, physical qualities, movement activity.

Аннотация: В статье представлена информация о роли и значении физического воспитания в повышении двигательной активности детей, воспитывающихся в дошкольных образовательных учреждениях. Даны представления о роли физического воспитания в развитии физических качеств и здоровья детей.

Ключевые слова: физическое воспитание, воспитание, дошкольное образование, оздоровление, спорт, физические качества, двигательная активность.

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va o‘sishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda bolalarning jismoniy tarbiyasini to‘g‘ri tashkil etish, ilk yoshdan boshlab jismoniy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va har tomonlama uyg‘un rivojlantirish maktabgacha ta'lim jismoniy tarbiya nazariyasining asosiy talablaridan hisoblanadi. Bugungi bolalar qayerda yashashidan qat'iy nazar, doimiy ravishda ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ilmiy, texnikaviy va industrial sohalardagi o‘zgarishlar bilan to‘qnash kelishlariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda uning shaxs sifatida shakllanishi, ilk bor olamni atrofidagi ashyo va buyumlar orqali anglab, undan o‘zicha ma'no topishga intilishi, qiziqish, hissiyotlari, jismoniy rivojlanishini kuzatamiz. Hayotning har bir davri, rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko‘ra o‘ziga xos bosqichlarga ega. Bolaning o‘sib, ulg‘ayishida maktabgacha bo‘lgan davrni shular sirasiga kiritish mumkin. Bolalar ohangraboli olam hisoblanib, juda tez o‘sish, rivojlanish va o‘zgarishlar ichida yashaydilar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi 5368-sonli “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida ommaviy sportni rivojlantirish va iste’dodli yoshlarni saralash (selektsiya) sohasida ta'lim muassasalarining ustuvor yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib, unda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshlang‘ich gimnastika va harakatli o‘yinlar bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borish orqali jismoniy rivojlantirish hamda salomatlikni mustahkamlash uchun tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlariga qiziqishni shakllantirish belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5282-son qarori, maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog‘lom va yetuk, jismoniy rivojlantirish shu bilan birga maktabga tayyorlash vazifalari ko‘zda tutadi.

Ushbu vazifalarni ijrosini taminlash yoshlarni jismonan sog‘lom, baquvvat, vatan mudofaasiga, hayotga va mehnatga tayyorlashdir. Bu jismoniy tarbiyaning oldiga qo‘yiladigan vazifalari mamlakatimizda kishilarning jismoniy tarbiyasini amalga oshiruvchi hamma muassasa va tashkilotlar uchun yagonadir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalarida, oilada jismoniy tarbiyalashning asosiy vazifalari ularni sog‘lom va baquvvat qilib o‘stirish, ular organizmini chiniqtirish, ta’lim va tarbiyani to‘g‘ri tashkil etishdan iboratdir. Jismoniy tarbiyaning eng ustuvor vazifalaridan biri sog’lomlashtirishdir. Sog‘lomlashtirish vazifaning asosiy e’tibor qaratadigan jihati suyak, bo‘g‘in tizimi, tana holati, shuningdck, tarkibiy qismlarining turli yo‘nalishlarda harakatlanish imkoniyatini ta’minlaydi. Suyak apparati bog‘lam va bo‘ginlarini to‘gri va vaqtida rivojlantirish tanani me’yorda ushlab turishni hamda hamma organ va tizimlar rivojlanishini ta’minlaydi. Umurtqa pog‘onasining qiyshayishi, bukirlik, yassioyoqlik muhim organlarning faoliyat jarayonini buzadi, bu esa kelajakda kasallikka olib keladi. Bolalarda suyak tizimi nisbatan bo‘sh, chunki unda bir qancha nay hujayralari bo‘ladi: bo‘g‘inlar ancha harakatchan, bog‘lash apparati oson cho‘ziladi, paylari kattalarnikiga qaraganda bo‘sh va kalta. Shu munosabat bilan suyakning qotishi, umurtqa pog‘onasi egiluvchanligi, bo‘gin apparati oson cho‘zilishi va mustahkamlanishi uchun to‘gri va o‘z vaqtida yordam berish zaruriyati kelib chiqadi. Undan tashqari, tana qismlari nisbatini to‘g‘ri rivojlantirishga, bo‘yi va tana massasini boshqarishga imkon berish zarur.

Chaqaloqning birinchi oylarida muskullarning egilish tonusi to‘grilanish tonusidan yuqori bo‘ladi. Bolalar muskullarida suv ko‘p bo‘lib, oqsil moddalari va yog‘ kam bo‘ladi. Ayrim muskullarning rivojlanishi bir tekisda bo‘lmaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda muskullarning hamma guruhlarini rivojlantirish zarur. Muskullarning sust rivojlangan guruhlarini mustahkamlashga alohida e'tibor berish zarur. Yurak-tomir tizimi boshqa tizimlarga nisbatan oldinroq faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Jismoniy tarbiya va sport sohasining ko‘pgina olimlari fikricha, o‘sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy tarbiyalashdan maqsad shaxsning jismoniy va ma’naviy madaniyati asoslarini shakllantirish, salomatlik zaxiralarini sog‘lom turmush tarzida faol hamda uzoq muddat davomida amalga oshirilayotgan qadriyatlar tizimi sifatida yuksaltirishdan iboratdir. Jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan tarkib topadi.

– bolalarda salomatlik, jismoniy tarbiya va sport qadriyatlarini o‘zlashtirishda ongli ehtiyojni shakllantirish;

– boladagi jismoniy sifatlar, harakat ko‘nikma va malakalari rivojining zarur hamda yetarli darajasini ta’minlovchi jismoniy imkoniyatlarning tabiiylikka muvofiq va individual - mos rivojlantirilishi;

– maktabgacha yoshdagi bolalarga umumiy jismoniy ma’lumotlarni berish, bunda ularning jismoniy tarbiyasiga oid aqliy, texnologik, axloqiy, etik va estetik qadriyatlarni o‘zlashtirishiga erishish.

Yaxshi yo‘lga qo‘yilgan jismoniy tarbiya ko‘p jihatdan bolalarning aqliy rivojlanishiga, nutqni rivojlantirishga imkon beradi. Jismoniy mashg‘ulotlarda bolalarda psixik jarayonlar, shuningdek, fikrlash jarayonlari (kuzatish, taqqoslash, taqlid qilish) rivojlanib boradi. Bolalar o‘zlari egallagan bilim va ko‘nikmalarni, mustaqillik, fikr yurituvchanlik, topqirlikni namoyon etgan holda ijodiy foydalana olishga intilishlari zarur. Jismoniy tarbiya nafosat tarbiyasini amalga oshirishga imkon beradi. Jismoniy mashqlarni bajarish vaqtida go‘zallikni, qaddi-qomatni, harakat ifodasini, kiyim, jismoniy tarbiya jihozlarini, atrof-muhit holatini qabul qilishga, sezish, tushunish va to‘gri baholash qobiliyatini rivojlantirish, harakat va so‘zlarda uchrab qoladigan qo‘pol holatga qarshi kurashishni rivojlantirish zarur. Bolalarda maktabgacha yoshdanoq ularning mehnatga tayyorlanishlarida jismoniy tarbiyaning rolini tushunishini shakllantirish muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash jarayoni sog‘lomlashtirish, ta’limiy va tarbiyaviy vazifalari kompleks ravishda hal etish tarzida qurilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-son Qarori.
2. 2017-yil 30 sentabrda Prezidentimiz tomonidan “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmon hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vaziriligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi qaror.
3. Samadov S. O‘quvchi yoshlarni sportga yo‘naltirishda jismoniy mashqlarning ta’sirini belgilovchi omillar: 10.53885/w4652-5783-4488-q S.Samadov o‘qituvchi Buxoro davlat universiteti //Nauchno-prakticheskaya konferensiya. – 2022. – S. 756-759.
4. Sadikovich S. S. Physical Culture and Sports as the Basis for a Healthy Lifestyle for Young People. – 2022.
5. Maxkamdjonov,. Nasriddinov F.N.Maktabgacha va maktab yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini takomillashtirish.- Toshkent:- 1995.

JAS ÓSPIRIMLERDIŃ SPORT TÚRLERINE BOLǴAN QIZIǴIWSHILIǴIN ÚYRENIW ZÁRÚRLIGI-DÁWIR TALABI SIPATINDA.

Marat Utegenov
Ájiniyaz atındaǵı NMPI – Sport pánleri kafedrası úlken oqıtıwshısı
Elektron pochta: utegenovmarat1978@gmail.com

Tayanısh sózler: psixologiya , sport, pedagogika, fizikalıq mádeniyat, trenirovka

Mámleketimizde sport salasında keń kólemde reformalar ámelge asırılıp atır. Atap aytqanda, balalar sportına úlken itibar qaratılıp, qatar ilaj hám ózgerisler ámelge asırılıp, mámleketimizdiń barlıq aymaqlarında sport imaratları zamanagóy talaplar sheńberinde qurılıp, olar zamanagóy sport úskeneleri menen úskenelenip atır. Bunday háreketler tiykarında jaratılıp atırǵan sharayat balalarda sportqa bolǵan múnásibeti ózgeriwine alıp kelip atır. Endi olar tek bos waqıtlarında sport penen shuǵıllanıwǵa emes, bálki sport salamatlıq hám kórkemliktiń tiykarı ekenligin ańlap úzliksiz shuǵıllanıp barıwǵa ádetlenbekte. Insan hár qıylı fizikalıq shınıǵıwlardı iyelewi hám aktiv islete alıwı arqalı óziniń fizikalıq jaǵdayı hám tayarlıǵın jaqsılaydı, fizikalıq tárepten joqarı dárejede jetilisip baradı.

Fizikalıq jetiliskenlik shaxstıń sonday fizikalıq múmkinshilikleri dárejesin sáwlelendiredi, qaysıdur oǵan olar tábiyiy kúshlerin tolıq ámelge asırıw múmkinshiligin beredi, jámiyetke zárúr bolǵan hám oǵan kerekli bolǵan social-miynet iskerligi túrlerinde jemisli qatnasıw, onıń kelisiw múmkinshiliklerin kúsheytiw hám sol tiykarında social ónimli ósiwdi támiyinlep beredi. Fizikalıq jetiliskenlik dárejesi úzliksiz rawajlanıw ushın qanshelli tiykarlardı beriwi menen birge, qaysı dárejede

jańa sapa ózgerislerine hám shaxstıń joqarı dárejede jetilisip barıwınada sharayatlardıń jaratılǵanlıǵına qarap anıqlanadı.

Fizikalıq tolıq jetilisiw shaxstıń umtılısların xarakterleydi, onıń tańlaǵan sport túri yamasa fizikalıq-mádeniy hám sport iskerligi arqalı rawajlanıp barıw procesin nızamlı kórip shıǵadı, dinamikalıq jaǵday retinde pútin rawajlanıwın támiyinleydi. Usınıń menen birge onıń morfofunktsional jáne social-psixologiyalıq qásiyetlerine qarap, onıń individuallıǵın ashıw hám rawajlandırıw quralların tańlawdı támiyinleydi.

Sol sebepli de fizikalıq jetiliskenlik jańa jetisip shıǵıp atırǵan qánigeniń usınday qáleytuǵın yamasa unatıwshı sapası bolıp qalmastan, bálki onıń jeke qásiyetleri quramınıń zárúr hám kerekli elementi bolıp esaplanadı. Atap aytqanda, sportshılardıń tolıq jetilisiwinde tek ǵana shınıǵıwlar zárúrli emes, bálki jarıslardı shólkemlestiriw, olarda qatnasıw qánigeniń tolıq ózin sportqa báǵdarlawın, baǵıshlawın da belgilep baradı. “Trenirovka processinde ádetde, sportshılardıń joqarı sport nátiyjelerine jetisiwinde járdem beretuǵın hámme sapalardı joqarı dárejede kórinetuǵın etiw ushın sharayatlar jaratıw múmkinshiligi joq.

Jarıslarda hár bir sportshı óz qarsılasın jeńiwge umtıladı ham bul umtılıw sportshıdan pútkil kúshin jóneltiriwdi talap etedi. Bul tek ǵana insannıń funktsional múmkinshiliklerin kórinetuǵın etiwge múmkinshiligi beredi, bálki olardı qáliplestiriw quralı bolıp xızmet eted[1]. Jaslardıń da dene tárbiya hám sport iskerligi - toparlıq hám jeke qızıǵıwshılıqların, toparlıq zárúr bolǵan individual' mútajliklerin qáliplestiriwshi faktorlardı birlestiriwshi nátiyjeli mexanizmlerden biri bolıp tabıladı. Onıń arnawlı yadrosı bolıp, shaxstıń fizikalıq hám mádeniy ortalıǵın rawajlandırıwshı, onı ólshemler, qádiriyatlı nıshanlar menen bayıtıwshı qatnaslar esaplanadı.

Bul jaǵday hám processte shaxs qásiyetlerinde social ilmiy tájriybeniń payda bolıwı, rawajlanıp barıwı júz beredi hám onıń tábiyiy ishki kúshleriniń sırtta nátiyje beriwi gúzetiledi. Bunday iskerliginiń maqsetli ózgesheligi shaxstıń social aktivligi asıwınıń qúdiretli quralı bolıp baradı. Shaxstıń fizikalıq mádeniyatı ózin ush tiykarǵı jónelislerde kórinetuǵın etedi.

-Birinshiden, óz-ózin rawajlandırıw uqıbın anıqlaydı, shaxstıń social hám ruwxıy ilmiy tájriybesi menen tiykarlanǵan ózin rawajlandırıwǵa jónelis alǵanlıǵın sáwlelendiredi, dóretiwshilik “óz-ózin kóriwge” umtılıwın, óz-ózin tolıq jetilistiriwin támiyinleydi.

-Ekinshiden, fizikalıq mádeniyat - óz iskerligin quraytuǵın, baslama kórsetiwshi jańa bolajaq qánigeniń tiykarı bolıp tabıladı, onıń kásiplik miyneti hám predmetine baǵdarlanǵan fizikalıq mádeniyat quralların qóllawda dóretiwshilikti kórsetip beredi.

-Úshinshiden, fizikalıq mádeniyat - shaxstıń “basqalar” menen bolǵan dene tárbiya hám sport, toparlıq hám kásiplik iskerlik processinde júzege keletuǵın qatnaslarǵa baǵdarlanǵan dóretiwshiligin sáwlelendiredi hám de óz ústinde islew kónlikpe hám ilmiy tájriybelerin rawajlanıp barıwdı támiyinlew menen birge psixologiyalıq quwatların da bayıtıp, bekkemlep baradı. Bul iskerlikte shaxstıń jaqınları, aǵayınları hám átirapdaǵıları, kásiplesleri menen qanshelli baylanısları keń hám bay bolsa, sonshalıq onıń ishki-subektiv álemin kórsete alıw maydanı bayıp, keńeyip baradı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч.-Тошкент: Маънавият, 2008
2. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти.-Т: ЎзДЖТИ нашриёти, 2007
3. Алексеев С.В. Олимпийское право. Правовые основы олимпийского движения: Учебник Под ред. П.В. Крашенинникова (Гриф УМЦ «Профессиональный учебник»). – М.: Юнити-Дана; Закон и право, 2010.

SPORTNI YOSHLAR ORASIDA OMMAVIYLASHTIRISH MUAMMOLARI.

Marat Utegenov
Ajiniyoz nomidagi NMPI – Sport fanlari kafedrasi katta o‘qituvchisi.
Tagabergenov Nurasıl
Ajiniyoz nomidagi NMPI – Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi magistranti.

Annotatsiya. Maqolada yoshlar o‘rtasida sportni ommalashtirish muammolari ko‘rib chiqiladi. Jismoniy tarbiya aholi salomatligini mustahkamlash va inson kapitali sifatini oshirishga muhim hissa qo‘shmoqda. Yoshlarning dunyoqarashiga, sportning ommaviyligini oshirishga oila, ta’lim muassasalari va davlat ta’sir ko‘rsatishi mumkin

Kalit so‘zlar: sport, ommaviylashtirish, yoshlar, salomatlik, muammolar.

Inson jismoniy madaniyatining ilmiy-amaliy muammo sifatida shakllanishi uning chuqur mohiyatini o‘rganishni taqozo etadi. Jismoniy tarbiya nazariyasida jismoniy faoliyat uchun shaxsning ichki motivatsiyasini rivojlantirish zarurati to‘g'risida pozitsiya uzoq vaqtdan beri shakllantirilgan.Shu bilan birga, jismoniy madaniyatni joriy etishning hal qiluvchi omili yoshlarda chuqur bilim va e’tiqodga asoslangan holda ularning sog‘ligi haqida doimiy g‘amxo‘rlik qilishga bo‘lgan ongli ehtiyojini maqsadli shakllantirish va mustahkamlash kerak [1].

Maqolaning maqsadi yoshlar o‘rtasida sportni ommalashtirish imkoniyatlari va manbalarini aniqlashdan iborat. Aholi salomatligini mustahkamlash, inson kapitali sifatini oshirishda jismoniy tarbiya va sport muhim o‘rin tutadi.

Kelajak avlod uchun sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Har bir davlat o‘zining yangi avlodidan sog‘lom, mehnatga layoqatli, vatanni himoya qiladigan, jamiyat talablari va o‘z shaxsiyatiga mos hayot kechiradigan kelajakni kutadi. Bu shuni anglatadiki, asosiy e'tibor bolalar, o‘smirlar, yoshlarga qaratilishi kerak, ya'ni inson aynan o‘sha yoshda tanlashni boshlaganida, unga nima qiziqarli va qulayroq bo‘lishi kerak, demak bu jismoniy tarbiya va sport. Muammo shundaki, bugungi kunda yoshlarning sportga qiziqishi yetarli emas, sog‘lom turmush tarziga intilmayapti.

Yoshlar sportdagi yutuqlari va muvaffaqiyatlari bilan mashhur. Boshqa tomondan, jismoniy tarbiya va sport butun aholining jismoniy salomatligini ko‘p jihatdan ta'minlaydigan sohadir. Shu munosabat bilan yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish muammosini hal etish uchun jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish ishlarini samarali tashkil etish zarur. Jismoniy madaniyat o‘z mohiyatiga ko‘ra ommaviy hodisa bo‘lib, jamiyat a'zolarining ko‘pchiligini o‘z ta'sir doirasiga turli darajadagi faoliyat bilan bo‘lsa-da jalb qiladi.

Jamiyatda ularning salomatligini mustahkamlash va saqlashga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarining ahamiyatini anglab yetishi uchun jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy ahamiyatini, jismoniy faollikning ahamiyatini oshirish zarur; jismoniy tarbiya va sportga sog'lom turmush tarzi omillari sifatida qarashni shakllantirish. Insonning butun hayoti davomida faol jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishi ko‘p jihatdan uning ularga bo‘lgan munosabati, shuningdek, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga bo‘lgan ehtiyoj bilan belgilanadigan bo‘lsa, taklif etilayotgan barcha chora-tadbirlardan kelib chiqib, shunday qilish kerak: jismoniy tarbiyani maqsadli targ'ib qilish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab qo‘yilgan. Gap sport turmush tarzining nufuzli qiyofasini yaratish, o‘z salomatligi va boshqalarning salomatligini qadrlash maqsadida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli turli xil vositalardan foydalangan holda ommaviy axborot-tashviqot toshkilotini yaratish haqida bormoqda.

Sportni manzilli ta'minlash uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash zarur jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha milliy nashrlar va ommaviy adabiyotlar; maktab va oliy o‘quv yurtlari kutubxonalari moliyaviy resurslarning etishmasligi tufayli ushbu nashrlarni sotib olish imkoniyatidan deyarli foydalanilmaydi. Targ'ibot yakka shaxsga qaratilib aholini tarbiyalash, sog`likni saqlash, faol uzoq umr ko‘rishni ushlab turish, chekishga qarshi kurash, narkomaniyaga qarshi kurash, alkogol istemoli va boshqa sog'lom holatga qarshi kurashishda shunigdek jismoniy madaniyat va sportning barqaror xavfsizligiga qarshi turish kerak.

"Yoshlarning hayotiy qadriyatlari" - mavzusidagi so‘rovnomadan foydalanildi, so‘rovnomada 100 respondent[1] - talabalar turar joyida yashovchi talabalar ishtirok etdi.

Respondentlarning 60 foizi institut kutubxonasining davriy nashriyot bo‘limida sifatli sport adabiyotlarini o‘qishni xohlashlarini ta’kidladilar.

Talabalarning 40 foizi hech qachon bosma davriy nashrlarni sotib olmasligini aytdi, chunki... bu ular uchun juda qimmat.

Bundan tashqari, Oliy ta`lim o`quv yurtlari har bir talabalar turar joyida sport zallari yoki o‘yin maydonchalarini tashkil qilish zarur. Ushbu yondashuv talabalar tomonidan ma'qullandi va qo‘llab-quvvatlandi. Respondentlarning 79 foizi yotoqxonalarda sport zallari va sport xonalari tashkil etilishini yoqlaydi.

Yotoqxonalarda sport zallarining tashkil etilishi yoshlarning sport bilan shug‘ullanish imkoniyatini oshiradi va muhim ijtimoiy loyihadir. Sportga bo‘lgan ishtiyoq yoshlarda barqaror xatti-harakatlarning namoyon bo‘lishini kamaytirishga yordam berishi kerak.

Salomatlik va jismoniy tarbiyaga ijobiy munosabatning poydevori bolalik davrida qo‘yiladi. Yosh avlod salomatligining yomonlashishi ushbu muammoni zudlik bilan hal etish zarurligini taqozo etmoqda. Asosiy harakatlar quyidagilarga qaratilishi kerak:

- ota-onalarning bolalar salomatligi va jismoniy holati uchun mas'uliyatini oshirish;

– maqsadli va homiylik moliyasini izlash va ulardan oqilona foydalanish bolalar va o‘smirlar sportini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar;

– dasturiy, uslubiy va tashkiliy jihatdan takomillashtirish ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiyani ta'minlash;

– sport faoliyatini tashkil etishning yangi samarali shakl va usullarini joriy etish;

respondent [1] - Ijtimoiy so‘rovda qatnashuvchi shaxs; anketa savollariga javob beruvchi kishi

– jismoniy tarbiya uchun arzon, lekin amaliy va gigiyenik tovarlar va jihozlar ishlab chiqarish sanoatini yaratish;

– ommaviy adabiyotlar, videoroliklar va kompyuter dasturlarini ommaviy nashr etish;

– yoshlarni sportga jalb etishga qaratilgan ijtimoiy dastur va loyihalarni ishlab chiqish;

– ta’lim muassasalarida kompleks jismoniy tarbiya va sport markazlarini, jumladan, sport zali, suzish havzasi, yassi inshootlarni barpo etish [2].

Jismoniy tarbiya motivatsiyasini shakllantirish uchun yoshlar shaxsining barcha tarkibiy qismlariga pedagogik ta'sirlarni yangilash va insonparvarlik va demokratik g'oyalarga e'tibor qaratish zarur. Ta'lim jarayonining ushbu yo‘nalishi shaxsga yo‘naltirilgan jismoniy tarbiya texnologiyasini belgilaydi: o‘quvchilarning jismoniy madaniyatning asosiy qadriyatlarini (ma'naviy, axloqiy, intellektual, axborot, motorli) o‘zlashtirishlarini ta'minlash. Shaxsga yo‘naltirilgan jismoniy tarbiya texnologiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzi tamoyillari va ko‘nikmalarini shakllantirish;

- o‘quv jarayonida o‘quvchilarning qiziqishlari va motivatsiyasiga qarab, shaxsiy rivojlanishning turli xil variantlari va sog'lig'ini saqlash usullaridan foydalanish;

- talabalar tomonidan zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi mustaqil jismoniy mashqlarni tashkil etish va o‘tkazish.

Shunday qilib, yoshlar o‘rtasida sportni ommalashtirish ota-onalar, ta’lim muassasalari, jamoat tashkilotlari va davlat tomonidan hal etilishi lozim bo‘lgan dolzarb murakkab vazifadir. Yoshlar o‘rtasida sportning rolini oshirish uchun tegishli dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan keng targ‘ibot ishlarini olib borish, shuningdek, yoshlarning sport anjomlari va seksiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga sarmoya kiritish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR

1. Дутов С.Ю. Формирование мотивации к занятиям физической культурой у старшеклассников // Вестник ТГУ. – 2012. Выпуск 11 (115). С. 218-221.

2. Столярова К.Н., Кузнецова Л.В. Повышение мотивации молодежи к занятиям физической культурой и спортом [Электронный ресурс] // http://elib.sfukras.ru/bitstream/handle/2311/10891/s026036.pdf;jsessionid=2CAB4C714A5DE1D3C3082C09C5514C8D?sequence=1 (дата обращения: 01.02.2017).

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BOSHLANG'ISH SINF O'QUVCHILARINING CHAQQONLIK JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

B.S.Jiyemuratov
Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Nukus filiali "Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati" kafedrasida assistent-o'qituvchi

Anotatsiya: bu maqolada umumta'lim maktablarida boshlang'ish sinf o'quvchilarining chaqqonlik jismoniy sifatlarini rivojlantirish hususiyatlari haqida so'z etilgan.

Аннотация: в данной статье говорится об особенностях развития физических качеств ловкости у учащихся младших классов в общеобразовательных школах.

Kalit so'zlar: epchillik, jismoniy sifatlar, metodika, mashg'ulot.

Ключевые слова: ловкость,физические качества, обучения, методика.

Qadim zamonlardan epchillik insonning harakatchanlik, chaqqonlik, tushunish, moslashuvchanlik qobiliyati sifatida ta'riflangan. Bu jismoniy sifat, boshqa fazilatlarga qaraganda, insonga kundalik hayotda qiyinchiliklardan qochish imkonini beradi.

XXI asrda faoliyatning turli sohalarida epchillik o'ziga xos tuzilishga ega ekanligi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Mavjud epchillik atamasi noaniq, "dunyoviy" va ko'p ma'noli edi va shunday bo'lib qolmoqda. Shuning uchun kundalik hayotda, jismoniy tarbiya, sport, harbiy va mehnat faoliyatida namoyon bo'ladigan koordinatsion qobiliyat tushunchasi kiritildi va hamma joyda koordinatsion qobiliyat (KQ) tushunchasi o'ziga xosdir.

Bizning ishimiz uchun biz ikkala tushunchani ham hisobga oldik, chunki bizning vazifamiz insonning barcha harakatlarini tasvirlashdan ko'ra biroz torroqdir. Chunki bizni maqsadimiz yosh bolalarni o'rganishdir. Shunday qilib, biz "chaqqonlik" tushunchasidan ham, "koordinatsion qobiliyatlar" tushunchasidan ham foydalanamiz.

Chaqqonlikni (harakatni koordinatsiya qobiliyatini) rivojlantirish uchun E.N.Vavilov va L.P. Matveev turli metodologik usullarni tavsiya qiladi:

- turli boshlang'ich pozitsiyalarni qo'llash;
- harakat tezligi va tezligini o'zgartirish, bajarilgan elementlarning boshqa ketma-ketligini va ritmning turli kombinatsiyalarini kiritish;
- mashqlarni bajarish usullarini o'zgartirish (yondan, pastdan, yuqoridan uloqtirish; ikki oyoqda, bir oyoqda, burilish bilan sakrash);
- har xil og'irlik va shakldagi narsalarni ishlatish va hokazo;
- kelishilgan harakatlarni amalga oshirish .

Ushbu usullarning barchasi boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda epchillikni o'rganish va rivojlantirishga yordam beradi.

Sport va jismoniy tarbiyada epchillikni rivojlantirish uchun turli usullar qo'llaniladi:

- o'yin;
- raqobatbardosh;
- o'zgaruvchan mashqlar;
- standart takroriy mashq .

Oxirgi usul (standart takroriy mashq) har doim ham qo'llanilmaydi. Ma'lumki, har qanday texnik elementni bajarish qobiliyatiga faqat takroriy to'g'ri takrorlash bilan erishiladi. Avtomatizmga ma'lum bir texnik elementni olib kelishning bir turi mavjud. Shuning uchun, bu usul yangi murakkab vosita harakatlarini o'rganishda qo'llaniladi, chunki murakkab harakatlar nisbatan standart sharoitlardan foydalangan holda, ularning takroriy sonining maksimal sonidan keyin (yuqorida aytganimizdek) o'zlashtiriladi.

Jozef Gebbels aytganidek: "Hamma aqlli narsa oddiy". "Barselona" (Ispaniya) futbol klubining ispaniyalik yarim himoyachisi Andreas Inyesta ham xuddi shunday dedi. Buyuk odamlar har doim bu so'zlarni aytganidek, bunday narsalar haqida gapirishadi. Garchi hamma narsani oddiy bajarishni o'rganish uchun siz A nuqtadan B nuqtasiga asoslardan ustagacha treningdan o'tishingiz kerak. Bu juda qiyin.

Chaqqonlikni tarbiyalash kerak. Istalgan vaqtda va istalgan joyda. Biz buni qayta-qayta takrorlaymiz. Bolalar bog‘chasidan universitetgacha. Ta’lim olgandan so‘ng, odamlar o‘zlari kasb tanlaydilar. Va ular epchillikni rivojlantirishlari kerakmi, ular o‘zlari qaror qilishadi.

Chaqqonlik mashg‘ulotlari bitta hodisa bilan bog‘liq emas. Bu murakkab jarayon. Demak, tarkibiy qismlardan biri o‘z tanasining muvozanatini saqlash, ham statik, ham dinamik holatda muvozanatni saqlash ko‘nikmalarini tarbiyalash bo‘lib, u o‘z navbatida hayotdan turli vaziyatlar bilan belgilanadi (dinamik mashqlar - sakrash, yugurish; statik - boshlang‘ich pozitsiya sifatida futbolchi va basketbolchi pozitsiyalari, badiiy gimnastikadagi pozitsiya va boshqalar).

Statik va dinamik muvozanatni yaxshilash uchun jismoniy tarbiyada metodik usullar mavjud:

a) mashqlarda statik muvozanat uchun:

- vizual analizatorni istisno qiling (ko‘zingizni yuming);
- pozani saqlash vaqtini oshirish;
- qo‘llab-quvvatlash maydonini kamaytiring (butun oyoqda emas, balki uning old qismida turing);
- beqaror tayanchni joriy etish (yarim sharni qo‘yish);
- hamrohlik harakatini kiritish (surish).

b) mashqlarda dinamik muvozanat uchun:

- o‘zgaruvchan tashqi sharoitlarni (joylashuvi, relefi) joriy etish;
- vestibulyar apparatni o‘rgatish (belanchak).

Vazifalardagi barcha oddiy elementlar asta-sekin murakkablashishi kerak. Bora-bora murakkabroq vazifalarni bajarish muvozanatni saqlash qobiliyatini yaxshilashning asosiy usuli hisoblanadi. Oddiy misol: bolakay “qulay” qo‘li bilan ketma-ket 50 marta to‘pni polga uradi. Xuddi shu monoton ishda buni davom ettirishdan ma’no yo‘q. Endi o‘zingizga “qulay” qo‘l bilan 2 marta va “noqulay” qo‘l bilan 1 marta zarb qilish ancha samarali bo‘ladi. Keyin 1 marta “qulay” va 2 marta “noqulay”. Bundan ham qiyin variant - buni to‘pga va hokazolarga qaramasdan qilish.

Masalan, muvozanatni o‘rgatish uchun eng oddiy narsadan boshlash kerak - to‘g‘ri pozitsiyani olish (bosh to‘g‘ri, elkalar burilgan). Keyinchalik, siz isinishingiz va darsning asosiy qismiga o‘tishingiz kerak. O‘rganilayotgan mashqlarni birlashtirish uchun siz quyidagilarni bajarishingiz kerak:

a) mashg‘ulotning boshida ham, oxirida ham sezilarli yukdan keyin harakat qilish;

b) musobaqalarda, estafetalarda, o‘yinlarda mashqlar, ertalabki mashqlar va uy vazifalari;

v) to‘g‘ri o‘zlashtirilgan harakatlar “natija” bo‘yicha .

Farzandlarini sportga jalb qilgan ko‘plab ota-onalar: “Mening bolam giperaktiv. U his-tuyg‘ularini tashqariga chiqarishi kerak”. Ha, bolalar harakat qilishni xohlashadi, ko‘p harakat qilishadi. Ular doimo o‘ynashga intiladigan yosh tanaga ega. Energiyani to‘g‘ri yo‘nalishga to‘g‘ri yo‘naltirish muhimdir. Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarda vosita faoliyatini juda tez tiklash qobiliyati eng muhimi. Qayta sozlash qobiliyati “harakat faoliyatining allaqachon ishlab chiqilgan shakllarini tezda moslashtira olish yoki e'tiborni bir o‘zgaruvchan holatdan boshqasiga o‘tkazish”.

Bu bolaning bir soniyaning bir necha qismida murakkab qarorlar qabul qilishi uchun amalga oshiriladi, chunki mashg‘ulotda siz bitta narsani qila olasiz, lekin o‘yinda hamma narsa har doim boshqacha bo‘ladi. Har qanday vaziyatni hech qachon oldindan rejalashtirish mumkin emas. Turli vaziyatlar, turli yechimlar. Ammo qaror qabul qilish - bu bolaning to‘g‘ri qaror qabul qilgan holda, koordinatsiya qobiliyati va epchilligini namoyon etish qobiliyatidir. Sport va ochiq o‘yinlarda bu sintetik va analitik koordinatsiya mashqlari. Muayyan vosita harakatlarini, xususan, koordinatsiya nuqtai nazaridan murakkab, g‘ayrioddiy yoki birinchi marta bajarilgan bola, bu harakatlarda bevosita ishtirok etmaydigan mushaklarni beixtiyor zo‘riqtiradi. Bu barcha mashqlarda shunday. Har bir mashq bittaga qaratilgan, lekin bilvosita boshqa mushaklarga ham ta’sir qiladi. Agar mushaklar juda tarang bo‘lsa yoki etarlicha bo‘shashmasa, mushaklarning qattiqligi (qullik) mavjud bo‘lib, bu barcha koordinatsiya mashqlarining sifati va natijalariga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Ko‘pgina sportchilar “yordamchi” mushaklarni yetarli darajada mashq qilmaganligi sababli o‘z faoliyatini boshlamasdan yakunlaydilar .

Hamma dam olishni yaxshi ko‘radi, hatto bolalar ham. Ular buni ko‘rsatishni xohlamaydilar, shuning uchun kattalar yoki murabbiy charchagan deb o‘ylaydi. Tanani bo‘shashtirish mashqlarining bir necha turlari mavjud.

Tanani bo‘shashtirish mashqlari quyidagicha to‘rt guruhga bo‘linadi:

- mushaklar juda tez taranglik holatidan bo‘shashgan holatga o‘tishi kerak bo‘lgan mashqlar;

- ba’zi mushaklar taranglashganda, boshqalari bo‘shashgandagi mashqlar (masalan, o‘ng qo‘l tarang, lekin chapda emas);

- boshqa qismlarning harakatlari tufayli tananing bo‘shashgan qismining inertsiyasi bilan harakatni qo‘llab-quvvatlashni talab qiladigan mashqlar;

- mashqlar, ular davomida bolaning (odamning) o‘zi ishda ishtirok etadigan mushaklar bo‘shashishi kerak bo‘lgan daqiqalarni belgilashi kerak .

Bu mashqlar har bir murabbiy-o‘qituvchi va jismoniy madaniyat o‘qituvchisining pedagogik arsenaliga kiritilishi kerak. Tanani qizdiruvchi mashqlarini bajarayotganda, nafas olish va nafasni ushlab turish bilan bir vaqtda mushaklarning kuchlanishini va kuchli bo‘shashishini ta’minlash kerak. V.I. Lyax o‘zining ilmiy ishlarida o‘quvchilar e’tiborini harakatni oson bajarish va maxsus nafas olish mashqlarini qo‘llash zarurligiga qaratib, koordinatsiya kuchlanishini kamaytirish bo‘yicha tavsiyalar beradi: harakatlar texnikasiga ongli ravishda rioya qiling (garchi quyi sinflarda bu unchalik oson emas); ularning e’tiborini harakat sifati va rivojlanishini kuzatishdan atrof-muhitga o‘tkazish .

Chaqqonlik mashg‘ulotning istalgan qismining turli tashkiliy-metodik shakllari orqali rivojlanishi va takomillashtirilishi mumkin. Murabbiy o‘z malakasi va har bir bola va umuman guruh haqidagi bilimlariga asoslanib, har bir darsning rejasini qanday tuzishni aniqlaydi. Tayyorgarlik va yakuniy qismlar epchillikni rivojlantiruvchi maxsus tayyorgarlik koordinatsiya mashqlarini o‘z ichiga olishi kerak. Barcha mashqlar oddiydan murakkabga o‘tishi kerak. O‘quv mashg‘ulotining tayyorgarlik va yakuniy qismida mashg‘ulotlarni tashkil etishning asosiy usuli frontaldir.

O‘quv mashg‘ulotining asosiy qismida maktab o‘quvchilarining epchilligini oshirishning asosiy vazifalarini hal qilish kerak. Asosiy vazifalar dars konspektida yozilishi kerak, aks holda biror narsa kuzatilmaydi va butun dars behuda ketadi. Chaqqonlikni rivojlantirish uchun mashqlarni mashg‘ulotning asosiy qismining boshida yoki uning o‘rtalarida, bolalar optimal aqliy va umumiy ko‘rsatkichlarning eng yuqori cho‘qqisiga chiqguncha bajarish tavsiya etiladi.

O‘quv mashg‘ulotining yakuniy qismi vaqtni, makonni, mushaklarning harakatlarini farqlashni rivojlantiradigan mashqlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

O‘quv mashg‘ulotining asosiy qismida darsni tashkil etishning frontal usuli bilan bir qatorda, qator, individual va guruhli kabi usullarni qo‘llash kerak.

Chaqqonlikni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni tashkil qilishda o‘quv mashg‘ulotlariga testlar (nazorat mashqlari) ham kiritiladi. Ko‘pgina o‘qituvchilar, ayniqsa xususiy maktablarda vaqtlari cheklangan, darsdan tashqari testlarni o‘tkazishga vaqtlari yo‘qligidan, bolalarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlanish darajasini baholash uchun qo‘shimcha soatlar berilmaganidan shikoyat qiladilar.

Chaqqonlikni mashq qilishda quyidagi fikrlarga e'tibor berish muhimdir:

a) sinfdagi yaxshi psixofizik holat;

b) mashqdan keyin sezilarli charchoqni istisno qilish, chunki charchaganida bolalar yuqorida aytib o‘tilgan mushak sezgilarini yo‘qotadilar va bu holatda koordinatsiya qobiliyatlari yomon yaxshilanadi;

v) har bir mashg‘ulotda asosiy qismning boshida chaqqonlik mashqlari kiritilishi kerak;

d) mashqlarni takrorlashda tanaffuslar bo‘lishi kerak, ularning intervallari to‘liq va bir xil (bu bolaning mushaklari dam olishga vaqtlari bo‘lishi uchun amalga oshiriladi va u sekinlashtirmasdan mashqni yana takrorlashi mumkin);

e) epchillik va boshqa harakat qobiliyatlarini rivojlantirish tandemini kuzatish muhim.

Kichik yoshdagi o‘quvchilar tezlik-kuch yo‘nalishiga ega bo‘lgan qisqa muddatli mashqlarni ko‘proq qabul qilishadi (eng oddiy va eng samarali estafeta poygalari, bunda bola bor kuchini sarflaydi va keyin navbatda turib, o‘zini tiklaydi. kuch). Xulosa shuni ko‘rsatadiki, bu yoshda bunday ko‘rsatkichlar bilan koordinatsiya qobiliyatini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, biz boshlang‘ich maktab yoshi epchillikni rivojlantirish uchun ayniqsa qulay degan xulosaga keldik. Bolalar tanasida sezilarli o‘zgarishlar boshlang‘ich maktab yoshida sodir bo‘ladi, bu jismoniy tarbiya jarayonida e’tibordan chetda qolishi mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonuni. 2000 yil 22 may. Toshkent.

2. O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonuni. (2015 yil 5 sentyabr) “Xalq so‘zi” gazetasi. 2015 5 sentyabr.

3. Абросимова Л.Ы. Состояние регионарного кровообращения у детей школьного возраста в связи с мышечной деятельностю. Автореф. дисс. доктора медж. наук. М.: 1968. 42 с.
4. Абросимова Л.И. Физиологичекие предпосылки нормирования физических нагрузок для детей и подростков. Научное осново гигиенического нормирования физических нагрузок для детей и подростков. М.: 1980. 4-12 с
5. Азимов И.Г. Жисмоний тарбиянинг ёш физиологияси. Т.: ЎзДЖТИ. 1994. 79 б.
6. Азимов И.Г., Хамрокулов А.К. Физиология человека. Т.: Ибн Сино. 1991. 25 с.
7. Атоев А.К. Теория и практика физического воспитания детей в семье. Дис... докт. пед. наук. –Киев: 1984. – 253 с.
8. Атоев А.К. Фарзандларингиз баркамол бўлсин. – Т.: Ибн.Сино. 1990. – 148 с.

YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA MILLIY SPORT O‘YINLARIGA JALB QILISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.

Mambetiyarov Nauriz Saparbaevich.
O‘zDJTSPU Nukus filiali. O‘qituvchi
Aleuatdinova Aynura Bekbosinovna
O‘zDJTSPU Nukus filiali. Talaba

Annotatsiya: Ushbu tezis yosh avlodni tarbiyalashda milliy sport o‘yinlariga jalb qilishning zamonaviy muammolarini va ularning yechimlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Milliy sport o‘yinlari yoshlarni jismoniy va ma'naviy tarbiyalashda katta rol o‘ynaydi. Ular jamoaviylik, intizom va milliy g‘ururni rivojlantiradi. Tadqiqotda texnologiyalarning ta'siri, infratuzilma va resurslar yetishmasligi kabi zamonaviy muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy sport o‘yinlarini ta'lim tizimiga kiritish, ota-onalar va jamiyatning qo‘llab-quvvatlashi, davlat va nodavlat tashkilotlarining ishtiroki kabi yechimlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: Milliy sport o‘yinlari, Yosh avlod tarbiyasi, Jismoniy tarbiya, Ma'naviy tarbiya, Texnologiyalarning ta'siri, Infratuzilma, Resurslar yetishmasligi, Ta'lim tizimi, Ota-onalar qo‘llab-quvvatlashi, Davlat va nodavlat tashkilotlari.

Kirish: Milliy sport o‘yinlari yosh avlodni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Ular nafaqat jismoniy sog‘lomlikni ta'minlaydi, balki milliy qadriyatlarni ham mustahkamlaydi. Ushbu tadqiqotning maqsadi milliy sport o‘yinlariga jalb qilishning zamonaviy muammolarini tahlil qilish va ularning yechimlarini taklif qilishdir. Milliy sport o‘yinlari uzoq tarixga ega bo‘lib, ular xalqning madaniy merosi hisoblanadi. Ular yosh avlodni milliy qadriyatlar bilan tanishtirishda muhim rol o‘ynaydi. Milliy sport o‘yinlari yosh avlodni jismoniy va ma'naviy tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Ular jamoaviylik, intizom va milliy g‘ururni rivojlantiradi. Masalan, kurash o‘yini yoshlarni jismoniy jihatdan chiniqtiradi va ularni milliy qadriyatlar bilan tanishtiradi.

Milliy sport o‘yinlariga qiziqishning pasayishi kuzatilmoqda. Bu esa milliy qadriyatlarning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Sport infratuzilmasi va resurslar yetishmasligi muammosi mavjud. Masalan, sport zallari va maydonchalarning yetishmasligi yoshlarning sport bilan shug‘ullanishiga to‘sqinlik qiladi. Milliy sport o‘yinlarini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash orqali zamonaviy muammolarni hal qilish mumkin.

Metodlar: Ushbu tadqiqotda adabiyotlar tahlili, so‘rovnoma va intervyu usullari qo‘llanildi. Adabiyotlar tahlili orqali milliy sport o‘yinlarining tarixi va ahamiyati o‘rganildi. So‘rovnoma va intervyu orqali yoshlar orasida milliy sport o‘yinlariga qiziqish darajasi va zamonaviy muammolar aniqlab olindi. Professor A. Karimovning tadqiqotlariga ko‘ra, milliy sport o‘yinlari yoshlar orasida jismoniy tarbiyani rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili davomida milliy sport o‘yinlarining tarixi, ularning yosh avlod tarbiyasidagi roli va zamonaviy muammolar haqida ma'lumotlar yig‘ildi. Ushbu ma'lumotlar asosida tadqiqotning nazariy qismi shakllantirildi. So‘rovnoma va intervyu usullari orqali yoshlar orasida milliy sport o‘yinlariga qiziqish darajasi va zamonaviy muammolar aniqlab olindi. So‘rovnoma natijalari statistik usullar yordamida tahlil qilindi va grafiklar yordamida tasvirlandi.

So‘rovnoma o‘tkazish uchun maxsus anketalar tayyorlandi. Anketalar yoshlar orasida tarqatildi va ularning javoblari yig‘ildi. Intervyu usuli orqali esa yoshlar bilan yuzma-yuz suhbatlar o‘tkazildi. Ushbu suhbatlar davomida yoshlar milliy sport o‘yinlariga bo‘lgan qiziqishlari, ularning zamonaviy muammolari va yechimlari haqida fikr bildirdilar. Professor D. Ismoilovning tadqiqotlariga ko‘ra, texnologiyalar yoshlar orasida sportga qiziqishni kamaytiradi.

Hulosa qilib aytganda, kichik yoshdagi o‘quvchilar jismoniy tarbiyasining asosiy vazifalarini bajarishda hamda harakat faolligini oshirishning roli va o‘rni nihoyatda yuqori ekanligi ko‘rinadi:

1. Sog‘liqni mustahkamlash, o‘quvchilarni to‘g‘ri jismoniy rivojlantirishga va chiniqtirishga yordam berish;
2. O‘quvchilarga jismoniy madaniyat va sportga oid maxsus bilimlar berish, ularga gigiyenik bilim va ko‘nikmalarni singdirish;
3. O‘quvchilarda harakat malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish, yangi harakat turlariga va faoliyatiga o‘rgatish;
4. Yoshga muvofiq ravishda asosiy harakat sifatlarini (kuch, tezkorlik, epchillik, chidamlilik va boshqalar) rivojlantirish;
5. Botirlik, qattьiylik, intizomlilik, jamoaga birlashish, do‘stlik hissini madaniy hulq ko‘nikmalarini, mehnatga munosabatini tarbiyalash;
6. Turganda va yurganda qomatni to‘g‘ri tutish ko‘nikmalarini shakllantirish;
7. O‘quvchilarda jismoniy madaniyat va sport bo‘yicha muntazam mashg‘ulotlarga barqaror qiziqish va ko‘nikmalarini tarbiyalab borish;
8. O‘quvchilarga tashkilotchilik malakalarini singdirish, jamoatchi jismoniy tarbiya faollarini tayyorlab borish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsetsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 29.04.2019 yildagi PF-5712-son Farmoni, Toshkent sh., 2019 yil. lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida. 04.09.2015 yildagi O‘RQ-394-son Qonuni. Toshkent sh., 05.09.2015. lex.uz.
3. Бальсевич В.К, Большенков В.Г, Рябинтсев Ф.П. Контсептсия физического воспитания с оздоровительной направленностью учащихся начальных классов общеобразовательной школы //Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. 1996, № 2, С. 13-18.
4. Пенькова, И. В. Профилактика нарушений опорно-двигательного аппарата детей в протсессе обязательных занятий по физической культуре : монография / И. В. Пенькова ; М-во внутрен. дел Рос. Федератсии, Ом. акад. физ. культуры. – Омск : Омская акад. МВД России, 2010. – 210 с.
5. Рудик П.А. Психология: учебник для институтов физической культуры. – М: ФиС, 1998. – 502 с

TALABALARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA YENGIL ATLETIKANING AHAMIYATI

Bayrambay Qoylibayev
Qoraqalpoq davlat universiteti
O‘zbekiston, Nukus
bayrambayqoylibayev@gmail.com
Maxmud Utepov
Qoraqalpoq davlat universiteti
O‘zbekiston, Nukus
utepov.maxmud@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda yengil atletikaning ahamiyati tadqiq etilgan. Salomatlikka, ruhiy-hissiy holatga, mashg‘ulot usullariga va ijtimoiy jihatlarga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilingan. Yengil atletikani o‘quv jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: yugurish, sakrash, uloqtirish, kuch, chidamlilik, tezlik, mashg‘ulot, koordinatsiya.

Аннотация: В данной статье исследовано значение легкой атлетики в развитии физических качеств студентов. Проанализировано влияние на здоровье, психоэмоциональное

состояние, методы тренировки и социальные аспекты. Приведены рекомендации по внедрению легкой атлетики в учебный процесс.

Ключевые слова: бег, прыжки, метание, сила, выносливость, скорость, тренировка, координация.

Annotation: This article examines the significance of athletics in developing the physical qualities of students. The impact on health, psycho-emotional state, training methods, and social aspects has been analyzed. Recommendations for the introduction of athletics into the educational process are presented.

Key words: running, jumping, throwing, strength, endurance, speed, training, coordination.

Kirish: Yengil atletika sport olamida asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida talabalarning jismoniy tarbiya tizimida muhim o‘rin egallaydi. U sog‘liqni saqlash va yuqori sport natijalariga erishish uchun zarur bo‘lgan asosiy jismoniy fazilatlarni rivojlantirishga ko‘maklashadi. Ushbu maqolada biz talabalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy sifatlarini shakllantirishda yengil atletikaning ahamiyatini batafsil ko‘rib chiqamiz.

1. Yengil atletika orqali rivojlantiriladigan jismoniy sifatlar. Yengil atletika yugurish, sakrash va uloqtirish turlarini o‘z ichiga oladi, bu esa turli xil jismoniy sifatlarni rivojlantirishga imkon beradi:

- Chidamlilik. Yugurish bilan muntazam shug‘ullanish yurak-qon tomir tizimini yaxshilaydi va umumiy chidamlilikni oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yugurish bilan faol shug‘ullanadigan talabalar aerob chidamlilik ko‘rsatkichi hisoblangan VO2 max darajasining yuqori ko‘rsatkichlariga ega bo‘ladilar [1].

- Kuch. Sakrash va uloqtirish katta kuch talab qiladi, bu esa mushak kuchini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, yadro itqitish va disk uloqtirish mashg‘ulotlari tananing yuqori qismi kuchini, yaqshi rivojlantiradi.

- Tezlik va koordinatsiya. Sprinterlik masofalari reaktsiya va harakatlar uyg‘unligini yaxshilaydi. O‘z harakatlarini tezkorlik bilan reaktsiya qilish va muvofiqlashtirish qobiliyati nafaqat sportda, balki kundalik hayotda ham asosiy jihat hisoblanadi.

- Egiluvchanlik va muvozanat. Yengil atletikaning ko‘plab mashqlari yuqori darajadagi egiluvchanlik va muvozanatni talab qiladi, bu esa talabalarning umumiy jismoniy rivojlanishiga yordam beradi.

2. Psixologik jihat. Yengil atletika mashg‘ulotlari talabalarning psixologik holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi:

- Motivatsiya. Musobaqalardagi muvaffaqiyatlar motivatsiyani va mashg‘ulotlarni davom ettirish istagini oshiradi. Qo‘yilgan maqsadlarga erishish talabalarda qat’iyatlilik va maqsadga intiluvchanlikni shakllantiradi [2].

- O‘z-o‘zini baholash. Sport yutuqlari talabalarning o‘z-o‘zini baholashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Musobaqalarda ishtirok etish o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchni va o‘z-o‘zini anglash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

- Stressni boshqarish. Muntazam jismoniy yuklamalar stress darajasini pasaytirishga va psixoemotsional holatni yaxshilashga yordam beradi, bu ayniqsa o‘quv jarayoni sharoitida dolzarbdir.

3. Mashg‘ulotlar metodikasi. Maksimal natijalarga erishish uchun turli xil mashg‘ulot usullarini qo‘llash kerak:

- Intervalli mashg‘ulotlar. Yuqori intensivlikdagi intervalli mashg‘ulotlardan (YIIM) foydalanish jismoniy shakl va chidamlilikni tezda yaxshilashga yordam beradi.

- Funktsional yuklamalar. O‘z vazni va turli xil sport anjomlari bilan ishlashni o‘z ichiga olgan funktsional mashqlar barcha mushak guruhlarini rivojlantirishga va koordinatsiyani yaxshilashga yordam beradi [3].

- Ixtisoslashtirilgan mashqlar. Alohida jismoniy sifatlarni (masalan, tezlik, kuch, egiluvchanlik) rivojlantirishga qaratilgan ixtisoslashtirilgan mashqlarni kiritish yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yengil atletika bilan shug‘ullanuvchi talabalar boshqa sport turlarini afzal ko‘radiganlarga nisbatan jismoniy rivojlanish bo‘yicha eng yaxshi natijalarni namoyish etadilar. Masalan, tadqiqotlardan birida yengil atletika bilan faol shug‘ullanuvchi talabalarda yog‘ massasi darajasi pastroq, kuch va chidamlilik ko‘rsatkichlari yuqori ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari, yengil atletika bo‘yicha muntazam mashg‘ulotlar quyidagilarga yordam beradi:

- Immun tizimini mustahkamlash. Jismoniy faollik immunitetga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, kasallik xavfini kamaytiradi.

- Surunkali kasalliklar profilaktikasi. Yengil atletika bilan shug‘ullanish yurak-qon tomir kasalliklari, diabet va semizlik xavfini kamaytirishga yordam beradi.

- Umumiy sog‘liqni yaxshilashga. Jismoniy faollik uyquning yaxshilanishiga, energiya darajasining va umumiy hayot sifatining oshishiga yordam beradi.

Yengil atletika talabalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi: Bunda, jamoaviy musobaqalarda ishtirok etish jamoada ishlash va hamkorlik qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Yengil atletika mashg‘ulotlari talabalarga do‘stlar va hamfikrlarni topishga yordam beradi, bu esa ijobiy ijtimoiy muhitni yaratishga yordam beradi.

Yengil atletikani o‘quv jarayoniga integratsiya qilish tavsiya etiladi: Mashg‘ulotlarning turli shakllarini joriy etish talabalarning jismoniy tarbiyaga qiziqishini oshirish uchun guruhlar, musobaqalar va krosslardan foydalaniladi.

Talabalarni o‘z-o‘zini boshqarish va mashg‘ulotlarni rejalashtirish usullariga o‘rgatish ularga yanada samarali natijalarga erishish imkonini beradi.

Xulosa: Yengil atletika talabalarning jismoniy sifatlarini takomillashtirishda asosiy rol o‘ynaydi, nafaqat jismoniy rivojlanish, balki psixologik farovonlik va ijtimoiy ko‘nikmalarga hissa qo‘shadi. Ta’lim jarayoniga yengil atletikani joriy etish talabalarning jismoniy faolligi darajasini sezilarli darajada oshirishi va ularning hayot sifatini yaxshilashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Salomov R.S. - “Sport mashg‘ulotining nazariy asoslari” O‘quv qo‘llanma, Toshkent 2005-yil [221-224:2005]
2. H.T.Rafiyev - “Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi” O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2012-yil [48:2012]
3. R.Qudratov - “Yengil atletika” Darslik. Toshketn 2012-yil [89-93:2012]

O‘QUVCHILARGA TAYANIB SAKRASHNI O‘RGATISH BOSQICHLARI

Abduraximov Sardor Dilmurot o‘g‘li.

Chirchiq Davlat pedogogika universiteti.

Annotatsiyasi Ushbu maqola ishi “O‘quvchilarga tayanib sakrashni harakat tuzulishi asosida o‘rgatish” mavzusida bo‘lib, mavzu chuqur o‘rganilgan, O‘quvchilarga tayanib sakrashni harakat tuzulishi asosida o‘rgatish jarayoni tahlil qilingan.

Maqola ishida mashqlarni o‘rgatish ketma-ketligi va mashqlar texnikasini o‘zlashtirish uchun maxsus mashqlar majmuasi bilan boyitadi. Ishlab chiqilgan tavsiya, amalda joriy etishda murabbiylariga tavsiya berildi va o‘quv jarayoniga tadbiq etildi.

***Kalit so‘zlar*:** maxsus-texnik tayyorgarlik, bazaviy harakatlar, buyumlar, so‘rovnomalar tahlili, pedagogik testlashtirish, halqa, arqon.

Annotation: the work of this article is on the topic of "Teaching students to jump on the basis of movement structure", the topic is deeply studied, the process of teaching students to jump on the basis of movement structure is analyzed.

The article enriches the exercises with a sequence of training and a set of special exercises for mastering the exercise technique. The developed recommendation was recommended to the trainers for practical implementation and applied to the training process.

***Key words*:** special technical training, basic actions, items, survey analysis, pedagogical testing, hoop, rope.

Kirish: O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish aholi o‘rtasida ommaviy sportni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Davlatimiz tomonidan “ta’lim muassasalari o‘quvchi va talabalari, aholining keng qatlamlari o‘rtasida sog‘lomlashtirish, jismoniy tarbiya, ommaviy sport ishlarini tashkil etish, kompleks sport musobaqalarini o‘tkazish, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish va ularni maqsadli tayyorlash” talabi qo‘yilmoqda. Yuksak sport natijalarini rejalashtirish sportning belgilangan muammoli vazifalari doirasidan kelib chiqqan holda oxirgi yillarda murakkab koordinatsiyali xarakatlarni bajarishga bo‘lgan sport turlarida mashg‘ulotlarni boshlash yoshini keskin pasayishi tufayli, nazariyachilar va amaliyotchilar oldida

turgan ilmiy izlanishlar jarayonini sifati va samaradorligini oshirish to‘g‘risidagi muammo juda ham dolzarb bo‘lib kelmoqda. Oxirgi yillarda sport gimnastikasidan xalqaro musobaqalarda kerakli natijalarni qo‘lga kiritishda raqobatning keskinlashuvi bu soxada amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlarimizni yangi tizim asosida shakllantirish talabini qo‘ymoqda. Sport amaliyotida yuqori natijalarga erishish sohasida progressiv va informatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish zarurati yuzaga kelmoqda. Bugungi kunda, ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smirlar sport maktablari uchun yosh gimnastikachilarning texnik, maxsus harakat tayyorgarligini barcha muxim komponentlarini aks etadigan dasturlarning mazmunini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar yetarlicha o‘rganilmagan.

2017 yil 3 iyundagi PQ-3031-son “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror, 2017 yil 9 martdagi PQ-2821-son “O‘zbekiston sportchilarini 2020 yilda Tokio shahrida (Yaponiya) bo‘lib o‘tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o‘yinlariga tayyorlash to‘g‘risida”gi Qaror, 2016 yil 7 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida gimnastika sport turlarini rivojlantirish to‘g‘risida”gi PF-2654-sonli Qarori, 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon hamda bu sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqola ishi muayyan darajada xizmat qiladi

Tadqiqotni maqsadi: tayanib sakrashni o‘rgatishda vositalarini samarali taqsimlash asosida gimnastikachilarni tayanib sakrash texnik tayyorgarligini rivojlantirish.

Tadqiqot vazifalari.

1. Tayanib sakrash fazalarini o‘rganib chiqish.
2. Tayanib sakrashdagi fazalar bog‘liqligini aniqlash.
3. Tayanib sakrashni o‘rganishda qo‘llaniladigan vosita va uslublarni tadqiqotlarda asoslash.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari: jismoniy tarbiya darslaridagi tayanib sakarash mashqlari o‘rni va darsning asosiy qismida o‘rgatiladigan tayanib sakrash va sakrash mashqlarini samaradorligini oshirish. Yaxshi o‘rgatilgan tayanib sakrash mashqlarini harakat tuzulishi asosida harakat ketma-ketligi bilan birgalikda qo‘shib darslarni qiziqarli o‘tkazishgni amaliyotga tadbiq etish.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi: Tayanib sakrashga o‘rgatish boshlanishida, tayanib sakrashlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirib olish uchun zarur bo‘lgan jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi va alohida ko‘nikmalarni shakllantiruvchi dastlabki tayyorgarlikni mustahkamlash lozim.

Tayanib sakrashlarni o‘zlashtirish uchun, avvalo mustahkam qo‘nishga o‘rgatish, keyin yugurish texnikasi, ko‘prikka sakrash, ko‘prikdan oyoqlarda depsinish, so‘ng qo‘llarda itarilishgacha uchish, oxirida qo‘llarda itarilishni o‘rgatish tavsiya qilinadi. Mana shu harakatlarni o‘zlashtirib olingandan keyingina, alohida tayanib sakrashlarni o‘rgatish mumkin.

Sakrash mashqlari jismoniy tarbiyaning shug‘ullanuvchilarga har tomonlama ta’sir ko‘rsatuvchi muhim vositasidir. Ular yordamida tezkorlik – kuch sifati tarbiyalanadi, to‘siqlardan oshib o‘tish amaliy tayyorgarligi shakllanadi, jasoratli, matonatli bo‘lish va chaqqonlikni tarbiyalash vazifasi hal qilinadi. Yugurib kelib sakrashlar qon aylanish va nafas orgonlarining funksional holatini oshiradi.

Sakrash apparatlari harakat apparatining juda uyg‘unlashgan bo‘lishini talab etuvchi muskullarning tez va qisqa vaqt ichida qisqarishi hisobiga ijro etiladi. Harakatlarning turli tuman va katta sur’atda bajarilishi sakrash mashqlari mashg‘ulotlariga katta qiziqish uyg‘otadi.

Gimnastikada qo‘llaniladigan mashqlar ikki guruhga bo‘linadi: tayanmay va tayanib sakrashlar.

Birinchi gruppaga turgan joyda ikki va bir oyoqda sakrashlar, balandlikka, uzunlikka, balandlikdan (kutarma maydonchadan yoki gimnastika snaryadlaridan) sakrashlar, uzoqlikka-balandlikka sakrashlar, «darchadan» sakrashlar, tramplindan sakrashlar, arg‘amchi va boshqalardan sakrashlar kiradi.

Ikkinchi gruppaga snaryadlarga (kozyol, kon, plintga) qo‘llar bilan tayanib sakrashlar kiradi. Ularga uzunasiga yoki eniga qo‘yilgan snaryadning narigi, o‘rta va yaqin qismiga depsinib snaryad ustidan oshib bajariladigan sakrashlar kiradi. Bajarish usuli buyicha to‘g‘ri sakrashlar, yonlamasiga sakrashlar va to`ntarilib sakrashlarga bo‘linadi.

Tayanib sakrashni asosan to‘g‘ridan-to‘g‘riga sakrashlar, to‘ntarilib sakrashlar, suxakara sakralshlarga tariflanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri sakrashlar eng qadimgi sakrashlarni turlaridan biri. Sport gimnastika amaliyotida 50-70 yillardan boshlab ishlatilgan va uni uchuvchan turi deb nomlangan.

Bu sakrashlar otni oldinga qismidan itarilib uchib bajariladi. Bu sakrash turini bajarganda ko‘prik otdan 150-180 sm uzoqligida o‘rnatiladi.

Yugurib kelib depsinib sakrashda va qo‘llar bilan itarilish xarakati sportchini traektoriyasini faqat yuqoriga yo‘naltirib xarakatlanadi. Otni ustidan sport qancha baland ko‘tarilsa shunchalik bahosi yuqori baholanadi.

To‘ntarilib tayanib sakrash eng kenga tarqalgan sakrashlarning shakllari va hozirgi kungacha to‘natirilshdan keyin 2 karra salto, to‘ntarilib 350-360ga burilishlar, bukilib yozilishlar va xokazo sakrashlar bajariladi. Masalan suxakara sakrash, to‘ntarilib havoda burilib orqaga salto burilish. Sukaxara sakrashda qo‘llar birdaniga qo‘yilmasdan ketma-ket qo‘yiladi.



Rasm-1

Xulosa: Tayanib sakrashlarni o‘zlashtirish uchun, avvalo o‘quvchilarga mustahkam qo‘nishga o‘rgatish, keyin yugurish texnikasi, ko‘prikka sakrash, ko‘prikdan oyoqlarda depsinish, so‘ng qo‘llarda itarilishgacha uchish, oxirida qo‘llarda itarilishni o‘rgatish tavsiya qilinadi. Mana shu harakatlarni o‘zlashtirib olingandan keyingina, alohida tayanib sakrashlarni o‘rgatish mumkin.

Sakrash mashqlari jismoniy tarbiyaning shug‘ullanuvchilarga har tomonlama ta’sir ko‘rsatuvchi muhim vositasidir. Ular yordamida o‘quvchilarda tezkorlik – kuch sifati tarbiyalanadi, to‘siqlardan oshib o‘tish amaliy tayyorgarligi shakllanadi, jasoratli, matonatli bo‘lish va chaqqonlikni tarbiyalash vazifasi hal qilinadi. Yugurib kelib sakrashlar qon aylanish va nafas orgonlarining funksional holatini oshiradi.

Sakrash apparatlari harakat apparatining juda uyg‘unlashgan bo‘lishini talab etuvchi muskullarning tez va qisqa vaqt ichida qisqarishi hisobiga ijro etiladi.

Harakatlarning turli tuman va katta sur’atda bajarilishi sakrash mashqlari mashg‘ulotlariga katta qiziqish uyg‘otadi. Har xil sakrash mashqlari bilan maksimal darajadagi tayanib sakrash mashqlar uchun bajariladigan mashqlarda o‘quvchilar o‘zlarini bir martadan, bu o‘quvchining tayanib sakrash mashqlarini harakat tuzulishidagi harakatlarini o‘zgarishlarni aniqlab olishga imkon beradi.

Yangi harakat ketma-ketligi maksimal o‘rganib, keying mashg‘ulotlar uchun shu asosda mashq harakatlarini ketma-ketligi belgilanadi. Tayanib sakrashda yuqori malakaga erishish uchun urinishlarni dars jarayonidagi maxsus ajratilgan vaqtda yoki darsdan tashqari vaqtda tashkil etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni O‘RQ-394-son, Toshkent sh., 2015 yil 4 sentyabr (yangi tahriri).

2. “Bolalar-o‘smirlar sport maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 356-son qarori 2015 yil 11 dekabr.

3. Gimnastika. Uchebnik dlya bakalavriata. /Barshay V.M., Kurыs V.N., Pavlov I.B. Uchebnik dlya Bakalavriat. KnoRus./ M.: 2020.-312 s.

4. Eshtayev A.K., Umarov M.N. va boshk. «Gimnastika nazariyasi va uslubiyoti» Darslik., T.: 2017.- 500 b.

5. Eshtaev A. K. Gimnastika nazariyasi va uslubiyati [Matn]: o‘quv qo‘llanma- Toshkent. «O‘zkitobsavdonashriyoti», 2020. - 312 b.

6. *Toshpo‘latov A. Sport pedagogik mahoratini oshirish (Erkin mashqlarni o‘rgatish uslubiyati) [Matn]: o‘quv qo‘llanma/A. Toshpo‘latov. - Toshlent: «O‘zkitobsavdonashriyoti», 2020. - 148 b.*

1500 METRGA YUGURUVCHILARNING TEXNIK TAYYORGARLIGI

Djumanov Barlikbay Arzubaevich *assistent*
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
barlikbay_djumanov@inbox.ru

Anotatsiya: Ushbu maqolada yengil atletikaning o‘rta masofasi 1500 metrga yugurish texnik tayyorgarligiga bag‘ishlangan. Ushbu sport turining ahamiyati ko‘rib chiqiladi, yengil atletikaning turli vositalarining umuman tananing funktsional tizimlariga ta’siri haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Texnik tayyorgarlik, 1500 metrga yugurish, jismoniy tarbiya, yengil atletika, o‘rta masofalarga yugurish, qadam uzuanligi, qadam tashlash texnikasi, sport.

Аннотация: Данная статья посвящена технической подготовке в беге на среднюю дистанцию 1500 метров в легкой атлетике. Рассматривается значение этого вида спорта, приводятся сведения о влиянии различных средств легкой атлетики на функциональные системы организма в целом.

Ключевые слова: Техническая подготовка, бег на 1500 метров, физическое воспитание, легкая атлетика, бег на средние дистанции, длина шага, техника бега, спорт.

Abstract: This article is devoted to the technical training in the 1500 m sprint in athletics. The significance of this sport is considered, and information is provided about the influence of various athletic means on the functional systems of the body as a whole.

Key words: Technical training, 1500 m run, physical education, athletics, middle-distance running, step length, running technique, sports.

Jahon miqyosida so‘nggi yillarda o‘tkazilib kelinayotgan nufuzli sport musobaqalarida, jumladan, Olimpiada va Osiyo o‘yinlari, Jahon va Osiyo chempionatlari, hamda qator an’anaviy xalqaro turnirlarda sport natijalarining uzluksiz o‘sib borishi, raqobatni yanada keskinlashishiga olib kelmoqda. Zamonaviy yengil atletika amaliyotida yuksak sport natijalariga erishish maqsadida texnik tayyorgarligining ahamiyatliligi oshib bormoqda, bu esa soha mutahasislari va trenerlari oldiga mashg‘ulotlar samaradorligini taminlovchi ilmiy tarafdan isbotlangan usullarni urganishni talab etadi.

1500 metrga yugurish, o‘rta masofaga yugurish turiga kiradi va sportchidan yuqori tezlik bilan birga chidamlilikni talab qiladi. Bunday masofada muvaffaqiyatli bo‘lish uchun sportchining texnik tayyorgarligi, shubhasiz, muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida 1500 metrga yugurishga tayyorgarlikning texnik jihatlarini qamrab oladigan maqolaning mazmun-mohiyati keltirilgan[1].1500 метрга югуриш: техник тайёргарликнинг асосий жиҳатлари:

1. Qadam tashlash texnikasi: 1500 metrga yugurishda to‘g‘ri qadam tashlash texnikasi juda muhim. Bu yo‘nalishdagi yugurishda sportchining uzun va tez qadam olishi, oqilona ravishda kuchi va energiyasini taqsimlashi lozim. Quyidagi elementlar qadam tashlash texnikasini belgilaydi:

Qadam uzunligi: Qadamlarning optimal uzunligi sportchining yugurishdagi tizimiga bog‘liq. O‘rta masofalarga yugurishda qadamlarning meyoridan ortiq uzun bo‘lishi tezlikning pasayip ketishiga sabab buladi. [3] O‘rta masofada juda uzun qadamlar energiyani tejamaydi, bu esa 1500 metrda kuchdan to‘g‘ri foydalanishga, sportchi kuchini masofa bo‘ylab taqsimlashga xalaqit beradi.

Oyoqni qo‘yish: Oyoqni yerga yukini o‘ta boshqaruv bilan qo‘yish zarur. [1]Yugurish paytida oyoqning old qismi yerga birinchi tegishi kerak va bu holatda oyoqdagi yukni aniq taqsimlash mumkin bo‘ladi.

Yugurishda kuch tarqatish: Yugurish vaqtida orqa oyoqdan ko‘tarilishni kuch bilan bajarish yugurish samaradorligini oshiradi[1].

2. Tananing harakatlanishi:Yugurish paytida sportchining tanasi doimo to‘g‘ri holatda saqlanishi kerak: Orqa va boshning to‘g‘ri holati: Yugurish paytida orqa to‘g‘ri va bosh ko‘tarilgan bo‘lishi lozim. Tananing oldinga kerakli miqdorda egilishi yugurish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Qo‘l harakatlari: Qo‘llar yugurish paytida bir-biriga parallel bo‘lib harakat qilishi kerak. Qo‘llar yuqoriga va pastga qarab harakatlanishi sportchining yugurish tezligi va kuch taqsimotiga ta’sir qiladi.

3. Nafas olish texnikasi:1500 metrga yugurishda sportchining nafas olish texnikasi ham juda muhim[2]. Ushbu masofada sportchilar doimo ritmda nafas olib, uni tezlik va kuch talablariga moslashtirishi lozim:

Tizimli nafas olish: Sportchilar nafas olish va chiqarishni tizimli ravishda bajarishga e’tibor berishlari zarur. Bu yugurishda foydalaniladigan energiyani tejash va ko‘proq harakatlanishga imkon yaratadi.

Yugurish davomida nafas olish tartibi: Odatda nafas olish yoki chiqarish 2-3 qadamga bir martaga muvofiqlashtiriladi. Bu yuqori tezlikda ham havo ta’minotini samarali ta’minlaydi.

4. Psixologik tayyorgarlik:1500 metrga yugurishda texnik tayyorgarlik bilan bir qatorda psixologik tayyorgarlik ham ahamiyatga ega:

Tezlik taqsimoti: Yugurish paytida yukni to‘g‘ri taqsimlash uchun psixologik tayyorgarlik juda muhim. Sportchi o‘ziga nisbatan ishonchga ega bo‘lishi va maqsadga muvofiq ravishda yugurish jarayonini boshqarishi lozim.

Zo‘riqishga tayyorgarlik: Oxirgi 300-400 metrda sportchi maksimal kuch sarflashi kerak. Shuning uchun, musobaqa davomida kuch tarqatishni va rivojlantirishni yaxshi boshqarishi lozim.

5. Jismoniy tayyorgarlik:Yugurish texnikasini rivojlantirish uchun sportchining umumiy jismoniy tayyorgarligi ham muhimdir. Bu orqali sportchi nafas olish tizimi, yurak-qon tomir tizimi va mushaklar kuchini oshirishga yordam beradi:

Yugurish mashg‘ulotlari: Sportchi tezlik va sabr-toqatni oshirishga qaratilgan mashqlarini bajarishi zarur. Ular orasida intervalli mashqlar va masofani bosqichma-bosqich oshirish muhim ahamiyatga ega.

Mushaklarni rivojlantirish: Sportchilar, ayniqsa, oyoq va tana mushaklarini mustahkamlashga e’tibor berishlari lozim. Bu ularga yugurish texnikasini yaxshilashda yordam beradi.

Xulosa 1500 metrga yugurishda sportchining texnik tayyorgarligi ko‘pgina omillardan iborat bo‘lib, qadam olish texnikasi, nafas olish tizimi va yugurishni tashkil qilish qobiliyatlari asosiy ahamiyatga ega. Buning barobarida jismoniy tayyorgarlik va psixologik tayyorgarlik ham yugurish jarayonining samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi(darslik). M.J.Abdullaev, M.S.Olimov, N.T.To‘xtaboev. Toshkent 2017-yil.
2. Енгил атлетика (укув қўлланма). И.Ниёзов. Фарғона 2005-йил.
3. Sport pedogogik mahoratni oshirish, yengil atletika(darslik). M.S. Olimov, I.R. Soliyev, B.Sh.Haydarov. Toshkent 2017-yil.

СПОРТ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Тамара Джуманиязова
Доцент в.б
Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети
Нукус филиали
Мияссар Хожабергенова
3-курс бадиий гимнастика
Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети
Нукус филиали

Аннотация. Мазкур мақола спорт таълим муассасаларида таълим сифатини ривожлантириш бўйича амалга оширилиши лозим бўлган масалалар муҳокама қилингани ҳамда янада ривожлантиришга қаартилган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: спорт, таълим, сифат, инновация, мотивация, малака ошириш, таълим дастурлари, илмий-тадқиқотлар.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы, которые должны быть реализованы по развитию качества образования в спортивных образовательных учреждениях, и разрабатываются предложения и рекомендации по дальнейшему развитию.

Ключевые слова: спорт, образование, качество, инновации, мотивация, повышение квалификации, образовательные программы, научные исследования.

Annotation. This article examines the issues that should be implemented to develop the quality of education in sports educational institutions, and develops proposals and recommendations for further development.

Keywords: sport, education, quality, innovation, motivation, professional development, educational programs, scientific research.

Бугунги кунда спорт таълим муассасаларида таълим сифатини ривожлантириш жамиятда спортнинг аҳамияти, ёшлар тарбияси ва келажак авлоднинг жисмоний ва маънавий ривожланишига таъсир кўрсатади. Ҳозирда соғлом турмуш тарзи ва жисмоний фаолликни ошириш муҳим ижтимоий масалалардан бирига айланмоқда. Одамлар ўртасида жисмоний фаоллик камайиши турли касалликларга олиб келиши мумкин. Спорт таълим муассасалари соғлом авлодни тарбиялашда асосий рол ўйнайди, шу боис, улардаги таълим сифатини ошириб бориш зарур ҳисобланади.

Халқаро мусобақаларда муваффақиятга эришиш учун спортчилар юқори малакали таълим ва тайёргарликни талаб қилади. Спорт таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш миллий спортчиларнинг халқаро миқёсда рақобатбардошлигини кучайтиришга ёрдам беради. Спорт ёшларнинг ижтимоийлашувида муҳим роль ўйнайди. Уларни жисмоний, руҳий ва ахлоқий жиҳатдан мустаҳкамлайди. Спорт таълими ёшларни турли зарарли одатлардан, ижтимоий муаммолардан сақлашда муҳим аҳамиятга эга.

Ҳозирги замонавий дунёда таълим соҳаси жадал ривожланмоқда, янги технологиялар, таълим методларининг жорий этилиши таълим сифатини оширишга ёрдам бермоқда. Спорт таълим муассасаларида ҳам бу инновatsiяларни жорий этиш муҳим, чунки янги технологиялар орқали жисмоний тайёргарлик ва билимлар самарадорлигини ошириш мумкин бўлади. Спорт таълим муассасалари фақат жисмоний машғулотлар билан чекланиб қолмай, ёшларнинг маънавий ва ахлоқий ривожланишига ҳам эътибор қаратиши зарур. Бу ёшларнинг келажакда жамиятда муваффақиятли ва масъулиятли шахс бўлиб етишишларини таъминлаш учун зарурдир.

Шу сабабли, спорт таълим муассасаларида таълим сифатини ривожлантириш долзарб масала бўлиб, у нафақат жамиятнинг соғлом авлодини тарбиялаш, балки миллатнинг халқаро миқёсдаги спортдаги муваффақиятини ошириш учун ҳам муҳимдир.

Спорт таълим муассасалари жамиятда жисмоний тарбия ва спорт соҳасида юқори малакали мутахассислар тайёрлашда муҳим ўрин тутади. Бу муассасаларда таълим сифатини ривожлантириш нафақат самарали таълим бериш тизимини ташкил этишни, балки ёш авлодни ҳам жисмонан, ҳам маънан баркамол шахс сифатида тарбиялашни ўз олдига мақсад қилиб қўйган.

1. Малакали педагоглар ва мураббийлар тайёрлаш. Таълим сифати педагоглар ва мураббийларнинг билим ва тажрибасига боғлиқ. Бунинг учун қуйидагиларга эътибор қаратиш муҳим:

- Педагоглар малакасини ошириш: Мураббий ва ўқитувчиларни мунтазам равишда малака ошириш курсларига юбориш, замонавий педагогик усуллардан фойдаланишни йўлга қўйиш;

- Таълим дастурларини янгилаш: Таълим дастурлари жаҳон стандартлари ва халқаро тажрибаларга асосланиб ишлаб чиқилиши лозим. Замонавий трендлар ва илмий янгиликларни таълим жараёнига жорий этиш мақсадга мувофиқдир;

- Халқаро ҳамкорлик: Мураббий ва педагогларни чет элдаги илғор таълим муассасаларида малака оширишга юбориш, халқаро тренерлар ва экспертларни жалб этиш орқали спорт таълимида янги усуллар ва ёндашувларни жорий қилиш.

2. Спорт иншоотлари ва технологик имкониятлардан фойдаланиш: Таълим сифати жисмоний машғулотларни ўтказиш учун етарли спорт иншоотлари ва замонавий технологиялардан фойдаланиш билан ҳам боғлиқ.

Бу йўналишда қуйидагилар амалга оширилиши керак:

- Спорт иншоотлари ва жиҳозлар: Спорт таълим муассасаларида замонавий стандартларга жавоб берадиган спорт заллари, стадионлар ва анжомлар билан таъминлаш. Шундай шарт-шароитлар яратилса, ёш спортчиларнинг машғулот жараёни янада самарали бўлади;

- Ахборот технологиялари: Жисмоний тарбияда инновatsion усулларни қўллаш, видео таҳлиллар, симуляция машқлари, виртуал тренажёрлар орқали машғулотларни самарадорлигини ошириш мумкин;

- Тиббий ёрдам: Спорт таълим муассасаларида тиббий хизматни юқори даражада ташкил этиш муҳим. Спортчиларнинг соғлиғини кузатиш ва уларни профессионал даражада назорат қилиш учун мутахассислар жалб қилиниши зарур.

3. Мотиватsiя ва рағбатлантириш тизими: Ёш спортчилар ва ўқитувчиларнинг спортга қизиқишини ошириш учун рағбатлантириш тизимини такомиллаштириш лозим.

Бу қуйидагиларни ўз ичига олиши мумкин:

- Мусобақалар ва тадбирлар: Регионал ва халқаро спорт мусобақаларида иштирок этишни рағбатлантириш, ғолиб ва иштирокчиларни моддий ва маънавий рағбатлантириш тизимини йўлга қўйиш;

- Степендиялар ва мукофотлар**: Муваффақиятли спортчилар учун махсус стипендиялар ажратиш, уларнинг ютуқларини кенг ёритиш ва жамиятда эътироф этилишини таъминлаш.

4. Инноватsion ва илмий тадқиқотлар: Спорт таълим муассасаларининг ривожланишида илмий тадқиқотлар муҳим аҳамиятга эга.

Бу йўналишда қуйидаги тадбирларни амалга ошириш зарур:

- Илмий тадқиқотлар ва инноватsiялар: Спорт психологияси, спорт биомеханикаси, озиқланиш ва тикланиш соҳаларида илмий тадқиқотлар ўтказиш ва уларни амалиётга жорий этиш;

- Тадқиқот марказлари: Спорт таълим муассасалари қошида илмий тадқиқот марказларини ташкил қилиш, ёш олимлар ва мутахассисларнинг илмий фаолиятини қўллаб-қувватлаш.

Хулоса. Спорт таълим муассасаларида таълим сифатини ривожлантиришда комплекс ёндашув зарур. Малакали мураббийлар тайёрлаш, замонавий технологиялардан фойдаланиш, илмий тадқиқотлар ўтказиш ва ёш спортчиларни рағбатлантириш тизимларини ривожлантириш орқали ушбу муассасаларда таълим сифатини юқори даражага олиб чиқиш мумкин. Спорт соғлом ҳаёт тарзи ва жисмоний тарбияни ривожлантиришда муҳим ўрин тутиши сабабли, бундай ёндашувлар жамият ривожига ҳам катта ҳисса қўшади.

Спорт таълим дастурларини замонавий талабларга мувофиқ янгилаш ва уларни тўлиқ назарий, амалий ва психологик жиҳатларини қамраб оладиган қилиб тайёрлаш муҳим. Илмий асосланган дастурлар спортчиларнинг жисмоний ва интеллектуал ривожланишини таъминлаш учун шарт. Бу эса қуйидаги вазифаларни амалга ошириб бориш заруриятини кўрсатади:

- Ҳар бир спортчининг жисмоний қобилиятлари ва эҳтиёжларини инобатга олган ҳолда индивидуал таълим режаларини ишлаб чиқиш керак.

- Ҳозирги замонда таълим жараёнига инноватsion воситаларни қўшиш, масалан, симуляция технологиялари ва видео таҳлил воситаларини жорий этиш ҳам натижадорликни оширади.

- Спорт машғулотлари юқори самарали бўлиши учун уларнинг илмий асосланганлиги зарур. Бу, ўз навбатида, жисмоний машқлар ва юкламаларнинг миқдорини тўғри белгилашни талаб қилади.

- Жисмоний тайёргарлик жараёнида спортчиларга берилган юкламаларни аста-секин ошириб бориш илмий асосланган самарали метод ҳисобланади.

- Спортчи соғлиғини мунтазам текширувдан ўтказиб туриш, юкламаларни назорат қилиш, жароҳатлар хавфини камайтириш учун диагностика ва мониторинг механизмларини қўллаш керак.

- Спорт таълим сифати мураббийлар ва ўқитувчиларнинг малакасига боғлиқ. Уларнинг профессионал даражасини ошириш учун доимий равишда илмий-техникавий семинарлар, малака ошириш курслари ташкил қилиш зарур.

- Мураббий ва ўқитувчилар илмий методлардан фойдаланишни билишлари ва спорт психологияси, физиологияси каби соҳаларда билимларга эга бўлишлари керак бўлади ҳамда уларни халқаро тажрибалар билан таништириш, илғор спорт мамлакатларидан ўрганиш ҳам таълим сифатига ижобий таъсир кўрсатади.

- Спортчиларнинг психологик тайёргарлиги ҳам спорт таълимининг ажралмас қисми ҳисобланади. Спортчида мотиватsiяни ошириш, руҳий барқарорлик ва ўз-ўзига ишончни мустаҳкамлаш учун психологик ёрдам кўрсатиш, психологлар томонидан спортчилар учун махсус мотиватsion тренинглар ўтказиш ишларини ташкил қилиб бориш ҳамда спортчилар ўртасида соғлом рақобат муҳитини шакллантириш уларни юқори натижаларга эришишга ундайди.

- Спорт таълим жараёнида спортчиларнинг нафақат жисмоний, балки ахлоқий ривожланиши ҳам муҳим. Уларга юқори ахлоқий қадриятларни сингдириш, спортда ҳалоллик ва интизомга риоя қилишни ўргатиш керак.

Спортда таълим сифати жисмоний тайёргарлик, назарий билимлар, психологик барқарорлик, тарбиявий жиҳатлар ва ахлоқий қадриятларни қамраб олади. Бунинг учун

замонавий таълим технологияларидан фойдаланиш, илмий асосланган дастурларни ишлаб чиқиш ва юқори малакали мутахассисларни тайёрлаш зарур. Спорт таълимининг самарадорлигини ошириш учун комплекс ёндашув ва доимий равишда тадқиқотлар олиб бориш муҳим аҳамиятга эга.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. T.Djumaniyazova. Yosh badiiy gimnastikachilarni xoreografik mashqlari orqali jismoniy sifatlarini rivojlantirish - Ilim hám jámiyet Ilimiy-metodikalıq jurnal, 2023 yil – 2-san 72-76-betler.
2. T.Djumaniyazova - Analysis of the features of physical fitness in rhythmic gymnastics **-** O‘zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari, 2023 – 4-bet.
3. T.Djumaniyazova. Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy Axborotnomasi Ilmiy-amaliy jurnal №5(9)2024.239-241b.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) qonuni”.-B.29.
5. T.Djumaniyazova. Basic theories and concepts in physical education subject - Galaxy internotional interdisciolinary research journal(GIIRJ)ISSN(E):2347-6915Vol.11Issue11,November(2023)222-2251
6. T.Djumaniyazova. The significance of morning gymnastics and its tasks - Innovation in technology and science educationISSN2181-371Xsjif2023:5.305
7. T.Djumaniyazova. Oliy ta`lim tizimida raqamli ta`lim texnologiyalari – jismoniy tarbiya va sport axborotnomasi – Nukus -2023.№1
8. T.Djumaniyazova. O‘quvchilarga gimnastika mashqlarini o‘rgatishning o‘ziga xos pedagogik xususiyatlari - Buxoro psixologiya vaxorijiy tillar institutiilmiy Axborotnomasi ilmiy-amaliy jurnal №5(9)2024.239-241b.

JISMONIY TARBIYA VA SPORT DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING JIHATLARI

B.Allambergenova

O‘zDJTSU Nukus filiali assistenti

Tayanch so‘zlar: sport, pedagogik texnologiyalar, uslublar, mezonlar, amaliy darslar.

Ключевые слова: спорт, педагогические технологии, методы, критерии, практические занятия.

Key words: sports, pedagogical technologies, methods, criteria, practical lessons.

Kirish. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g‘oyasi Respublika Konstitutsiyasida e’tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko‘tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o‘rin egallashga yo‘naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Vatanimizning rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta’minlash yosh avlodni har tomonlama komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog‘liqdir. O‘qituvchilar o‘qitish uslublarini mujassamlashtirgan holda, mashg‘ulotlar o‘tkazishga tayyorlanishi, turli o‘quv qurollaridan samarali foydalanishi hamda o‘quv rejasi va dasturlarini metodologiyasini ochib berishi lozim. Biroq, shuni unutmaslik lozimki, o‘qitish va o‘rgatish jarayonlarini boshqarish, mavjud o‘quv vositalaridan samarali foydalanish va o‘quv mashg‘ulotarida o‘quvchilarga imkon qadar manfaatli bo‘lishini ta’minlash va shu kabi boshqa ko‘pgina vazifalar o‘qituvchining zimmasiga to‘liq yuklatiladi.

Fanlarni o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish;o‘qituvchi o‘qitish va o‘rgatish, shuningdek, mavjud imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalanish uchun mas’ul shaxs hisoblanadi. Bu vazifani bajarish uchun o‘qituvchi o‘qitish jarayoni hamda o‘qitiladigan fanlarning ilmiy va texnik jihatlarini to‘liq bilishi lozim. Bundan maqsad shuki, o‘qitish uslubi shunday yo‘lga qo‘yilsinki, bunda o‘quvchilar o‘qitilayotgan fanni to‘liq o‘zlashtira olishsin.

O‘qitish usullarining o‘quvchilar talabiga mos kelishini aniqlashda o‘qituvchi o‘z dasturining quyidagi oltita asosiy tarkibiy qismini hisobga olishi zarur:

1. Rejalashtirish
2. Imkoniyat va sharoitlar
3. Uslublar
4. Faoliyatlar
5. Teskari aloqa

6. Nazorat

O‘qitish uslubini aniqlash yo‘llaridan biri bu yuqorida keltirilgan oltita omilning har biriga tegishli bo‘lgan savollar ro‘yxatini tuzishdir. Ta’kidlash joizki, har bir tarkibiy qism talablarining to‘liq bajarilishini ta’minlash hamda unga amal qilish tanlangan o‘qitish uslubining samaradorligini oshiradi. Rejalashtirish; O‘qitish uslubi quyidagilarni o‘z ichiga oladi, ya’ni:

– malakalar va ko‘zlangan asosiy maqsadlar tahlili;

– guruh tarkibi;

– zarur bo‘lgan malakalar;

– o‘rganilishi lozim bo‘lgan fanlar;

– o‘rganishga ruhlantiruvchi omillar;

– o‘rganish turlari va imkoniyatlari;

– o‘quv materiali va uning zamonga mosligi; muammolarni aniqlash va echimlarni topishda tajribalarni umumlashtirish zarurati;

– o‘quv materialini taqdim etish usullariga bo‘lgan ehtiyoj; O‘qish uchun quyidagi sharoitlar mavjud bo‘lishi zarur:

– o‘quv xonalari;

– o‘quv qurollari;

– audio-video materiallari;

– turli model va jihozlar;

– amaliy mashg‘ulotlar uchun namunaviy qurollar;

– mavzuga oid topshiriq va vazifalar;

– guruh bo‘lib yoki yakka tartibda o‘qitish uslublari;

– baholash materiallari.

Uslublar; O‘qituvchi quyidagi o‘qitish uslublaridan xabardor bo‘lishi kerak: – ishni bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar berib, o‘qitish;

– maxsus kompyuter dasturlari yordamida o‘qitish;

– ma’ruza qilib, o‘qitish; – namoyish qilish va tajriba o‘tkazish;

– loyiha asosida ishlash;

– algoritm va turli tahlil uslublaridan foydalanish;

– holatni o‘rganish;

– rol o‘ynash, muhokama qilish va rag‘batlantirish mashg‘ulotlari;

– kompyuter yordamida o‘qitish.

O‘qitishning quyidagi qaysi bir uslubini qo‘llash orqali eng yaxshi natijaga erishish mumkin?

– ma’ruza;

– mustaqil ish o‘tkazish;

– tinglovchilar talabiga asoslangan o‘qitish;

– yakka tartibda o‘qitish;

– mehnat tajribasini orttirish imkoniyatini yaratish.

– o‘qituvchining faqat bilimlarni tarqatuvchi bo‘lib qolmay, balki bu bilimlarni tinglovchi o‘zlashtira oladigan qilib etkazib beruvchi bo‘la olishi;

– baholash tizimini tashkil etish;

– o‘qituvchilar bilan tinglovchilar orasidagi teskari aloqani tez o‘rnatish. Yuqorida aniqlangan mezonlar asosida mos keladigan o‘qitish va o‘rgatish dasturini ishlab chiqish uchun o‘qituvchi quyidagilarga qodir bo‘lishi lozim:

– haqiqatda mavjud o‘rgatish malakalariga ega bo‘lish;

– o‘quvchilarning bilim darajasini baholash uchun o‘rnatilgan me’yorlarni aniqlash mezonini tushuntirib berish;

– o‘quvchilarga o‘qitish uslublarining mosligini aniqlash.

Jismoniy tarbiya va sport darslarida o‘qitish uslublarini mujassamlashtirgan holda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash samaradorligini oshirish metodi va vositalari. Hozirgi kunda barcha pedagoglar singari jismoniy tarbiya o‘qituvchilariga ham darslarni zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etish, darsga innovatsion yondashuvni, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishni dars davomida shakllantirish kabi ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Interfaol metod – ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi

faollikni oshirish orqali o‘quvchilarni jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida, bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta’lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o‘quvchilarning muloqot olib borish bo‘yicha ko‘nikma va malakalari rivojlanadi, o‘quvchilar orasida emotsional aloqalar o‘rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o‘z o‘rtoqlarining fikrini tinglashga o‘rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Piraxunova F.N., Nazirov A.X. O‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo‘llanma. –T.:“IQTISOD-MOLIYA”. 2008, 3-48 bet.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan majlisi materiallaridan “O‘zbekiston ovozi” gazetasi, 2007 y 12 fevral.

3. Бордовская Н.В. Диалектика педагогического Исследования.–М.;2001.

4. Селевко Г. Современные образовательные технологии: Учеб. пособ. –М. 1998 год.

ОСНОВЫ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИСПОРТСМЕНОВ-ЛЕГКОАТЛЕТОВ И РАЗВИТИЕ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ

Жийемуратов Б.С.

Нукусский филиал института переподготовки и повышения квалификации специалистов по физической культуре и спорту

Аннотация: В нашей статье рассказывается о том, главнейших частей подготовки легкоатлетов является физическая подготовка, направленная на развитие и воспитание основных двигательных качеств спортсмена. Высших результатов в легкой атлетике добиваются, как правило, те спортсмены, которые всесторонне физически развиты. Посредством систематического выполнения физической подготовки легкоатлеты совершествуются физические качества.

Ключевые слова: легкая атлетика, общая и специальная физическая подготовка, физические упражнения, физические качества.

Физическая подготовка – педагогический процесс который направлен на повышение функциональных возможностей организма спортсмена и развитие основных физических качеств: силы, быстроты, выносливости, гибкости и ловкости. Физическая подготовка подразделяется на общую и специальную.

Целью общей физической подготовки (далее − ОФП) является достижение высокой работоспособности организма, и направлена она на общее развитие и укрепление организма спортсмена: повышение функциональных возможностей внутренних органов, развитие мускулатуры, с учетом особенностей и требований легкоатлетической специализации. К ним относятся упражнения на снарядах (гимнастическая стенка, скамейка и др.), со снарядами (набивные мячи, мешки с песком, блины от штанги, гантели и т.п.), на тренажерах, подвижные и спортивные игры, кроссы, ходьба на лыжах, катание на коньках, плавание и т.п.

Специальная физическая подготовка (далее − СФП) легкоатлета должна быть направлена на развитие отдельных мышечных групп спортсмена, приобретение им тех двигательных навыков, которые непосредственно обеспечивают успешное овладение техникой и рост результатов в избранном виде спорта. Она должна состоять из упражнений, возможно схожих по амплитуде движений, характеру и величине мышечных усилий, нагрузке на сердечно-сосудистую и дыхательную системы, по психическим напряжениям и т. п. К ним относятся специально-подготовительные упражнения, включающие в себя элемент, часть или избранный вид легкой атлетики в целом.

С возрастом и ростом мастерства спортсмена количество упражнений ОФП уменьшается, подбираются такие, которые больше способствуют специализации, т.е. упражнения СФП. Объем упражнений ОФП и СФП в системе тренировки спортсмена в значительной мере определяется

уровнями компонентов его подготовленности. Если у спортсмена недостаточно развита сила определенных групп мышц, мала подвижность в суставах или недостаточна работоспособность сердечно-сосудистой и дыхательной систем, то используются соответствующие средства и методы физической подготовки.

Время, отводимое на ОФП и СФП, зависит от вида легкой атлетики. Например, у бегунов-стайеров на долю ОФП приходится мало времени, так как большую часть общего объема тренировок занимает бег (до 85 %), а вот у прыгунов в высоту на узкоспециализированные тренировки отводится меньше времени. Современные прыгуны выполняют в год до 2000 прыжков в высоту с полного разбега, затрачивая на их выполнение около 6 ч. Зато у них огромный объем упражнений прыжковых, беговых, со штангой, на гибкость, на укрепление отдельных групп мышц и т. п.

Вместе с ростом спортивного мастерства средства ОФП все больше направляются на поддержание, а в ряде случаев и на укрепление компонентов физической подготовленности. Среди них есть компоненты общие для всех легкоатлетов. Прежде всего, это работоспособность сердечно-сосудистой и дыхательной систем, процессы обмена и выделения. Для повышения функциональных возможностей этих систем следует широко применять продолжительный бег, кроссы, ходьбу на лыжах, плавание и т.п., что позволит улучшить восстановительные способности организма и увеличить объем специальной тренировки.

Общая физическая подготовка направлена на общее развитие и укрепление организма легкоатлета, специальная – на развитие всех органов и систем применительно к требованиям избранного вида легкой атлетики. Для общей физической подготовки используют в большей мере упражнения, оказывающие общее воздействие, а для специальной – строго направленные. В процессе повышения спортивного мастерства легкоатлетов доля общей физической подготовки уменьшается, а специальной – увеличивается.

Одной из главных задач как общей, так и специальной физической подготовки является развитие физических качеств: силы, быстроты, выносливости, гибкости и ловкости.

Развитие силы. Сила – это способность человека преодолевать внешнее сопротивление или противодействовать ему за счет мышечных усилий. Различают силу общую и специальную, абсолютную и относительную. Общая сила проявляется в разностороннем развитии мускулатуры спортсмена, в способности к большим усилиям в разнообразных движениях. Специальная сила характеризуется способностью спортсмена проявлять значительные усилия в специфических условиях избранного вида легкой атлетики. Абсолютная сила – это умение проявлять максимальные величины усилий в динамическом или статическом режимах работы. Относительная сила – это показатель, получаемый от деления абсолютной силы на массу спортсмена. Для достижения высоких результатов сила нужна всем легкоатлетам, особенно специальная и относительная. Без нее невозможно приложить большие усилия в кратчайшие промежутки времени.

На начальных этапах занятий эффективность развития силы мало зависит от величины сопротивления, если она выше 35–40 % от максимальной. При повышении спортивного мастерства преимущества больших отягощений сказываются все более четко. По мере развития силы величина сопротивления соответственно возрастает и находится обычно в пределах «большой». Например, если спортсмен, выполняя силовое упражнение, сделал 10–12 повторений, ему необходимо повысить величину сопротивления до такой степени, чтобы он мог выполнить упражнение только 4–7 раз.

Спортсмены высокой квалификации при развитии силы применяют предельные и околопредельные (на 10–15 % меньше максимального) отягощения или сопротивления. Такие отягощения не рекомендуется применять чаще одного раза в 7–14 дней.

При выполнении силовых упражнений с отягощением или сопротивлением в 50 % от максимального и выше интервалы отдыха между повторениями составляют 2–3,5 мин. При работе с предельным сопротивлением они возрастают до 4–6 мин.

Для развития общей силы легкоатлеты используют разнообразные по координации и усилиям упражнения, выполняемые с отягощением (штанга, гири, гантели, мешки с песком до 10–15 кг, жилет 5–8 кг, пояс 5–6 кг, манжеты 1–2 кг и др.), а также упражнения с сопротивлением партнера (борьба, силовые игры и др.), упражнения с преодолением собственного веса (подтягивания, отжимания, приседания, прыжки и др.).

Специальная сила развивается с помощью упражнений, сходных с избранным видом легкой атлетики или его элементами по форме движений и характеру усилий.

- Jaqın bellesiwde anıq shanshıwlardı orınlaw qábiletin; - Individual ózgeshelikler hám qásiyetlerdiń barlıǵı hám tolıq qollanılıwı. Qorǵanıw usılların jetilistiriwde, uzaq aralıq saqlanıwın támiyinleytuǵın qorǵanıw túrlerine itibar qaratıw kerek – iyiliwler, sheginiwler, qaptal tárepke qádem taslawlar, sheginiw waqtında kútip alıwshı shanshıwlar. Qılıshpaz ámeliyatındaǵı jaǵdaylardı tolıq tallaw menen, biz búgingi kúnniń qánigeleri oqıwshıların optimal taktikalıq qural-jaraqlardı tańlawda paydalanatuǵın bir neshe jollardı ajıratıp ótemiz: - Jarıs taktikası menen “tábiyiy tańlaw” principi boyınsha qurallandırıw; - Oqıwshını bir neshe taktikalarda tekserip kórgennen keyin islewdiń taktikalıq formasın tańlaw; Sportshını, onda taktikalıq bilimler, sheberlik hám kónlikpelerdiń anıq jıyındısı bolıwı tiykarında taktikanıń belgili bir tipi menen qurallandırıw.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Abdullayev, M Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi, 1-qism, (darslik)/ Abdullayev, M-T. “TURON-IQBOL“, 2020, - 204b.

2. Berdiyev F. O. ERKIN KURASHCHILARNING MUSOBAQA OLDI TAYYORGARLIK BOSQICHIDA TEZKOR-KUCH SIFATLARINI TAKOMILLASHTIRISH //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 61-67.

3. Ochilovich B. F., Abduvoxitovna X. S. QILICHBOZLARNING TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 1038-1041.

4. Ochilovich B. F. BELDAN OSHIRIB TASHLASH USULINI BAJARISHDA ERKIN KURASHCHILARNING TEZLIK SIFATINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI //TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 6. – С. 161-165.

5. Ochilovich B. F. YOSH ERKIN KURASHCHILARNING TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 539-543.

6. Бердиев Ф. О. СВЯЗЬ ЭМОЦИЙ С ПСИХИЧЕСКИМ СОСТОЯНИЕМ БОРЦОВ ВЫСОКОЙ КВАЛИФИКАЦИИ //ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. – 2020. – №. SI-3.

7. Бердиев Ф. О. и др. ОРГАНИЗАЦИЯ КИКБОКСЕРСКИХ КЛУБОВ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ КАК ЭФФЕКТИВНЫЙ СПОСОБ ПРИВЛЕЧЕНИЯ МОЛОДЕЖИ К ОЛИМПИЙСКОМУ СПОРТУ //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 15. – С. 107-110.

MAKTAB YOSHDAGI BOLALARDA BADIIY GIMNASTIKA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING ILMIY ASOSLARI

Astankulova Dilnur
O‘zDJTSU Nukus filiali stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya Ushbu maqolada o‘sib kelayotgan yosh avlodlarga jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etish usullari keng yoritilgan. Jismoniy tarbiya darslarida badiiy gimnastika elementlarining qo‘llanilishi bolalarning jismoniy rivojlanishiga, harakat ko‘nikmalarini shakllantirishga va ijodiy faoliyatlarini oshirishga yordam beradi

Kalit so‘zlar: harakat, badiiy gimnastika, jismoniy tarbiya, yurish,yugurish, sakrash, mashg‘ulot,sog‘lomlashtirish,harakatli o‘yin, muvazanat saqlash.

Аннотация В данной статье описаны методы организации занятий гимнастикой на уроках физической культуры подрастающего поколения. Использование элементов художественной гимнастики на занятиях по физическому воспитанию способствует физическому развитию детей, формированию двигательных навыков и повышению их творческой активности.

Ключевые слова: движение, художественная гимнастика, физическое воспитание, ходьба, бег, прыжки, физические упражнения, фитнес, активная игра, равновесие.

Annotation This article describes methods for organizing gymnastics classes in physical education classes for the younger generation. Using elements of rhythmic gymnastics in physical education classes promotes the physical development of children, the formation of motor skills and an increase in their creative activity.

Key words: movement, rhythmic gymnastics, physical education, walking, running, jumping, physical exercises, fitness, active play, balance.

KIRISH Maktab yoshdagi bolalarda badiiy gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etishning ilmiy asoslari bo‘yicha o‘quv jarayoni bo‘g‘inlar harakatchanligini rivojlantirishda zamonaviy va samarali yondashuvlarni talab qiladi.Bugungi kunda o‘quv-mashg‘ulot jarayoni tizimida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar, avvalo, uning sifatini oshirishga qaratilgan. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, gimnastika mashg‘ulotlarini samarasini oshirishning mumkin bo‘lgan usullaridan biri o‘quv mashg‘ulotlarini yangi, zamonaviy shakl va uslublar bilan to‘ldirishdir

Bugungi kunda respublikamizda sog‘lom avlodni tarbiyalab yetishtirish va barcha fuqorolarning salomatligini ta’minlashda «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Talaba» unversiadasi kabi tadbirlar amalga oshirilmoqda Qadimdan ma’lumki sayohat (sayr) nafaqat oliy darajada dam olish emas balki bo‘sh vaqtdan unumli foydalanish, jamoa sog‘lig‘ini mustahkamlash shaxsni har tomonlama rivojlanishini ta’minlashdan iboratdir. Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportga katta e’tibor qaratilmoqda.Shular qatorida gimnastikani rivojlanishiga ham keng imkoniyat yaratildi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni gimnastika bilan shug‘ullanishlariga, ularning qiziqishlarini oshirish maqsadida yurtimiz bayrog‘ini baland tutib turuvchi ko‘plab gimnastikachilarimizdan: O.Chusovitina, Sabina Turobova, Anastasiya Serdyukova, Sabina Tashkenbayeva, Nurinisa Usmonova, Dildora Rahmatova va ko‘plab yosh sportchi yoshlarimizni o‘rnak qilib ko‘rsatishimiz mumkin. Gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etishda yosh bosqichlari, shug‘ullanuvchilarning jismoniy tayyorgarligi inobatga olinishi lozim. Gimnastika mashqlarini o‘rgatish jaroyanida quydagi asosiy vazifalar hal etiladi: bolalarning umumiy harakat va jismoniy tayyorgarligi uchun ahamiyatli bo‘lgan harakat ko‘nikmalarini shakllantirish, kuch, tezkorlik, egiluvchanlik, epchillik, chidamlilik kabi sifatlari. Maktabgacha yoshdagi bolalarda gimnastika mashqlarini muntazam o‘tkazilishi bola organizmining hayot faoliyatini yaxshilaydi, xushchaqchaqlik kayfiyatini uyg‘otadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-4947-sonli farmoni, 2018 yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-sonli farmoni hamda qarorlaridan ma’lumki yoshlarga ayniqsa jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilayotgan yuksak e’tibordan dalolat beradi [1,2].

Mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy-uslubiy adabiyotlarini o‘rganish va tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, badiiy gimnastika sport turida gimnastika mashg‘ulotlarini rivojlantirishga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavjud, xususan, O.P.Vlasova,I.A.Viner, L.A.Karpenko, S.N.Vlasenko, K.D.Yarashev, M.N.Umarov, S.V.Fyodorova va boshqalar.

Tadqiqot maqsadi. 3-5 yoshdagi bolalarda gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etishning ilmiy asoslari tahlil qilish.

Tadqiqot tashkil etish usullari: Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlili, pedagogik kuzatuvlar, pedagogik tajriba kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot muhokamasi va natijalar.Maktabgacha tayyorlov yoshida bolalar bilan mashg‘ulotlarni tashkil etishda pedagog uchun muhim bo‘lgan holatlar bo‘lib, bu guruh yosh bosqichlarida ko‘nikmalarni shakllantirish bilan bog‘liq.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida badiiy gimnastika mashqlari sakrash, muvazanat saqlash,buyumlarsiz, buyumlar bilan, yo‘nalish va bo‘shashtirish mashqlarini navbatlantirish, shu bilan birga tayanch organlari: qo‘l, oyoq gavda, mushaklarni mustahkamlaydi. Mashhur fransuz olimi J.Dimsning fikriga ko‘ra: “Gimnastika mashqlari statik emas balki dinamik bo‘lishi, to‘la amplitudada bajarilishi, shaklanishi nafis bo‘lishi kerak”. Olim J.Dims salomatlikni mustahkamlash, gavda tuzulishi va harakatlarning nafisligiga erishishni kishining chaqqonligi va irodaviy hislatlarni rivojlantirish eng muhim vazifa deb bilgan. Gimnastikachilarni jismoniy tayyorlash gimnastika mashg‘ulotlarining eng muhum tarkibiy qismlaridan hisoblanib u organizmni har tomonlama rivojlantiradi.

Gimnastika mashg‘ulotlarining ayrim xususiyatlari mavjud:

-Tanlangan gimnastika turi bo‘yicha, sport gimnastikasi, badiiy gimnastika, eng yuqori natijaga erishishga qaratilgan;

-Mashg‘ulotlarning qat’iy chegaralangan muddadi va muntazamligi;

-Ma’lum qonuniyatlarga muvofiq ko‘p yillik rejalashtirish;

-Mashg‘ulot yuklamalarining izchil ravishda oshirilib borilishi;

-Gimnastikachining yetarlicha mustaqilligi hamda mashg‘ulot jaroyoniga ijodiy yondoshuv sharoitida murabbiy va o‘qituvchining rahbarlik roli;[3,4]

Maktabgacha yoshdagi bolalarni gimnastika mashg‘ulotlarini o‘tkazishda tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasida sport bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlarnini olib borish ya’ni faxriy xalqaro musobaqa g‘oliblari yetakchi sportchilar bilan suhbatlar tashkil etish kerak.

Gimnastika o‘z navbatida, ertalabki gimnastika, badiiy gimnastika, sog`lomlashtiruvchi gimnastika kabi bir qator yo‘nalishlarni qamrab oladi. Ertalabki gimnastika mashqlarini bajarish bolani qomatini to‘g‘ri rivojlanishi, nafas olishi,qon aylanishiga yordam beradi. Bolalarda diqqatini, maqsadga intiluvchanlikni tarbiyalaydi, aqliy faoliyatining oshishiga yordam beradi, emotsiya va quvonch tuyg‘ularini uyg‘otadi. Gimnastikava badiiy gimnastika maktabgacha yoshdagi bolalarni sog‘lomlashtirish irodalilik,sabrlilik muvafaqqiyatli hal qilish uchun harakatli o‘yin uslubiga ega bo‘lib, bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning uyg‘un rivojlanishi uchun muhim sohalardan biri sanaladi.Gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etish, o‘rganish uslubulari o‘rgatishning harakat malakalari va maxsus bilimlarni egallashgga qaratilgan. O‘rganish jarayoni bolalarning jismoniy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Mashg‘ulotlarni tashkil etishda yo‘riqchi bolalar bilan birgalikda ijodiy faoliyatda bo‘lishi yetakchi rol o‘ynaydi. Gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etish 3 qismga bo‘linadi:

1. Daslabki o‘rgatish
2. Mukammal o‘rgatish
3. Mustahkamlash va takomillashtirish[5].

Sog`lomlashtiruvchi gimnastika maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yassi oyoqlikni oldini olish, skolioz, tayanch harakat tizimini to`g`ri shakllanishida universal vosita hisoblanadi.Mashg`ulotni faqat kunning birinchi yarmida emas, balki ikkinchi yarmida ham o‘tkazish maqsadga muvofiq[6]. Shu bilan birga, kechki vaqtlarda ham oila bilan olib borilishi organizmning mehnat jarayonida asosiy yuklama tushadigan organlari va tizimlari faolligini oshirishga yordam beradi.

Sog`lomlashtiruvchi gimnastika majmualarida quyidagi jismoniy mashq guruhlari qo‘llanadi: kerishish (cho‘zilish), yon tomonga egilishlar, o‘tirib turishlar, cho`zilishlar, sakrashlar, sport yurishi, yugurish, oldinga egilish, bo‘shashish elementlari ishtirok etgan siltanish harakatlari, orqaga egilishlar, qo‘l va yelka kamari mushaklarini bo‘shashtirish, koordinatsiyaga, aniqlikka va diqqat- e’tiborga yo‘naltirilgan mashqlar.

Xulosa.3-5 yoshdagi bolalarda gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etishning ilmiy asoslari.Mashg‘ulotlarini tashkil qilish badiiy gimnastika sport turi bilan shug‘ullanuvchi qizlar uchun juda muhim hisoblanadi, shuning uchun uni rivojlantirishning yanada yangi va mukammal yo‘llarini izlash va amaliyotga tadbix qilish muhim. Shu sababdan biz taklif qilgan mashg‘ulotlarini tashkil qilish mashqlari to‘plami bu maqsadga muvofiq bo‘lib uning samaradorli ekanligini mashg‘ulotlarini tashkil tahlili bilan va sinovlari natijalaridan ham ko‘rishimiz mumkin.

Xususan mehnat jarayonida bajariladigan harakatlar xususiyatiga mos jismoniy mashqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Shuning uchun mashqlarni tanlashda mehnat jarayoni harakatlarini yaxshi o‘rganish va jismoniy tarbiya mashqlari majmuasiga shunday mashqlarni kiritish kerakki, ular organizmning aniq mehnat turi jarayonida yetakchi rol o‘ynaydigan fiziologik funksiyalarini tezlashtirishga yordam bersin. Xulosa qilib gimnastika mashqlari bilan shug‘illanishda nafaqat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, balki biz katta yoshli kishilar ham o‘z faolligimizni oshirgan holda jismoniy mashqlarni muntazam bajarib turmog‘imiz shart va zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi 2017-yil 3 iyundagi PQ 3031- sonli qarori. LEX.Uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-sonli Farmoni.Lex.uz.
3. Azizov, N. N. (2019). Methods to formulate healthy lifestyle in the physical education system. Methods, 11, 11-2019.
4. Власова О.П. Развитие гибкости при обучении эле-ментам без предмета на этапе начальной подготовки в худо-жественной гимнастике: автореф. дис. канд. пед. наук/О. П. Власова. – Омск,2011.
5. Винер, И. А. Интегральная подготовка в художественной гимнастике / И. А. Винер. – СПБ. , 2016. –С. 28-29.
6. Винер, И. А. Теория и методика художественной гим-настики / И. А. Винер, Е. С. Крючек, Е.Н. Медведева, Р. Н. Терехина. – СПБ. , 2014. – 120 с

SPORT MAKTABLARI O‘QITUVCHILARGA GIMNASTIKA MASHQLARINI O‘QITISH USLUBIYATI

Djumaniyazova Tamara
Dotsent v.b
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali

Annotatsiya: Muallif tamonidan joriy etilgan maxsus mashqlardan foydalanish jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilar o‘rtasida gimnastika ko‘pkurash elementlarini bajarish sifatini sezilarli darajada oshirish va mashg‘ulotlar vaqtini qisqartirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: mashg‘ulot, jismoniy tayyorgarlik, gimnastika mashqlari.

So‘nggi paytlarda gimnastika mashqlarini o‘rgatish uslublarida o‘quvchilarda gimnastika harakat qismlarini bajarish texnikasini oldindan shakllantirishga asoslangan yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Bilimlarni chuqurlashtirish va texnikaning ba’zi parametrlarini aniqlashtirish uchun muallif alohida vosita muammolarini hal qilish va o‘rganilayotgan mashq bosqichlarida harakatning individual xususiyatlarini ajratib olish usulini qo‘llash orqali interfaol usulidan foydalanishni tavsiya etadilar. O‘qitish uslubiyatining zamonaviy ko‘rinishida, gimnastikaning murakkab elementlarni ishlab chiqish asosiy mashqlardan boshlanishi kerak, chunki ular ko‘pchilik amaliyotchilar uchun ochiqdir. Asosiy mashqlar tushunchasi oddiy mashq bo‘lib, birinchisi mustaqil, progressiv bo‘lgan va muayyan mashqlar qatorini tashkil etuvchi ma’lum bir tizimli harakatlar kichik guruhiga tegishli asosiy harakatlarning mavjudligi mashqlarni texnikaning asosiy bo‘g‘inlari orqali olinganligi va oddiyligi bilan izohlanadi [1]. Asosiy harakatlarning keyingi o‘zgarishi harakatning amplitudasini, intensivligini oshirish va ularni bir-biri bilan bog‘lash orqali amalga oshiriladi. Nisbatan oddiy, ammo asosiy harakatlarning yetarli darajada yuqori darajada bajarilmagani amaliyotchilar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan ko‘pgina texnik xatolarning

sabablaridan biridir. Asosiy mashqlarni sifatli bajarish qobiliyati o‘quvcilarning yuqori texnik tayyorgarligi ko‘rsatkichlaridan biridir. Asosiy mashqlarni muvaffaqiyatli bajarish natijasida gimnastikaning asoslari shakllanadi. Jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilariga gimnastika mashqlarini o‘rgatishda gimnastika harakatlarining o‘zlashtirish va elementar asosiy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun maxsus mashqlardan foydalanishning ishonchli ilmiy asoslari mavjud. Pedagogika fanlarining turli yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qitish orqali usul qo‘llaniladi, uning tarkibiy xususiyatini rejalashtirish bo‘lib, bir qator maxsus mashqlardan foydalanishga asoslangan [3]. Jismoniy tarbiya va sportga oid mavjud adabiyotlarda biz gimnastikaning turli vositalari bilan asta-sekin murakkablashadigan elementar harakatlarni izchil qo‘llashga asoslangan metodologiyani aniqlamadik. Bu tadqiqotning muammosi edi. Jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilar uchun gimnastika ko‘pkurash elementlari bo‘yicha yuqori sifatli tayyorgarlik ko‘rish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadigan usuli bo‘yicha maxsus mashqlarni qo‘llash metodologiyasini ishlab chiqish va eksperimental asoslash. Gimnastikaning ko‘pkurash elementlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni samarali o‘tkazish uchun gimnastika fanidan o‘quv mashg‘ulotlarini qurish tuzilmasini, maxsus mashqlarni qo‘llash mazmuni va ketma-ketligini o‘zgartirish zarur deb hisobladik. Dastur materialining boshqa bo‘limlari (jangovar, umumiy rivojlanish mashqlari va boshqalar) bilan kombinatsiyaga asoslangan bo‘lishi kerak. O‘qitishning yangi usuli elementar va gimnastika ko‘pkurash elementlarini o‘zlashtirish ketma-ketligining asosini tashkil qilishi mumkin. Tadqiqotda biz Yu. K. Gaverdovskiy tomonidan taklif qilingan, eng oddiy harakatlarni dastlabki o‘rganishga qaratilgan metodologiyani hisobga oldik. 1-guruh Jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarning gimnastika ko‘pkurash elementlari bo‘yicha asosiy tayyorgarligi tarkibi va harakat, badiiy gimnastikaning yanada murakkab elementlarining bir qismi bo‘lgan o‘ziga xos yangi elementlarning texnik jihatdan to‘g‘ri ishlashini qo‘shish imkonini beradi. Badiiy gimnastika misolida Yu. K. Gaverdovskiy, V. A. Solodyannikov tomonidan asoslab berilgan asosiy gimnastika mashqlarini o‘rgatishning ketma-ket bosqichlari murakkab koordinatsiya elementlarini o‘zlashtirish sur’atini tezlashtirishga va mashqlar sifatini oshirishga yordam beradi. Boshlang‘ich tayyorgarlik konsepsiyasiga ko‘ra mashqlarni tanlash asosiy harakatning texnik xususiyatlarini hisobga olgan holda, murakkablik darajasi bosqichma-bosqich pastga tushirish orqali amalga oshirilgan. Harakat mashg‘ulotlari gimnastikaning ko‘pkurash turlari bo‘yicha kelajakdagi mashqlarning asosini tashkil etuvchi tananing qismlari va harakat mexanizmlarini bosqichma-bosqich va izchil ravishda ishiga kiritishga qaratilgan edi. Bundan tashqari, bir qator mualliflarning fikriga ko‘ra, tana qismlarining mahalliy harakatlari, tana qismlarining qo‘shma harakatlari, butun tananing integral harakatlari ko‘tarilish, yurish, muvozanat, yugurish, sakrash, umumiy rivojlantiruvchi va amaliy mashqlarni bajarishda o‘zlashtirildi. [2] Yuqorida sanab o‘tilgan asosiy gimnastika harakatlari guruhlari orqali har xil usullar yordamida maxsus mashqlarni qo‘llash uchun asos bo‘lib, darsning barcha qismlarida harakatlar va asosiy ko‘nikmalarning asoslarini tashkil etdi. Gimnastika ko‘pkurash elementlari orqali usullarni o‘rgatishda darsning har bir qismida maxsus mashqlar o‘zlashtirildi. Mashg‘ulot boshida harakatlar rivojlantirishga, gimnastika bo‘yicha asosiy boshlang‘ich texnik tayyorgarlikning asosi bo‘lgan harakat qismlarini bajarish malakalarini shakllantirishga e’tibor qaratildi. Talabalarda ko‘nikmalarini shakllantirish asosan yilning birinchi yarmida amalga oshirilgan bo‘lsa, bu ko‘nikmalar asosida ikkinchi yarim yillikda gimnastika ko‘pkurashining elementlarini bevosita bajargan holda aniq ko‘nikmalarni shakllantirish amalga oshirildi. Dastlabki o‘rganishda harakatlar bosqichlari va elementning texnikasini buzmaslik uchun mashqlar past amplitudalarda bajarildi, bu izchil bo‘ladi. 2-guruh. Maxsus mashqlar orqali usullarida qo`llash mazmuni va ketma-ketligi gimnastika sohasidagi yetakchi mutaxassislarning fikrlariga qo‘shiladi. Har bir maxsus mashqlar majmuasi uch hafta ichida o‘zlashtirildi va vosita harakatlarini o‘zlashtirish darajasi qayd etildi. Har bir yangi mashq seriyasining boshlanishi avvalgisining oxiriga to‘g‘ri keldi. Guruhdagi talabalarning jismoniy tayyorgarligining turli darajalari va o‘ziga xos ko‘nikmalarning notekis shakllanishi bilan bog‘liq holda bu yondashuv tanlangan. Har bir darsda eksperimental guruh o‘quvchilari diqqatini bajarish sifati va maxsus mashqlarni belgilashga qaratildi. Gimnastika ko`pkurash elementlarini o`zlashtirishda maxsus mashqlardan foydalanish, o‘zlashtirish va mashq qilish hamda umumiy rivojlanish mashqlarini o‘rgatishda boshlang‘ich asosiy ko‘nikmalarni shakllantirish harakatlarni o‘zlashtirish va elementar asosiy ko‘nikmalarni bajarish orqali yaxshi natijalarga erishiladi. Xulosa qilib aytganda, taraqqiy etayotgan organizmni go‘zal shakllanishiga gimnastika mashqlari birinchi jismoniy vosita bo‘lib hisoblanadi. Maxsus mashqlarni bajarishda bir vaqtning o‘zida qo‘shimcha tayanch, yo‘l-yo‘riq va og‘irlik vazifasini o‘taydigan turli gimnastika vositalaridan (tayoq, shar, skameyka va boshqalar) foydalanish o‘quvchilarda g‘oya yaratish imkonini

berdi. vosita harakatlarining alohida qismlari texnikasi va zarur jismoniy fazilatlarning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Mashqlarni bo‘lib-bo‘lib bajarish birinchidan, shug‘ullanuvchilarni xotirasini mustaxkamlash va u mashqni maromiga etkazib bajaradi va unga shodlik baxsh etadi. Har bir gimnastika harakatlari insonni salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 23-dekabr 2022-yil. PQ-449-son
2. Гавердовский, Ю. К. Обучение спортивным упражнениям. Биомеханика. Методология. Дидактика : моногр. / Ю. К. Гавердовский. — М.: Физкультура и спорт, 2007.
3. I.I.Morgunova. Gimnastika.Toshkent-Ilm-Ziyo .2013.
4. T.Djumaniyazova. Yosh badiiy gimnastikachilarni xoreografik mashqlari orqali jismoniy sifatlarini rivojlantirish - Ilim hám jámiyet Ilimiy-metodikalıq jurnal, 2023 yil – 2-san 72-76-betler.
5. T.Djumaniyazova - Analysis of the features of physical fitness in rhythmic gymnastics - **O‘zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari, 2023 – 4-bet.**
6. T.Djumaniyazova, Ўзбекистонда уч босқичли спорт мусобақаларини ташкил этиш ижтимоий педагогик зарурияти сифатида - Вестник физической культуры и спорта Научно-методический журнал. №3 Нукус–2024. 59-63b.
7. T.Djumaniyazova. Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy Axborotnomasi Ilmiy-amaliy jurnal № 5(9) 2024 . 239-241 b.
8. T.Djumaniyazova, Yosh badiiy gimnastikachilarga cho‘qmor bilan mashqlarni o‘rgatish ketma-ketligi - "Gimnastika sport turlarini rivojlantirishni zamonaviy muammolari va istiqbollari" Xalqaroilmiy – amaliy anjuman 2024 yil, 15-16 mart. 263-267 betlar
9. T.Djumaniyazova, A.Paraxatova. Katta yoshli gimnastikachilarga epchillik va koordinatsion qobilyatlar uni rivojlantirish uslubiyoti - "Gimnastika sport turlarin irivojlantirishni zamonaviy muammolari va istiqbollari" Xalqaroilmiy – amaliy anjuman 2024-yil.
10. T.Djumaniyazova, Kórkem gimnastikada buyımsız orınlanatuǵın shınıǵıwlardı úyretiw metodikası - O‘quv qo‘llnma - Toshkent – “Innovatsiya-Ziyo” - 2023 nashr 184-bet

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPITENTINI TAKOMILLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOSLIGI

Jumaniyazov Ulug‘bek Iskandarovich
Respublika gimnastika sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan sport maktabi direktori
Kenesbayeva Malika Jalg‘os qiz
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nokis filili 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimi mukammmal ketma - ketlik va uzluksizlik asosida amalga oshirish muhimdir. Ushbu maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompitentini takomillashtirishning o‘ziga xosligi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kompitensiya, jismoniy faollik, jismoniy madaniyat, sportchilar tayyorlash, jismoniy madaniyat sohasi, ilmiy –metodik ta’minot, mutaxassislar, kasbiy mahorat.

Аннотация: Важно реализовать систему подготовки специалистов в области физической культуры и спорта на основе совершенной последовательности и непрерывности. В данной статье речь идет об особенностях совершенствования профессиональной компетентности будущих учителей физической культуры.

Ключевые слова: компетенция, физическая активность, физическая культура, подготовка спортсменов, область физической культуры, научно-методическое обеспечение, специалисты, профессиональное мастерство.

Annotation: It is important to implement a system of training specialists in the field of physical culture and sports based on a perfect sequence and continuity. This article discusses the specifics of enhancing the professional competence of future physical education teachers.

Keywords: competence, physical activity, physical culture, sports training, physical culture, scientific and methodological support, specialists, professional skills.

Respublikamizda jismoniy madaniyat sohasida zamonaviy mutaxassislar tayyorlash tizimi mukammal darajada tashkil etilgan. Sohada yetakchi va markaziy oliy o‘quv yurti hisoblanmish

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutida ko‘plab oliy ma’lumotli jismoniy madaniyat mutaxassislari, sport murabbiylari tayyorlanadi. Mazkur oliy dargohda mamlakatimizning sohaning eng yetakchi olimlari va sport murabbiylari bo‘lajak mutaxassislarga saboq beradilar. Undan tashqari Respublika viloyatlarining universitetlari, pedagogika institutlari qoshidagi mavjud jismoniy tarbiya fakul‟tetlari ta’lim tizimini ko‘plab oliy ma’lumotli jismoniy tarbiya o‘qituvchilari bilan taminlaydi. Shuningdek, keyingi yillarda tashkil etilgan Olimpiya zahiralari kollejlarida sportchilar tayyorlash bilan birga o‘rta maxsus ma’lumotli sport murabbiylari ham tayyorlanadi. Respublikada o‘rta maxsus kasb ta’limi va Oliy ta’lim tizimida jismoniy madaniyat sohasi mutaxassislari tayyorlashning ilmiy – metodik ta’minoti to‘la hozirgi zamon talablari asosida tashkil etilgan. Ya’ni ta’lim muassasalari puxta ishlangan DTS va o‘quv dasturlari, darsliklar, turli xildagi o‘quv qo‘llanmalar bilan taminlangan.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimi mukammmal ketma - ketlik va uzluksizlik asosida amalga oshirish joriy etilgan.

Shunday bo‘lishiga qaramasdan hozirgi zamon talablariga mos mutaxassislarni tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirish va DTS talablarini to‘la bajarish maqsadida oliy ma’lumotli jismoniy tarbiya o‘qituvchilari tayyorlash tizimi mazmuniga ba’zi bir o‘zgarishlar kiritish maqsadga muvofiq. Ko‘p yillik pedagogik kuzatishlar, tajribalar va Respublikaning yetakchi mutaxassis olimlari jismoniy madaniyat fakultetlarining tajribali professor-o‘qituvchilari bilan olib borilgan suhbat munozaralar asosida quyidagilar aniqlandi. Keyingi yillarda Olimpiya zahiralarida tahsil olgan sportchi o‘quvchilarning bir qismi kasbiy mahoratini oshirish maqsadida jismoniy madaniyat fakul‟tetlariga o‘qishga kirmoqda. Ammo talaba keyingi sport faoliyatini davom ettirish va mahoratini oshirib borishda ma’lum qiyinchiliklarga uchraydi. Masalan Oliy o‘quv yurtida ba’zi sport turlaridan tajribali murabbiy, professor- o‘qituvchilar yetishmaydi. Aynan mana shu o‘rta maxsus kasb ta’limi bilan oliy ta’lim o‘rtasidagi uzluksizlikni ma’lum darajada buzadi. Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib jismoniy madaniyat sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirish muhim hisoblanadi. Shuningdek, jismoniy tarbiya fakultetlarining bitiruvchilari umumta’lim va o‘rta maxsus kasb ta’limi jismoniy tarbiya o‘quv dasturidan o‘rin olgan sport turlaridan albatta 2 yoki 3 sport darajalarini (razryad) talablarini bajarishini majburiy talab qilib qo‘yish maqsadga muvofiq sanaladi.

Jismoniy madaniyat bo‘yicha mutaxassisning pedagogik faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, uning ishining aniq vazifalari ushbu kasbning tarkibiy qismlari majmuasining o‘ziga xos mazmunini, pedagog sifatidagi asosiy, kasbiy zarur bilim va ko‘nikmalarni belgilaydi. Psixologik-pedagogik kompetentsiya deganda bilimlar, qobiliyatlar, ko‘nikmalar, shuningdek ularni faoliyatda amalga oshirish usullari va usullari tushuniladi. Ushbu hodisani hal qilib, olimlar ta'kidlaydilarki, biz o‘qitiladigan fan sohasidagi maxsus va kasbiy kompetentsiya haqida gapiramiz; o‘quvchilarda bilim, ko‘nikmalarni shakllantirish usullari sohasidagi uslubiy kompetentsiya, muloqot jarayonlari sohasidagi ijtimoiy-psixologik kompetentsiya, o‘quvchilar faoliyatining motivlari, qobiliyatlari, yo‘nalishlari sohasidagi differensial psixologik kompetentsiya.

O‘qituvchining faoliyati ham o‘zgartiruvchi, ham nazorat qiluvchidir. Shaxsiy rivojlanishni boshqarish uchun siz malakali bo‘lishingiz kerak. O‘qituvchining kasbiy malakasi uning pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligining birligida ifodalanadi va uning kasbiy mahoratini tavsiflaydi. O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Ijtimoiy-huquqiy kompetentsiya - davlat muassasalari va odamlar bilan o‘zaro munosabatlar sohasidagi bilim va ko‘nikmalar, shuningdek, professional muloqot qilish usullarini egallash;

Shaxsiy kompetentsiya - doimiy kasbiy o‘sish, ishda o‘zini o‘zi anglash qobiliyati;

Maxsus kompetentsiya - o‘z-o‘zini bajarishga tayyorlik o‘ziga xos turlari faoliyat (jumladan, jismoniy tarbiya va sport sohasida);

Avtokompetentlik - o‘zining ijtimoiy va kasbiy xususiyatlarini etarli darajada tushunish;

Ekstremal kompetentsiya - to‘satdan qiyin sharoitlarda harakat qilish qobiliyati.

Pedagogik madaniyat pedagogik jarayon sharoitida umumiy madaniyatning o`ziga xos ko`rinishidir. Pedagogik madaniyat asosan madaniyatning dunyoqarashi, axloqiy, kasbiy, hissiy, estetik, jismoniy va gigiyenik jihatlarini o‘z ichiga oladi.

Har bir o‘qituvchi o‘zining kasbiy faoliyat har kuni so‘zda, amalda, tashqi ko‘rinishida o‘quvchilariga sog„lom turmush tarzi ko‘nikmalarini singdirishga majburdir. Aynan shuning uchun ham har bir fan o‘qituvchisining jismoniy madaniyat sohasidagi kasbiy malakaga bo‘lgan ehtiyoji

shubhasizdir. O‘qituvchining jismoniy madaniyati - bu muloqotda va jismoniy madaniyatning har xil turlarida, shuningdek, o‘quvchilarning jismoniy madaniyati qadriyatlarini o‘zlashtirish va yaratishga qaratilgan pedagogik faoliyatda shaxsning ijodiy o‘zini o‘zi anglash o‘lchovi va usuli hisoblanadi. Pedagogik ta'lim o‘qituvchilarning jismoniy madaniyat sohasidagi kasbiy kompetentsiyani rivojlantirish bilan bog‘liq fanlar majmuasini o‘rganishni ta'minlaydi. O‘quv rejalari va dasturlariga ko‘ra, bular:

1. jismoniy tarbiya va tarbiya;
2. jismoniy tarbiya va sport;
3. jismoniy tarbiya va dam olish;
4. jismoniy tarbiya va reabilitatsiya;
5. jismoniy madaniyat va moslashish;
6. jismoniy madaniyat - moslashishdan keyingi.

Ushbu faoliyat turlarining barchasi, agar ular to‘g‘ri amalga oshirilsa, kasbiy bo‘lmagan jismoniy tarbiyani, shu jumladan sog‘liqni saqlash, sport va jismoniy faoliyat, sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha mutaxassisning malakasini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak**.**

Ma’lumki, respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish muammolari mavzusida o‘tkazilgan an‟anaviy anjumanlarda Respublika “Talaba“ sport uyushmasi o‘zining saloxiya-tiga ega bo‘ldi. Bunda o‘quvchi-yoshlar va talabalarning sog„lom turmush tarzini shakllantirish hamda takomillashtirish, halk milliy o‘yinlari va sport turlarining nufuzini yuqori ko‘tarish, bolalar sporti va xotin- qizlar jismoniy tarbiyasi asosiy o‘rin egalladi. Yosh olimlar, iqtidorli tadqiqotchilar, magistrlar va hatto talabalarning ham ilmiy tatqiqot ishlari natijalarini kengaytirish, olingan natijalarni amalda qo‘llash, iste‟dodli mutaxassis olimlarning mavqei va mas‟uliyatlarini oshirish borasida keng qamrovli muammoviy mavzularga e‟tibor kuchaytirildi. Ularni Jizzax (2005-2007), Buxoro (2007), va Termizda (2008) o‘tkazilgan Respublika ilmiy amaliy anjumanlarining to‘plamlarida ko‘rish mumkin. port - bu konfliktli vaziyatni sun'iy ravishda yaratish, bu haqiqatni aks ettiruvchi o‘ziga xos modeldir. Pedagog sport faoliyati, agar u amaliy qo‘llanilishi bo‘lsa va asosiy kasbiy faoliyatda aks ettirilganda qiziqarli bo‘ladi.

1. Jismoniy tarbiya sohasidagi o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi o‘qituvchining ishbilarmonlik va shaxsiy fazilatlarining uzviy xarakteristikasi bo‘lib, uning bilimi, qobiliyati, malakasi va tajribasi darajasini aks ettiruvchi, barkamol qarorlar qabul qilish bilan bog„liq faoliyatni amalga oshirish uchun yetarlidir.

2. Jismoniy madaniyat fanidan o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi uning shaxsiy fikr va his-tuyg„ulari mazmuni, qadriyat yo‘nalishlari, qiziqish va ehtiyojlarining rivojlanish darajasi, jismoniy rivojlanish darajasi, o‘zlashtirish darajasi ta’sirida shakllanadi. vosita ko‘nikmalari va qobiliyatlari. O‘qituvchining bu sifatini shakllantirish uchun jismoniy madaniyat sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshirishga psixologik, ilmiy-nazariy, amaliy, psixofiziologik va jismoniy tayyorgarligini shakllantirish kerak.

Demak, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi tushunchasi shaxsning yaxlit tarkibida uning nazariy va amaliy tayyorgarligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy mahoratini tavsiflaydi. O‘qituvchining kasbiy faoliyati uning mehnat faoliyatining bir turi sifatida pedagogik faoliyatdir. “Pedagogik” atamasi shaxsning pedagogik faoliyatga xizmat qiluvchi pedagogik kasbga mansubligini ochib beradi. Shunday qilib, "o‘qituvchining kasbiy faoliyati" va "pedagogik faoliyat" atamalari bir xil semantik yukni ko‘taradi. Bundan kelib chiqib, “kasbiy kompetensiya” va “pedagogik kompetensiya” atamalarini sinonim sifatida ishlatish mumkin. Kasbiy kompetensiya - asosiy tushuncha pedagogik faoliyatni tavsiflash xisoblanadi.

Xulosa: Shuni ta’kidlash joizki, mamlakatimizda jismoniy madaniyat va sportni yanada rivojlantirishning eng asosiy omillaridan biri bu sohada mutaxassis kadrlar salohiyati sanaladi. Shuning uchun xam jismoniy madaniyat va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimi qo‘ygan talablarni to‘liq bajarishga erishish. Shuningdek, mazkur tizimni yuqorida keltirilgan takliflar asosida ma’lum darajada yangi talablar bilan boyitib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zimnyaya I.A. Asosiy kompetensiyalar ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning samarali-maqsadli asosi sifatida / I.A.Zimnyaya. - M., 2004 .-- 381 b.

2. Kuxarev I.V. Professional mukammallik yo‘lida: Kitob. o‘qituvchi uchun. - M .: Ta’lim, 2001. - 159. - (O‘qituvchining mahorati; g‘oyalar, maslahatlar, takliflar). - 159 b.
3. Xutorskoy, A.V. Ta'lim standartlarining umumiy fan mazmuni / .V.Xutorskoy.- M., 2002 y.

OLIY O‘QUV YURTLARIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT TO‘GARAKLARINI TASHKIL QILISHNING DOLZARB MUOMMOLARI

Boltayev Shamshodjon Elmurod o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Jismoniy madaniyat va sport o‘qituvchisi, O‘zbekiston, Chirchiq
e-mail: sh.boltaev@cspi.uz
Abdumalikov Otabek Xasan o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Jismoniy madaniyat yo‘nalishi 2-bosqich talabasi, O‘zbekiston, Chirchiq.

Kalit so’zlar: jismoniy tarbiya, sport, jismoniy mashq, umumrivojlantiruvchi mashqlar, jismoniy sifatlar.
Ключевые слова: физическое воспитание, туризм, физические упражнения,обобщающие упражнения, физические качества.
Keywords: physical education, tourism, physical exercise, generalizing exercises, physical qualities.

Bugungi kunda zamonaviy sport amaliyotida raqamlashtirilgan innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish, aholi o‘rtasida ommaviy sportni targ‘ib qilish, jismoniy tarbiya va sport bilan aholini muntazam shug‘ullanish darajasini kengaytirish, bu orqali salomatligini mustahkamlash hamda ularni o‘rtacha umr ko‘rish yoshini oshirib borish asosiy vazifalarimizdan biridir. Mazkur muammolarni o‘rganish bo‘yicha ilmiytadqiqot ishlarini rivojlantirish sohadagi muammolarning ilmiy yechimini aniqlashda dolzarb hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon hamda 2022-yil 4-noyabrdagi PQ-414-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 29 yanvardagi "O‘zbekistonda sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi 65-sonli qarorlarining qabul qilinishi ham mazkur masalalarga alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatmoqda. Albatta, mazkur farmon va qarorlar ijrosini ta’minlash, qolaversa, amaliyotga joriy etish bugungi kundagi dolzarb masalalardan sanaladi.

Dolzarbligi. Jamiyatda sog’lom turmush tarzini yanada shakllantirish, aholi salomatligini mustahkamlash, jismoniy sog’lom va ma’naviy boy yosh avlodni tarbiyalash, fuqarolarning jismoniy tarbiya va sport bilan faol shug’ullanishiga keng jalb etilishini ta’minlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan faol islohatchilik siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, inson sog’ligining 20-25% atrof- muhit ta’sirida, 20% nasliy omillar asosida, qolgan 55% har-xil sabablar, o’z sog’ligi turmush tarziga bo’lgan e’tibori ta’sirida shakllanar ekan [2].

Bugungi kunda oliy ta’limda talaba-yoshlarni intelektual, kasbiy, ahloqiy, madaniy rivojlanish talablarini qondirishda ulardagi sog’lom turmush tarzi, borasidagi bilim, ko’nikmalarni, reproduktiv madaniyatni shakllantirish ta’lim maqsadlarining asosiy qismi bo’lib hisoblanmoqda xususan, pedagogik-psixologik kasb doirasidagi mutaxassislarda.

Ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya tadbirlari o‘quvchi va talabalarni jismoniy rivojlantirish, sog‘lomlashtirish va hayot faoliyatiga tayyorlashdan iborat bo‘ladi. Jismoniy tarbiya jarayonlari barcha bosqichlarida tashkil etiladi. Jismoniy tarbiyani tashkil etishda ta’lim muassasaning pedagogik jamoasi jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va sport murabbiylaring axamiyati katta. Ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya tadbirlari ertalabki badantarbiya, jismoniy tarbiya darslari sport to‘garaklaridagi mashg‘ulotlar,

sport musobaqalari va bayramlar hamda dam olish kunlari va ta’tillarda olib boriladigan turizm mashg‘ulotlari hisoblanadi. Jismoniy tarbiya tadbirlarida o‘quvchilar hayotiy zarur harakatlar yurish, yugurish hamda sakrash va uloqtirish, tirmashib chiqish mashqlarni bajarib harakat malaka va ko‘nikmalari shakllantiriladi. Jismoniy tarbiya vositalari bo‘lib hisoblangan jismoniy mashqlar va tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlari hamda gigienik vositalar yordamida ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi va organizm sog‘lomlashadi. Ta’lim muassasasidagi jismoniy tarbiyaga oid ishlar o‘quvchi va talabalardan xavaskorlikni, tashabbuskorlikni, uyushqoqlikni talab qiladigan juda xilma-xil shakllari bilan farq qiladi. Ular o‘quvchi va talabalarda tashkilotchilik ko‘nikmalari, faollik, topqirlikni tarbiyalashga yordam beradi.

Ta’lim muassasasida o‘quvchilar jismoniy tarbiyasining maqsadi:

1. Sog‘lomlashtirish.
2. Har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash.
3. Vatan mudofaasiga hamda mexnatga tayyorlash.

Jismoniy tarbiyaning maqsadidan kelib chiqqan holda o‘quvchi va talabalarni sog‘lomlashtirish, chiniqtirish, jismoniy rivojlantirish, harakat malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha Jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalari belgilanadi.

Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarga jalb etish. O‘quvchi va talabalarni ta’lim muassasalaridagina emas, balki uyda ham jismoniy mashqlarni sistemali ravishda bajarishga odatlantirib borishdan iborat. Bu muhim vazifani amalga oshirish uchun o‘quvchi va talabalar bilan olib boriladigan barcha mashg‘ulotlarni jonli, o‘rganiladigan materialning mazmuni va shaklini qiziqarli, hayajonli qilish, mashg‘ulot rahbarining samimiy muomalasi ostida o‘tkazish, shug‘ullanuvchilar o‘zaro do‘stona xamkorlik qilishlari uchun sharoit yaratish zarur.

Xulosa. Yuqoridagilardan xulosa qilib qayd etish mumkinki, salomatlikni asrashga va sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirilgan say’i-harakatlar o‘zining ilk shakllanish jarayonida turibdi. Zero, ko‘pchilik odamlar umr bo‘yi o‘z salomatligini befoyda sarflash amaliyoti bilan shug‘ullanayotganligi, aslida esa ular salomatlikni asrash faoliyati bilan umr bo‘yi maqsadli shug‘ullanishi zarur ekanligi, chunki inson jismi va ruhiyati o‘z rivojlanishiga ko‘ra tabiiy ravishda qarilik tomon yo‘naltirilgan faol harakat hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 5-iyundagi PQ3775-son qarori.
2. "O‘zbekistonda sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2019 yil 29 yanvar, 65-son.
3. "Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida" O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2020 yil 30 oktyabr, PF6099-son.
4. Boltaev Sh.E. Organizing a training process for young volleyball players on the basis of innovative approaches. TEACHER AND CONTINUOUS EDUCATION Nukus 2022.-87 p

YOSH GANDBOLCHILARNI TANLAB OLISH USLUBLARI

Urazbaev Nurbek Jalg‘asbay uli
O‘zbekston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali stajyor o‘qituvchisi
Torebayeva Jarkinay Maratovna
O‘zbekston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali 2kurs student

Annotaciya: Ushbu tezista yosh gandbolchilarni tanlash va tayyorlashda qollaniladigan bir qansha uslublar haqqida fikrlar bildirilgan.

Kalt so‘zlar: Jismoniy, mashg‘ulot,tanlab olish,iste‟dod, ixtisoslik, harakatli o‘yinlar.

Yosh gandbolchilarni tanlash va tayyorlashda umumta'lim maktablaridagi gandbol bo‘yicha kuni uzaytirilgan va o‘quv mashg‘ulotlari chuqur o‘zlashtiriladigan maxsus sinflar katta rol o‘ynaydi. Bunda bolalar gandbolga mehr qo‘yadilar va gandbol o‘ynash sirlarini o‘rganadilar.

Har bir sport maktabida gandbol bo‘yicha maxsus sinflaming ochilishi o‘quv mashg‘ulotlari mazmunini yana ham oshiradi. Bunda mashg‘ulotlar kuniga 2 mahal o‘tkaziIadi.[1]

Bugungi kunda kun sayin rivojlanayotgan gandbol jismonan eng baquwat va iste‟dodli o‘yinchilarni tanlab olishni talab qiladi. Shuning uchun ham gandbolchilami tayyorlashdagi eng asosiy masala – umidli yoshlami tanlab olishdir.

Bolalar va o‘smirlar sport maktablari hamda sport yo‘nalishidagi maktab-internatlar Nizomida ko‘rsatib o‘tilganidek, iste‟dodli va umidli sportchilarni tanlab olish butun o‘qish jarayonida olib boriladi.

Har yili o‘qishga qabul qilish vaqtida o‘quvchilami tanlab olish yoki bir yosh guruhidan ikkinchisiga o‘tkazish masalasi ulami har tomonlama tekshirib ko‘rish yoii bilan hal etiladi. [3]

Keyingi yillarda gandbolga doir ko‘pgina ilmiy maqolalar, uslubiy ko‘rsatmalar va qo‘llanmalarda yosh gadbolchilami tanlab olish masalalari keng yoritilmoqda. Xususan, K.A.Shperlingning ilmiy asoslangan fikrlari, ayniqsa, foydalidir. Muallifning fikricha, hozirgi davrda gandbolchi tayyorgarligini boshqaruvchi yagona jarayon, deb qaramoq kerak. Bolalarning yoshlariga hamda ular oldiga qo‘yiladigan mashg‘ulotlaming maqsadi va vazifalariga ko‘ra, boshqaruvchi jarayonni 3-4 davrga bo‘lish mumkin. Birinchi davr (7-9 yosh) dastlabki tayyorgarlik davri deb qaraladi. Bu davrda asosiy vazifa bolalarda gandbolga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish va sport mahorati uchun umumiy zamin yaratishdir. Bu vazitalami amalga oshirishda maxsus mashg‘ulotiardan tashqari, darsdan keyingi seksiya va to‘garak ishlari vaqtida foydalaniladi.

Ikkinchi davr (10-12 yosh) ham biologik, ham pedagogik jihatdan tanlab ola boshlashning eng muhim davri hisoblanadi. [1]

Uchinchi davr (13-16 yosh) ixtisoslikni chuqur o‘zlashtirish davri. To‘rtinchi davr (16 yosh va undan katta) sportga takomillashish davridir. Bunda gandbolchi o‘smirlar katta yoshlilar jamoalariga tanlab 204 olinadi. Bu davr guruh va jamoalarni tashkil etish hamda mashg‘ulotlarni olib borishda o‘ziga xos xususiyatlarga ega. M.A.Godikning fikricha, yosh gandbolchilar tayyorgariigini kompleks tekshirish dasturi o‘ziga xos qator xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Birinchidan, uning mazmuni o‘yinchining barcha harakat va ruhiy sifatlarini imkon boricha to‘la aks ettirishi kerak.

Ikkinchidan, tekshirish natijalari faqatgina yuklamalarni rejalashtirish uchun emas, balki tanlab olish, kelajagi bor iste‟dodli yoshlami aniqlash uchun ham hisobga olinadi. [2]

Dastlab sport turi talablariga javob bera oladigan va harakat malakalariga ega bo‘lgan nomzodlar aniqlab olinadi.

Tanlov musobaqa shaklida o‘tkaziladi. Tanlov rejasi bolalarning harakatli o‘yinlarda ishtirok etishlari uchun bajariladigan nazorat mashqlarini o‘z ichiga oladi.

Keyinroq o‘ziga xos malaka va mahoratga ega bo‘lgan bolalar aniqlanadi. Bu davrda ulaming gandbol bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari talablariga qobiliyati borligini aniqlovchi chuqur tekshirishlar o‘tkaziladi. Murabbiylar pedagogik kuzatishlar va maxsus nazorat mashqlari tizimidan foydalanib, bolalarning gandbol o‘yini uchun kerak bo‘lgan ko‘nikma va mahoratlari haqida to‘liq ma’lumot oladilar. [5]

Gandbol mashg‘ulotlarida bolaning (qobiliyatiga baho berish) harakatlari uchun va ruhiy xususiyatlarini aniqlaydigan nazorat mashqlari tanlanadi.

Sinovlardan olingan natijalar maktabga yangi qabul qilingan o‘quvchining kelajakda qandayligi haqida murabbiyga ma‟lumot beradi. Tanlovni o‘tkazadigan murabbiy tanlash sinovlarini bir necha bosqichda o‘tkazadi.

Gandbol bo‘limi mashg‘ulotlariga sog‘lig‘i juda yaxshi bolgan 9- 10 yoshli bolalar qabul qilinadi. Avval murabbiy bolalar bilan tanishadi. Qobilyatli bolalarni tanlab olgach, ular bilan nazorat sinovlari asosida gandbol bo‘yicha dastlabki mashg‘ulotlarni oikazadi.

Keyinchalik bolalar gandbolning yosh sportchilarga qo‘yadigan talablari asosida tanlanadi.

Bolada gandbol o‘yiniga layoqat mavjudligini tasdiqlovchi o‘ziga xos ko‘rsatkichlarga baho berish birinchi navbatda test o‘tkazish va kuzatish natijalariga bog‘liq boiadi. Yosh gandbolchining o‘ziga xos qobiliyatini rivojlantirish usul va vositalarini to‘g‘ri tanlash katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sobirov ,Orif, Abdijalilovich, Umarov Komil Majitovich “Gandbol nazariyasi va uslubiyati” Oʻquv qollanma Samarqand- 2022.

2. Акрамов Н.А. Гандбол(учебник для УзГИФК). — Т. Lider Press 2008

3. Павлов Ш., Абдурахманов. Ф.. Подготовка гандболистов— УзГИФК Т.: 2006г. 299с.
4. Павлов Ш.К., Абдурахманов. Ф.А., Азизова Р.И. Гандбол. (мусобаха қоидалари, уларни ташкил этиш ва утказиш тизими) Тошкент, “Lider Press” нашриёти, 2007й
5. Pavlov Sh.K, Abdurahmanov F.A, Raxmanova M.M. “Gandbol” o‘quv uslubiy qo‘llanma,
6. Tulaganov Sh.F, Raxmanova M.M “Gandbol nazariyasi va uslubiyati” o‘quv qo‘llanma, 2020 y.
7. Mo‘minov A.Sh. “Sport pedogogik mahoratini oshirish (gandbol)”) o‘quv qollanma,2021 y

O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Jumaniyazov Ulug‘bek Iskandarovich
Respublika gimnastika sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan sport maktabi direktori
Kenesbayeva Malika Jalg‘os qiz
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nokis filili 2 kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi davr ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirishda o‘qituvchi kasbiy mahoratining o‘rni hamda amaliyotda qo‘llash xususiyati to‘g‘risida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Kompetentlik, kasbiy kompetentlik, texnologiya, bilim, ko‘nikma, malaka, nutq, kreativlik.

Аннотация: В этой статье рассматривается роль профессионального мастерства учителя в повышении качества и эффективности современного образовательного процесса, а также особенности его применения на практике.

Ключевые слова. Компетентность, профессиональная компетентность, технология, знания, умения, навыки, речь, креативность.

Abstract: The article examines the role of teacher professionalism in improving the quality and efficiency of the modern educational process and the nature of its application in practice.

Keywords: Competence, professional competence, technology, knowledge, skills, qualifications, speech, creativity.

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o‘rin egallashga intilish yo‘lidagi keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o‘rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta’minlamoqda. Turli sohalarda yo‘lga qo‘yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o‘z samarasini berayotgan bo‘lsa-da, biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a’zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat’iyat ko‘rsatishni talab etmoqda.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi demakdir.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtiri-lishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;

- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la o‘lishda.

Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi:



Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi.

Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

Pedagogik jarayonning qanchalik samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishi o‘qituvchining pedagogik qobiliyatga egaligiga bog‘liq. Manbalardan birida “qobiliyat” tushunchasi shunday sharhlanadi: shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta’minlaydigan individual psixologik xususiyatdir.

Qobiliyatli pedagoglarda quyidagi noyob qobiliyatlar ham ko‘zga tashlanadi;

- bir vaqtning o‘zida bir necha faoliyatni bajara olish (eshitish, ko‘rish, o‘qish, yozish, fikr yuritish, muloqot qilish va b.);
- atrofida kechayotgan ikki yoki bir necha voqelikni birdek qabul qilish (bir talabaning ma’ruzasini eshitgani holda, boshqa talabalarning faoliyatlarini kuzata olish);
- o‘ta qiziquvchanlik (tabiat va jamiyatda kechayotgan har bir voqea-hodisa (garchi ular eng ahamiyatsiz, e’tiborga tashlanmaydigan bo‘lsada) mohiyatini bilishga intilish, haddan ziyod ko‘p savollarga javob topishga intilish);
- miya faoliyatining biokimyoviy va elektrik faolligi (miya deyarli to‘xtovsiz faoliyat ko‘rsatib, nihoyatda kam vaqt “dam oladi”, bilish jarayonida noaniqliklar ko‘zga tashlansa, ular tezda bartaraf etiladi; uyquchanlik qobiliyatli pedagoglarga xos xususiyat emas);
- nutqi va fantaziyasining boyligi (qobiliyatli o‘qituvchilarning aksariyati nihoyatda boy nutqqa ega, ularda fantaziya (tasavvur qilish) qobiliyati beqiyos darajada kuchli);
- kuchli xotira (yirik hajmdagi matnni bir marta o‘qish bilan to‘laligiga yodlab olib, uni so‘zma-so‘z qayta hikoya qilib berish qobiliyati)ga egalik. Zamonaviy sharoitda o‘qituvchining kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishi, o‘z ustida izchil ishlashi, kun sayin yangilanib borayotgan bilimlarni o‘zlashtirishga intilishi, o‘quv axborotlarini talabalarga qiziqarli tarzda yetkazib berish uchun mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rishga ijodiy yondasha olishi talab etilmoqda.

Xulosa: Ta’lim tizimida tom ma’noda oquvchilarga sifatli, foydali, muhim, zarur, kerakli va amaliy ahamiyatga ega ma’lumotlarni tizimli ravishda yetkazib bera olishi uchun bugungi kun o‘qituvchisi, axborotlarni tezkor qabul qilish, qayta ishlash va o‘quvchilarga samarali, qiziqarli tarzda yetkazib berishning uddasidan chiqa olishi zarur. Bu esa o‘qituvchining kasbiy kompetentlik sifatlari, pedagogik mahorat asoslari hamda kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishi zaruriyat sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности – СПб.: СПГУТД, 2006
2. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya.– “Fan va texnologiya” nashriyoti, T.: 2013- y
3. N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To‘rayev - Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent. “Sano-standart” 2015-y

7-14 YOSHLI MAKTAB O‘QUVCHILARI ICHIDAN VOLEYBOL SPORT TURIGA TANLAB OLISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH YUZASIDAN TAJRIBA SINOV ISHLARI VA UNING SAMARADORLIK DARAJASI

Alimbetova Aynura Targinovna.
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali “jismoniy tarbiya teoriyasi va gumanitar fanlar kafedrasi”stajyor o‘qituvchisi

Harakatli o‘yinlarni mashqlar shaklida qo‘llash sport mashg‘ulotlarida uning sport yutuqlarini o‘sishiga ta’siri bilan belgilanishi qoidasidan kelib chiqishi kerak. Amaliy tajribalarni o‘rganib chiqish boshlang‘ich o‘rgatish davrida yosh voleybolchilarni tayyorlash asosan belgilangan jismoniy mashqlardan foydalanish bilan olib borilishini ko‘rsatdi.

7-14 yoshli maktab o‘quvchilari ichidan voleybol sport turiga tanlab olish usullarini takomillashtirish yuzasidan tajriba-sinov ishlarining tashkiliy-metodik asoslari.

Har bir ilmiy-tadqiqot ishidan avval o‘rganiladigan muammo yuzasidan ilmiy «ehtimol» (gipoteza) belgilanadi. Ushbu muammoni o‘rganish natijasida shu «ehtimol» isbot asosida tasdiqlanadi yoki tasdiqlanmaganligi e’tirof etiladi.

Ilmiy ish o‘z maqsadi va vazifalariga mos keluvchi muayyan reja asosida amalga oshirildi. Har bir ilmiy ishning pirovard natijasi amaliyotga foydali ta’sir ko‘rsatishi lozim. Har bir ilmiy ish o‘ziga xos bo‘lgan tekshiriluvchi obyekt, ilmiy uslublar va kerakli uskuna-anjomlarga ega bo‘lishi shart. Ilmiy tekshirish, asboblar yordamida o‘lchash, tekshiruvni o‘tkazish shart-sharoitlari yagona standart holatda bo‘lishi muhim. Olingan ilmiy ko‘rsatkich va natijalar tekshirilgan jarayonni aniq ifoda etishi zarur.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy ish olib boruvchi har bir tadqiqotchi tekshiriluvchi obyekt inson ekanligini yoddan chiqarmasligi talab qilinadi.

Ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil qilish va o‘tkazishda eng asosiy uslublaridan biri pedagogik kuzatuv bo‘lib hisoblanadi. Pedagogik kuzatuv oldindan puxta ishlab chiqilgan maxsus reja asosida amalga oshirilib, o‘z maqsad va vazifalariga ega bo‘lishi darkor. Pedagogik kuzatuvni ma’lum tartibda muntazam olib borilishi muhim shartlardan biridir.

Jismoniy tarbiya tizimida, jumladan sport o‘yinchilariga oid sport turlari doirasida ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish dastavval shu turlar amaliyotiga xos turli yo‘nalishdagi ilg‘or tajribalarni o‘rganishni talab qiladi. Masalan: etakchi murabbiylar tajribasi, etakchi sportchilar tajribasi, etakchi jamoalar tajribalarini o‘rganish. Ushbu tajribalarni o‘rganish uslubiy jihatdan quyidagi tartibda amalga oshirildi:

1. Reja tuzish.
2. Maqsad va vazifalarni belgilash.
3. O‘rganiladigan asosiy masalalarni belgilab olish.
4. Olingan natijalarni statistik jihatdan umumlashtirish.

O‘rganiladigan jarayonlar:

- adabiyotlarni tahlil qilish;
- rejalashtirish hujjatlarini o‘rganish;

- pedagogik kuzatuv;
- treniroka mashg‘ulotlarini qayd etish;
- so‘rovnoma o‘tkazish;
- suhbatlar o‘tkazish;
- mashg‘ulot va musobaqalar natijalarini (o‘yin malakalari soni, hajmi va samarasi) to‘plash;
- kundalik daftarlarni o‘rganish.

Ilmiy tadqiqot uslublari:

- xronometriya;
- stenografiya;
- dinamometriya;
- miografiya;
- pulsometriya;
- kardiografiya;
- spirografiya;
- radiometriya;
- ensefalografiya va h.k.

Muayyan ilmiy ish dastavval o‘rganish uchun tanlab olingan ob’ekt yoki jarayonning holati va uning dinamikasi belgilangan maqsadga mos ravishda uzoq vaqt davomida tadqiqot asosida tekshirildi. Olingan natijalar chuqur va atroflicha tahlil qilindi. Tekshiruv statistik jihatdan etarli darajada amalga oshirilganidan so‘ng maxsus rejaga binoan pedagogik tadqiqot 1-2 yil davomida o‘tkazilishi mumkin. Pedagogik tadqiqot o‘tkazish uchun tekshiruvchilarning yoshi, jinsi, jismoniy va sport tayyorgarligi imkoniyati boricha bir xil bo‘lgan ikkita guruh tanlab olinadi. Tekshiruvchilar soni ularning sport malakasi, belgilangan maqsad va vazifalarga qarab 10-15 tadan 50-100 tagacha bo‘lishi mumkin. Tadqiqotda ishtirok etadigan ikki guruhdan biri nazorat guruhi, ikkinchisi esa tadqiqot guruhi deb ataldi.

Nazorat guruhi amaldagi dastur asosida shug‘ullanaverdi. Faqat ushbu guruh tadqiqot boshida, o‘rtasida va yakunida tanlangan ilmiy uslublar yordamida tekshirildi.

Tadqiqot guruhi esa ilmiy asosda ishlab chiqilgan maxsus reja dastur bo‘yicha shug‘ullanishni davom ettirdilar. Tadqiqotning maqsad va vazifasiga qarab tekshiriluvchilar har mashg‘ulot davomida yoki bosqichma-bosqich tekshirildi.

Tadqiqot muddati ikki guruhda bir xil bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Barcha qilingan ishlar to‘rt bosqichga bo‘lindi.

I. Dastlabki tanlov–(7-8);

II. Sportchilarni o‘yin ixtisosligiga (funksiyasiga) saralovchi maxsus tanlov (9-10);

III. YUqori jamoalarga tanlov (11-12);

IV. Terma jamoalarga tanlov (13-14);

Ilk tanlov davrida sportchilarni maxsus kuzatishlar yordamida voleybol o‘yiniga ko‘nikmalari va malakalarini muvaffaqiyatli egallashga qobiliyatlari to‘g‘risida fikr yuritishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar olindi. Ularning sog‘liqlarini hisobga olib yosh sportchining qiziqishlari ularning voleybol bilan shug‘ullanishlariga ota-onalarning munosabatlari, shug‘ullanuvchining mehnatsevarliklari va irodaviy sifatlari va shu kabilar aniqlandi

Tadqiqotning ikkinchi bosqichda sportchilarni o‘yin ixtisosligiga (funksiyasiga) saralovchi maxsus tanlov bolalar bilan alohida jsmoniy sifatlar va tana tuzilishi alamatlarini bashoratlash ahamiyatini va operativ fikrlash doirasi aniqlandi.

Shu bilan birga, o‘quv-mashg‘ulot guruhiga kirish me’yorlarini va o‘quv-mashg‘ulot guruhlari o‘quvchilari uchun nazorat – sinov me’yorlarini ishlab chiqish maqsadida yosh sportchilarning ommaviy tekshiruvlari o‘tkazildi. 7-14 yoshli voleybolchilarni ommaviy tekshiruvini o‘tkazishda, somatik o‘lchamlarining o‘rtacha ko‘rsatkichi aniqlandi.

Uchinchi bosqichda yuqori jamoalarga tanlov sport maktablarining o‘quv-mashg‘ulot guruhlarida voleybol bilan shug‘ullanish uchun o‘smirlar saralash uslubiyatini asoslash maqsadida pedagogik tajribalar o‘tkazildi. Tajribalarda har biri 16 kishidan iborat 11-12 yoshli o‘quvchilarning bir guruh o‘g‘il va bir guruh qizlar ishtirok etdi.

Tajriba guruhi mashg‘ulotlarida ko‘proq musobaqalashish, o‘yin jarayonida voleybol sport turining texnika usullarini o‘rganishga e’tibor qaratildi, nazorat guruhi esa UJT dasturi bo‘yicha shug‘ullandilar.

Bir vaqtning o‘zida, olingan ma’lumotlarni tizimlashtirish, ularni matematik statistika uslubida

qayta ishlash, ishni ifodalash, tadqiqot natijalari tekshirish, ularni amaliyotga tadbiq etish amalga oshirildi.

To‘rtinchi bosqichda terma jamoalarga tanlov maqsadida mashg‘ulotlarda olingan ilmiylikka asoslangan holda tanlangan o‘quvchilar nufuzli musobaqalarda ishtirokini amalga oshirish jarayonlari amalga oshirildi. Bunda o‘yinchining o‘yin jarayonida kam kuch sarflab maksimal darajadagi natijalarga erishishi va vaziyatni oldindan ko‘ra bilib tezda to‘g‘ri qaror chiqarishi hamda o‘zini erkin tuta bilish jarayonlari tekshirildi. O‘tkazilgan tajribalarda 13-14 yoshli shug‘ullanuvchilar ishtirok etdi.

7-14 yoshli maktab o‘quvchilari ichidan voleybol sport turiga tanlab olish usullarini takomillashtirish yuzasidan o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining samarasi ushbu qilingan tadqiqodlarda o‘z aksini topgan..

Ko‘rsatilgan natijalar bo‘yicha o‘yin faoliyatining, musobaqa faoliyatining hajmi, alohida o‘yin faoliyati hajmi, alohida o‘yin usullarining o‘yin natijasiga ta’siri, yakka tartibdagi o‘yin faoliyatining samarasi, guruh va jamoa faoliyatining samarasi. ko‘rsatkichlarini tahlil qilish imkoniyati mavjud bo‘ladi

7-14 yoshli maktab o‘quvchilari ichidan voleybol sport turiga tanlab olish usullarini takomillashtirishning tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning samaradorlik darajasi

Pedagogik tadqiqotlar davomida 7-14 yoshli maktab o‘quvchilari ichidan voleybol sport turiga tanlab olish usullarini takomillashtirishning tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning samaradorlik darajasi eng avvalo tanlangan o‘quvchilar jismoniy sifatlarining dastlabki va rivojlanish dinamikasi, hamda bajarilgan mashg‘ulot va musobaqa yuklamalari parametrlari va sport texnikasining o‘zlashtirilish darajasi bilan belgilab berildi. Biologik ishonchlilik omillari ustidan tibbiy psixologik kuzatuv ob’ekti, organizmning barcha funksiyalarini faol mobillashuvi kabi tiklanish reaksiyalariga faol turtki beruvchi, bolalarda funksional va harakat iqtisodi hamda asab tizimi tipi xususiyatlarini aniqlashga asos bo‘luvchi hajmli jarayonlarni bashkarish tizimi o‘rganildi.

Psixologik uslubiyatlar yordamida, musobaqa va og‘ir mashg‘ulot sharoitida sport ishchanlik qobiliyatini saqlab qolish imkoniyatlari haqidagi tassavvurga ega bo‘lishga imkon beruvchi, kuch va asab jarayonlarining muvozanati, talab, motivatsiya, iroda sifatlari, ruhiyat qirralarining tavsifi tadqiq etildi.

7-14 yoshli maktab o‘quvchilari ichidan voleybol sport turiga saralash jarayonini, sport mashg‘ulotlari bilan bir vaqtda ko‘p yillar davomida o‘tkaziladigan bolalar yoki o‘smirlar shaxsini har tomonlama tahlil qilish kabi tushunchalar aniqlandi. Saralashda asosiy e’tibor maktab o‘quvchilarining voleybol mashg‘ulotlariga bo‘lgan genetik qobiliyatlariga qaratiladi. CHunki kuzatuvlar natijasi, ularda yaxshi ko‘rsatkichlar mavjudligini ko‘rsatdi.

Tadqiqot jarayonida yosh sportchilarni aynan voleybolga saralash bosqichida ularning sport tayyorgarligi tizimida birlamchi saralash tizimlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan amaliy mashqlar tizimi takomillashtirildi.

Moslashtirilgan saralash mashg‘ulotlari uchun bolalar saralanishi 7-14 yoshdan boshlanishi uchun harakat iqtidori, asosiy sport uchun ahamiyatli sifatlarni, birinchi navbatda umumiy va maxsus epchillik va tezkorlikni (uning namoyon bo‘lishi turlarida) kompleks baholash uslubiyatini qo‘llash tartibi belgilandi.

Yosh voleybolchilarni iqtidorini tashhisi uchun qo‘llaniladigan uslubiyatlar muntazam voleybol mashg‘ulotlari davrida birlamchi tekshiruvlardan so‘ng tanlob olinganlar bilan individual o‘zlashtirish tempini dinamik kuzatuvini o‘tkazish maqsafga muvofiq. Yosh voleybolchilarda sport uchun ahamiyatli sifatlarni rivojlanish dinamikasini hisobga olish, o‘quv-mashg‘ulot jarayoni tuzilishiga individual yondashish hamda har bir sportchining alohida sifatlarini rivojlanish darajasidan kelib chiqib, unga tuzatishlar kiritish imkoniyatini beradi. Shu maqsadda to‘liq dastur asosida muntazam takroriy tekshiruvlar o‘tkazildi. Bunda nazoratdagi ko‘rsatkichlardan har biri bo‘yicha o‘sish kattaligi aniqlandi va maxsus tayyorgarlikni individual egri o‘sish tempi tuzildi. Bu ko‘rsatkichlar kelajakda iqtidorning uchta eng muhim mezonlariga aylanadi: dastlabki daraja, yakuniy daraja, o‘sish tempi. Albatta dastlabki darajaga nisbatan o‘sish tempi yuqori bo‘lgan bolalarga e’tiborni qaratish lozim bo‘ldi.

Bob bo`yicha xulosalar.

Shunday qilib 7-14 yoshli maktab o‘quvchilari ichidan voleybol sport turiga saralash jarayoni bo`yicha barcha qilingan ishlar to‘rt bosqichga bo‘lindi.

I. Dastlabki tanlov–(7-8);

II. Sportchilarni o‘yin ixtisosligiga (funksiyasiga) saralovchi maxsus tanlov (9-10);

III. Yuqori jamoalarga tanlov (11-12);

IV. Terma jamoalarga tanlov (13-14);

Har bir bosqich davomida 7-14 yoshli maktab o‘quvchilari ichidan voleybol sport turiga saralash jarayonida qo`llanilgan harakatli o`yinlar va tanlangan mashqlar o`z samarasini berdi. Ko‘rsatilgan natijalar bo‘yicha o‘yin faoliyatining, musobaqa faoliyatining hajmi, alohida o‘yin faoliyati hajmi, alohida o‘yin usullarining o‘yin natijasiga ta’siri, yakka tartibdagi o‘yin faoliyatining samarasi, guruh va jamoa faoliyatining samarasi. ko‘rsatkichlarini tahlil qilib borildi.

Tadqiqot jarayonida 7-14 yoshli maktab o‘quvchilari ichidan voleybol sport turiga saralashda yosh sportchilarni aynan voleybolga saralash bosqichida ularning sport tayyorgarligi tizimini takomillashtirishga yo‘naltirilgan amaliy mashqlar tizimi takomillashtirildi.

Moslashtirilgan saralash mashg‘ulotlari uchun bolalar saralanishi 7-14 yoshdan boshlanishi uchun harakat iqtidori, asosiy sport uchun ahamiyatli sifatlarni, birinchi navbatda umumiy va maxsus epchillik va tezkorlikni (uning namoyon bo‘lishi turlarida) kompleks baholash uslubiyatini qo‘llash tartibi belgilandi.

Ushbu 7-14 yoshli maktab o‘quvchilari ichidan voleybol sport turiga saralash jarayonida amaliy tajribalar Toshkent shahar olmazor tumani 326-maktabi hamda 2-sonli BO`SM da olib borildi.

Umumiy xulosalar.

7-14 yoshli maktab o‘quvchilarining voleybol sport mashg‘ulotlarida bolalarning bazaviy saralab olinishiga aniqlashda moslashtirilgan harakatli o‘yinlar va maxsus mashqlar tizimi shug‘ullanuvchilarning iste’dodni baholash mezonlarini aniqlashda asos bo‘lib xizmat qiladi.

7-14 yoshli maktab o‘quvchilarning alohida voleybol sport turi bo‘yicha mashg‘ulotlarga qobiliyatli bolalarni saralab olish uchun ishlab chiqilgan me’yoriy talablar, sport tayyorgarligining har bir bosqichida pedagogik nazoratni to‘g‘ri amalga oshirish jarayonida o‘z samarasini beradi.

7-14 yoshli maktab o‘quvchilar ichidan voleybol sport turi bo‘yicha saralashning turli bosqichlarida yosh xususiyatlariga mos harakatli o‘yinlar va yordamchi hamda maxsus mashqlardan foydalanish jarayonini amalga oshirishga imkon yaratadi;

voleybol sport turida saralash mezonlari va uni tashkil etish monitoringini tizimlashtirishda dastlabki va takroriy tajribalar va tekshiruvlarni nazarda tutadi

7-14 yoshli maktab o‘quvchilarining voleybol sport mashg‘ulotlarida bolalarning bazaviy saralab olinishiga doir nazariy va amaliy ishlar jarayoni mexanizmi takomillashtiriladi.

7-14 yoshli maktab o‘quvchilar ichidan voleybol sport turi bo‘yicha saralashning turli bosqichlarida yosh xususiyatlariga mos harakatli o‘yinlardan foydalanish tizimi ishlab chiqiladi.

7-14 yoshli maktab o‘quvchilari orasidan voleybol sport turida saralash mezonlari va uni tashkil etish monitoringi tajriba-sinov va matematik statistik tahlil asosida tizimlashtiriladi.

Har bir ilmiy-tadqiqot ishidan avval o‘rganiladigan muammo yuzasidan ilmiy «ehtimol» (gipoteza) belgilanadi. Ushbu muammoni o‘rganish natijasida shu «ehtimol» isbot asosida tasdiqlanadi yoki tasdiqlanmaganligi e’tirof etiladi.

Ilmiy ish o‘z maqsadi va vazifalariga mos keluvchi muayyan reja asosida amalga oshiriladi.ushbu olib borilgan pedagogik tadqiqodning pirovard natijasi amaliyotga foydali ta’sir ko‘rsatishi lozim. Har bir ilmiy ish o‘ziga xos bo‘lgan tekshiriluvchi ob’ekt, ilmiy uslublar va kerakli uskuna-anjomlarga ega bo‘lishi shart. Ilmiy tekshirish, asboblar yordamida o‘lchash, tekshiruvni o‘tkazish shart-sharoitlari yagona standart holatda bo‘lishi muhim. Olingan ilmiy ko‘rsatkich va natijalar tekshirilgan jarayonni aniq ifoda etishi zarur.

Shunday qilib, qator holatlarda 7-14 yoshli maktab o‘quvchilari ichidan voleybol sport turiga saralab olish usullarini takomillashtirish jarayonida yosh voleybolchilarning jismoniy va texnik tayyorgarliklari darajasi dinamikasi pedagogik tadqiqod o‘tkazish butun davr davomida ularning natijalari, asta sekin yaxshilanib borganini ko‘rsatadi. Aynan 7-14 yoshli voleybolchilarning jismoniy tayyorgarliklari darajasining ijobiy va ijodiy o‘zgarishi ba’zi texnik uslublarni bajarish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatishi yaqqol ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Қонун. // Ўзбекистоннинг янги қонунлари.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги фармони.

3. .Бойбобоев Б.Ғ. Жисмоний тарбия дарсларида 11-14 ёшли ўғил болалар учун нагрузкани меъёрлаш.: Дис.… пед.фан.ном. – Т.,. 1999. – 152 б.
4. Саломов Р.С. Спорт машқларида қўлланиладиган усуллар. – Т.: Ўзавтотранстехника, 1991. – 31 б.
5. Нормуродов А.Н. Жисмоний тарбия. -Т.: Ўзбекистон. 1996.-192 б.
6. Пахомова Л.Э. Педагогический контроль за двигательной подготовленностью учащихся 4-10 классов школ г. Алма-Ата //Вопросы физического воспитания в условиях -Алма-Ата.1990. С.90-95
7. Усмонхужаев Т.С. Жисмоний тарбия дарс материаллари (I-III синф учун). – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 175 б.
8. Ханкелдиев Ш.Х. Физическая подготовленность учащейся молодежи. Т.: Медицина, 1996.- 205 с.

JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHĠULOTLARINI TOĠRI TASHKILLASHTIRISH VA UNING AMALIY AHAMIYATI

Bayram Nurekeev
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
“Yakka kurash va tabiiy fanlar” kafedrasining assistent
E-mail: **bayramnurekeev986@gmail.com**

Tayanch so‘zlar: jismoniy tarbiya, ta’lim, tarbiya, estetika, metod, jarayon, vosita, o‘quvchi, dars, emotsiya, sport, o‘yin.

Ключевые слова: физическое воспитание, образование, воспитание, эстетика, метод, процесс, инструмент, учитель, урок, эмоция, спорт, игра.

Key words: physical education, education, aesthetics, method, process, tool, teacher, lesson, emotion, sport, game.

Kirisiw. Jismoniy tarbiya darslarida jismoniy mashqlar, sport o‘yinlari, yengil atletika, gimnastika va harakatli o‘yinlardan foydalanishda ularni bajarib ko‘rsatish mashg‘ulotning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligi, harakat faoliyati haqidagi birlamchi tushuncha o‘quvchilarda harakatlarning natural shaklda bajarilishini ko‘rgandan so‘ng hosil bo‘ladi. Ko‘rgazmali qurollar, suratlar, chizmalar, maketlar, ayniqsa sekinlashtirib olingan kinolar, hujjatli, o‘quv filmlari, video, multvideo va hokazo vositalarda namoyon bo‘ladi. Ulardan foydalanish, taqlid qilib bajarish mashg‘ulotlarning estetik mazmunini anglash jarayonining ta’limiy va tarbiyaviy imkoniyatlarini orttiradi. Shuning uchun jismoniy tarbiya darslarida turli metodlardan keng qo‘llaniladi. Bu esa o‘quvchilarning estetik xususiyatlarini takomillashishiga olib keladi.

Harakat faoliyati jarayonida estetik tarbiya vositalariga quyidagilar kiradi:

-o‘qituvchi o‘quvchilarga go‘zallik daqiqalarini ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan jismoniy tarbiyaning har xil (jismoniy tarbiya bo‘limlari) turlari.

-bayramlar, tomoshalar;

-tabiiy va gigiyenik sharoitlar;

-musiqa va san’at asarlaridan foydalangan holda darslarni tashkl etish.

Yuqori sinf o‘quvchilarini jismoniy trbiya darslarida estetik tarbiyalashni amalga oshirish maqsad qilib qo‘yilgan darsga quyidagi didaktik talablar qo‘yildi:

- jismoniy tarbiya jarayonida yengil atletika, gimnastika, sport o‘yinlari, shaxmat va harakatli o‘yinlarning vazifalari, o‘quv materiallari mazmuni bilan o‘quvchilarning bilish faoliyatlari hamda mashg‘ulotlarni tashkil etishning metodlari va usullarining o‘zaro uyg‘unligi;

- mashg‘ulotdagi vazifalarni aniq qo‘yish hamda ularning asosiy harakatlaridagi estetik jihatlarga alohida e’tibor berish;

- o‘quvchilarda bajariladigan harakat elementlarining estetik go‘zalligini anglash ko‘nikmasini faollashtirish;

- mavjud didaktik imkoniyalardan unumli foydalanish;

- darsning mazmuni va metodlarining qulay bo‘lishini ta’minlash;

- materiallarni o‘zlashtirish jarayoni qulayligini ta’minlashda mashg‘ulotlarning optimal darajasiga erishish (9-11-sinflar bo‘yicha);

- yuqori sinf o‘quvchilarning yosh va jinsiy xususiyatlarini hisobga olish;

- o‘quvchilarga individual va tabaqalashtirilgan yondashuv

Misol tariqasida biz biron bir muammoning yechimi borasida kunlab oylab bosh qotiramiz va uni yechimini topganimizda o‘zimizning ichki olamimiz defferensial tartibda uzimizga bo‘y sinmagan holda kulishimiz, yig‘lashimiz, ko‘tarinki ruhga ega bo‘lishimiz, o‘zgalar bilan o‘rtoqlashishimiz, yechilgan masalani ko‘rib undn baxra olish kabi estetik zavqlanish xislari bizni qamrab oladi. Bu esa bizning ma’naviy olamimizda estetik xususiyatning nechog‘lik muhim ekanligini anglatdi.

Yuqori sinflarda o‘qitiladigan jismoniy tarbiya o‘quv fanidan tayyorlangan davlat ta’lim standarti (DTS) o‘zining tuzilishi va mazmuniga ko‘ra jismoniy tarbiyani o‘qitish jarayonida o‘quvchi shaxsi, uning jismoniy rivojlanishi, intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqadi. Ammo amaldagi dasturlar bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘quv qo‘llanmalarida taqdim qilinayotgan topshiriqlar har doim ham o‘quvchilarning estetik tarbiyalanganlik darajasini o‘stirishga mo‘ljallangan emas. Shu maqsadda amaldagi dasturning tuzilishi, mazmuniga putur yetkazmagan holda unga o‘quvchilar bilimi, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan asosiy talablarni hisobga olib, dars mazmuniga emotsional yuklama, o‘zining estetik mazmuniga ega bo‘lgan jismoniy mashqlar va harakat elementlariga oid materiallar kiritildi. Ular yuqori sinf o‘quvchilarining mashg‘ulotlar mazmunidagi nafosatni anglashga bo‘lgan qiziqish va ehtiyojlarni faollashtirishga hizmat qiladi.

O‘quvchilar jisoniy tarbiyaga bo‘lgan qiziqishlari, turli sport o‘yinda qatnashib, undagi zarur harakatlarni bajarish jarayonlari estetik jihatdan yo‘naltirilgan bo‘lishi ishimizda tadqiq etilayotgan muammoni hal etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o‘qituvchilarni zarur bo‘ladigan talablar, tavsiyalar, eslatmalar, jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotining estetikaga bog‘liq bo‘lgan jihatlaridan foydalanish bo‘yicha metodik ishlanmalar bilan ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq mashg‘ulotlarga qiziqish muammosi asosiy maqsadni chetlab o‘tmasligi kerak.

Jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarni estetik tarbiyalash jarayonini takomillashtirish modeli va uni amalga oshirish shartlarida belgilangan bosqichlar asosida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- **1-bosqich.** O‘quv mashg‘ulotlarida shaxsiy va jamoa gigenasi talablarini o‘quvchilar ongida shakllantirish. Yani, kun tartibi, shaxsiy va jamoat gigiyena qoidalariga rioya qilish, turli asbob-uskunalardan foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish, gigiyena qoidalariga rioya qilish kerakligi haqida tushunchaga ega bo‘lish, ikki tomomonlama o‘yinda o‘yin qoidasi va jamoa gigiyenasi qoidalariga qat’iy rioya qilgan holda mashg‘ulotda ishtirok etish. Buning zamirida o‘quvchilarning shaxsiy kiyimlarining go‘zalligi, harakatlar nafisligi va boshqa o‘ziga bo‘lgan ichki go‘zallikning shakllanib borishi;

- **2-bosqich.** Dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning estetik sifatlarini tarkib topishida jarayonga ongli ravishda yondashishga o‘rgatish. Ushbu bosqichda yuqori sinf o‘quvchilari asosan sport to‘garaklarida ko‘proq ishtirok etishi hammaga ma’lum, buning natijasida o‘quvchilarda mashg‘ulotlar jarayonida o‘rganilgan harakat elementlari va uning mazmanidagi estetik jihatlarni o‘zi shug‘ullanayotgan sport turi mazmunida ham xis etishi;

- **3-bosqich.** Egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zgalarga tushuntira olish qobiliyatiga ega bo‘lishi. Jismoniy tarbiya darslarida o‘rganilgan mashg‘ulotlarning oilada, mahallada, o‘rtoqlar bilan surli sport o‘yinlarida, musobaqalarda o‘z jamoasiga tushuntirish va o‘rgatish nazarda tutiladi. Natijada o‘quvchi tomomnidan jismoniy faoliyatdan baxra olish ko‘nikmalari keng jamiyat mazmuniga singib boradi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda izchillik, uzviylik, xususan jismoniy harakatlarning bir-biriga aloqadorligiga alohida e’tibor qaratildi. Shuning uchun ham eksperiment doirasida tadqiq etilayotgan mashg‘ulotlarning turlari o‘quvchilar yoshiga hamda fiziologik imkoniyatlariga mosligi ta’minlandi. Shuningdek, o‘quvchilarda harakat texnikalari mazmunidagi estetik jihatlarni o‘zlashtirganlik darajalari o‘quvchilarining yoshiga va fiziologik imkoniyatlariga muvofiq tarzda aniqlandi. Unda tadqiqot maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan mezonlarga asoslanindi.

Tajriba-sinov ishlari to‘rt bosqichda, ya’ni ta’kidlovchi, izlanuvchi, shakllantiruvchi hamda yakunlovchi bosqichlarda amalga oshirildi.

Tadqiqot muammosiga oid manbalarni o‘rganish natijasida shakllantirilgan nazariy xulosalar, amaliyotni kuzatish natijalari, tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy g‘oyalarni samaradorlik darajasini eksperimental sinab ko‘rish maqsadida tajriba-sinov ishlari o‘ztkazildi. Tajriba-sinovda qo‘yidagi masalalarga amaliy yechim topish asosiy vazifalar sifatida belgilandi, ya’ni o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari yuqori sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiya darslari jarayonini kuzatish; ular bilan savol-javob,

so‘rovnomalar, suhbat o‘tkazish; ilg‘or pedagogik tajribalarni amaliyotga tatbiq etish; tajriba-sinov materiallarini amaliy darslarda sinovdan o‘tkazish kabi metodik yondashuvlardan foydalanildi.

Juwmaqlaw. Jismoniy tarbiya darslarida yuqori sinf o‘quvchilarini estetik tarbiyalashning didaktik imkoniyatlaridan optimal tarzda foydalanish asosida o‘yinlarning asoslarini anglash ko‘nikmasini shakllantirsh tanlangan hamda ilmiy asoslangan o‘quv materiallar bo‘yicha maxsus ishlab chiqilgan metodika doirasida amalga oshirildi.

Adabiyotlar:

1. Lixachev.B.T. Teoriya esteticheskogo vospitaniya. – M.: Prosvesheniye, 1995. – 175 s.
2. Makhmudov B.A. Methodology for improving the training mechanism of physical culture specialists. OVATEUR PUBLICATIONS JournaINX - A Multidisciplinary Peer ReviewedJournal ISSN No: 2581 - 4230 VOLUME 9, ISSUE 5, May -2023 Impact Factor (2022): 8.155.
3. Холодов, Ж.К. - Теория и методика физического воспитания и спорта [Текст] / Ж. К. Холодов, В. С. Кузнецов. – М.: Академия, 2000. – 480 с

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Ataxanov Hamidullo Kozimjonovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Jismoniy madaniyat fakulteti dekan o‘rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy tarbiya darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik xususiyatlari haqida qisqacha mazmuni bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Jismoniy tarbiya, o‘qituvchi, yoshlar, xususiyat, shaxs, xotira, qobiliyat, bola, nutq.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi jismoniy tarbiya jarayonida o‘quvchi-yoshlar va bolaning yosh xususiyatlari va psixik jarayonlari, shaxs xususiyatlarining rivojlanishini farqlash, psixik jarayonlar (diqqat, nutq, sezgilar, idrok, xayol, xotira, tafakkur, hissiyot va boshqalar), psixik holatlar (emotsiyalar, hayratlanish, ishonchlilik, ijodiy ruhlanish, e’tiqodlilik, apatiya, qiziquvchanlik, bardamlilik, tetiklik) va shaxs xususiyatlarini (temperament, qobiliyat, iqtidor, mas’uliyat xarakter) jismoniy tarbiya va sport bilan bog‘lay olish lozim. Mashg‘ulot jarayoni, uning ta’siri, musobaqa davrida, musobaqadan so‘nggi, davr, jamoa orasidagi munosabat holatlarining shakllanishi ahamiyatini bilishi lozim.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining faoliyat turidan qat’iy nazar faoliyat tarkibiy qismi, odatda, bir xil his etish va idrok qilishlar bilan bog'liq bo‘lgan perseptiv (masalan o‘quvchilami kuzatish), ma’lumotni eslab qolish va qayta tiklash bilan bog‘liq bo‘lgan monemik, faoliyat jarayonida yuzaga keladigan vazifani hal etish bilan bog‘liq bo‘lgan fikrlovchi, tasavvur qiiish, yangi mashqlarni o‘ylab o‘quvchi faoliyatiga ta ’sir qiiish alohida o‘rinni egallaydigan harakatlantiruvchi tarkibiy qismlarga ajratiladi. Faoliyat bir qancha bosqichlarda amalga oshiriladi, tayyorlanish bosqichi, rejani bajarish (asosiy bosqich) bosqich va erishilganlikni baholash bosqichi (yakunlovchi bosqich).

Birinchi bosqichdajismoniy tarbiya o‘qituvchisi juda katta hajmda ish bajaradi. Reja bo‘yicha konspekt tuzadi, ularga tayyorlanadi, joylami (zalni, suv havzasini, sport maydonini, stadionni) tayyorlaydi. Darsga oid bo‘lgan barcha sport anjomlarini, qurollarini tayyorlaydi. Bu bosqichga faoliyatni yanada muvaffaqiyatii amalga oshirish uchun o‘quvchilarga qulay bo‘lgan sharoitlarni yaratish va jismoniy tarbiya o‘qituvchisining psixologik tayyorlanganligi kiradi.

Ikkinchi bosqichda o‘quvchilami (shug‘ullanuvchilami) nazorat qiiish, ulami tarbiyalash (axloqiy, aqliy, estetik, mehnat vazifalarini tarbiyalash jihatidan), tartib saqlash, ulami jarohatlanishdan saqlash va hokazolar kiradi. Belgilangan ishlarni amaliy tatbiq qiiish, o‘quvchilar harakatlari, intizomini nazorat qiiish, dars boshida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish, vaziyat o‘zgarishiga ko‘ra dars rejasini to‘g‘rilash bilan bog‘liq. Bu bosqichda chetda qolgan o‘quvchilar o‘rtasidagi e ’tibomi doimo taqsimlash va olib o‘tish jismoniy jarohatlanishga olib keladigan vaziyatlaming oldini olishga ko‘ra o‘qituvchining sergakugi bilan shartlanadigan o‘qituvchi psixik kuchlanishi bilan tavsiflanadi, boshqacha qilib aytganda, jismoniy tarbiya o‘qutuvchisiga nafaqat psixik jihatdan, balki jismoniy jihatdan ham jismoniy yuklanish tushadi.

Uchinchi bosqich (yakunlovchi bosqich) unda o‘tkazilgan darsdagi yutuq va kamchiliklarga baho beriladi. Brishilgan natijalar baholanadi, jismoniy tarbiya o‘qutuvchisini faoliyati funksiyasi jismoniy tarbiyaning maqsadi va vazifalarining kelib chiqishi lozim. Faoliyatni qayta bajarishda rejaga to‘g‘rilashlami kiritish bilan bog‘liq, o‘tilgan darsning to‘liq tahlili, ba’zi bir noto‘g‘ri dalitlarni umumlashtirish, ilmiy uslubiy adabiyotda yuzaga kelgan savollrda javob qidirishni talab qiladi.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining asosiy maqsadi ulaming garmonik shakllanishiga va jamiyatga sadoqatli, vatanparvar bo‘lib yetishishiga yordam berishdir. Shuningdek tarbiyaviy, ilmiy, tashkiliy, rahbarlik, loyihalashtirish, ma’muriy-xo‘jalik funksiyalarni ham bajarishga to‘g‘ri keladi.

O‘quvchilar jismoniy tarbiyasining maqsadi - Mustaqil Vatanga barkamol rivojlangan va sodiq bo‘lgan shaxsni shakllantirishga yordam berish bo‘lib, bu maqsadga o‘quvchilar ta ’lim-tarbiyasi jarayonida erishiladi. Umumiy vazifalarda ochib beriladi va aniqlashtiriladi. Shuningdek, ta’limiy, tarbiyaviy, sog‘omlashtirish vazifalari qo‘yiIad!. Bu vazifalami hal etishda boshqalari hisobiga birini ustun qo‘yishga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Ba’zida sport yo‘nalishiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar tarbiyaviy va umumta’lim vazifalarini unutib, asosiy e’tiborni o‘quvchilar jismoniy rivojlanishiga beradilar. Boshqa holda ikki tarbiyaviy va sog‘lomlashtirish vazifalari aziyat chekadi. Aytib o‘tilgan uchta vazifalami hal etish jismoniy tarbiya o‘qituvchisi bilan bajariladigan ishlar turliligi bilan shartlanadi. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining foaliyati shakllari turli-tumandir. Bu avvalo bor sinf va sinfdan tashqari ishlardan kelib chiqadigan maktabdagi ishdan iborat. Sinfdagi ish bu jismoniy madaniyat bo‘yicha darslarni o‘tkazish: u o‘qituvchining asosiy o‘quv yuklamasini tashkil qiladi. Sinfdan tashqari ish sport tugaraklari va seksiyalari mashg‘ulotlarni o‘tkazish. Maktab ichidagi sport musobaqalarini tashkil qilish va o‘tkazish, sport bayramtarini o‘tkazish, turistik, safar, harbiy sport o‘yinlarini o‘tkazishni o‘z ichiga oladi. Bu erga jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kichik sin f o‘qituvchilari, tarbiyachilari o‘quvchilari, ota-onalari bilan olib boradigan ma’rifiy ishi ham kiradi.

Maktabdan tashqarida jismoniy tarbiya o‘qituvchisining ishi dam olish lagerlari va mehnat oromgohlarida o‘quvchilar jismoniy tarbiyasini ta ’minlash bilan bog‘liq. Shuningdek, turar joy bo‘yicha o‘quvchilar jismoniy tarbiyasi !shini ham o‘z ichiga oladi. Hozirgi paytda o‘sib kelayotgan avlod jismoniy tarbiyasiga katta e ’tibor berilmoqda. Sport inshootlari va jismoniy madaniyat xodimlariga ega bo‘lgan maktab o‘quvchi-yoshlar ichida jismoniy madaniyatni ommalashtirgan, o‘quvchilar qiziqishlariga ko‘ra imkon boricha ko‘pgina o‘quvchiiami jismoniy tarbiya bilan muntazam shug‘uianishiga jalb qilgan, jismoniy madaniyat qonun buzarliklarining oldini olish va tarbiyasi o g‘ir bolalarni qayta tarbiyalash vositasi sifatida qollangan holda bu ishni amalga oshirishda o‘ziga xos Nizom bolishi kerak.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi faoliyatining sharoitlari: Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi faoliyati boshqa o‘qituvchilar faoliyatiga nisbatan o‘ziga xos sharoitlarda kechadi. Bu sharoitlaming uch guruhini ajratish mumkin. Bular psixik kuchlanish, jismoniy yuklanish, ochiq havoda mashg ulotlami o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan tashqi muhit omillari. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi faoliyati sharoitlari xususiyati jismoniy mashqlami ko‘rsatish va jismoniy mashqlami bajarishda o‘quvchilarning xavfsizligini ta ’minlash hamda ochiq havoda, safarlarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda o‘quvchilar o‘quvchilar bilan birgalikda harakatlanish zaruriyatidan iborat. Bu kunda bir qancha darslaming mavjudligi jismoniy tarbiya o‘qituvchisi uchun katta jismoniy yuklamani yaratadi. O‘qituvchi butun kun davomida oyoqda tik turishi, harakatda bo‘lishi oyoq va qadni rostlovchilarga yuklama yaratishini hisobga olish kerak.

Yosh o‘tgan sari jismoniy konditsiyalar yomonlashishini e’tiborga oigan holda jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tarbiya o‘qituvchilari bilan sinaladigan jismoniy yuklama pedagogik faoliyatining amalga oshirilishini qiyinlashtiradigan omillaridan biri bolishi muqarrar, Ayniqsa bu erkak o‘qituvchilar jismoniy qobiliyatlari darajasiga qaraganda kam bo‘lgan ayol o‘qituvchilariga tegishli. Jismoniy konditsiyalar o‘sishiga ko‘ra yo‘qotish!ar mashqlami ko rsatishda o‘qituvchinsini ortiqcha kuch ishlatishga majbur qiladi. Natijada ko‘rsatilayotgan mashqlaming estetik tomoni, uni bajarish yangiligi va erkinligi yo‘qoladi. Bu esa salbiy pedagogik oqibatlarga ega, chunki bog‘liqbola uchun kuch, chaqqonlik, chidamlilik, egiluvchanlik namunasi hisoblanadi. Bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun o‘qituvchi yana jismoniy yuklamaning o‘sishiga olib keladigan o‘z jismoniy tayyorgarligini muntazam ushlab turishi lozim. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi faoliyatini o‘ziga xos tomonlaridan biri uning tez-tez havoda o‘quv mashg‘ulotini (to‘garaklami) o‘tib turishidir. Bu omil ijobiy va salbiy jihatga ega. Hamma narsa ob-havo va iqlim sharoitlariga bog‘liq. Masalan, o‘rta Osiyo va Janubiy hududlarning qizib ketishi, qishda (yog‘ingarchilikda) havoning sovib ketishi hollari uchrab turadi, bu bog‘liquchun xavf tug'diradi. Bu sharoitlar o‘qituvchidan chiniqqanlik va mustahkam sogliqni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев А. Жисмоний тарбия воситалари. Ўқув қўлланма. - Фарғона, 1999.
2. Абдуллаев А. Жисмоний тарбия воситалари. Ўқув қўлланма. – Фарғона, 1999.
3. Абдуллаев А., Расулов Р., Хасанов А., Умумий ўрта ва касб-хунар таълими тизимларида жисмоний тарбияда синфдан ташқари ишлар. – Тошкент, 2009.
4. Абдумаликов Р., Юнусов Т.Т. ва бошқалар. Ўзбекистонда жисмоний тарбия таолимининг ривожланиши», методик тавсиянома. – Тошкент: ЎзДЖТИ наш., 1992.
5. Алматов К.Т., Клемешева Л.С., Матчанов А.Т. Возрастная физиология. – Тошкент, 2002.

INNOVATSION KLASTER YONDASHUVI ASOSIDA BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINING KASBIY FAOLIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Boltayev Shamshodjon Elmurod o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Jismoniy madaniyat metodikasi o‘qituvchisi, O‘zbekiston, Chirchiq
e-mail: *sh.boltaev@cspi.uz*
Jonuzoqov Umidjon G`ulom o`g`li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabasi, O‘zbekiston, Chirchiq.

Kalit so‘zlar: innovatsion yondoshuv, kommunikativlik, texnologik mahorat, kreativ, reflektiv.
Key words: innovative approach, communication, technological mastery, creativity, reflectivity
Ключевые слова: инновационный подход, коммуникативность, технологическое мастерства, креативность, рефлективность

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida: Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqida “Tegishli ma’lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo‘lgan va ma’naviy-axlokiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish xuquqiga ega ekanligi ko‘rsatilgan. Pedagog o‘qituvchi - ta’lim – tarbiya jarayonida maxsus ma’lumot bo‘yicha tayyorgarlikka ega katta bir avlod o‘z sohasi bo‘yicha o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini quyi avlodga o‘rgatuvchi ijodkor shaxs-mutaxassisdir.

Bakalavrni tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish xuquqiga ega deb ko‘rsatilgan. Agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, pedagogik oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan shaxslarga kayta tayyorlash kurslaridan o‘tgandan keyin ta’lim tashkilotlarida (bundan oliy ta’lim tashkilotlari mustasno) pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi beriladi.”- deb e’tirof etilgan.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi darslarda o‘quvchilarni jismoniy tayyorgarligi va intellektual jihatdan rivojlantirish qonun - qoidalarini mujassamlashtirgan va pirovard natijani kafolatlaydigan kreativ, reflektiv, pedagogik, psixologik, texnologik jarayonlarni jadal o‘zlashtirishi, takomillashtirishiga ijodiy munosabatlari - innovatsion yondoshuvdir.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarning jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchi - yoshlarga jismoniy tarbiya va ommaviy sport tadbirlarini, harakatli o‘yinlar, gimnastika, sport, turizm bo‘yicha sinfdan va maktabdan tashqari sport mashg‘ulotlarini innovatsion, interfaol shakl,uslub va vositalarda o‘tkazilishi o‘quvchi – yoshlarda bo‘shanglik, qo‘rqoqlik, o‘z kuchiga ishonmaslik, dangasalik va boshqa axloqiy kamchiliklar oldini oladi.

Tadqiqot vazifasi: Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining asosiy vazifasi o‘quvchi – yoshlarni jismonan tetik, xushchaqchaq, mehnatsevar, jasur, vatanparvar, axloqan pok, ma’naviyatli barkamol bo‘lishi uchun o‘zining ilmiy, metodik, kasbiy mahorati bilan zamon talablari asosida ta’lim - tarbiya berish bir qatorda, bolalarni sportga muhabbatni uyg‘otish, o‘sib kelayotgan avlodda sport bilan shug‘ullanish, sog‘lom turmush tarzini olib borish, jismoniy va ma’naviy komillikka intilish muhimligi tushunchasini shakllantirish, o‘quvchi yoshlarni salbiy ta’sirlardan himoya qilishga va zararli odatlardan xalos etishga doir chora-tadbirlar majmuini amalga oshirishdan iboratdir.

O‘qituvchining kommunikativligi – hamkasblari, ota – onalar, o‘quvchilar bilan axborot almashinuvidagi do‘stona munosabatlari, munozara faoliyatlaridagi nutqi va texnologik mahorati, jismoniy tarbiya ta’limi jarayonlariga innovatsion yondoshuvlarga munosabati, yuksak darajadagi muloqot ko‘nikmalaridir.

O‘qituvchining pedagogik, metodik mahoratlari va texnikasini hamda kasbiy faoliyatni rivojlanishini innovatsion yondoshuvlarda jadal suratlarda amalga oshirishi samaradorlik va sifat kafolatidir.

O‘qituvchi innovatsion faoliyatining asosiy belgilaridan biri uning ijodiy faolligi, ijodkorligi hisoblanadi. O‘qituvchidan yangiliklarni o‘zlashtirib borish bilan birga ularni o‘z faoliyatida qo‘llashi va pedagogik jamoa o‘rtasida targ‘ib qilishi talab etiladi. Innovatsion faoliyat pedagogik mahoratning yuqori bosqichi bo‘lib, bunda jamoa a’zolari bir-birini qo‘llabquvvatlashi, kiritilayotgan yangilikning maktabda o‘z o‘rnini topishiga ishonch bilan qarash, qiyinchiliklarga duch kelganda ruhan tushkunlikka tushmasdan, o‘z xatolarini ko‘ra bilish va ularni tuzatishga harakat qilish talab etiladi. O‘z-o‘zini tarbiyalab borish, o‘z ustida tinmay ishlashga harakat qilish innovatsion faoliyatning asosiy sharti hisoblanadi.

Ta’lim sifatini oshirish jamiyatning barcha jabhalarida hayotni yaxshilashga olib keladi. Yangilik kiritish ta’lim sifatini oshirishning samarali vositasi bo‘lganligi uchun ham rivojlangan davlatlar ta’lim jarayoniga uzluksiz yangilik kiritishga harakat qiladilar. Ko‘pgina mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, innovatsion jarayonlarda ta’lim tizimidagi barcha bo‘g‘inlar ishtirok etishi lozim. Ammo innovatsion jarayonlar yuqoridan pastga qarab harakatlansa va bunda o‘qituvchi bo‘ysunuvchi, ya’ni yangilikning faqat iste’molchisi bo‘lib qolsa, u holda bu jarayon byurokratik tus oladi.

Innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonida maqsad aniq belgilanib, o‘qituvchining oldingi faoliyatini tashxislash asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

O‘qituvchi innovatsion faoliyatining natijasi quyidagilarda ko‘rinadi: -bajarilishi lozim bo‘lgan ishning maqsadini aniqlay olishida; -nostandart vaziyatlarni tahlil etib, tezkor xulosalar chiqara bilishida; -o‘quv jarayoni bilan bog‘liq masalalarni echish usullarini egallaganligida;

-muammolarni hal etishning maqbul vosita va usullarini izlab topish, kuzatish va tajriba natijalarini tizimlashtirishda;

-o‘z ustida mustaqil ishlashni rejalashtira olishida; -o‘z ishi natijasini nazorat va tahlil qila olishida;

-yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasining mavjudligida;

-yangi g‘oyalarni izlab topa olishi, pedagogik masalalarni algoritmlashtirish malakasiga egaligida.

XULOSA VA MUNOZARA

Innovatsion faoliyatning shakllanganlik darajasi o‘qituvchida o‘z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish ko‘nikma va malakalari tarkib topganligi, o‘qituvchi o‘z faoliyatida innovatsiyalarni, pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olish mahoratiga egaligi bilan tajriba-sinov ishlari rejasini va dasturini tuzishi va uni amalga oshirish malakasiga egaligi, o‘zidan boshqa pedagoglar tajribalarini tahlil qilib, uni amaliyotda qo‘llay olishi, fikr va tajriba almashib, metodik yordam ko‘rsata olishi, mualliflik konsepsiyalarini yarata olish mahoratiga egaligi, ziddiyatlar oldini olish, pedagogik vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishi bilan belgilanadi.

O‘qituvchining yangilikni o‘zlashtirib olishga tayyorligi o‘ziga xos mezonlarga ega bo‘lib, ular quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

-o‘qituvchining yangilik haqidagi ma’lumotlarga egaligi;

-o‘qituvchi motivatsiyasi; -o‘qituvchining malakaviy tayyorgarligi; Xulosa qilib aytganda o‘qituvchi fikrining ravonligi va maqsadga muvofiq yo‘llay olishi, o‘ziga xoslik, qiziquvchanlik, farazlar yaratish qobiliyati – fantaziyasi, o‘quvchining qobiliyati, layoqatini o‘rganish va zamonaviy baholash metodikalarini o‘zlashtirgan va dars jarayoninga tatbiq eta olishi kreativlik faoliyatidir. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi hamkasblari hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni ijodiy o‘rganishi, amaliyotida qo‘llay olishi va darslik va metodik jurnal va adabiyotlarni mustaqil mutolaasi orqali uzluksiz bilim, ko‘nikma va malakasini oshirib borishi ta’lim jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchining o‘quvchi qalbiga yo‘l topa olishi, ishonchiga kirishi, ishontira olishi, mustaqil faoliyat yuritish ko‘nikmasini shakllantirishi, kommunikativ muloqotga kirishishidagi mahorati ham kreativ, innovatsion yondoshuvda sifat va samaradorlikni kafolatlaydi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr O‘RQ - 637-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-sonli Farmoni.
3. Tolametov A.A., & Yusupkhanova F.A. (2021). The difficult problem of growing athletes among women living in rural areas and border territories of the republic of uzbekistan. current research journal of pedagogics, 2(09), 136–141. https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-02-09-30
4. Boltaev Sh.E. Organizing a training process for young volleyball players on the basis of innovative approaches. TEACHER AND CONTINUOUS EDUCATION Nukus 2022.-87 p

КЛАСТЕР ТАЪЛИМГА АСОСАН ВОЛЕЙБОЛ СПОРТ ТУРИНИ ЎҚИТИШ АКМЕОЛОГИЯСИНИНГ МЕТОДИК АСОСЛАРИ.

А.Р. Жумаев
ЧДПУ, катта ўқитувчиси,
Д.Мурадуллаев
ЧДПУ, 1-курс талабаси

Аннотация

Мазкур мақолада кластер таълимга асосан волейбол спорт турини ўқитиш акмеологиясининг методик асослари мазмун моҳияти ва ривожлантириш бўйича кўрсатма ва таклифлар келтирилган.

Annotation

This article provides guidelines and recommendations for the development and content of the methodological basis of the acmeology of teaching volleyball based on cluster education.

Бугунги кунда педагогик таълим инновацион кластери ва акмеологиянинг спорт соҳасида амалиётга тадбиқ қилиниши замонавий механизм ҳисобланади. Кластер ёндашуви аниқ ҳудуд кесимидаги муайян соҳанинг ўзига хослигини кўриб чиқиш ва тавсифлаш имконини беради. Акмеологик ёндашув эса унинг энг юқори даражага чиқиш йўлларини асослаш билан характерланади. Ривожланган жаҳон мамлакатлари каби бизни таълим ва спорт ҳам кундан-кунга ривожланиб бормоқда. “Давлат-таълим-талаба-ота-она” ҳалқаларини бирлаштириб, мактабгача таълим ва тарбия, умумий ўрта таълим, профессионал таълим, олий таълим тизими ҳамда илмий-маданий муассасаларини бўлғуси жисмоний тарбия ўқитувчисининг педагогик таълими назарияси ва амалиётининг акмеологик асосларини ўрганиш муаммосини тадқиқот объекти қилиб белгилашга туртки бўлди.

Кластер сўзи “Боғлам”, “Тўплам”, “Гуруҳ” маъноларини англатади. [4:5]

Волейбол спорт турини кластер усулда ўргатишнинг яна бир афзаллик тарафи шундаки, бошқа спорт турларига боғлаб ўргатиш кўпроқ самара беради. Масалан стол тенниси ракеткаси ва шаригидан тўпни қабул қилиш ва узатишни ўргатишда фойдаланиш мумкин. Бунда ракетка қўлларга боғланади ва шарикни юқорига узатиш ва қабул қилиш жараёни амалга оширилади.

Педагогик таълим инновацион кластер тизими айнан таълимда таянч компетенцияларни шакллантириш асносида замон талабидаги компонент кадрларни тайёрлашни кўзда тутади.

Ушбу стол тенниси элементлари орқали волейболга ўргатиш ўз-ўзидан волейболда тўпни қабул қилиш ва узатишга шартли рефлекс ҳосил қилади.

Ўқитувчиларда таянч ва фанга оид компетенциялар таълим жараёнида шаклланади. Таълим-тарбия жараёнининг самарали ташкил этилиши ҳамда сифати эса, педагог ходимларнинг меҳнат фаолияти давомидаги маъсулият ва мажбуриятларни қай даражада бажаришимизга боғлиқ.

Ҳозирги кунда ёшларга оид давлат сиёсатини такомиллаштиришда уларни жисмонан соғлом, руҳий ва интеллектуал ривожланган, мустақил фикрлайдиган, қатъий-ҳаётий нуқтаи-назарига эга, ватанга содиқ ёшларни тарбиялаш, демократик ислоҳотларни чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш жараёнида уларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш ёш авлоднинг ижодий ва интеллектуал салоҳиятини қўллаб-қувватлаш ҳамда амалга ошириш, болалар ва ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш, уларни жисмоний тарбия ва спортга кенг жалб этиш белгилаб қўйилган. Маълумки, спорт иқтидори ташҳиси ҳали ўз такомиллашувидан жуда узоқдадир. Айни вақтда, спорт курашларида рақобатнинг ошиб бориш тенденцияларини тавсифловчи, спортни ривожланитириш замонивий босқичлари, илм-фан олдига келгусида спортчиларни танлаш ва уларнинг тайёргарлигини баҳолаш услубиятлари самарадорлигини ошириш зарурияти тўғрисидаги саволларни кескин қўймоқда.

Замонавий талаблар даражасидаги юқори спорт натижаларига эришиш ва шуғулланиш истагидаги ҳар бир бола учун фаолиятида мақсадга интилиш, меҳнатсеварлик, қатъият ва матонатни мунтазам тарбиялаш билан уйғунлашиб, юқори натижаларга эришишга жисмоний тарбия дарсларида сифатли билим, кўникма ва малакаларни пухта эгаллашига боғлиқдир.

Истеъдодли ёш спорт захираларини тайёрлаш масаласида кичик ёки катта муаммо тушунчалари бўлмаслиги даркор. Кўзга кўринмайдиган энг кичик муаммолар ҳам секин-аста йиғилиб, катта муаммога мубтало қилади. Шунинг учун аввалambор дарс машғулотларида шуғулланувчиларни жисмоний ва функционал жиҳатдан ҳар томонлама меъёрланган машғулотлар асосида ўтилмоғи лозим. Фақат етарли энергетик заҳирага эга жисмоний ва функционал потенциал спорт маҳоратини енгиллик билан ўзлаштириш имкониятларини яратади.

Визуал кузатувлар ва ҳолисона суҳбатлар шундан дарак берадики, бир хил турдаги катта ҳажмли ва ўта шиддатли машқларни шуғулланувчилар ёши, жинси ва имкониятларига қарамай зўрма-зўраки қўллайвериш охир-оқибат психофункционал органларга салбий таъсир кўрсатади, натижада чуқур толиқиш, зўриқиш ҳолатлари юзага келади. . [7:31] Болаларда спортга бўлган мотивация, қизиқиш сўна бошлайди, шу сабаб бундай болалар спортни тарк этиши мумкин. Ушбу масаланинг яна бир муҳим жойи шундаки, агар дастлабки ўргатиш жараёнида жисмоний ва техник-тактик машқларнинг ўзаро узвийлиги таъминланмаса, саломатлик ҳам, қадди-қомат ҳам, маҳорат ҳам гармоник тартибда шаклланмайди.

Ҳар бир ўтилган жисмоний тарбия дарсларида олинган ўқувчиларнинг билим, кўникма ва малакалари кейинги давр учун замин яратади. Асосан волейболчиларда жисмоний кўрсаткичларни ривожлантириш спорт турларига қамраб олиниши мамлакатимизда ўтказилаётган волейбол мусобақаларининг рақобатбардошлигининг кескин даражада ўсишига олиб келди.

Дарс машғулотларида кластер ёндашув асосида волейболчиларда жисмоний кўрсаткичларни ривожлантириш, волейбол спорт турини самарали ўргатиш учун ҳаракатли ўйинларга боғлаган ҳолда қуйидаги вазифаларни амалга ошириш лозим:

- ҳаракатли о‘йинлар ичидан волейбол спорт турига яқин ва мос бо‘лган о‘йинлар тизимини шакллантириш ҳамда волейбол хусусиятларига мослаштириш;

- ёрдамчи ва махсус машқлар орқали ўқувчиларнинг жисмоний ривожланганликлари ва техник-тактик тайёргарликлари даражасига таъсирини аниқлаш;

- ўқувчиларни жисмоний тарбия дарсларида волейбол спорт турига йўналтиришда ҳаракатли ўйинларни ёш хусусиятларига мослаштириш ва самарадорлигини ўрганиш;

- дарс жараёнида ўқувчиларни кластер тизимидан фойдаланган ҳолда бошқа спорт турлари билан боғлаб волейбол машғулотига мойиллиги, чидамлилиги, фикрлаш доираси ва қизиқишини ошириш.

Ностандарт машқлардан фойдаланишда бошқа спорт турларига боғлаб (Кластер) ўргатиш ўз самарасини беради. Айнан талаба ёки ўқувчиларнинг жисмоний сифатларини ривожлантиришга, ҳаракатланиш ҳаракатлари турларини кенгайтиришга, энг асосийси волейбол спорт тури учун муҳим бўлган тактик ҳаракатларга қобилиятини шакллантириш ва ривожлантиришни таъминловчи психофизик жараёнлари ва функцияларини ривожлантириш ва такомиллаштиришга ёрдам берадиган ҳаракатли ўйинларни танлаб олиш муҳим деб ҳисоблаймиз. Чунки энг яхши натижаларга фақатгина дастлабки ўргатиш даврида аниқ вазифаларини ва шуғулланувчиларнинг индивидуал-гуруҳли хусусиятларини ҳисобга олиб ҳаракатли ўйинларнинг ўқитиш, тарбиялаш ва машқлар бошқа воситалари билан мослигида эришиш мумкин. Шунинг учун жисмоний сифатларини яхшилашга ва волейбол ўйини кўникмаларини мустаҳкамлашга каратилган ҳаракатли ўйинларни илмий асосда танлаб олиш зарур. Волейболдаги асосий ҳаракатланиш бу: юриш, югуриш, ёнга қадам ташлаб югуриш, орқа билан қадам ташлаб тўхташ ва сакрашлардан иборатдир.

Таълим жараёнидаги муваффақиятлар бевосита ўқитувчи-мураббий билан унинг шогирдлари ўртасидаги ўзаро ҳамжиҳатлик ва ҳамфирликка боғлиқ. Ўқитувчи-мураббийнинг роли ўзлаштирилиши лозим бўлган ўқув материаллари ва ҳаракатларни энг қулай ва содда усуллар воситасида тушунтириш, йўл қўйилаётган хато ва камчиликларни босиқлик билан бартараф этиш билан белгиланса, шогирдларнинг вазифаси ўз ҳаракатларини таҳлил қилиш, тегишли тузатишлар киритиш қобилиятлари, ўрганиладиган ҳаракатларни қайта-қайта такрорлаш асосида такомилига етказиш фаолияти билан белгиланади.

Волейбол билан шуғулланувчиларни ўқитишдан кўзда тутилган асосий мақсадлардан бири уларни жисмонан комил шахслар қилиб тарбиялаш билан бир қаторда умуминсоний ва миллий қадриятлар, одоб-ахлоқ нормалари, аждодлар меросига ҳурмат руҳида тарбиялашни ҳам назарда тутади.

Ўқитишнинг хусусий вазифалари сифатида ҳаракат техникаси, иродавий сифатлар, спорт техникаси ва волейбол тактикаси, шунингдек, инструкторлик кўникмаларини сингдириш кабиларни санаб ўтиш жоиз. Қўйилган вазифаларни амалга ошириш учун спортчи юқори жисмоний, техник, тактик, руҳий, назарий ва ўйин тайёргарлик даражасига эга бўлиши талаб этилади.

Барча тайёргарлик турлари билан ўзаро чамбарчас боғлиқ ва улар бир-бирини тўлдиради. Волейболчида юқорида санаб ўтилган жиҳатлардан бири юзасидан етарли тайёргарликка эга бўлмаслик унинг умумий тайёргарлиги сифатига ўзининг салбий таъсирини кўрсатмай қолмайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Қонун. // Ўзбекистоннинг янги қонунлари. №23. Т.: Адолат, 2001. – Б.211-223.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги фармони.

3. 2019 йил 19-мартдаги Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев илгари сурган 5 ташаббус ҳақидаги нутқи.

4. Педагогик таълим инновацион кластери: таъриф, тавсиф, тасниф. Илмий рисола. Ғ.И. Мухамедов, У.Н. Ходжамқулов. ЧДПИ 2019.

5. Айрапетянц Л.Р.Волейбол. Книга тренера-Т.1995 й.

6. Айрапетянц Л.Р. Волейбол. // Учебник для высших учебных заведений. Т.: Зар қалам. 2006. - 240 с.

7. «. Шукурллаев Ж.М. 7-14 ёшли мактаб ўқувчилари ичидан волейбол спорт турига танлаб олиш методикасини такомиллаштириш. ТДПУ магистрлик диссертатсияси. 2020-йил.

ЎҚУВЧИЛАР ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА АКМЕОЛОГИК ЁНДАШУВ

А.Р. Жумаев
ЧДПУ, катта ўқитувчиси,
А.И.Қобилов
ЧДПУ, 1-курс талабаси

Таянч сўзлар: мазмун, волейбол, акмеология, ўқувчи, ривожланиш, машғулот, натижа, сифат.

Ключевые слова: содержание, волейбол, акмеология, ученик, развитие, обучение, результат, качество.

Keywords: content, volleyball, acmeology, student, development, training, result, quality.

Умумий ўрта таълим тизимининг Давлат таълим стандари ҳамда жисмоний тарбия бўйича миллий дастурда ўқувчиларнинг саломатлигини мустаҳкамлаш, жисмоний ривожланиши ва жисмоний тайёргарлигини ошириш, ўқувчиларнинг таълимий-тарбиявий билим, кўникма ва малакаларини шакллантириш белгилаб қўйилган. Шу ўринда таълим амалиётига замонавий тенденцияларни татбиқ этиш орқали ёшларни баркамол шахс сифатида камол топишини таъминлаш бугунги куннинг муҳим масалалар сирасига киради.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 15 февралдаги “Маданият ва спорт соҳасида бошқарув тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4956-сон, 2020 йил 24 январдаги “Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5924-сон фармонларини, 2017 йил 3 июндаги “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-3031-сон қарори ҳамда мазкур соҳага тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда таълим сифатини таъминлашга доир белгиланган вазифаларни амалга оширишда мазкур мақола муайян даражада хизмат қилади.

Ривожланган жаҳон мамлакатлари каби бизни таълим ва спорт ҳам кундан-кунга ривожланиб бормоқда. “Давлат-таълим-ўқувчи-ота-она” ҳалқаларини бирлаштириб, мактабгача таълим ва тарбия, умумий ўрта таълим, профессионал таълим, олий таълим тизими ҳамда илмий-маданий муассасаларини бўлғуси Ренессанснинг тўрт узвий ҳалқаси, боғча тарбиячиси, мактаб муаллими, профессор-ўқитувчилар ва илмий-ижодий зиёлилар эса янги Уйғониш даврининг тўрт таянч устуни, деб белгиланганлиги “III Ренессанс даври жисмоний тарбия ўқитувчисининг педагогик таълими назарияси ва амалиётининг акмеологик асослари”ни ўрганиш муаммосини тадқиқот объекти қилиб белгилашга туртки бўлди.

“Акмеологик ёндашув” - акмеологик муаммолар ва вазифаларни ечиш имконини берувчи, методлар ва усуллар, тамойиллар мажмуини тушунтирувчи акмеологик категориялар умумлашмаси ҳисобланади. Акмеологик ёндашув таълим мазмунига, таълим технологиялари, ўқувчиларни тарбиялаш ва ўқитишга, таълим муассасасини бошқаришни ривожлантириш, таълимнинг барча субъектларида тизимлаштирилган билиш мотивлари, таълим олиш ички эҳтиёжга айланиши, ижодий тафаккурнинг асосий бошловчилиги эвазига таълим сифатини ошишига ҳисса қўшади.

Биз томонимиздан тадқиқ этилаётган волейбол машғулотлари орқали ўқувчиларнинг жисмоний сифатларини акмеологик ёндашув асосида такомиллаштиришни амалга оширишда аввало, жисмоний тарбия дарсларида волейбол машғулотининг мазмуни ҳамда ўқувчилар жисмоний сифатларини ривожлантиришда дидактик имкониятлардан фойдаланиш даражасини аниқлаб олиш лозим.

Умумий ўрта таълим мактабларида волейболнинг афзалликлари – ўйин учун жойларини жиҳозлаш ва уни ўтказиш қоидаларининг қиёсий соддалиги, ажойиб ўйин-кулги, турли хил техник-тактик ҳаракатларнинг кўплиги, ўйиннинг ҳиссийлиги, жамоавийлик, турли ёшдаги ва касбдаги одамларни волейболга жалб қилади.

Ҳар хил воситалар ва ўйин ҳаракатлари нафақат интенсивликда, балки мувофиқлаштириш тузилишида ҳам фарқланади ҳамда ўувчининг барча жисмоний сифатларини ривожлантиришга ёрдам беради: куч, чидамлилик, тезлик, чаққонлик ва эгилувчанлик уйғун мослашувчанликда тарбияланади.

Акмеологик ёндашув ўқитувчи шахсига қадрият, мақсад, субъект, натижа ва самарадорликнинг бош мезони сифатида муносабатда бўлади. Чунки шахс доим ўзини ўзи

ривожлантириши учун керакли вазиятларни танлайди, бу вазиятлар унинг онгида ўзини ўзи англаш, намоён этиш, такомиллаштириш, ўзини кўрсатиш зарурати билан пайдо бўлиб, шахс ўзининг касбий ва индивидуал ривожланиши учун энг мақбул йўл тутишга ҳаракат қилади.

Бу эса бизда жисмоний тарбия ўқитувчи ёки мураббийнинг машғулот педагогик таълими назарияси ва амалиётининг акмеологик асослари" тарзида танлашга турки бўлди. Жумладан, Сўнгги йилларда жисмоний маданият ва спорт соҳаси мутахассисларининг касбий камолотини таъминлашнинг педагогик шарт-шароитлари бўлажак ўқитувчиларнинг касбий камолоти учун мониторингини шакллантириш, спорт-педагогик фаолият мутахассисларини тайёрлашни такомиллаштириш, ўқувчиларда касбий маданиятни шакллантиришнинг педагогик шарт-шароитлари, педагогнинг ўзини ўзи камол топтириши, тренер фаолияти ва шахсини тавсифловчи психологик хусусиятлари ва бошқаларни амалда қўлланилишидир.

Истеъдодли ёш волейболчиларни танлаш ва тайёрлаш жараёнини такомиллаштиришга ёрдам бера оладиган янгича ёндашувлар, самарали воситалар ва методларни илмий излаш зарурияти юзага келади ва шу боисдан қуйидаги вазифалар амалга оширилиши лозим.

1. Ҳаракатли ўйинларни ўйин йўналишларига биноан, турларини ишлаб чиқиш предметига синовдан ўтказиш билан уларни танлаш ва волейбол хусусиятларига мослаштириш.
2. Ҳаракатли ўйинларнинг ёш волейболчилар жисмони й ривожланганликлари ва техник тактик тайёргарликлари даражасига таъсирини аниқлаш.
3. Ёш волейболчиларни танлаш ва тайёрлашда ҳаракатли ўйинлардан фойдаланишнинг самарадорлигини ўрганиш.
4. Дастлабки спорт тайёргарлиги даврида ёш волейболчиларни танлаш ва тайёрлашда болаларнинг машғулотга мойиллигини, қизиқишини, бор имкониятларини ишга сола билишлигигини, вазиятни олдиндан кўра билиш қобилияти ривожланган спортчиларни ажратиб олиш.

Бу вазифалар спортчиларнинг сифат кўринишини ўзгартириб, танловнинг бутун тайёргарлиги давомида волейболчиларни кўп йиллик тайёрлашга ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Шукурллаев Ж.М. 7-14 ёшли мактаб ўқувчилари ичидан волейбол спорт турига танлаб олиш методикасини такомиллаштириш. ТДПУ магистрлик диссертатсияси. 2020-йил.
2. Шукурллаев Ж.М. Ўқувчи ёшларни волейбол спорт турига танлаб олишнинг методик хусусиятлари. ACADEMIC RESEARCH in EDUCATIONAL SCIENCES. №.1. 2020 2-октябр.
3. Шукурллаев Ж.М. Бошланғич синф ўқувчиларини волейбол спорт турига саралаб олиш усулларини такомиллаштириш. "Бошланғич таълимни компетенциявий ташкил этиш: назария ва амалиёт" мавзусидаги онлайн ҳалқаро илмий-назарий анжуман. 2020-йил 28-апрел.
4. Жисмоний тарбия ва спорт журнали. 2018-йил.
5. Шукурллаев Ж.М. 7-14 ёшли мактаб ўқувчиларини волейбол спорт турига танлаб олишнинг методик хусусиятлари. "Муғаллим ҳем узликсиз билимлендириў" 2-сон. 2019-йил. Некис.ш. Б.153-156.

MAKTABLARDA KALASTER METODIDAN FOYDALANISH USULLARI

Xudoyberganov Javlonbek Soatboy o'g'li
CHDPU Jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsent v/b p.f.f.d (PhD)
Rahmatullayev Javohir
Jismoniy madaniyat yo'nalishi 2 kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim metodlari, klaster metodi va uning mazmun mohiyati, boshlang'ich sinf o'quvchilarining darslarini samarali tashkil etishda klaster metodining qulayliklari, hamda boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishda klaster metodining afzalliklari haqida muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: klaster, boshlang'ich sinf, metod, bola tafakkuri, qobilyatlar, tadqiqot.

Barchamizga ma'lumki, ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga ta'lim berish jarayonida axborot beradi yani ma'lumotlarni uztadi, ta'lim oluvchilarda ma'lumot olish jarayonida boshlang'ich sinf oquvchilaring fikrlash, idrok va tafakkur etish qobilyatlari rivojlanib boradi. Bu jarayon ta'lim

oluvchining o‘zi orqali yoki boshqa shaxsning ya’ni ta’lim beruvchining ko‘magida amalga oshirilishi mumkin. Ta’lim olish jarayoni esa turli xil metodlarga(usullarga) tayangan holda kechadi. O‘qitishdan ko‘zlanadigan maqsad bu davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim va ko‘nikmalarini o‘quvchiga yetkazishdan iboratdir. Qachonki o‘quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o‘quvchi malaka oshirish uchun mo‘ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina, o‘qitish muvaffaqiyatli kechdi, deb hisoblasa bo‘ladi.1 Asosiy qism: Metod – yunonch ,,metodos’’ so‘zidan olingan bo‘lib ,,tadqiqot yo‘li’’ degan ma’noni bildiradi. Ta’lim metodini(usulini) – ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchining ma’lum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga va tartibga solingan yo‘lyo‘rig‘i sifatida ta’riflash mumkin. Ta’lim modelini, esa bir yoki bir nechta ta’lim metodlari yordamida amalga oshiriladigan ta’lim jarayoni amalga oshirish tuzilmasi, deb qarashimiz mumkin. Ta’lim metodi - bu ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchining ma’lum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga solingan yo‘l-yo‘rig‘i. Ta’lim metodi ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlarining usulidir. Ta’lim metodlari o‘qitishning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish usullari hamda o‘quv materialini nazariy va amaliy jihatdan yo‘naltirish yo‘llarini anglatadi. 2 Klaster metodi deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida bo‘lgan ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi o‘qitish jarayoni davomida faol ishtirok etadi. Ushbu jarayonda ta’lim oluvchilar o‘qib-o‘rganishni yuqori darajada bo‘lishini, egallagan bilimlarni maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirishda tashabbuskorligi va mas’uliyat, qo‘llab-quvvatlash amalda bajarish orqali fikr mulohazalar qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O‘qitish jarayonida klaster metodlardan foydalanish o‘ziga hos hususiyatga ega. Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan klaster metodi talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to‘g‘ri yechimini topishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Klaster metodi orqali talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalari, ijodkorligini va faolligi nazariy va amaliy muammolarga bo‘lgan qarashlari rivojlanadi. Klaster so‘zi - ingilizchadan olingan bo‘lib g‘uncha, bog‘lam, tarmoqlantirish manolari bildiradi. Mamlakatimizda klasterlar bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar boshlanishi 2000-yillarga to‘g‘ri keladi, bu boradagi ilmiy-amaliy ishlar esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasida demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish asosida mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish borasida barcha sohalarda keng ko‘lamli islohotlar olib borish bilan boshlandi. Mazkur jarayonlar bilan bog‘liq texnopolis, texnopark, klaster kabi qator tushunchalar turmush tarzimizgakirib keldi. Kungaboqar guli klasteri ona tili fani misolida ”Kungaboqar guli yoxud Quvnoq kungaboqar’’ texnologiyasini yasash juda ham oson va qiziqarli. Ushbu texnologiya kungaboqar bo‘lishining sababi o‘quvchining darsga, o‘tilgan mavzuni mustahkamlashga bo‘lgan qiziqishi yanada ortadi. Rangli materiallardan tayyorlangan ushbu texnologiya nafaqat boshlang‘ich sinf balki yuqori sinf hattoki talabalar etiborini o‘ziga tortadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini rasmga bo‘lgan qiziqishlari orqali ularni darsga olib kirib ketadi. Qog‘ozga(qog‘oz o‘lchamining farqi yuq) kungaboqar gulining rasmi rangli holatda chizilgan bo‘ladi va doskaga yopishtirilgan bo‘ladi. Yoki o‘qituvchi kungaboqar rasmi I o‘quvchilarga chizdirgan bo‘ladi o‘z daftarlariga albatta Kungaboqar gulining markazida, doira ichida mavzu nomi yozilgan bo‘ladi, o‘qituvchi savol beradi, o‘quvchilar o‘qituvchining savoliga javob berishadi. O‘qituvchining savoliga javob berish orqali o‘quvchilar kungaboqar gulining yaproqlarini, sekin asta poyasi va barglarini to‘ldirib kungaboqar gulini shakllantirishadi Misol uchun Kungaboqar gulining markazida Mustaqil so‘z turkumlari mavzusi yozildi. Kungaboqar gulining markazidan uning yaproqlari chiqadi va uning ichiga ot sifat son fel so‘zlari yoziladi. Kungaboqar gulining gulqo‘rgoni shakllanib bo‘lganidan so‘ng uning poyasi ichiga biror bir mustaqil so‘z turkumi yoziladi. Masalan fel ozilgan mustaqil so‘z turkumi fe’l yani poyadan endi barglar o‘sib chiqa boshlaydi. U barglarning ichiga o‘quvchilar fe’l so‘z turkumig oid bo‘lgan so‘zlarni yozishadi, masalan yugurmoq, o‘tirmoq, sakramoq kabi so‘zlar yoziladi. Mazkur metod o‘quvchilardan o‘rganilayotgan mavzu (yoki bo‘lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azamat Ruzvonovich Raxmonov Ta’lim klasteri va uning pedagogik faoliyatdagi yuksak imkoniyatlari.

2. Saida, N., & Mirzaliyevna, S. Z. (2023). Xalq o‘yinlari orqali bolalarda jismoniy barkamollikni tarbiyalash. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 575-577.

3. Saida, Nabijonova, and Sadriddinova Zulfuya Mirzaliyevna. "Xalq o‘yinlari orqali bolalarda jismoniy barkamollikni tarbiyalash." qo‘qon universiteti xabarnomasi (2023): 575-577.

4. Xudoyberganov Javlonbek Saotboy o‘g‘li, Kdirova Muxabbat Allaniyazovna,Abatova Gulzar Nurlan qizi,Tunyan Alyona Andreyevna.THE ROLE AND CHARACTERISTICS OF IMPROVING THE EDITORIAL SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL ENDURANCE QUALITIES IN YOUTH STUDENTS /2023/11/25

YENGIL ATLETIKA TO‘GARAKLARIDA QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI JISMONIY RIVOJLANGANLIGI, TAYYORGARLIK DARAJASI VA TEXNIK TAYYORGARLIGINI TUZILISHI

Мулладжанов Умид Аҳмедович
Термиз давлат педагогика институти
mulladjanovumid1978@gmail.com

Kalit so‘zlar: *yugurish, qisqa masofalar, fiziologik mexanizm, boshqaruv, metodologiya, tajriba, sprinter, start.*

Ключевые слова*: бег, короткие дистанции, физиологический механизм, управление, методика, спринтер, старт.*

Keywords: *running, short distances, physiological mechanism, control, methodology, sprinter, start.*

Kirish. Qisqa masofaga yugurishni rivojlantirishning hozirgi bosqichida eng yuqori sport natijalariga erishish vazifasi qo‘yiladi, bu umumiy hajmni ko‘paytirish va yillik o‘quv tsiklidagi ishlarni faollashtirish orqali mashg‘ulot jarayonining samaradorligini oshirish bilan bog‘liq.

Sportni takomillashtirish bosqichi 18-19 yosh va undan katta yoshdagilarni (ko‘plab sportchilarning talabalik davri) qamrab oladi. Sprint yugurish bo‘yicha ixtisoslik boshlangan yoshga qarab, eng yuqori yutuqlarni ko‘rsatish uchun yosh zonasi mos ravishda o‘zgaradi. Yuqori intensivlikda bajariladigan sprinterning ixtisoslashtirilgan vositalarining hajmi oshib, yetib boradi.

Ma’lumki, sportchining malakasi qanchalik yuqori bo‘lsa, mashg‘ulot yuki raqobatbardosh yukga qanchalik ko‘p mos kelishi kerak, adekvatlik tamoyiliga shunchalik qat’iy rioya qilish kerak. Bu yuqori intensivlikda bajariladigan maxsus o‘quv asboblari hajmining oshishiga olib keladi. Shuning uchun murabbiy mashg‘ulot yukining hajmi va intensivligi nisbatini ayniqsa diqqat bilan tartibga solishi kerak.

Ma’lumki, mashg‘ulot jarayonining intensivlashuvi o‘qitish vositalarining biroz torayishiga olib keladi. Shu munosabat bilan, jarohatlar ehtimoli, ortiqcha mashq qilish va muhim musobaqalarda muvaffaqiyatsiz chiqishlar soni ortadi. Sprinterlarning jismoniy va funktsional tayyorgarligi, individual tipologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yaxshilangan taqdirdagina, sprinterlarning o‘quv yuklamalari hajmini yanada oshirish va kuchaytirishga erishish mumkin.

Ta’lim va tarbiya jarayonining borishini har tomonlama nazorat qilish ham o‘rganilayotgan bosqichda alohida ahamiyatga ega. Yuqori malakali sprinterni tayyorlashni samarali boshqarish faqat sportchining tayyorgarligining turli jihatlari to‘g‘risida ob’ektiv ma’lumotlar mavjud bo‘lganda mumkin bo‘ladi. Nazorat tizimi murabbiyga sportchining funktsional imkoniyatlarini rejalashtirilgan rivojlanish holatini aniqlash, o‘quv jarayoniga tuzatishlar kiritish va keyingi rivojlanish yo‘llarini belgilash imkonini beradi.

Shu bilan birga, sprinterlarni tayyorlashning hozirgi bosqichida nafaqat musobaqa faoliyatining miqdoriy tomoni va o‘quv yuklarining tarkibi, balki qon aylanish tizimining funktsional holati ham muhim ahamiyatga ega.

Sprinterlarning qon aylanishining tipologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yillik o‘quv tsiklida sport mashg‘ulotlarini oqilona tashkil etish bo‘yicha tavsiyalarning yo‘qligi ushbu muammoni o‘rganishga turtki bo‘ldi.

Yuqoridagilar bilan bog‘liq holda, ushbu tadqiqotning maqsadi qon aylanishining tipologik xususiyatlarini hisobga olgan holda qisqa masofaga yuguruvchilarning o‘quv-mashq jarayonining tarkibiy xususiyatlarini o‘rganish edi.

Tadqiqot usullari: ilmiy-uslubiy adabiyotlar va sport kundaliklarini tahlil qilish; sportchilar va murabbiylarni so‘roq qilish; ta’lim hujjatlarini tahlil qilish; anketa; pedagogik kuzatish.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Ilmiy-metodik adabiyotlarni, sportchilarning sport kundaliklarini o‘rganib, yengil atletika bo‘yicha sport mutaxassislari bilan suhbatlar o‘tkazgandan va o‘quv hujjatlarini tahlil qilgandan so‘ng, biz sportni takomillashtirish bosqichida sprinterlar uchun yillik o‘quv tsiklidagi mashg‘ulotlar va raqobatbardosh yuklarning tarkibi va mazmunini aniqladik. Sportchilar va murabbiylarning o‘zlari o‘rtasida tahlil va so‘rov o‘tkazilganda adabiyotlarda yoritilmagan qator muammolar aniqlandi.

Yillik o‘quv tsiklining turli bosqichlarida sprinterlarning o‘quv jarayonini rejalashtirishning batafsil tahlili quyidagilarni aniqladi: o‘quv yukining hajmi va intensivligining doimiy o‘sishi yurak-qon tomir tizimining funktsional imkoniyatlarini hisobga olmasdan sodir bo‘ladi. Sportchilarning va tananing mashg‘ulotlar va raqobatbardosh yuklarni idrok etishga tayyorligini hisobga olmasdan, faqat sportchilarning sub’ektiv his-tuyg‘ularini baholash orqali bo‘ladi. Mashg‘ulotlar yuklamalarining ortishi amalda nazoratsiz ekani haqiqat. Bundan tashqari, sportchilarni tayyorlashning “taxmin qilingan natijani ta’minlash” tamoyili buziladi, bu ta’lim va o‘quv jarayonini o‘tkazish (rejalashtirish) tahlilidan dalolat beradi. Murabbiylarning o‘zlari ta’kidlaganidek, ko‘proq ko‘zga tashlanadigan uslubiy xatolar yukning ko‘payishi ushbu bosqichda sportchining haqiqiy ehtiyoji bilan bog‘liq emasligi bilan bog‘liq. Sport mashg‘ulotlari sportchilarning qandaydir reja va dasturni o‘zlashtirishi bilan chegaralanadi, mashg‘ulot esa ma’lum darajada sportchining kerakli vaqtda eng yuqori ko‘rsatkichlarini ta’minlashga qodir bo‘lgan funktsiyalar va tana tizimlarini rivojlantirishdir.

Turli malakali yengil atletikachilarni tayyorlash bilan shug‘ullanadigan mutaxassislarning so‘rovnomasi malakali sportchilarni tayyorlashni uslubiy ta’minlash. Sprinterlar uchun sport mashg‘ulotlarining hozirgi bosqichida nafaqat jismoniy sifatlarni, balki ularni ham rivojlantirish kerak kation, murabbiylar asosan uchta yo‘nalishdagi muammolarni hal qilishlari kerakligini aniqlashga imkon berdi: jismoniy fazilatlarni rivojlantirish; yetakchi omillarni eng yaxshi rivojlantiruvchi eng samarali vositalar va usullar doirasini aniqlash; jismoniy sifatlar va harakat qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali vositalari va usullarini ashg‘ulotlarning turli bosqichlari va davrlarida taqsimlash. Bu savollar sport mashg‘ulotlarining uslubiy asosini tashkil etadi, deb hisoblaymiz. Biroq, sprinterlarni tayyorlashda mutaxassislar reabilitatsiya tadbirlariga, farmakologiyaga, o‘quv asboblariga alohida e’tibor berishadi, shu bilan birga ilmiy tadqiqotlarning ahamiyatini susaytiradilar.

Shuningdek, biz sportchilar tanasining funktsional holatini kuzatish masalalariga kam e’tibor qaratilayotganini aniqlashga muvaffaq bo‘ldik. Shu bilan birga, Ukrainada xizmat ko‘rsatgan murabbiy, professor B.Yushko ta’kidlaganidek, mashg‘ulotlar jarayonini muvaffaqiyatli boshqarish va sportchilarning mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish yo‘llarini belgilash uchun mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirishning oqilona shakllarini izlash zarur. sportchilarni yillik va uzoq muddatli tayyorlash tuzilmalarida. Rejalashtirilgan sport natijalariga erishish darajasi va vaqti individual o‘quv mashg‘ulotlari, mashg‘ulotlar va musobaqalar oldidan haftalik mikrotsikllar, mezotsikllar, yillik tayyorgarlikning makrotsikllari mazmunini ilmiy asoslangan rejalashtirishga bog‘liq.

Bir yillik o‘qitishning tuzilishi - o‘quv yuklarini tashkil etishning konjugat-ketma-ket tizimi bo‘lib, mashg‘ulotlarga turli yo‘nalishdagi yuk hajmlarini kiritishning ma’lum tartibi va ketma-ketligini ta’minlaydi; oldingi yuklamalar keyingi yuklarning mashg‘ulot ta’sirini oshirish uchun qulay morfofunksional, psixologik fonni ta’minlaydigan sharoitlarni yaratish (B. Yushko, 1987)

Shunday qilib, sprinterlarni tayyorlashning optimal usulini yaratish, shuningdek, engil atletikachilarning qon aylanishining tipologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yukning hajmi va intensivligini normallashtirish orqali ham mumkin.

Sportchilarning o‘zlari tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnoma shuni aniqlashga imkon berdiki, yuguruvchilarni tayyorlash jarayonida sportchilar tanasining funktsional holatini kuzatish masalalariga kam e’tibor beriladi. Bu sprint yugurish rivojlanishining hozirgi bosqichida funktsional tayyorgarlik bo‘lib, u quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun asos bo‘lishi kerak: salomatlikni yaxshilash, texnikani takomillashtirish va mashg‘ulot yuklarini bosqichma-bosqich oshirish.

Sport kundaliklari tahlili shuni ko‘rsatdiki, hozirda mashg‘ulot jarayonida foydalaniladigan sprinterlarning asosiy jismoniy va raqobatbardosh yuklari raqobat sharoitlariga yaqin va tayyorgarlik davrlariga bog‘liq emas. Tayyorgarlik davridagi mashg‘ulotlar jarayonida anaerob va aralash yuklar ustunlik qiladi.

Shunday qilib, sprinterlarni tayyorlash jarayonida nafaqat jismoniy fazilatlarni rivojlantirish va texnik tayyorgarlikni oshirish, balki yuqori natijalarga erishish uchun biologik shart-sharoitlarni yaratish ham zarur. Shu munosabat bilan sportchilarning funktsional tayyorgarligi tayyorgarlikning asosiy jihatlaridan biri sifatida birinchi o‘ringa chiqishi kerak.

Yuguruvchilarni tayyorlashda eng katta e’tibor jismoniy va maxsus-jismoniy tayyorgarlik masalalariga, kamroq darajada - jismoniy va funktsional tayyorgarlik darajasini oshirish masalalariga qaratiladi. Bu turli xil tana tizimlarining faoliyati bilan belgilanadigan jismoniy ishlash darajasi, ularning asosiylari qon aylanish va nafas olish tizimlaridir. Yuguruvchilarda qon aylanish tizimini o‘rganish va uning tipologik xususiyatlarini aniqlash, bizning fikrimizcha, maxsus jismoniy ko‘rsatkichlarni oshirish uchun funktsional imkoniyatlarni hisobga olgan holda tizimlar va organlarga maqsadli ta’sir ko‘rsatishga yordam beradi.

Xulosa. Biz qisqa masofaga yuguruvchilar uchun yillik mashg‘ulot tsiklini rejalashtirish talablarini belgilab oldik: mashg‘ulotlarning ushbu bosqichidagi maqsadni hisobga olgan holda, musobaqalar taqvimi bo‘yicha yillik mashg‘ulotlarda yuklarni rejalashtirish; sportchi tanasini muayyan jismoniy mashqlar dasturlariga moslashtirishning asosiy qonuniyatlarini hisobga olish; barqarorlik holatiga erishish, turli yo‘nalishdagi yuklarga moslashish uchun vaqt chegaralarini, ya’ni tananing rivojlanish mashg‘ulot yukiga duchor bo‘lishi mumkin bo‘lgan optimal davrni, shuningdek, o‘qitish uchun zarur bo‘lgan ta’sir hajmining chegarasini aniqlang. sportchi tanasining moslashish imkoniyatlarini to‘liq amalga oshirish; umumiy, maxsus, tezkor chidamlilik, tezlik va tezlik-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishga, texnik va taktik ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan o‘quv dasturlarini oqilona uyg‘unlashtirish.

Bizning fikrimizcha, qisqa masofaga yuguruvchilarda qon aylanish turlarini o‘rganish funktsional holatni baholashni yaxshilash va mashg‘ulotlarning turli bosqichlarida sport mashg‘ulotlari masalalarini hal qilish uchun istiqbolli ko‘rinadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Prezidenti Ш.М. Мирзиёевнинг 2020 йил 3 ноябрдаги “Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш...” ПҚ-4877-сонли қарори.

2. Andris E.R., Qudratov R.Q. Yengil atletika. – T.:

3. Andris E.R. Upravleniye trenirovkoy v bege na 100 metrov. – T.: 1990. – 109 s.

4. Shakirjanova K.T. Yengil atletikada sport mashg„ulotlari asoslari. – T.: 2008. – 72 b.

5. Илиних, В.В. Марафонда сузувчилар учун ўқув ва ўқув жараёнини режалаштириш хусусиятлари. В.В. Илйиних // Жисмоний маданият ва саломатлик: тўплам. илмий тр. – Воронеж: 2008. – Но 4 (18). – Б.51–53.

DARSDAN TASHQARI XOLLARDA JISMONIY MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL QILISH USULLARI

Yusupbayeva Amangul Saparbayevna
CHDPU Jismoniy madaniyat va sport kafedrasi o‘qituvchisi
Muradova Ruxshona Muzaffar qizi
XQS 23/1 guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jismoniy tarbiya va sport mashg‘lotlarini darsdan tashqari xollarda jismoniy mashg‘ulotlarini tashkil qilish usullarini rejalashtirish masalasi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Jismoniy tarbiya, sport, rejalashtirish, mashg‘ulot, sport , ta’lim-tarbiya, yosh avlod, jismoniy sifat.

Umumta’lim maktabi o‘quvchilarining jismoniy tarbiyasi jismoniy tarbiya tizimining asosiy bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Negaki, maktabda mamlakatimizdagi hamma bolalar ta’lim oladilar. Jismoniy tarbiya maktab o‘quv-tarbiyaviy ishining ajralmas qismi sifatida o‘quvchilarni hayotga, ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashda yetakchi rol o‘ynashi lozim. Mustaqillikka erishgan bugungi kunlarimizda Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturida bunga ayniqsa, katta e’tibor berilayapti. Chunki, Prezidentimiz aytganidek, "Ta’limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin Shaxsning shakllanishiga olib keladi. O‘zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo‘lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi". Maktabdagi jismoniy tarbiyaga

oid ishlar o‘quvchilardan havaskorlikni, tashabbuskorlikni, uyushqoqlikni talab qiladigan juda xilma-xil shakllari bilan farq qiladi. Ular o‘quvchilarda tashkilotchilik ko‘nikmalari, faollik, topqirlikni tarbiyalashga yordam beradi.

Maktabdagi o‘quvchilar jismoniy tarbiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Sog‘likni mustahkamlash, o‘quvchilarni to‘g‘ri jismoniy rivojlantirishga va chiniqtirishga yordam berish. Bu vazifa maktabdagi barcha jismoniy tarbiya va sport ishlarining eng muhimi hisoblanadi. U har bir o‘qituvchining, pedagogika jamoasining diqqat markazida bo‘lishi kerak.O‘quvchilik davri bolalarning tez o‘sish va jismoniy rivojlanish davridir, shuning uchun maktab o‘quvchilarining jismoniy jihatdan normal rivojlanishi uchun iloji boricha ko‘proq kuch sarflash kerak.O‘quvchilar sog‘ligini mustahkamlash va ular organizmini chiniqtirish avvalo jismoniy mashg‘ulotlar jarayonida amalga oshiriladi. Bunda ko‘pchilik mashg‘ulotlar ochiq havoda o‘tkaziladi, mashg‘ulotlar usti yopiq binoda o‘tkazilganda esa tegishli gigienik sharoit yaratiladi. O‘yinlar, yugurish, sakrashlar, uloqtirish kabi mashqlar juda muhim ahamiyatga ega. Bunday mashqlar bilan shug‘ullanishda katta muskul guruhlari rivojlanadi, nafas olish, yurak-tomir va organizmning boshqa tizimlari mustahkamlanadi. Sog‘likni mustahkamlash va to‘g‘ri, har tomonlama rivojlantirish vazifalari maktabda o‘tkaziladigan boshqa bir qator xilma-xil tadbirlar orqali, xususan: darslardagi jismoniy tarbiya minutlari, tanaffuslarni uyushqoqlik bilan o‘tkazish, mashg‘ulotgacha gimnastika, maktab binosi tozaligi uchun kurash, issiq nonushtani tashkil etish, o‘qituvchilarning o‘quvchilar qomatini, yurishini doimiy nazorat qilib turishlari orqali amalga oshiriladi. Maktab o‘quvchilarining garmonik rivojlanishida qomat muayyan ahamiyatga ega. Barcha ichki organlarning to‘g‘ri holati va normal ishlashi qomat bilan bog‘liqdir. Sog‘likni mustahkamlash va organizmni chiniqtirishda tabiatning tabiiy omillaridan keng foydalaniladi.

2. O‘quvchilarga jismoniy madaniyat va sportga oid maxsus bilimlar berish, ularga gigienik bilim va ko‘nikmalarni singdirish. Bu vazifa o‘quvchilarga jismoniy mashg‘ulotlarning foydasi haqidagi, gigienik qoidalarga, shuningdek, dasturda ko‘zda tutilgan barcha jismoniy mashqlarni to‘g‘ri bajarish qoidalariga rioya qilish haqidagi zarur bilimlarni berishdan iborat. Bularning hammasi bolalar sog‘ligini mustahkamlashga, ularning gigiena qoidalarini bilishlari va ularga amal qilishlariga bevosita daxldor bo‘lib, bunga maktab, oila, jamoatchilik hamda bolalarning o‘zlarining birgalikdagi harakati bilan erishiladi.

3. O‘quvchilarda harakat malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish, yangi harakat turlariga va harakat faoliyatiga o‘rgatish. Bundan tashqari, bolalarni bevosita amaliy xarakterga ega bo‘lmagan turli mashqlarga o‘rgatib borish zarur. Bolalarga o‘yin uchun ko‘proq imkon berish kerak, chunki o‘yinlarda harakatlarning xilma-xil boyligi ochiladi.

4. Yoshga muvofiq ravishda asosiy harakat sifatlarini (kuch, tezkorlik, epchillik, chidamlilik va boshqalar) rivojlantirish. Tezkorlik, kuch, epchillik va chidamlilik har bir kishi uchun zarur bo‘lgan sifatlardir. Ular bolalarda harakat ko‘nikmalarining shakllanishi bilan uzviy bog‘liqdir.

5. Botirlik, qat’iylik, intizomlilik, jamoa bo‘lib ishlash, do‘stlik va o‘rtoqlik hissini, madaniy xulq ko‘nikmalarini, mehnatga va ijtimoiy mulkka munosabatni tarbiyalash.

6. Turganda va yurganda qomatni to‘g‘ri tutish ko‘nikmalarini shakllantirish.

7. O‘quvchilarni Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida aks etgan jismoniy madaniyat kompleksida ko‘zda tutilgan mashqlarni bajarishga asta-sekin tayyorlash. Masalan, 1-11 sinflarning jismoniy tarbiya dasturlariga "Dovyuraklar va chaqqonlar" bosqichining ko‘pchilik mashqlari kiradi.Ana shu mashqlardan tanaffuslarda foydalanish mumkin.

8. O‘quvchilarda jismoniy madaniyat va sport bo‘yicha muntazam mashg‘ulotlarga barqaror qiziqish va ko‘nikmalarni tarbiyalash.

9. O‘quvchilarga tashkilotchilik malakalarini singdirish, jamoatchi jismoniy tarbiya faollarini tayyorlash.

Jismoniy tarbiya vositalari: jismoniy mashqlar, mehnat, tegishli kun rejimi va tabiatning tabiiy omillaridan foydalanish maktab yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash vositalari hisoblanadi.

Maktabda jismoniy tarbiyaning asosiy vositasi jismoniy mashqlardir.

Jismoniy mashqlar o‘quvchilarda harakat malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bog‘lik vazifalarni hal etadi, harakat apparatining rivojlanishiga yordam beradi, qon aylanish va modda almashinishini yaxshilaydi, nafas olishga ijobiy ta’sir etadi. Jismoniy mashqlarni tanlashda kichik maktab yoshidagi bolalarning anatom-fiziologik va ruhiy xususiyatlari, albatta hisobga olinadi. Bolalar organizmining eng muhim xususiyati bo‘yining tez o‘sishi va tananing hamma organlarda sifat

o‘zgarishlari bo‘lishidir. Ayniqsa, oyoqlar tez o‘sadi. Bu tana mutanosibligini o‘zgartiradi. Tana og‘irligi yiliga o‘rtacha 2 kg ko‘payadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning yuragi nisbatan katta, qon tashuvchi tomirlari kattalarnikiga qaraganda keng, tomir devorlari esa elastikroq bo‘ladi. Puls tezroq (minutiga 90 martaga yaqin uradi) buladi. Yurak muskuli zaif va elastik bo‘ladi. Yurak tomir tizimining o‘ziga xos xususiyatlari tortilish, og‘irlik ko‘tarish, qarshilikni yengish bilan bog‘liq bo‘lgan mashqlarni chegaralashni talab qiladi. Bolalarga qiyin, asab muskulini taranglashtiruvchi, yurakni tez urdiruvchi mashqlarni bajartirmaslik kerak. Kichik maktab yoshidagi o‘g‘il va qiz bolalarning jismoniy rivojlanishida ba’zi bir farqlar kuzatiladi, o‘g‘il bolalarning bo‘yi va og‘irligi o‘rtacha olganda ortiqroq, ko‘krak qafasi kengroq va o‘pkaning faoliyat hajmi kattaroq bo‘ladi. O‘g‘il bolalarda muskul kuchi yaxshirok rivojlanadi. Shunga bog‘liq ravishda ularning harakat qobiliyatlari farqlanadi, o‘g‘il bolalar tezroq yugurishadi, uzoqroq va balandroqqa sakrashadi. Jismoniy rivojlanishning qonuniy xususiyatlari 1 va 11 sinflardagi o‘g‘il va qiz bolalarni jismoniy tarbiyalash vositalarini tanlashda aks etmaydi. 11 sinfdan boshlab o‘g‘il bolalarga qiz bolalarga nisbatan ko‘proq mashqlar berish mumkin. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning yosh xususiyatlari o‘qituvchini ishlashga, jiddiy, maqsadga binoan va muntazam ishlashga, bola organizmining to‘g‘ri shakllanishi va o‘sishiga yordam berishga da’vat etadi. O‘quvchilar jismoniy tarbiyasining muhim vositasi jismoniy mehnat hisoblanadi. Maktab o‘quv rejalariga kiritilgan mehnat darslarining ilmiy va tarbiyaviy ahamiyati katta. Maktab o‘quvchilarining nerv tizimi va organizmining hamma faoliyatlariga muhim ta’sir ko‘rsatadigan qat’iy kun tartibi bolalarning jismoniy tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktab yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalashga oid ish shakllari:

Jismoniy madaniyat darslari, o‘quv kuni tartibidagi jismoniy tadbirlar: mashg‘ulotgacha gimnastika, darsda jismoniy tarbiya daqiqalari, tanafussda o‘yin va mashqlar, jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha sinfdan va maktabdan tashqari ishlar, uyda jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish. Maktab yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash ishining asosiy shakli o‘qituvchi tomonidan davlat dasturiga binoan, maktab o‘quv rejasi va qat’iy jadval bo‘yicha o‘tkaziladigan jismoniy tarbiya darslaridir. Jismoniy mashg‘ulotlar sog‘ligi tekshirilib ruxsat etilgan hamma o‘quvchilar uchun majburiydir. O‘quvchilarni jismoniy tarbiyalashda maktab o‘quv kuni rejimidagi jismoniy madaniyat tadbirlari muhim rol o‘ynaydi. Ulardan asosiylari quyidagilardir: dars oldilan o‘tkaziladigan har kungi gimnastik, dars vaqtida o‘quvchilarni toliqishdan saqlash uchun o‘tkaziladigan jismoniy tarbiya daqiqalari va tanafusslarni uyushgan holda o‘tkazish.Yuqoridagi tadbirlarning barchasi o‘quv kuni davomida jismoniy tarbiyaning muayyan vazifalarini hal etishga, o‘quvchilarni o‘quv mashg‘ulotlari jarayonidagi aqliy faoliyatga tayyorlashga qaratilgandir.

Maktabda jismoniy tarbiya ishlarini tashkil etish.

Maktabdagi hamma xodimlar o‘quvchilarni jismoniy tarbiyalashni tashkil etishning maqsadi va vazifalari, mazmuni va shakllarini to‘g‘ri tushunishlari, amaliy ishlarda o‘z kuchiga yarasha qatnashishlari, o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasida jismoniy madaniyat va sportni faol targ‘ib qilishlari lozim. Umumta’lim maktabi o‘qituvchilari quyidagi vazifalarni bajarishlari shart: dars yuksak darajada o‘tishini ta’minlash va tegishli sinf: jismoniy tarbiya dasturini to‘liq bajarish, hakim bilan birgalikda o‘quvchilarni tibbiy tekshiruvidan o‘z vaqtida o‘tkazib borish va o‘z ishlarida tibbiy tekshiruv natijalarini hisobga olish, bolalarning hammasi jismoniy mashqlar bilan qulay kiyimlarda shug‘ullanishlariga erishish, jismoniy tarbiya bo‘yicha sinfdan tashqari ishlarni uyushtirish va o‘tkazishda ishtirok etish hamda unga o‘quvchilarni keng jalb qilish va hokazo.

Maktabdagi jismoniy tarbiya ishlariga otaliq tashkilotlarni, shu jumladan, ko‘ngilli sport jamiyatlarini tortish tavsiya etiladi.

Umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiyaning vazifalari

Jismoniy tarbiya jarayonida quyidagi asosiy vazifalar hal etiladi:

a) sog‘likni mustahkamlash organizmni chiniqtirish va jismoniy rivojlanish darajasini hamda ish qobiliyatini oshirish;

b) hayotga zarur bo‘ladigan, jumladan, amaliy xarakterga

ega bo‘lgan harakat malaka va ko‘nikmalarni egallash;

v) kishining ma’naviy va irodalilik sifatlarini tarbiyalash;

g) jismoniy sifat (tezkorlik, kuch, epchillik, chidamlilik) ni o‘stirish;

d) maxsus sport mashqini bajarish texnikasi egallash.

Mehnatkashlar sog‘lig‘ini mustahkamlash, O‘zbekistondagi jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biridir.

Jismoniy tarbiyaning turli vositalarini to‘g‘ri qo‘llash kishi organizmida chuqur va har tomonlama ta’sir ko‘rsatadi, mustahkam sog‘liq hamda zarur jismoniy tayyorgarlikni ta’minlaydi. Jismoniy tarbiyaning o‘ziga xos vositalari jismoniy mashqlardir. Jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanish markaziy nerv sistemasining rivojlanishi va mustahkamlanishiga, qon aylanish va nafas olish organlariga juda yaxshi ta’sir qiladi, bosh miya po‘stlog‘ining charchashini kamaytiradi hamda kishining ish qobiliyatini oshiradi. Jismoniy mashqlarning tayanch harakat aparatining rivojlanishi va mustahkamlanishida ham ahamiyati katta. Jismoniy mashqlar tufayli suyaklar juda mustahkamlanadi, bo‘g‘inlarda harakatchanlik oshadi, tana qayishqoqlashadi. Muskullarda ko‘proq o‘zgarish ro‘y beradi. Jismoniy mashqlar ta’sirida muskullar hajmi oshadi, kuchi o‘sadi, muskullarning qisqarish tezligi va ularning elastikligi ortadi. Jismoniy mashqlar kishining ichki organlariga, avvalo yurak va o‘pkaga juda yaxshi ta’sir ko‘rsatadi. Jismoniy mashqlar jarayonida kishi tanasining barcha muskullari, shu jumladan, yurak muskuli rivojlanadi va harakat qiladi. Mashq qilgan yurak har qisqarganda aortaga mashq qilmagan yurakka nisbatan ko‘proq qon haydaydi. Mashq qilgan sportchining yurak urishi xotirjam turganida (minutiga 50-60 marta) sekin, lekin katta hajmdagi ish bajarganda tez bo‘lishi (minutiga 240 marta) mumkin. Tadqiqotlar sportchi yuragi jismoniy mashg‘ulotlar jarayonida katta ish bajarib zaiflashmasligi, balki mustahkamlanishini va yurak ish qobiliyati bilan farq qilishini ko‘rsatadi. Jismoniy mashqlar ta’siri ostida nafas olish organlari rivojlanadi va mustahkamlanadi, ko‘krak qafasi hajmi kattalashib uning harakatchanligi oshadi. Ko‘krak qafasining nafas olish ekskursiyasi odatdagi 4-
6 sm o‘rniga 10-15 smga yetadi. Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish o‘pka ventilyatsiyasining kuchayishi uchun juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan to‘g‘ri, chuqur nafas olishning shakllanishiga yordam beradi. O‘zbekistonda xalqimizning hayoti va mehnat faoliyatida umumiy jismoniy tayyorgarlik: tez yurish va yugurish, yaxshi suzish, sakrash, chang‘ida yurish to‘siqlarini yengib o‘tish, granatani uzoqqa va aniq uloqtirish va h. muhim ahamiyatga ega. Bu malaka va ko‘nikmalarni juda yoshlikdan shakllantirish jismoniy tarbiyaning amaliy vazifalaridan biridir. Jismoniy tarbiyaning boshqa vositalari (tabiatning tabiiy kuchlari, shaxsiy va jamoa gigienasi) bilan birga oqilona qo‘llaniladigan jismoniy mashqlar kishi sog‘lig‘ini yaxshilashga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanishning ta’limiy ahamiyati katta. Jismoniy mashg‘ulotlarda mashqlarning organizmda ta’siri, amplituda, sur’at, ritm haqida, mashqlarni bajarishni eng to‘g‘ri yo‘llari haqida tushuntirishlar berib boriladi. Shunday qilib, shug‘ullanuvchilar jismoniy tarbiya vazifalarini hal etishga yordam beruvchi maxsus bilimlarni egallaydilar.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya demokratik huquqiy davlat qurilishining umumiy vazifalariga buysundirilgan, shuning uchun yuksak axloqiy va irodaviy sifatlarni tarbiyalash jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biridir. To‘g‘ri uyushtirilgan jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish jarayonida uyushganlik, ongli intizom, tashabbuskorlik, topqirlik kabi axloqiy va irodaviy sifatlar tarbiyalanadi. Shug‘ullanuvchilar jismoniy mashqlarni bajarish paytida mashg‘ulot rahbarlari tomonidan ongli ravishda va ustalik bilan yaratiladigan katta-kichik qiyinchiliklarni yengib o‘tadilar, bu qat’iylik, botirlik, savotlilik, dadillikni tarbiyalashga yordam beradi. Jamoa mashqlarini uyushgan holda bajarish, yurishlar, musobaqalar, bayramlar, do‘stlik, o‘rtoqlik hissini tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Insonning harakatli faoliyatida kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, qayishqoqlik kabi jismoniy sifatlar muhim rol o‘ynaydi. Bunda jismoniy sifatlar doimo birgalikda, o‘zaro aloqada namoyon bo‘ladi. Bu inson organizmining ichki butunligi, uning funktsiyalarining o‘zaro harakati bilan izohlanadi.

KUCH - deb tashqi qarshilikni muskullar tarangligi bilan yengish qobiliyatiga aytiladi. Kuch u yoki bu darajada istalgan bir harakatda namoyon bo‘ladi. Shtanga ko‘tarish, qo‘lda tortilish, vertikal arqonga oyoqlar yordamisiz tirmashib chiqish, yadro irg‘itish va boshqalar kuchning yorqin ifodasidir.

TEZKORLIK - Bu kishining harakatni mumkin qadar yuqori tezlikda bajarish qobiliyatidir. Harakat tezligini (M: yugurishda) va harakat reaktsiyasining tezligini farqlash mumkin.

EPCHILLIK - Bu harakatni koordionatsiyalash, yangi harakatlarni egallash o‘zgarib turuvchi sharoit talabiga ko‘ra bir harakatdan ikkinchisiga tezda o‘ta olish qobiliyatidir.

Chaqqonlikni rivojlantirish uchun shucullanuvchi uchun yangilik va koorditsion qiyinchilik unsuri bo‘lib ko‘rinadigan har qanday jismoniy mashqdan foydalanish mumkin.

CHIDAMLILIK - organizmning u yoki bu harakat faoliyatidan toliqishga bardosh bera olish qobiliyatidir. Umumiy chidamlilik uzoq vaqt davomida (M: davomli yurish, yugurish, suzish, chang‘ida yurish) o‘rtacha sur’atda tinimsiz harakat faoliyatiga bardosh berish qobiliyatidir. Maxsus chidamlilik

esa muayyan faoliyatdagi chidamlilikdir. Sportda M: tezkorlik va chidamlilik birikib keladigan tezkor chidamlilik, kuch va chidamlilik birikuvida keladigan kuch chidamliligi bo‘lishi mumkin. O‘rtacha zo‘r berishni, lekin uzoq muddat davomida bajarishni talab qiluvchi turli jismoniy mashqlar chidamlilikni o‘stirishning vositalari bo‘lib xizmat qiladi. Chayirlik kishi organizmining tayanch harakat apparati zvenolarining harakatchanligi bilan xarakterlanadigan xususiyatidir. Harakat ko‘lami qayishqoqlikning ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Harakat ko‘lami tezkorlik, chaqqonlik va boshqa sifatlarning namoyon bo‘lishiga ta’sir etadi. Qayishqoqlikni tarbiyalash uchun cho‘zilish, ya’ni harakatlar ko‘lami oshirib bajariladigan mashqlar qo‘llaniladi. Bu mashqlar avvalo, qo‘llar oyoqlar, gavda, bosh uchundir.Yurishning va katta qadam turli xillari "qadamlab" sakrashlar, cho‘kkayib turgan holatda sakrashlar, chuqur o‘tirish, gimnastika devoriga yuz o‘girib yoki teskari turib - oldinga, orqaga, yon tomonlarga o‘girish mashqlari va boshqalar. Kishining jismoniy sifatlari harakat malakalari va ko‘nikmalari bilan, shuningdek, irodali sifatlari bilan doimo chambarchas bog‘liqdir. Bunda tezkorlik kuch epchillik va chidamlilikning hosil bo‘lishi tegishli chidam va sabotni ko‘pincha esa botirlikni talab etadi. Kishining jismoniy sifatlarining tarbiyalash jismoniy tarbiyaning muhim vazifalaridan biridir.

Sport kishiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatadi: sog‘liqni mustahkamlashga, umumiy jismoniy rivojlanishga, amaliy ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi va o‘zining yuksak emotsionalligi bilan farqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури». Маърифат. –Тошкент, 1998. 1 апрел.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида»ги Қонуни (2015. 04.09). Халқ сўзи. –Тошкент, 2015. 5 сентябр.
3. Юсупбаева А.С. Совершенствование педагогических механизмов формирования здорового образа жизни в дошколном образовании на основе физического воспитания. «Мактаб ва ҳаёт» илмий методик журнал. № 3 2020 й.
4. F.Miraxmedov, S.Quvondiqov, A.Abdulaxatov, M.Muqimov, O.Sirojov, A.Jo‘rayev, O.Davulov, Jismoniy tarbiya va sport. Darslik. “Ilm-ziyo -zakovat” 2020 yil 420.bet.
5. R.S.Mamatqulov Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi (Basketbol) Toshkent – 2022 yil.

FUTBOLCHILAR TEZKORLIGINI OSHIRISHNING VOSITA VA USULLARI

I.Abdullaev

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali “Sport o‘yinlari” kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Maqolada tezkorlik jismoniy sifati, futbolchilarni tayyorlashda tezkorlikni ahamiyati va uni rivojlantirishning vosita va usullari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Tezkorlik, harakat faoliyati, yakka harakat, harakatlar chastotasi, mashqlar majmui, o‘zgaruvchan usul.

Аннотация: В данной главе проанализированы физическое качество скорости, важность скорости в подготовке футболистов и средства и методы ее развития.

Ключевые слова: скорость, активность действия, одно действие, активность частоты, комплекс упражнений, изменяющийся метод.

Annotation: In this article, there has been analyzed the physical quality of speed, the importanse of speed in the preparationof football players and the means and methods of it’s development.

Key words: speedness, action activity, single action, activites of frequensy, complex of exercises, changeable method.

Respublikamiz Prezidenti va Hukumatimizning jismoniy tarbiya va sport sohasida qabul qilayotgan qonun va qarorlarining samarasi o‘laroq, yurtimiz sportchilari qit’a va jahon sport

musobaqalarida faxrli o‘rinlarni egallab kelishmoqda. Mamlakatimiz rahbarining rahnamoligida yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish, sog‘lom turmush tazrzini yoshlarimiz ongiga singdirish, ularda sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish, jismonan sog‘lom va ma’nan boy yoshlarni tarbiyalash va shu asosida mamlakatimizning jaxon hamjamiyatidagi mavqeyini oshirish kabi vazifalarni amalga oshirish uchun keng miqyosdagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Harakat va faoliyatlarning tezlik xususiyatlari tezkorlik deb ataladigan umumiy nom ostiga birlashtirilgan. U faoliyatning berilgan sharoitlar uchun eng kam (minimal) vaqt kesmasi mobaynida bajarilishini tavsiflaydi.

Tezkorlik harakatlarining xususiyatlari orasida bog‘liqlikning yo‘qligi shunga olib keladiki, tezkorlik sifatining bir mashqdan boshqasiga ko‘chishi, odatda, kuzatilmaydi. Uni faqat harakatlar muvofiqlashuviga ko‘ra o‘hshash bo‘lgan holdagina aniqlash mumkin, lekin kishi qanchalik yaxshi shug‘ullangan bo‘lsa, bunday ko‘chish shu qadar kam darajada kuzatiladi. Shuning uchun umuman tezkorlik sifatini rivojlantirish to‘g‘risida emas, odam harakatlarining muayyan tezkorlik xususiyatlarini rivojlantirish xususida so‘z yuritsak to‘g‘ri bo‘ladi.

Sportchining musobaqadagi natijasiga ko‘pgina omillar ta’sir ko‘rsatada va ularning har birini o‘rganish bashorat qilish uchun muhim ma’lumotlar berishi mumkin. Mutaxassislarning mashg‘ulot jarayonidagi sharoit hamda o‘yinning turli bosqichlari davomida xar xil sharoitlarda futbolchilarda tezkorlikni yuzaga keltirish bilan bog‘liq fikrlari qiziqish uyg‘otadi. Shuningdek futbolchilarning harakat faoliyatlariga xos individual-alohida hususiyatlari haqidagi axborot ham dolzarb va amaliy jihatdan ahamiyatlidir, chunki u sportchi natijalarini bashorat qilish imkoniyatini beradi. Harakat reaksiyasining tezkorligini oddiy va murakkab reaksiyalar tashkil etadi.

Oddiy reaksiya shundas reaksiyaki, bunda avaldan shartlangan signalga sportchi organizmi oldindan shartlangan harakat bilan javob beradi.

Murakkab reaksiya harakatlanayotgan obyektga reaksiya qilish va tanlash reaksiyasidir.

Yakka harakatning tezkorligi, shuningdek, harakat kuchiga ham bog‘liq. Harakatlar sur’ati sportchining tezda kerakli mushaklarni ishga solish va tez bo‘shashish qobiliyati bilan aloqador.

Mualliflar tezkorlik namoyon bo‘lishning elementar va miqdoriy shakllarini ajratadilar. Tezkorlikning yuqorida sanab berilgan shakllarini (harakat faoliyati tezkorligi, yakka harakat tezkorligi, harakatlar sur’ati) mualliflar tezkorlikning elementar shakllari tarkibiga kiritadilar. Majmuali shakllari masofaviy tezlikning yuqori darajasiga erishish qobiliyati, standart tezlikni tez ko‘tarish, musobaqa kurashining borligi taqozo etadigan harakatlarni yuqori tezlik bilan bajarish qobiliyatlari kiradi.

Yillik mashg‘ulotlar davridagi o‘quv-mashg‘ulotlar ishlarining tahlil natijalariga ko‘ra 260 ta o‘quv-mashg‘ulot darslari tashkil qilindi va kalendar bo‘yicha 430 soatni tashkil etdi. Oylik hisobda o‘quv-mashg‘ulot yuklamalarini o‘rtacha 35,8 soatni tashkil etdi. Lekin bu soatlar to‘g‘ri taqsimlanmadi. Agar 2006-yilning noyabr va dekabr oylarida o‘quv-mashg‘ulotlar soati 37-38 soatni tashkil etsa, 2018-yilning yanvar va fevral oylariga kelib yuklama 33-34 soatga tushib ketdi. Keyin esa oyiga yana ko‘tarilib va yana o‘rtacha 35-37 soatni tashkil etdi. 2018-yilning sentyabr, oktyabr, noyabr, va dekabr oylarida yuklamalar yana to‘g‘ri taqsimlanmagan.

Shuni ta’kidlash kerakki, Toshkent shaxar futbol internatlari murabbiylari uz ishlarida B.O‘.S.M. lar uchun ishlab chiqilgan dasturlarga juda muxim ravishda yondoshishadi. Unda to‘p bilan ishlangan mashqlarning vaqt miqdori va to‘psiz bajarilgan mashqlarning vaqt miqdorlari 1-yillik o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga to‘g‘ri taqsimlangan.

Tadqiqot natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, futbolchilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarida to‘p bilan bajargan mashqlari hajmi 87 % dan 93 % gachani tashkil etdi. To‘psiz bajarilgan mashqlar miqdori esa 7 % dan 12 % gacha bo‘lgan vaqtni tashkil etdi.

Tahlil natijalariga ko‘ra 10 oy davomida o‘tkazilgan o‘quv mashg‘ulot jarayonlarida quyidagilar ham aniqlandi. O‘quv-mashg‘ulot ishlarida katta hajmdagi mashg‘ulotlar umumiy chidamkorlikni tarbiyalashga yunaltirilgan. Mashg‘ulotlarning umumiy hajmi esa 179 soatni tashkil etdi (45,3 %). Shuni ta’kidlash kerakki, katta hajmdagi o‘quv-mashg‘ulot ishlari umumiy chidamkorlikni tarbiyalashga qaratilgan, metodika nuqtayi nazaridan olib qaralganda bu ish unchalik ham to‘g‘ri emas. Mualliflarning ta’kidlashicha, yosh futbolchilarga mashg‘ulotlar jarayonida katta hajmda mashg‘ulotlarni, jismoniy sifatlarni tarbiyalashga, chaqqonlikni, egiluvchanlikni, tezkorlik sifatlarini tarbiyalashga qaratilishi kerak. Umumiy chidamkorlikni tarbiyalash esa 12-13 yoshdan 15-16 yoshgacha bo‘lgan davrlarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda tezkorlik va chidamkorlikni tarbiyalashga 23,7 soat (64%) vaqtni ajratdi.

Chaqqonlik va egiluvchanlikka ajratilgan mashq miqdori 22,3%, kuch imkoniyatlariga esa 6,8 % mashq miqdoriga vaqt ajratildi.

Yugurish tezligini tarbiyalashga esa 46,2 soat vaqt ajratildi. Bu esa xar bir mashg‘ulotda 10,7 daqiqa vaqt demakdir. Bu degani ushbu bosqichda tezkorlik sifatlariga murabbiylar juda kam vaqt ajratishgan.

Tezkorlik sifatini tarbiyalashga 31,9 soat vaqt ajratilgan. Bu esa o‘rtacha 8,2 % o‘quv-mashg‘ulotlar jarayoni vaqtini tashkil etadi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, tezkorlik va tezkorlik sifatini tarbiyalashga ham deyarli bir xil vaqt ajratilgan.

Izlanishlar natijasida tezkorlik ishlari hajmi shuni ko‘rsatadiki, musobaqa davrida futbolchilar tomonidan bajarilgan umumiy tez yugurishlar soni deyarli bir xil. O‘yinlar bo‘yicha umumiy masofa 4840 metr, to‘p bilan tez yugurishlar esa 1860 metr, bu esa 38,4% to‘psiz tezlik 2890 metr (61,6%) bu dalil esa o‘quvmashg‘ulot jarayonida tezkorlik sifatini tarbiyalash uchun nomaxsus bo‘lgan mashqlarni qo‘llash qanchalik kerak bo‘lishini isbotlaydi.

Taklif etilgan mashqlar majmuidan foydalanish tajriba guruhi futbolchilarida maxsus jismoniy tayyorlikni rivojlantirish darajasini ko‘tarish imkonini berdi:

- Tezlik va tezlik-kuch sifatlarini 10,2-11,7 %ga;
- Tezlik chidamliligini – 8,6 %ga;
- Umumiy chidamlilikni – 13,5 %ga.

Tajriba guruhining yuqori darajadagi maxsus jismoniy tayyorlikka ega bo‘lgan futbolchilari soni 62 %ga teng bo‘lib, bu model ko‘rsatkichlarga muvofiq keladi.

Jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha mashg‘ulot dasturlarini bajarish quyidagi usullardan foydalanishni nazarda tutadi: integral, takroriy, o‘zgaruvchan usullar. Qo‘llanilgan usullar va olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, futbolchilar tezkorligini aynan shu usullar orqali rivojlantirish mumkin.

Xulosa: Mutaxassislarning mashg‘ulot jarayonidagi sharoit hamda o‘yinning turli bosqichlari davomida xar xil sharoitlarda futbolchilarda tezkorlikni yuzaga keltirish bilan bog‘liq fikrlari qiziqish uyg‘otadi. Tadqiqot natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, futbolchilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarida to‘p bilan bajargan mashqlari hajmi 87 % dan 93 % gachani tashkil etdi. To‘psiz bajarilgan mashqlar miqdori esa 7 % dan 12 % gacha bo‘lgan vaqtni tashkil etdi.

Sportchining musobaqadagi natijasiga ko‘pgina omillar ta’sir ko‘rsatada va ularning har birini o‘rganish bashorat qilish uchun muhim ma’lumotlar berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.I.Talipjanov “Futbol texnikasi” Toshkent 2010y.
2. I.A. Koshbaxtiev “Yosh futbolchilarni tayyorlashda texnik va taktik jarayonlarning ro‘li va axamiyati” Toshkent 2015y.
3. R.A.Akramov “Zamonaviy futbol asoslari” Toshkent 2012 y.
4. Javlonbek Abduqaxor o‘g‘li Zulxaydarov. Futbolchilarni tayyorlash jarayonidagi musobaqalar faoliyati ko‘rsatkichlarini taxlil qilishning axamiyati 2022. 764-770.

BASKETBOLDA IYILIWSHEŃLIK SAPASI HÁM ONÍ RAWAJLANDÍRÍW METODIKASÍNÍŃ ÓZGESHELIKLERI

Paluaniyazova Naubaxar,
ÓzMDTSU Nókis filialı “Sport oyınları” kafedrası oqıtıwshısı,
Joldasbaeva Munisa
“Basketbol” baǵdarı 1-basqısh studeni

Tayanısh sózler: Sport, basketbol, tárbiya, process, trener, wazıypalar, shınıǵıw, qábilet, rawajlandırıw, iyiliwsheńlik

Ключевые слова: Спорт, баскетбол, воспитание, процесс, тренер, задачи, тренировка, талант, развитие, гибкость

Key words: Sports, basketball, training, process, coach, tasks, training, abilities, development. flexibility

Jámiyetimizde salamat turmıs-tárizin qáliplestiriw, xalıqtıń, ásirese, jas áwladtıń fizikalıq tárbiya hám ǵalabalıq sport penen turaqlı shuǵıllanıwı ushın zaman talaplarına say sharayatlar, sport jarısları arqalı jaslarda óz erki, kúshi hám imkaniyatlarına bolǵan isenimin bekkemlew, mártlik hám watanpárwarlıq, ana watanǵa sadıqlıq sezimlerin kamal taptırıw, sonday-aq jaslar arasınan qábiletli sportshılardı tańlap alıw hám selekciya islerin sistemalı qáliplestiriw hámde fizikalıq tárbiya hám ǵalabalıq sporttı jánede rawajlandırıwǵa baǵdarlanǵan keń kólemli isler ámelge asırılmaqta.

Atap aytqanda, dene tárbiyası hám sporttı rawajlandırıw baǵdarında 2020-jıl 24-yanvardaǵı «Ózbekstan Respublikasında dene tárbiyası hám sporttı bunnan bılay da jetilistiriw hám ǵalaba en jaydırıw ilajları haqqında»ǵı PF-5924-sanlı, 2020-jıl 30-oktyabrdegi «Salamat turmıs-tárizin keń en jaydırıw hám ǵalabalıq sporttı jáne de rawajlandırıw ilajları haqqında»ǵı PF-3099-sanlı, 2020-jıl 3-noyabrdegi «Dene tárbiyası hám sport tarawında kadrlar tayarlaw sistemasın jetilistiriw hám ilimiy potencialdı arttırıw ilajları haqqında»ǵı PQ-4877-sanlı, Prezident pármanları hám qararlarında sport shınıǵıwların ilimiy tiykarda shólkemlestiriw zárúrligine ayrıqsha itibar qaratılǵan.

Basketbol sportındaǵı processler dawamında shaxstıń háreket kónlikpeleri joqarı dárejede rawajlanadı. Sonday-aq shaxstıń erk hám basqa psixologiyalıq sapaları jetilisedi. Basketbolda zárúr bolǵan sapalardıń biri bul iyiliwsheńlik bolıp esaplanadı. «Iyiliwsheńlik» termini bir neshe buwınlardıń yamasa pútkil deneniń ulıwma háreketsheńligine sáykes qollanǵan maqsetke muwapıq. Jeke buwınlarǵa keletuǵın bolsaq, olardıń háreketsheńligi (mısalı, tobıq buwınındaǵı, iyindegi h.t.b.) tuwralı aytıw durısıraq boladı.

Birinshi ret iyiliwsheńlik anıqlamasın 1949-jılı N.G.Ozolin usındı. Iyiliwsheńlik – bul adamnıń úlken amplitudası bar hárektelerdi orınlaw sıpatı bolıp tabıladı.

1977-jılı bolsa L.P.Matveev iyiliwsheńlikkke tómendegishe anıqlamanı usındı: Iyiliwsheńlik – bul tayanısh-háreket apparatınıń morfofunkcional qásiyetleri, olardıń bir-birine qatnaslı baylanıslarınıń háreketsheńliginiń dárejesin anıqlaydı.

Iyiliwsheńliktiń eki túri (kórinis forması) bar – aktiv hám passiv.

Aktiv iyiliwsheńlik – bul adamnıń anaw yaki mınaw buwın arqalı ótetuǵın bulshıq et toparlarınıń qısqarıwına baylanıslı háreketlerdiń úlken amplitudasına erisiw sıpatı (mısalı, «qarlıǵash» teńsalmaqlılıǵında ayaqtı kóteriw amplitudası).

Passiv iyiliwsheńlik – sırtqı sozılıw kúshleriniń tásirinde úlken amplitudası bar háreketlerdi orınlaw sıpatı túsiniledi: sheriktiń kúshi, sırtqı salmaq, arnawlı qurılmalar.

Buwın hám bulshıq et apparatı jaǵdayınıń informaciyalıq kórsetkishi – aktiv hám passiv iyiliwsheńlik kórsetkishleriniń ayırmashılıǵı. Bul ayırmashılıq *aktiv iyiliwsheńlik deficiti* dep ataladı. Sonday-aq, *dinamikalıq* hám *statikalıq* iyiliwsheńlik ajıratıladı. Birinshisi háreketler waqtında, ekinshisi – pozalarda payda boladı.

Iyiliwsheńlik ulıwma yamasa arnawlı bolıwı múmkin. Ulıwma iyiliwsheńlik – bul maksimal amplitudası bar hár qıylı hárektelerdi orınlawǵa múmkinshilik beretuǵın adam denesiniń barlıq buwınlarınıń háreketsheńligi.

Arnawlı iyiliwsheńlik – bul iskerliktiń konkret túriniń talaplarına muwapıq keletuǵın tek ayırım buwınlarda ǵana sezilerli yamasa maksimal háreketsheńlik.

Iyiliwsheńliktiń rawajlanıwın anıqlaytuǵın faktorlar. Iyiliwsheńlik kórinisi bir neshe faktorlarǵa baylanıslı boladı:

Anatomiyalıq. Súyeklerdiń forması, buwın shemirsheginiń juwanlıǵı, bulshıq etlerdiń, sińirler hám baylamlardıń serpimliligi kóbinese iyiliwsheńliktiń rawajlanıw dárejesin anıqlaydı (buwın háreketiniń baǵdarı hám keńligi: iyiliw, sozılıw, ajıratıw, ornatıw, supinaciya, pronaciya, aylanıw).

Bulshıq et tonusınıń oraylıq nerv retlestiriliwi, sonday-aq, antagonistlik bulshıq etlerdiń keriliwi. Bul iyiliwsheńliktiń kórinisleri sozılǵan bulshıq etlerdi erkin túrde bosastırıw hám háreketlerdi ámelge asıratuǵın bulshıq etlerdi tartıw sıpatine, yaǵnıy, bulshıq et aralıq koordinaciyanıń jetilisiw dárejesine baylanıslı bolatuǵının bildiredi.

Sırtqı sharayatlar. Jeńil shınıǵıw, massaj, jılıtıw proceduraları (jıllı vanna, ıssı dush, sıpırınıw) payıtında háreket amplitudasınıń sezilerli joqarılawı bayqaladı. Iyiliwsheńliktiń eń úlken kórsetkishleri 12 saattann 17 saatqa shekem jazılǵan. Áyne waqıtta organizmniń funkcional jaǵdayı buwınlardıń háreketsheńligine tásir etetuǵın faktor bolıp tabıladı: sharshaw tásirinde belsendi iyiliwsheńlik tómenleydi, al, sozılıwǵa qarsı bulshıq etlerdiń tonusı tómen bolǵanlıqtan passiv iyiliwsheńlik artadı.

Iyiliwsheńlik, basqa qásiyetlerden ayırmashılıǵı, ómirdiń dáslepki jıllarınan baslap regressiyaǵa ushıray baslaydı. Sebepler – shemirshek toqımanıń áste-aqırın qatıwı, baylamlardıń serpimliliginiń

tómenlewi. Eń intensiv passiv iyiliwsheńlik 15-17 jasqa shekem rawajlanadı. Bunda passiv iyiliwsheńlikti rawajlandırıw ushın sensitiv dáwir 9-10 jas, al, aktiv dáwir 10-14 jas boladı.

Iyiliwsheńlik – qızlardıń er balalarǵa qaraǵanda artıqmashlıǵı bar qásieyetlerdiń biri. B.V.Sermeevtiń maǵlıwmatları boyınsha, qızlar bir qatar kórsetkishler boyınsha er balalardan 20-30% shamasında alda. Unamlı emociyalar hám motivaciya iyiliwsheńlikti jaqsılaydı.

Iyiliwsheńlikti rawajlandırıw quralı sıpatında maksimal amplitudada orınlanatuǵın shınıǵıwlar qollanıladı. Bul shınıǵıwlar *sozılıw* shınıǵıwları dep ataladı. Sozılıw shınıǵıwlarına tómendegiler kiredi:

• aktiv (serpiliw, siltew, qıyalaw, aylanbalı háreketler, sonday-aq, predmetler menen);

• passiv (sherik penen, salmaq penen, amortizatorlar menen, snaryadlarda);

• statikalıq (maksimal amplitudası 6 sekundtandan 10 sekundqa shekem deneniń jaǵdayın saqlaw).

Buwınlardaǵı háreketsheńlikti rawajlandırıwǵa arnalǵan shınıǵıwlardı amplitudası udayı joqarılap, serippeli «ózliginen uslaw», terbeliw arqalı orınlaw usınıladı.

Sozılıw shınıǵıwların qollanıwdıń tiykarǵı qaǵıydaları tómendegishe: awırıw sezimlerine jol qoyılmaydı, shınıǵıwlar áste tempte orınlanadı, háreket amplitudası kem-kemnen artadı.

Iyiliwsheńlikti rawajlandırıwdıń tiykarǵı metodı – bul qaytalanatuǵın metod, ol sozılıw shınıǵıwların seriyalı túrde orınlawdı, hár qaysısında bir neshe ret qaytalawdı hám jumıs sıpatın qálpine keltiriw ushın jetkilikli belsendi demalıs intervalların qamtıydı.

Sheshiletuǵın wazıypalarǵa, sozılıw rejimine, jasına, jınısına, fizikalıq tayarlıǵına, buwınlardıń qurılısına baylanıslı, júklemeniń dozası oǵada ráń-báreń bolıwı múmkin. Bul metod eki variantqa iye: dinamikalıq tákirar shınıǵıw metodı hám statikalıq tákirar shınıǵıw metodı. Statikalıq shınıǵıwlar járdeminde iyiliwsheńlikti rawajlandırıw metodı «stretching» atamasın aldı.

Iyiliwsheńlikti rawajlandırıw hám jetilistiriw ushın oyın hám jarıs metodları da qollanıladı. Sońǵı jılları iyiliwsheńlikti rawajlandırıwdıń jańa, dástúriy emes metodları payda boldı. Mısalı, V.T.Nazarov tárepinen islep shıǵılǵan bulshıq etlerdi biomexanikalıq stimuliyaciyalaw metodı yamasa elektro-vibraciya stimuliyaciyalaw metodı. Sońǵı metod sozılıw shınıǵıwların orınlawda antogonist bulshıq etler vibraciyaǵa, sinergetikalıq bulshıq etler elektrlik stimulyaciyaǵa ushıraytuǵınlıǵına tiykarlanǵan. Bul úlken háreket amplitudasına erisiwge járdem beredi.

Iyiliwsheńlikti rawajlandırıw metodikasınıń ózgeshelikleri tómendegilerden ibarat. Iyiliwsheńlikti rawajlandırıwǵa baylanıslı sabaqlardı jobalastırıw hám ótkeriwde bir qatar áhmiyetli metodikalıq talaplardı saqlaw kerek. Iyiliwsheńlik shınıǵıwların sabaqtıń hár bir bólimlerine: tayarlıq, tiykarǵı hám juwmaqlawshı bólimlerine engiziwge boladı. Kompleks 6-8 shınıǵıwdı qamtıwı múmkin. Kóbinese tirishilik háreketinde úlken rol atqaratuǵın buwınlardıń háreketsheńligin rawajlandırıw kerek. Sozılıw shınıǵıwları kúndelikli yamasa hátte kúnine 2 ret orınlansa, eń úlken nátiyje beretuǵının este saqlaǵan maqul. Iyiliwsheńlik shınıǵıwların orınlawdı toqtatqanda onıń dárejesi kem-kemnen tómenleydi hám 2-3 aydan keyin ol baslanǵısh dárejesine qaytadı. Sonlıqtan sabaqlardaǵı tánepis 1-2 hápteden aspawı kerek.

Iyiliwsheńlikti rawajlandırıwda hár qıylı sozılıw shınıǵıwlarınıń tómendegidey koefficientleri usınıladı: 40% aktiv, 40% passiv hám 20% statikalıq. Biraq, mınaday nızamlılıq bar: jas qansha kishi bolsa, belsendi shınıǵıwlar sonsha úlken úlesti, al, kishi bolsa statikalıq úlesti qurawı kerek.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Ózbekstan Respublikasınıń 2020-jıl 23-sentyabrdegi «Bilimlendiriw haqqında»ǵı Nızamı.

2. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2017-jıl 7-fevraldaǵı «Ózbekstan Respublikasın ele de rawajlandırıw boyınsha Háreketler strategiyası haqqında»ǵı PF-4947-sanlı Pármanı.

3. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2017-jıl 3-iyundaǵı «Dene tárbiyasın hám ǵalabalıq sporttı bunnan bılay da rawajlandırıw ilajları haqqında»ǵı PQ-3031-sanlı Qararı.

4. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2020-jıl 24-yanvardaǵı «Ózbekstan Respublikasında dene tárbiyası hám sporttı bunnan bılay da jetilistiriw hám ǵalaba en jaydırıw ilajları haqqında»ǵı PF-5924-sanlı Pármanı.

5. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2020-jıl 30-oktyabrdegi «Salamat turmıs tárizin keńnen úgit-násiyatlaw hám ǵalabalıq sporttı bunnan bılay da rawajlandırıw ilajları haqqında»ǵı PF-6099-sanlı Pármanı.

6. Гончароыв О.В. Баскетбол: программа для детского-юношеского спортивных школ, специализированных детского-юношеских школ олимпийского резерва.–Т.: Ilmiy texnika axboroti-Press nashriyoti, 2017/.-160 b.

14-15 YOSHLI KARATECHILARNING BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDA MAXSUS TEXNIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Utepov A.A.,
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Karate WKF sportida maxsus tayyorgarligi asosida tayyorlash, Yangi mashg‘ulot jarayonlari orqali eng yuqori optimal holatga yetkazish, Yillik taqsimlangan saotlar asosida mashg‘ulot olib borish, Texnikaning kinematik, dinamik va ritmik tavsiyalari. Mashqlar orasidagi qisqa dam olishlar.

Kalitlar so‘zlar: Karate WKF, mezotsikl davri, umumiy va maxsus tayyorgarlik, maxsus zarba,texnik tayyorgarlik.

Аннотация: Обучение на основе специальной подготовки в виде спорта Каратэ, доведение его до высшего оптимального состояния посредством новых тренировочных процессов, проведение тренировок на основе ежегодно отведенных часов, кинематических, динамических и ритмических рекомендаций по технике. Короткий отдых между упражнениями.

Ключевые слова: Каратэ WKF, период мезоцикла, общая и специальная подготовка, специальный удар, техническая подготовка.

Annotation: Training on the basis of special training in the WKF sport of karate, bringing it to the highest optimal state through new training processes, conducting training based on the annual allocated hours, kinematic, dynamic and rhythmic recommendations of the technique. Short rests between exercises

Keywords: Karate WKF, mesocycle period, general and special training, special kick, technical training.

Dolzarbligi. Karate WKF sport turida 14-15 yoshli karatechilarning jismonan va manan yetuk qilib tarbiyalash va albatta mehnatka vatanparvarlik ruhida tarbiyalash O‘zbekiston Respublikasi sportini rivojlantirishning oliy maqsadi hisoblanadi. Bu oliy maqsad jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasidagi barcha tashkilotlar uchun umumiy hisoblanadi[1]. Karate WKF sportida 14-15 yoshli karatechilarning umumiy jismoniy va maxsus jismoniy tayyorgarligi va texnik tayyorgarlik jihatlari optimal ravishta takomillashtirilmaganligi mavzuimizning dolzarbligi hisoblanadi. Shu kunga qadar 14-15 yoshli karatechilarning aniq rejalashtirilgan Karate WKF bo‘yicha chet el olimlari va yurtimiz olimlarning aniq rejalashtirilgan uslubiy qo‘llanmalari va nashr etilgan kitoblari va albatta rejalashtirilgan aniq metodik mashg‘ulotlari ishlab chiqilmagan.

Tadqiqot maqsadi. Karate WKF sport turida 14-15 yoshli karatechilarning texnik jangovar holatini rejalashtirilgan yangi mashg‘ulot jarayonlari orqali eng yuqori optimal holatga yetkazish.

Tadqiqot vazifalari. 14-15 yoshli karatechilarninng maxsus texnik tayyorgarlik vaqtidagi yo‘l qo‘ygan xatoliklarini o‘rganish va uni tog‘irlash.

Karatechilarning maxsus jangovar holatini eng yuqori holatga yetkazish uchun eng sara hujumga o‘tuvchi maxsus jangovar zarbalarini takomlashtirish.

14-15 yoshli karatechilarning mashg‘ulot oldi tiklanish jarayonlarini hisobga olgan holda texnik tayyorgarligini takomillashtirish.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. Karate WKF sportida 14-15 yoshli karatechilarning texnik tayyorligi rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulot jarayonini tashkillashtirish asosan 14-15 yoshli karatechilarning jismoniy tayyorgarligini va jangovar holatini yaxshilash uchun bizga aniq rejalashtirilgan mezosikl mashg‘ulot davrini olamiz. Sababi 14-15 yoshli karatechilar yosh bolalarga nisbatan aqliy va jismoniy taraftan yaqshi rivojlangan boladi. Albatta 14-15 yoshli karatechilarning jismoniy tayyorligini hisobga olgan holda. Sportchining texnikasi kinematik dinamik va ritmik xususiyatlar bilan belgilanadi.

Texnikaning kinematik xususiyatlari makon va vaqtda namoyon bo'ladi. Bularga fazoviy, vaqtinchalik va makon-vaqt xususiyatlari kiradi. Sportchi tanasi va qismlarining pozitsiyalari va

harakatlari, ularning traektoriyasi va boshqalar texnikaning fazoviy xususiyatlari hisoblanadi. Vaqtinchalik xarakteristikalar texnika va harakatlar va ularning qismlarini bajarish muddatini o'z ichiga oladi. Texnika va harakatlarni bajarishda tezlik va tezlashuv sport mashqlari texnikasining fazoviy-vaqt xususiyatlari bilan bog‘liq.

Texnikaning dinamik xususiyatlari sportchining tana qismlarining bir-biri bilan, sportchi tanasining atrof-muhit va sport anjomlari bilan o‘zaro ta’sirida namoyon bo‘ladi. Asosiy kuch xarakteristikalari: kuch kattaligi, kuch momenti, kuch vektori, kuch impulsi. Sportchi texnikasining inertial xususiyatlariga massa, inersiya momenti va boshqalar kiradi.

Sport mashqlari texnikasining ritmik xususiyatlari ritmda namoyon bo‘ladi - harakat va harakat harakatlarining vaqt va makonda oqilona taqsimlanishi. Sportchi harakatlarining ritmi odatda sportchining sport va texnik mahorat darajasini tavsiflovchi integral parametr sifatida qaraladi, bu vaqt ketma-ketligida sportchi texnikasining turli xususiyatlarini o'z ichiga oladi[2]. Karate WKF sportida ham yuqorida keltirilgan kabi texnika kinematic,dinamik va ritmik bo‘lib ajraladi. Albatta jangovar texnik tayyorgarligi vaqtida mana shu muammolarni hal qilichni sportchining ko‘nikma va malakasini mukammal darajaga ko‘tarishimiz kerak.

Shunga asos Karate WKF sportida ham sportchining texnikasi kinematik dinamik va ritmik xususiyatlar bilan belgilanadi. Mushaklarning ish qobiliyati esa o‘z navbatida markaziy organlarning funktsional imkoniyati bilan belgilanadi. Demak, mashq shiddati va sport natijasi nafaqat texnik-taktik mahorat bilan asoslanadi, balki ustuvor jihatdan sportchining funktsional tayyorgarligiga borib taqaladi[3].Mukkammal texnik tayyorgarlikni rivojlantirish uchun mashg‘ulot vaqtidagi yo‘l qo‘yiladigan texnik xatolarni tog‘irlashimiz kerak bo‘ladi. Karate WKF sportida ko‘p xatolar jang vaqtida zarbalarning texnik xato bajarishi tufayli sportchi har xil jarohat oladi. Pedagogik kuzatuv orqali sportchining xatolarini tuzatamiz. Shu rusmda davom etsak texnikaning rivojlanishi yuqori darajada rivojlanib boradi, sababi har bir yo‘l qo‘yilgan xatolar o‘z vaqtida tog‘irlansa keyingi o‘rganadigan zarbalarda muammo bomaydi. Sababi karate WKF sportida hamma qo‘l va oyoq zarbalari bir-biriga chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Jismoniy mashqlar texnikasi muntazam ravishda rivojlanadi: odatlangan texnika takomillashtiriladi, ba’zida esa usullar barham topadi, yangilari tuziladi. Bu jarayon qator sabablar bilan belgilanadi:

1. Sport tayyorligi darajasiga talablarning muntazam o‘sayotganligi.
2. Harakatlar bajarilishining mukammallashgan usullarini uzluksiz izlash, muvofiq tekshirishlar natijasi va rolining oshishi.
3. Yangi sport anjom-jihozlarining yuzaga kelishi[4].

Karate WKF sportida 14-15 yoshli karatechilarning texnik tayyorgarligini mezotsiklda mashg‘ulot jarayonlarini rejalashtirib chiqamiz asosan jangovar holatini oyoq zarbalaridan “mavashi” va “uramavashi” oyoq zarbalarini texnik jihatdan takomillashtirib chiqamiz. Bu mashg‘ulot jararoyini 3 oy davomida bo‘lib o‘tadi. Bu ikkala zarba karate sportida mashhur oyoq zarbalari hisoblanadi, sababi jahon arenalari va respublika chempionatlarida asosan shu zarbalar orqali tez ochko oladi. Mashg‘ulot haftasiga 3 marotaba bo‘lib o‘tadi asosan mashg‘ulot vaqtida oyoq zarbalariga ko‘p vaqt ajiratishimiz kerak bo‘ladi. Mezotsikl vaqtlarining taqsimlanishi 1.1-jadval.

O‘quv mashg‘ulotlar mazmuni	**Soatlar**	**May**	**iyun**	**iyul**
1.Nazariy mashg‘ulotlar	3	1	1	1
2.Amaliy mashg‘ulotlar				
Umumiy jismoniy tayyorgarlik	44	12	12	20
Maxsus jismoniy tayyorgarlik	42	14	14	14
Texnik taktik tayyorgarlik	45	19	21	15
Psixologik tayyorgarlik	3	1	1	1
O‘tkazish nazorat sinovlari	2	2		
3. Tiklanish tadbirlari	3	1	1	1
Jami	142	50	49	52

Bu jadval 3 oylik mezotsikll jadvali hisoblanadi. Bunda bizga asos BO‘SM yillik soat taqsimlanishinan biz o‘zimizga qulay tadqiqot oylarini olamiz[5]. Qo‘chimcha biz mashg‘ulot paytida kerak bo‘ladigan ya’niy maxsus texnik tayyorgarlikni rivojlantiruvchi yordamchi mashqlarni olamiz bu asosan mashg‘ulot davomida bo‘lib otadi: oyoq zarbasi “uravashi”ni mukammal rivojlantirish uchun sportchilar sherik bo‘lib ishlaydi, bu jarayonni maxsus jismoniy tayyorgarlik va texnik taktik

tayyorgarlik paytida yuklama va dam olish vaqtida sekin tezlikta ishlaymiz. Bu albatta oyoq zarbalarining ko‘nikmasining mukammal darajada rivojlanishi va takomillashuvida o‘lib keladi. Sababi har bir mashqdan keyin charchash yuz beradi.

Dam olishning tiklanish fazasi oralig‘i mashg‘ulotlar orasidagi dam olish har doim ertaroq tugashi lozim, ya’ni superkompensatsiya fazasidan keyin boshlanadigan qayta (reduktsiya) fazasi boshlanmay turib namoyon bo‘lishi mumkin. Tiklanish jarayonlarining daovmiyligi ko‘pincha mashg‘ulot yo‘nalishiga bog‘liq bo‘ladi[6]. 14-15 yoshli boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida asosan “mavashi”, “uramavashi” oyoq zarbalarini mukammal darajada avtomatlashtirsak xatolarimiz ustida ishlab uni oz vaqtida tuzatsak ana shunda jangovar bahslardagi hujumga o‘tish va himoyalanish taktikalarida juda yaqshi natija beramiz. Intellektual qobiliyatlar sportchi uchun nima uchun kerak? degan savolini yechimi Belarus davlat universiteti yosh olimlari tomonidan tadqiqot olib borildi. Xususan intellektual qobiliyatlar-bu insonning individual psixologik xususiyatlari, bu turli xil ishlarni muvaffaqiyatli bajarish uchun shartdir intellektual faoliyat turlari. Aqlning rivojlanishi irsiyatning genetik omillariga va insonning yashash sharoitlariga bog‘liq [7]. Bolaning intellektual salohiyati faqat qulay tashqi muhit bilan aloqa qilish orqali rivojlanishi va yaxshilanishi mumkin va uning darajasi quyidagilar bilan bog‘liq o‘rganish uchun zarur shart sifatida qaraladi yangi bilimlarni, usullarni va faoliyatning murakkab shakllari [8, 9]. Tadqiqot muammolarini hal qilish uchun so‘rovnoma o'tkazildi. Belarus Respublikasining turli malakaga, pedagogik tajribaga va sudyalik tajribasiga ega 40 nafar karate murabbiylari orasida kategoriya. Respondentlarning eng ko'p qismi murabbiylik bilan shug‘ullangan 10 yildan 15 yilgacha bo'lgan tajriba (30%), respondentlarning 15% mutaxassislari edi murabbiylik tajribasi 3 yilgacha.



1-rasm – Intellektual qobiliyatlarning ahamiyati Mutaxassislarning fikriga ko'ra karate uchun (%)

So'rov natijalari tahlili shakllanishni ko‘rsatdi karate mutaxassislarining o‘rganilayotgan muammolar bo‘yicha fikrlari, chunki ularning ko‘pchiligi barcha taklif qilingan savollarga javob berdi. Ko‘pgina hollarda, 5 yilgacha bo‘lgan murabbiylik tajribasiga ega bo‘lgan yosh murabbiylar orasida bir qator savollarga javob berishda qiyinchiliklar paydo bo‘ldi. O‘qitish tajribasining etarli emasligi bilan izohlanadi. 10 balli maktabda karate bo'yicha intellektual qobiliyatlarning ahamiyati to'g‘risida respondentlarning javoblarini tahlil qilganda, intellektual qobiliyatlarning o'rtacha ahamiyati 8,65 ballni tashkil etishi aniqlandi. Murabbiylarning 20 foizi ularning ahamiyatini 10 ball, murabbiylarning 37,5 foizi 9 ball, murabbiylarning 30 foizi 8 ball va 12,5 foizi 7 ball darajasida deb hisoblaydi (1-rasm). Batafsilroq javoblarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, murabbiylarning amaliy tajribasi qanchalik katta bo'lsa, ular mashg‘ulotlar uchun aql-idrok qobiliyatining ahamiyatini shunchalik yuqori baholaydilar[10]. Yuqorida keltirib o‘tilgan kinematic, dinamik va ritmik texnikaning rivojlanishi uchun va xatolarni aniqlash uchun kerak bo‘lgan tavsiyalar hisoblanadi. Keyinchalik shunday qilib, intelektual qobilyat bo‘yicha so‘rov natijalari shuni ko'rsatadiki, Belarus Respublikasi murabbiylarining fikricha, intellektual qobiliyat karate mashg‘ulotlari uchun yuqori ahamiyatga ega, rivojlanish tezligiga va vosita harakatlarining sifatiga yuqori darajada ta'sir qiladi.

Xulosa. Karate WKF sportida asosan 14-15 yoshli boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi sportchilarining mezotsikl davridagi maxsus texnik tayyorgarlik asosiy maqsadi qisqa vaqt ichida musobaqaga tayyorlash hisoblanadi. Sababi Karate WKF sporti va boshqa sport turlarida asosan

jangovar sport turlarida sportchining mukammal darajada o‘rgangan texnik jihatdan kuchli bo‘lsa, trener taktik jihatdan kuchli darajada sportchini tayyorlasa yuqori o‘rinlarni egalashi mumkin. Shu jumladan Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida o‘quv jarayonini samarali tashkil etish uchun boshlang‘ich tayyorgarlik guruhlarida qatnashadigan yosh sportchilarda chidamlilikni rivojlantirish masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda. Barcha sport turlarida chidamlilikni shakllantirish yosh sportchilarni tayyorlash tizimining majburiy tarkibiy qismidir. Sportchi chidamliligi mashqlarni bajarishda o‘quv yuklamalari quyidagi beshta tarkibiy qism bilan tavsiflanishi kerak: mashqning intensivligi, mashqning davomiyligi, dam olish vaqtlarining davomiyligi, dam olish tabiati va takrorlanish soni va chidamlilikni rivojlantirishning quyidagi usullari qo‘llaniladi: o'lchangan yuk bilan doimiy mashqlar usuli, takroriy va oraliq mashqlar usuli, o‘yin usuli, raqobatbardosh o‘chirish usuli[11]. Yuqorida aytib o‘tkanimizdek xatolarimiz ustida ishlasak va xatolarni o‘z vaqtida tog‘irlasak o‘ylagan maqsadimizga erishamiz. Bolaning intelektual qobilyatini rijovlantirish uchun bola manaviy bilimlarni mukammal egalashi zarur. Masalan intelektual qobilyatini rivojalntirish uchun ko‘blagan badiiy asarlarni mutola qilishi kerak. Karate WKF sporti asosan kutilmagan taktik vaziyatlarga boy va estetik jangovar holatlari bilan bolani o‘ziga qiziqtirib qo‘yadi. Bu vaziyatda yangi sportchilar paydo bo‘la boshlaydi. Murabbiy bo‘lsa aniq rejalashtirilgan mezotsiklliy mashg‘ulotlarga qiziqtirishi va albatta bolani mashg‘ulottan qolmasligi, sportni qoymaslik muammolarini hal etishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Salomov R .S . Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T.:«ITA-PRESS», 2015. 2 9 6 бет.

2. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения. — К.: Олимпийская литература, 2004. — 808 с.Библиогр.: 1068 назв. Ил. 522. Табл. 206.

3. Olimov.M.S Yengil atletikachi talabalarni mashg‘ulotlar jarayonida funktsional imkoniyatlarini shakllanishi va tiklanish su’rati. “FAN – SPORTGA” илмий-назарий журнали Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети муассислигида чоп этилади.2023/8

4. Kurbanova N.S Jismoniy tarbiyaning nazariy asoslari[Matn]:o‘quv qo‘llanma-Tashkent:<<O‘ZKITOBSAVDONASHRIYOTI>> 2020- 108bet.

5. Типовая программа спортивной подготовки по виду спорта «каратэ» (этап начальной подготовки). Методическое пособие. Авторы-составители: – М.: ФГБУ ФЦПСР 2022. – 110 с.Авторы-составители: Федеральное государственное бюджетное учреждение «Федеральный центр подготовки спортивного резерва»

6. Xujamkeldiev G.S O‘rta masofaga yuguruvchi sportchilarni yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlar jaratonlarida tiklovchi vositalardan foydalanish samaradorligi // p.f.b.f.d. (PhD) dissertatsiyasi. – Ch.: 2022.- 165 b.

7. Тихомирова, Л. Ф. Формирование и развитие интеллектуальных способностей ребенка. Дошкольники / Л. Ф. Тихомирова. – М. : Рольф, 2000. – 142 с

8. Калмыкова, З. И. Продуктивное мышление как основа обучаемо-сти / З. И. Калмыкова. – М. : Педагогика, 1981. – 200 с

9. Дружинин, В. Н. Психология общих способностей / В. Н. Дружи-нин. – 2-е изд. – СПб. : Питер, 2002. – С. 25.

10. М.П.Ступень, А.К Головня. Значение интеллектуальных способностей в каратэ и их влияние на эффективность спортивной подготовки юных спортсменов научно-теоретический журнал «Белорусский государственный университет физической культуры» Мир спорта №3(84)-2021 62 с

11. Рахматова.Д.Н Научно-методологические основы развития выносливости у юных спортсменов “FAN – SPORTGA” илмий-назарий журнали Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети муассислигида чоп этилади.2024/1

ЖАМОАВИЙ ҚАЙИҚЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ЭШКАККА БЕРИЛАДИГАН КУЧЛАНИШЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Оринбаев Адилбек Куатбаевич
Стажёр ўқитувчи
Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети
Нукус филиали

Аннотация. Ушбу маколада жамоавий кайкларни шакллантиришда эшкакка бериладиган кучланишнинг чизигини тахлил килиш оркали кучланишнинг спорт натижаларга таъсири баён этилган.

Калит сўзлар: эшкак эшиш, классик услуб, бир вактда услуб, олиб ўтиш фазаси, кучланиш эгри чизиги.эгри

THE SIGNIFICANCE OF MOVEMENTS GIVEN BY OARS IN THE FORMATION OF COMMAND BOATS

Abstract. This thesis describes the effect of tension on sports performance by analyzing the curve of the tension applied to the oars in the formation of team boats.

Keywords: rowing, classical style, synchronous style,

ЗНАЧЕНИЕ ДВИЖЕНИЙ, ПРИДАВАЕМЫХ ВЕСЛАМИ ПРИ ФОРМИРОВАНИИ КОМАНДНЫХ ЛОДОК

Аннотация. В работе описывается влияние напряжения на спортивные показатели, анализируя кривую напряжения, прикладываемого к вёслам при формировании командных лодок.

Ключевые слова: гребля, классический стиль, синхронный стиль, качающаяся фаза, кривая.

Долзарблиги. Охирги йилларда мамлакатимизда спортга бўлган эътибор давлат сиёсатининг устивор йўналишларидан бирига айланиб бормоқда. Бу эса мураббий ва олимлар зиммасигаспортчилар натижаларини яхшилашга доиркўшимча жавобгарликни юклайди. Мамлактимизда охирги йилларда катта ривожланиш даври кузатилган спорт турларидан бири бу академик эшкак эшиш спорти хисобланади, бунга биргина мисол сфатида мустакил Ўзбекистон тарихида биринчи бор 2021 йил Жаҳон Чемпионатидан кўлга киритилган медални келтирсак бўлади. Жахонда эшкак эшиш спортида этакчи мамлакатлар жамоавий қайиқларни шакллантиришда спортчиларнинг техник мувофиқлиги айниқса, эшкакка бериладиган кучланишнинг бир хиллига қараб шакллантиришга катта эътибор қаратмоқдалар.

Тадқиқот мақсади ва услуби. Академик эшкак эшишда спортчиларнинг эшкаккаберадиган кучланишининг эгри чизигига қараб эшиш услубларига ажратиш.Эшкак эшувчининг эшишга сарфлаган ўртача кучининг максималга нисбатининг ҳаракат эгри чизиги шаклини баҳолаш.

Тадқиқот натижалари ва уларни мухокамаси. Эшкак эшувчининг эшишга сарфлаган ўртача кучининг максималга нисбати ҳаракат эгри чизиги юқори қийматлари эгри чизиқнинг тўртбурчак шаклига мос келади. Агар эгри чизиқнинг шаклини ўзгартириш керак бўлса, тана сегментларининг ишлаш кетма-кетлигини ўзгартириш керак. Эшиш вақтида дастлаб оёқлар кейинчалик белнинг кетма-кет ҳаракатланиши (бу эшкак эшишда классик услуб деб аталади) эгри чизигининг кўпинча учбурчак шаклини беради, лекин шу билан энг юқори куч ва қувват кўрсаткичини кўрсатади (1-расм).



1-расм. **Академик эшкак эшишда эшишнинг “Классик услуб” кўриниши: қора – умумий куч, қизил – оёқлар, кўк – бел, яшил – қўллар**

"Классик услубда" спортчилар ноқулай об-ҳаво шароитида "Бир вақтда" эшиш услубини қўлловчи эшкак эшувчилардан устунликка эга бўлишади. Чунки, шамол ва тўлқин юзага келганда "Классик услубда" эшиш тана сегментларининг кетма-кет ишлаши ҳисобига

қаршиликни енгиб ўтишда катта аҳамиятга эга. Олиб ўтиш фазасида бир вақтнинг ўзида оёқ ва белнинг жалб қилиниши (бу эшкак эшишда бир вақтда" услуб деб аталади) кўпроқ квадрат шаклидаги эгри чизиқ юзага келади, лекин энг паст куч ва қувват кўрсаткичномаён бўлади [1] (2-расм).



2-расм. **Академик эшкак эшишда эшишнинг "Бир вақтда " кўринишиқора - умумий кўч, қизил – оёқлар, кўк – бел, яшил – қўллар**

Жаҳонда юқори малакали академик эшкак эшувчиларнинг 80-85% "классик" ёки унга яқин эшиш услубидан фойдаланади ва уларнинг 15-20% эса "бир вақтда" эшишга яқинроқ услубдан фойдаланишади [2]. Биомеханик нуктаи назардан жамоавий кайикларни шакллантиришда жамоанинг барча аъзолари томонидан эшкакка бериладиган кучланишнинг эгри чизиги бир хил шаклдалигига алоҳида эътибор берилиши керак. Экипажазоларининг эшкакка бериладиган кучланишини бир вактда ишлатилмаслиги кайикнинг йўналиш бўйлаб негатив тебранишлари ошишига ва мувозанатнинг йўколишига, натижада экипажнинг ҳамжиҳатликдаги ҳаракатларининг пасайишига олиб келади [3]. Албатта, юқорида кўрсатилган ҳолатларнинг барчаси қайиқ тезлигининг пасайишига олиб келади. Жамоадаги ҳаракатларни мувофиқлаштириш даражаси қанчалик юқори бўлса, жамоа аъзоларига эшиш вактидаги юк шунчалик тенг таксимланади.

Хулосалар. Эшкакка бериладиган кучланишнинг эгри чизиги шакли эшкак юзасининг ҳаракатлантирувчи самарадорлиги билан боглиқ. Агар эгри чизиқ шаклининг ўлчови сифатида ўртача кучнинг максималга нисбатини оладиган бўлсак, унда бу параметрни 50-55% гача (кўпроқ тўртбурчак шаклда) ошириш эшкак юзасининг самарадорлигини (ўртача) 80-83% гача оширади. Натижада қайиқ тезлиги тахминан 1% га ёки 2000 м мусобақа мосафасида 3,5 сонияга оширади. Олиб ўтиш вақтини тезлаштириш ва шу орқали ритмни камайтириш (эшиш вақтининг эшиш сикили вақтига нисбати) орқали сиз қайиқнинг негатив тебранишини камайтиришга эришиш ва шу билан энергия йўқотилишининг бир қисмини бартараф этиш мумкин. Масалан, олиб ўтиш вақтини (эшиш узунлигини сақлаган ҳолда) 1,0 сониядан 0,9 сониягача қисқартириш орқали қайиқ тебраниш тезлигининг ўзгаришини 3% га камайтириш ва унинг ўртача кийматини тахминан 1% га ошириш

Адабиётлар:

1. http://www.biorow.com/RBN ru.htm.
2. http://www.rowingrussia.ru/d/35285/d/osnovnve-aspekty sovremennov-sistemv-podgotovki-kvalificirovannyh-sportsmenov-v-akademicheskov-greble.docx
3. Клешнев В. 2005. Technology for technique improvement. In: Nolte V. (ed.) Rowing Faster.Human Kinetics. 209-228.

VOLEYBOL MASHG'ULOTLARI PEDAGOGIK JARAYON SIFATIDA

Qaliev Quwandiq Sagindikovich
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali stajyor o'qituvchisi
Darmenbaeva Ayzada Puxarbaevna
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali talabasi

Annotaciya: Ushbu tezista yosh voleybolchilarni tanlash va tayyorlashda qo'llaniladigan pedagogik jarayonlar haqqida fikrlar bildirilgan.

Kalt so'zlar: Jismoniy, mashg'ulot,texnika, taktika, jismoniy kuch, harakatli o'yinlar.

Voleybolchi sportchilarni shaxsga xos bo'lgan maksimal imkoniyat texnik, taktik, jismoniy, ruhiy tayyorgarlik darajasi jarayonida sport turi ixtisosligidan yuqori natijalarga erishish talablariga mos kelgan faoliyat tushuniladi. Bu voleybolchi sportchilarni maxsusmaqsadi har tomonlama barkamol insonni tarbiyalash bilan bog'liq bo'lib shaxsni ma'naviy va jismoniy kuchini namoyon etish, jamiyat

manfatlari uchun samarali tayyorlashga xizmat qiladi. Voleybol trenirovkasi jarayonida asosan quyidagi vazifalar hal qilinadi.

- Tanlangan voleybol turidan texnika va taktikani egallash.
- Voleybol turiga xos bo‘lgan asosiy nagruzka organizm imkoniyatiga mos rivojlanganlik darajasini taminlash.
- Zaruriy ma’naviy irodaviy sifatlarni tarbiyalash.
- Mashg‘ulot va musobaqa jarayoniga zaruriy nazorat bilimlarini egallash, amaliy tajriba to‘plash.
- Voleybolchi tayyorgarligining turli tomonlama kompeleks takomillashtirish va musobaqa faoliyatida namoyon etish. [1]

Bu ko‘rsatgan vazifalar umumiy ko‘rinishda bo‘lib voleybol mashg`ulotining asosiy yo‘nalishini belgilaydi. Yanada aniqlash vazifalar tayyorgarlik xodisa bo‘lib u sportda yuksak natijalarga erishish uchun bevosita yo‘naltirilgan maxsus jismoniy tarbiya jarayonidir. Bu jismoniy tarbiyaning sport orqali sport vositalarida amalga oshiradigan jarayondir. Bundan sport pedagogik nuqtai nazardan tarbiyalash sog‘lomlashtirish insonni hayotga tarbiyalash vositasi ekanini nazoratda tutish g‘oyat muhimdir. Voleybolchi sportchilarning mashg‘ulotini kishining har tomonlama taraqqiyot ettirish o‘zida mujassamlashtirgan umumiy tarbiya sistemasi komponentlaridan biri hisoblanadi.

“Voleybolchi sportchilarning mashg‘uloti” mavzusi bir qatorda “Sportchini tayyorlash” mavzusi bilan qo‘llaniladi. Bulardan anglanaladigan tushuncha ma’no jihatidan bir-biriga juda yaqin, biroq bir xil emas. Sportchini tayyorlash kengroq tushuncha bo‘lib u sportda yuksak ko‘rsatgichlarga erishishi ta’minlovchi barcha vositalardan foydalanishning o‘z ichga oladi. Voleybolchi sportchilarni mashg‘uloti sportchini tayyorlashni asosiy formasini tashkil etadi. Voleybolchini mashg‘uloti u yoki bu darajada tayyorlashning barcha qismlarini o‘z ichiga oladi, biroq ularni yetarli darajada mukammal hal qilmaydi. O‘ta tayyorlashning bevosita jismoniy mashq – mashg‘ulotlari jarayonida amalga oshiriladigan asosiy qismi kiradi. [2]

Voleybolchi sportchilarni jismoniy tayyorgarlik shuningdek sportchining sport texnikasi, taktikasi va ma’naviy iroda tayyorgarligini amaliy qismlari keng o‘rin egallaydi. Umuman voleybol mashg‘uloti va sportchini tayyorlash biologik va psixologik o‘zgarishlarning murakkab kompleksini yuzaga keltirib, natijada mashq ko‘rganlik, tayyorgarlik sport formasida bo‘lishlilik darajasi yaxshilanishga olib keladi.

“Mashq ko‘rganlik” tushunchasi odatda mashg‘ulot ta’siri ostida sportchi organizmda sodir bo‘lgan holda uning ish qobilyati ortish va o‘z irodasini topadigan biologik moslashuv o‘zgarishlar ma’nosida anglanadi. Yuqoridagi o‘zgarishlar asosan bir-biri bilan bog‘liq ikki yo‘nalishda yuz beradi.

Birichidan - struktura va bioximik o‘zgarishlar bazasida organizmning turli organ va sistemalarining funksional imkoniyatlarni ishga layoqatliligi yuksaladi.

Ikkinchidan - markaziy nerv sistemasining barcha organlar ishini tartibga solib turish va o‘z - o‘zidan takomillashadi. Sportchi ko‘rgan bo‘lsa u muayyan ishni shunchalik samarali va mukammal bajaradi. [3]

Umumiy mashq ko‘rganlik va maxsus mashqni ko‘rganlik bir - biridan farq qilinadi. Sportchining maxsus mashq ko‘rganligi tanlangan sport turi talablariga sportchining organizmini qanchalik moslasha olganligini ifodalaydi. Umumiy mashq ko‘rganlik harakat faoliyatining g‘oyat xilma - xil turiga moslasha olishning umumiy darajasi bilan xarakterlanadi.

Umumiy va maxsus mashq ko‘rganlik o‘zaro hamohang bo‘lib, ularni biri ikkinchisiga aylanib turadi desak ham bo‘ladi. Sportchining mashq ko‘rganligi va tayyor ekanlighi sistematik mashg‘ulotlar jarayoniga to‘xtovsiz umuman yuksalish tomon o‘zgarib turadi. Bunda muayyan umumiylik ko‘zga tashlanadi. Har bir yangi sportda yutuqlarni qo‘lga kiritilishda optimal tayyor ekanligini odatda sport formasi deb ataladi. Trener va sportchialar mashg`ulot jarayonin shunday tashkil etishlari kerakki, bunda o‘z vaqtida sport formasiga erishish uchun sharoit yaratilsin, uni ma’suliyat musobaqalarning muddatlariga muvofiq belgilanadigan ma’lum davr mobaynida saqlab turish va yanada rivojlantrish mumkin bo‘lsin.

Voleybolchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rish tanlangan sport turini o‘ziga xos talablariga javob bera oladigan jismoniy qobilyatni tarbiyalash jarayonidan iboratdir. Voleybolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi deganda ular tanlangan sport sport turi uchun xos bo‘lmagan biroq sport faoliyatida muvofaqqiyatga erishish uchun bevosita va bilvosita ijobiy ta’sir ko‘satadigan har tomonlama jismoniy qobilyatlarni tarbiyalash nazarda tutiladi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik maxsus tayyorgarlik uchun zamin yaratadi ya'ni tanlangan sport turida kamol topish uchun zarur shart-sharoit sifatida kuchlilik, tezkorlik, chidamlilik, epchillik, chaqqonliklarni har tomonlama rivojlantirishga zamin yaratadi. Sportchining umumiy jismoniy tayyorgarlikning mazmuni uning qaysi sport turi bo'yicha ixtisoslashganligiga bog'liq. Sportchini umumiy va maxsus tayyorligi jarayonida jismoniy tarbiyaning barcha vositalaridan ya'ni jismoniy mashqlar chiniqish va sog'lomlashtirishning tabiyi omillar rejimi va boshqa gigienik sharoitlaridan foydalaniladi. Chiniqish sog'lomlashtirishning tabiyi omillari hamda gigienik sharoitlardan mashg'ulot vaqtida ham shuningdek mashg'ulotdan tashqari holatlarda ham foydalaniladi. Mazkur omil va sharoitlarning sport faoliyatidagi ahamiyati mashg'ulot nagruzkalarni qo'llab borgan sari tobora ortib boradi va bu sport faoliyatida yaxshi natijalrga olib keladi.

Voleybolchi sportchilarni asosiy vositalaridan - musobaqa mashqlari bu yaxshi harakat faoliyatlari bo'lib sportga ixtisoslash predmeti hisoblanadi va mazkur sport turi bo'yicha o'tkaziladigan musobaqa shartlariga to'la muvofiq bajariladi.

"Musobaqa mashqlari" tushunchasi ma'lum ma'noda "Sport turi" degan tushunchaga o'xshaydi. Ko'pgina musobaqa mashqlari nisbatan tor yo'nalishdagi va harakati jihatidan cheklangan xarakterdagi faoliyat bo'ladi. Bunga cikllik harakatlar yurish, yugurushning yengil atletika turlari, chang'i, velosiped poygachilari, konki uchish, suzish, belgilangan masofaga qayiq haydash, shuningdek ba'zi bir cikllik bo'lmagan va aralash mashqlar (yengil atletikadagi sakrash, yugurish, uloqtirish va boshqalar) kiradi. Asosiy jismoniy sifatlarga qarab bu mashqlarni tezlik va kuch talab etadigan va ko'proq chidamlikni talab qiladigan mashqlar bo'lishi mumkin. Chidamlikni talab qiladigan mashqlar o'z navbatida chidamlikni specifikatsiyasiga qarab g'oyat maksimal quvvat, katta quvvat va o'rta quvvat talab mashqlariga bo'linadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.A.Pulatov, M.A. Qdirova "Sport pedagogik mahoratinin oshirish (Voleybol)" Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2018 26-30 b.
2. L.R.Ayrapetyans, A.A.Pulatov "Voleybol nazariyasi va uslubiyati", "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2012 178 b.
3. Smirnov N.K. Salomatlikni tejaydigan ta'lim texnologiyalari va maktabda salomatlik psixologiyasi. 2005.
4. Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va metodikasi. 2020

VOLEYBOLSHÍLARDÍŃ TEXNIKA-TAKTIKALÍQ HÁREKETLERINIŃ MODEL QÁSIYETLERI

Berik Askarovich Tabınbayev
ÓzMDTSU Nókis filialı "Sport oyınları" kafedrası oqıtıwshısı
Baltabaeva Periyzat Bayrambay qızı
ÓzMDTSU Nókis filialı studenti

Házirgi dáwirde Ózbekstan Respublikasında ǵárezsizlik jıllarında dene tárbiyası hám olimpiada háreketiniń qásiyetlerin, Ózbekstanda dene tárbiyası hám olimpiada sportı rawajlanıwınıń cifrli kórsetkishlerin salıstırıw analizi, dene tárbiyası, ǵalabalıq sport hám olimpiada háreketiniń úzliksiz sistemaların qáliplesiw processlerin úyreniw eń aktual máselelerge kiredi.

Voleybol óz mánisi, mazmunı hám ózgesheligi menen basqa sport oyınları parıq etedi. voleybol oyını salıstırǵanda kishi bolǵan, yaǵnıy arasınan teń ekige bólingen 18x9 metrli tuwrı múyeshli tórtmúyesh formasındaǵı maydanshada ámelge asıriladı. Zamanagóy voleybol túrli oyın ilmiy tájriybeleri hám taktikalıq kombinaciyalarǵa bay bolıp, oǵada úlken kúsh hám tezlikte ótedi. Sonlıqtan, voleyboldıń joqarıda atap ótilgen ayrıqsha qásiyetleri oyınshılardan joqarı jetilisken texnikalıq sheberlik talap etedi. Jarıs oyınlarında texnikalıq sheberlik qanshelli keń hám sırtqı tásirlerge salıstırǵanda jaqsı qáliplesken bolsa, sonshalıq jeńisti qolǵa kirgiziw múmkinshiligi kóp boladı.

Oyın texnikası - bul bir waqttıń ózinde izbe-iz hám arnawlı bir maqsetli tártipte atqarıw etiletuǵın qánigelesken háreket yamasa háreketler kompleksi bolıp tabıladı. Oyın texnikası - háreketti anıq, tez, jeńil, jaǵdayǵa muwapıq, kem kúsh sarp etiw etip joqarı nátiyjede orınlawǵa arnalǵan bolıwı kerek.

Texnikaǵa tiyisli barlıq qurallar bar (samolyot, avtomobil, raketa, televizor, saat hám t.b), olardıń texnikalıq pasportı ámeldegi bolıp, ol jaǵdayda usı quraldıń texnikalıq kórsetkishleri hám ólshemleri berilgen boladı. Sportta da arnawlı bir háreket qánigeliginiń ayrıqsha texnikalıq kórsetkishleri, ólshemleri hám onı jırlawda qáliplesken texnikalıq tártibi bar bolıp tabıladı.

Voleybol oyını texnikası oyındı aparıw ushın zárúr bolǵan háreket usılları kompleksinen ibarat esaplanadı. Háreketler texnikası túrli jaǵdaylarda maqsetke muwapıq, nátiyjeli háreket qılıw menen bahalanadı. Oyındaǵı hár bir texnikalıq usıldı orınlaw bir-biri menen ajıralmas baylanısqan háreketleniw sistemasınan dúziledi. Háreket texnikası háreket wazıypaların arnawlı bir usıl menen sheshiw ushın zárúr hám jeterli bolǵan hárekettiń dinamikalıq hám kinematik qásiyetleri bolıp tabıladı (kúshlerdiń arnawlı bir izbe-izligi, gewdeniń ayırım bólimleri arasındaǵı muwapıqlıq hám sol sıyaqlılar)

4) фиксация заданной позы.
5) подготовка к приземлению,
6) приземление (амортизационные действия, компенсаторные, связующие, переходные).

Наиболее характерна и значима полетная фаза прыжка, во время которой необходимо выполнить различной сложности движения: разведение и сведение ног. сгибания и разгибания туловища, взмахи и вращения руками. повороты, сочетания их. а также манипуляции предметами в самых разных вариациях.

Равновесия в художественной гимнастике различают статические и динамические. Они выполняются на полупальцах и полной ступне, ориентируются по разным плоскостям и

направлениям. Одной из главных особенностей выполнения равновесий является необходимость их удержания после различных движений: шагов, бега, прыжков, поворотов, «многооборотных вращений». Это требует особой подготовленности гимнасток, обеспечивающей точность действий в сочетании с надежной устойчивостью.

Упражнения с предметами в полной мере определяет специфику художественной гимнастики [4]. Наличие того или иного предмета, отличающегося целым рядом признаков (формой, весом, разной конструкцией, распределением массы и ее геометрией и т.п.), а также необходимость выполнять с ним различные манипуляции - определяют их разнообразие, трудность, зрелищность и многосторонность требующейся подготовки. Такие упражнения совершенствуют двигательную координацию, пространственно-временную ориентировку, быстроту, точность реакции и движений.

Для упражнений с предметами характерны пять групп технических действий: броски и ловля, махи, круги, вращения, перекаты. В свою очередь - они обеспечиваются техничными хватами, замахами, подседаниями. переводами, передачами и перехватами для действий в связке «гимнастка - предмет» характерны разнообразие сочетаний действий по направлениям и плоскостям, частые смены активности звеньев тела, сочетания перемещений предметов и определенных телодвижений.

На начальном этапе подготовки в художественной гимнастике в качестве основных применяются мячи, скакалки, обручи, ленты и булавы. Дополнительно, для разнообразия, используются шарфы, веры и флажки.

Упражнения с мячом весьма динамичны, в них используется большое количество различных движений: броски и ловля одной и двумя руками, перебрасывания, перекаты по частям тела и полукаты и броски, выполняемые не только руками. но и ногами, туловищем, головой, плечами: резкие и быстрые броски сочетаются с поворотами и удержанием мяча в разных пространственных положениях гимнастки при фиксации мяча на разных участках тела. Особыми действиями, характерными именно для этой группы упражнений, являются отбивы мяча и выкруты. Броски и ловля мяча сочетаются с кувырками, перекатами на спине или на груди, различного типа равновесиями и «обыгрывающими» действиями.

Упражнения со скакалкой представляют собой сочетания различных прыжков на одной и двух ногах, поочередных перепрыгиваний и вращений скакалки, выполняемых на месте и с продвижением вперед, в сторону, назад, с поворотами, а также с изменением ритма и темпа как прыжков, так и (одновременно с прыжками или «отдельно») движений скакалкой. Такое содержание упражнений со скакалкой требует особой точности движений, не только чувства ритма, но и чувства самого предмета, поскольку конфигурация скакалки может значительно меняться в зависимости от ее натяжения, меняющегося в зависимости от быстроты и амплитуды вращений, а также исходной и специально изменяемой длины. Поскольку прыжки со скакалкой выполняются, как правило, длинными сериями, эти упражнения служат отличным средством развития выносливости в составе обшей или специальной физической подготовки.

Чтобы разнообразить занятия и варьировать нагрузку, среди упражнений используются прыжки через длинную скакалку (веревку, вращаемую двумя партнерами), прыжки вдвоем, втроем, целой группой, и при этом с самыми разнообразными дополнительными двигательными заданиями.

Упражнения с обручем связаны, в основном, с вращением предмета (рукой, ногой, шеей, туловищем), его бросками и перекатами на фоне различных телодвижений. Основное требование к данным упражнениям - сохранение плоскости движения обруча, иначе он будет падать. Важен и правильный хват. Маховые движения выполняются обязательно при жестком хвате, а при качательных и вращательных движениях - нужно уметь своевременно напрягать и расслаблять мышцы, обеспечивая свободного движения. Практически каждое движение с обручем требует владения особой техникой, более сложной, чем та. которая используется в упражнениях, описанных выше. С другой стороны, сами упражнения с обручем — отличное средство совершенствования различных физических качеств и координационных способностей.

Упражнения с лентой связаны с построением в пространстве различных «рисунков», т.е. активными действиями кистью, предплечьем, всей рукой. Это различные махи, круги, броски, перехваты, перебросы и т.п. движения, с помощью которых гимнастка рисует «змейки», «восьмерки», «спирали». Все это выполняется в разных плоскостях и направлениях, в разных

темпах и ритмах и в согласии с действиями других частей тела - поворотами и вращениями, прыжками и полупереворотами, наклонами.

Упражнения с булавами представляют собой манипуляции двумя предметами. Работая одной или двумя руками, гимнастка выполняет различные круги, махи, «мельницы», броски, перекаты булав по площадке или по своему телу, броски булав с заданными направлениями и плоскостями вращений, и последующей ловлей их в определенных позах, в которые спортсменка приходит через повороты, прыжки с поворотами, различные кувырки и другие сложные движения.

Вторая группа - упражнения узкой специальной направленности. Они представляют собой широкий крут двигательных заданий, обеспечивающих овладение основными техническими действиями. Упражнения этой группы позволяют воздействовать на пространственно-временную организацию чувственного познания и оценку собственных возможностей. При этом, решая задачу оптимизации физического состояния занимающегося, они в то же время все внимание акцентируют на взаимосвязи субъективного восприятия двигательных форм и окружающей среды, выразительности движении, формировании образа
«красивого движения». В данной группе можно выделить несколько подгрупп упражнений.

1. Упражнения, развивающие образное мышление и его двигательное выражение. Они проводятся в форме игровых заданий с разным содержанием. Это могут быть смены простых поз. сочетания нескольких двигательных действий, позволяющие «рисовать» образы из окружающей среды, например, бабочки (для выражения пластичности), кузнечика (как обладателя прыгучести), елочки (как образца стройности) и т.п. Подобные действия могут объединяться в короткие сюжеты или программы, которые оформляются соответствующим музыкальным сопровождением.

2. Ритмопластические упражнения требуют определенного сочетания, взаимосвязи и выразительности действий. Выполнение их связано с представлениями о такте, темпе, ритме, сильной и слабой долях, размере, т.е. с владением основами музыкальной грамоты. При этом двигательные задания могут преследовать разные цели:

- согласование элементарных движений различными звеньями тела с музыкальным сопровождением;
- воспроизведение заданного ритма с помощью простейших действий (постукивания. притоптывания. прихлопывания, ритмичного шагания и пр);
- соотнесение с музыкальным аккомпанементом более сложных передвижений (шагов, бега, подскоков, выпадов, поворотов и т.п.);
- упражнение в цикличном (повторяемом) сочетании действий различной сложности;
- вариации действии в соответствии с заданными меняющимися темпом и ритмом аккомпанемента.

3. Дифференцировочные упражнения способствуют формированию умений различать действия по ряду’ параметров и точно оценивать их по темпу, длительности; усилиям, пространственному- положению, а также по их согласованности при выполнении. Соответственно этому используются и специальные упражнения. Причем, сначала подавляющее большинство их основано на контрасте (сильно - слабо, быстро - медленно), а затем и на все более тонких нюансах в однонаправленных и разнонаправленных движениях, одновременных и разновременных - но всегда точностных. Сами же упражнения могут включать любые действия: от простейших (в суставах) до сложных прыжков и поворотов с одновременными манипуляциями спортивными предметами.

4. Групповые упражнения требуют, прежде всего, взаимодействия партнеров в процессе выполнения конкретных двигательных действий. При этом содержание упражнений партнеров может быть, как типовым, так и различным по направлению перемещений, используемым предметам, но при обязательной синхронности (соответствию счету или акцентам музыкального сопровождения) или напротив - асинхронности, задаваемой композицией или простым заданием, но с попаданием действия на определенный ритмический момент опять-таки в согласии с действиями партнера, исполняющего «свою партию».

Данные упражнения требуют от группы исполнительниц постоянного внимания, как за собственными действиями, так и за действиями других участниц упражнения. Кроме того, необходимо проявление высокой дисциплинированности и выдержки на фоне высокой

эмоциональной нагрузки, характерной для групповых упражнений. Здесь могут быть использованы специально составленные композиции элементов, а также фрагменты спортивных композиций. Основную нагрузку здесь несут упражнения с предметами.

5. Танцевальные хореографические упражнения канонизированные движения, отвечающие законам танцевальных стилей и хореографии, имеющие достаточно сложную координационную структуру и способствующие решению задач «двигательного образования». Как правило, это соединения отдельных движений в поточном исполнении, требующие

определенной стилистической двигательной базы и культуры движений.

Для данной группы упражнений обязательно музыкальное сопровождение. Сами упражнения выполняются в виде танцевальных шагов и дорожек, у опоры (станка) или без опоры, с использованием части зала или всей его площади. Таким образом, специфика упражнений данной группы определяется значительным количеством двигательных заданий и соответствующим разнообразием воздействий на гимнасток.

Третья группа упражнений - комбинационные. Основное спортивное упражнение в художественные гимнастики любой разрядной категории представляет собой определенную композицию движений. Композиции могут различаться по характеру движений, соединениям поз. танцевальных шагов и акробатических элементов, наличию спортивного предмета. Количество и сложность движений, длительность выполнения и стиль движений, характер музыкального сопровождения - также могут быть весьма разнообразны. Возможны следующие разновидности композиций:

1) узкой направленности - например, для развития способностей сохранять равновесия, подбираются различные позы, из которых составляется определенная связка или составляются соединения различных прыжковых заданий в сочетании с поворотами, выполняемыми на ограниченной опоре, а также заканчивающиеся равновесными позами;

2) широкого или комплексного воздействия, при котором используются сочетания движении различной сложности, характера. напряженности. объединенные в конкретную композицию:

3) модельные комбинации. отвечающие всем соревновательным требованиям, но используемые как дробные, т.е. представляющие лишь часть соревновательной композиции, иногда - целиком.

Вся эта группа упражнений позволяет постепенно подвести гимнастку к таким кондициям, которые требуется показать на соревнованиях.

Таким образом, представленная классификация технических действии является базой при обучении девочек художественной гимнастике, начиная уже с занятий в спортивно-оздоровительных группах.

Литература

1. Астатина. МП. Использование оздоровительной гимнастики в физкультурно-оздоровительной деятельности детей дошкольного и школьного возраста: Учебное пособие / МП. Астатина. В.П. Шульгина. - Омск: СибГУФК, 2007. - 112 с.

2. Карпенко. Л.А. Художественная гимнастика: Учебное пособие Л.А. Карпенко. - М.: Советский спорт. 2013. - 230 с.

3. Миронова. А.И. Гимнастика: Методика преподавания А.И. Миронова. - Минск: Новое знание. 2013. - 335 с.

4. Пахомова. Л.Э. Методика подготовки юных спортсменок в художественной гимнастике к выполнению упражнений с предметами /Л.Э. Пахомова. Е.С. Николаева // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. - 2006. - № 5. - С. 30-32.

5. Федеральный стандарт спортивной подготовки по виду спорта художественная гимнастика / Утвержден приказом Минспорта России от 5 февраля 2013 г. N 40 // fed_standart_hudoj_ginuiast.pdf -30 с.

KURASHCHILARNING KO‘P YILLIK TAYYORGARLIGIDA PEDAGOGIK NAZORAT QILISHDA IMITATSIYALI MODELLASHTIRISH METODINING QO‘LLANILISHI.

Erimbetov Bayrambay Karlıbaevich.
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) professor.
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali direktori.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kurashchilarning ko‘p yillik tayyorgarligi jarayonida pedagogik nazorat qilishda imitatsiyali modellashtirish metodining ahamiyati va qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Imitatsiyali modellashtirish metodi sportchilarning jismoniy va psixologik holatini baholash, ularning tayyorgarlik darajasini aniqlash va mashg‘ulot jarayonini optimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada ushbu metodning nazariy asoslari, amaliy qo‘llanilishi va uning samaradorligi haqida ma’lumotlar keltiriladi. Shuningdek, kurashchilarning tayyorgarlik jarayonida imitatsiyali modellashtirish metodining afzalliklari va kamchiliklari muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Kurashchilar, Ko‘p yillik tayyorgarlik, Pedagogik nazorat, Imitatsiyali modellashtirish, Jismoniy tayyorgarlik, Psixologik holat, Mashg‘ulot jarayoni, Sportchilarning baholash, Tayyorgarlik darajasi, Optimallashtirish.*

Kirish: Ma’lumki, fan metodi - bu fanni ushbu fan bo‘yicha allaqachon ma’lum bo‘lgan narsalar asosida o‘rganishga bo‘lgan yondashuvning ta’rifidir. Shuning uchun, odatda, metod fan predmeti bilan belgilanadi. Biroq fan predmeti noaniq ta’riflanganda va, ayniqsa, boshqa fanda tasdiqlangan metod olingan taqdirda, teskari ta’sir ham bo‘lishi mumkin - yangi metod yordamida fan predmetini aniqlashtirish. Aynan shu voqea imitatsiyali modellashtirish metodi jismoniy tarbiya nazariyasi metodlari arsenaliga kiritilganda sodir bo‘ladi.

Imitatsiyali modellashtirish kompyuterda modellashtirish turlaridan biridir. Xususan, u bir nechta mumkin bo‘lgan variantlardan muammo yoki vazifaning yeng yaxshi yechimini topish orqali modellarni optimallashtirish uchun ishlatilishi mumkin.[1.2.3]

Imitatsiyali modellashtirish obyekti - bu modeldir. Keng ma’noda model – bu qandaydir obyektning yoki obyektlar tizimining obrazi yoki prototipi bo‘lib, ma’lum sharoitlarda ularning "o‘rnini bosuvchi" yoki "vakili" sifatida ishlatiladi. Model- bu etalon (standart) bo‘lib xizmat qiladigan namuna, biror narsani takrorlaydigan va taqlid qiladigan qurilma, moddiy va xayolan tasavvur qilinadigan obyekt bo‘lib, tadqiqot jarayonida asl obyektni shunday almashtiradiki, uni to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘rganish asl obyekt haqida yangi bilim beradi.

J. Forrester ta’rifiga ko‘ra, imitatsiyali modellashtirish - bu tizimning xatti-harakatlarini tushunish va uning ishlashini ta’minlaydigan turli strategiyalarni baholash uchun haqiqiy tizim modelini yaratish va ushbu model bo‘yicha tajribalar o‘tkazish jarayonidir.[4]

***Dolzarbligi*:** Dunyoda zamonaviy yakkakurash sport turlarida sportchilarning har tomonlama tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablarning oshib borish tamoyili namoyon bo‘lib bormoqda. Hozirgi kunda tezlik-kuch sifatlarini yuqori darajada rivojlantirmasdan va maxsus chidamkorlik, tezkor harakat reaksiyalari va irodaviy sifatlarni yuqori darajada rivojlantirmasdan turib nufuzli musobaqalarda g‘alaba qozonish mumkin emas.

Yakkakurash sport turlarida sport yutuqlarining o‘sishi tobora malakali sportchilarni tayyorlashning samarali tizimini oqilona qurishga bog‘liq bo‘lib, uni bolalar va o‘smirlarning harakat qobiliyatlarini shakllantirish qonunlari va jismoniy yuklamalarga moslashish xususiyatlarini inobatga olish asosida ta’lim, tarbiya va o‘qitishni samarali tashkil etilgan jarayoni sifatida ta’riflash mumkin. Yosh kurashchilarning sport mashg‘ulotlari ko‘p yillik jarayon bo‘lib, uning natijasi sport zaxiralari va terma jamoalar mashg‘ulotlarini boshqarish va samarali saralash tizimini takomillashtirishdan iborat.

Shuning uchun kurashchilarni ko‘p yillik tayyorgarligi muammosi sport nazariyasi va metodikasining hozirgi rivojlanish bosqichi uchun juda dolzarbdir.

Sport mashg‘ulotlari tizimida kurashchilarni tayyorlashda integral tayyorgarlik alohida rol o‘ynaydi. O‘z navbatida, integral tayyorgarlik ham bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan jismoniy, texnik, taktik va psixologik tayyorgarlik elementlaridan iborat o‘ziga xos tizimni shakllantiradi.

Shu munosabat bilan kurashchilarning ko‘p yillik tayyorgarligini tashkil etish va boshqarish tizimi muammosini ishlab chiqish dolzarb ilmiy yo‘nalish hisoblanadi, uning rivojlanishi sport zaxirasini, shuningdek zamonaviy sharoitda malakali sportchilarni tayyorlash samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Tadqiqot olib borish metodikasi: Zamonaviy metodikalar, yangi axborot texnologiyalarining joriy etilishi kompyuter texnikasi, texnik vositalar, filmlar, audio va video uskunalardan keng foydalangan holda kurashchilarni tayyorlashni ta’minlaydigan kompleks tizimni yaratishni o‘z ichiga oladi. Bu internet, yelektron pochta orqali yangi ma’lumotlarni olish imkonini berishi, texnik tayyorgarlikning namunaviy xususiyatlarini, zarur testlar komplekslarini va ko‘p yillik mashg‘ulotning muayyan bosqichlarida kurash texnikasini o‘zlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlarini qayd yetadigan ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga olishi kerak. Texnik tayyorgarlik darajasi to‘g‘risadagi ma’lumotlar banki kurashchilarning yosh xususiyatlari va malakalarini o‘z ichiga olishi lozim.

Taqdim yetilgan tadqiqotlarning davomi bo‘lib, yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda jismoniy tarbiyaning turli jihatlarini imitaiyali modellarini tuzishga bag‘ishlangan. Ishda aytilganidek, imitatsiyali modellashtirish kompyuterda modellashtirish turlaridan biridir. Xususan, u bir nechta mumkin bo‘lgan variantlardan muammo yoki vazifaning eng yaxshi yechimini topish orqali modellarni optimallashtirish uchun ishlatilishi mumkin. Imitatsiyali modellashtirish obyekti sifatida qandaydir model xizmat qiladi. Keng ma’noda model - bu obyektning tasviri yoki prototipi yoki ma’lum sharoitlarda ularning "o‘rnini bosuvchi" yoki "vakili" sifatida ishlatiladigan obyektlar tizimi yoki obyektlar tizimining ilk nusxasidir. Model - bu etalon (standart) bo‘lib xizmat qiladigan namuna, biror narsani, shunday moddiy yoki aqliy tasavvur qilingan obyektni takrorlaydigan, taqlid qiladigan qurilma bo‘lib, tadqiqot jarayonida asl obyektni almashtiradi, shunda uni to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘rganish asl obyekt haqida yangi bilim beradi.

Asosiy qism: Adabiyotlardan ma’lumki, imitatsiyali modellashtirish bu tizimning xatti-harakatlarini tushunish va uning ishlashini ta’minlaydigan turli strategiyalarni baholash uchun haqiqiy tizim modelini yaratish va ushbu model bo‘yicha tajribalar o‘tkazish jarayonidir.

Imitatsiyali modelni ishlab chiqish jarayoni bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- muammoni aniqlash;
- kuzatiladigan alomatlar paydo bo‘lganda o‘zaro ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash;
- sabab-oqibat aloqalarini aniqlash;
- umumiy qoidalarni shakllantirish;
- qaror qabul qilish qoidalari, axborot manbalari va tizim tarkibiy qismlarining o‘zaro ta’sirini o‘z ichiga olgan matematik modelni tuzish;
- modelning haqiqiy obyektga munosibligini tekshirish;
- istalgan natijaga erishish uchun tashkiliy o‘zaro ta’sir modeli va qarorlarni qabul qilish qoidalari (bizning holatimizda ma’lum pedagogik tavsirlar) doirasida qayta qurish.

Qayd etilishicha, modellashtirishning mumkin bo‘lgan turlarini to‘liq tasniflash juda qiyin, bunga "model" tushunchasining ko‘p manoli endiligi sababdir. Keling, tuzilmaviy-funksional va mantiqiy-matematik modellarga etibor qarataylik.

Unda: -tuzilmaviy-funksional modellashtirish, bunda modellar sifatida sxemalar, blok-sxemalar, ularni birlashtirish va o‘zgartirish uchun maxsus qoidalar bilan to‘ldirilgan raqamli grafikalar, chizmalar, diagrammalar, jadvallar, rasmlar;

-matematik (mantiqiy-matematik) modellashtirish, bunda modellashtirish, shu jumladan model tuzilishi matematika va mantiq vositalari yordamida amalga oshiriladi.

Bunday tajribalarni kompyuterda o‘tkazish maqsadlari har hil bo‘lishi mumkin: o‘rganilayotgan tizimning xususiyatlari va qonuniyatlarini aniqlashdan tortib, to aniq amaliy muammolarni hal qilishgacha.

Ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, imitatsiya - bu kompyuterdagi tajriba. Bunday tajribaning haqiqiysidan yagona farqi shundaki, u tizimning o‘zi bilan emas, balki tizim modeli bilan amalga oshiriladi. Qaror qabul qilish uchun zarur ma’lumotlarni to‘plash ko‘pincha deyarli imkonsiz yoki katta xarajatlarni talab qiladi. Biroq xavfni yetarli darajada baholash uchun loyihaning asosiy parametrlarining yehtimollik taqsimoti to‘g‘risida ishonchli farazlarni shakllantirish uchun yetarli

ma’lumotga yega bo‘lish kerak. Bunday hollarda yetishmayotgan haqiqiy ma’lumotlar imitatsiyali tajriba davomida olingan qiymatlar bilan almashtiriladi (ya’ni kompyuter tomonidan yaratilgan).

Imitatsiyali modellashtirish bu turli xil omillarning (boshlang‘ich qiymatlarning) ularga qarab ba’zi natijalarga (ko‘rsatkichlarga) ta’sir qilish darajasining yempirik baholarini olish uchun mo‘ljallangan bir qator raqamli tajribalardir.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kurashchilarning ko‘p yillik tayyorgarligida pedagogik nazorat bosqichlarining davomiyligi, tuzilishi, mazmuni mazkur pedagogik tadqiqot uslubiyati orqali istiqbolli mutaxassislarni tayyorlashning individual dasturlarini ishlab chiqishda nazariy va ilmiy-uslubiy asos sifatida malakali mutaxassislar tayyorlashda ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanishning eng qulay va ishonchli usullarini joriy qilishning asosini tashkil qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan ma’lumotlar malakali mutaxassislar tayyorlash tizimining asosi sifatida mutaxassislar mahorati shakllanishining turli ta’lim va malaka oshirish bosqichlarida ustuvor yo‘nalishlarni belgilash uchun ilm-fanning ilg‘or yutuqlarini o‘qitish, kasbiy kompetentlik va kreativlik mahoratini oshirish va takomillashtirishga yordam berib, ilmiy tadqiqot natijalari bo‘yicha kurashchilarning ko‘p yillik tayyorgarligi tashkil qilish hamda trenerlarining amaliy faoliyatida zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan foydalanish mahoratini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Xulosa: Yuqoridagilarni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, modellashtirish jismoniy tarbiya sohasida ikki yo‘nalishda qo‘llaniladi:

Biomexanika. Biomexanika muammolarini o‘rtaga qo‘yish va hal qilishda klassik mexanika qoidalarini qo‘llash orqali yaratilgan modellar (moddiy nuqta, ko‘p bo‘g‘inli o‘zak tizimi va boshqa.) ishlatiladi. Bunday holda, tizimning modeli ham, uning tarkibiy qismlari orasidagi bog‘lanishlar ham apriori ma’lum va modellashtirish protsedurasi differensial tenglamalar tizimini yechishga qaratiladi.

Jismoniy tarbiya sohasidagi ijtimoiy jarayonlar. Ushbu sohadagi muammolarni belgilash va hal qilishda ijtimoiy jarayonlar dinamikasining tegishli nazariyalari yo‘qligi sababli, modelni yaratish tadqiqotchi zimmasida bo‘ladi.

Tadqiqotchi oldida turgan birinchi vazifa – tadqiqotchi tomonidan taklif qilingan model va modelning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi mantiqiy va funksional aloqalarni tasdiqlashdir.[5]

Sport tadqiqotlariga nisbatan "imitatsiyali modellashtirish" tushunchasi aniqlangan. Aynan imitatsiyali modellashtirish tadqiqot o‘tkazishga imkon berishi ko‘rsatib o‘tilgan. Imitatsiyali modellashtirish usullarini sport tadqiqotlarida kengroq qo‘llash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Миржамолов М.Х. Олий таълимда паралимпия бўйича спортчилар тайёрлаш тизимини педагогик назорат қилишнинг илмий методик асослари/педагогика фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати-Чирчиқ: “ТИПОГРАФФ” МЧЖ босмахонаси, 2023. – 77 б.
2. Керимов Ф.А. Спорт соҳасида илмий тадқиқотлар.-Тошкент. Зар қалам, 2004.-334 б.
3. Керимов Ф.А. Спортда илмий тадқиқотлар – дарслик. – Тошкент: Илмий тахника ахбороти – преес нашриёти, 2021. – 380 б.
4. Шустин Б.Н. Научно-методические основы многолетней подготовки спортсменов / Б.Н.Шустин, П.В.Квашук, А.В.Евтух // Вестник спортивной науки. – 2008. – С. 14-17.
5. Галицын С.В. Педагогическая система физкультурной деятельности как средство профилактики социально-негативного поведения подростков: дис...док.пед.наук.- Хабаровск: 2012. -373 с.
6. Абрамова В.В. Формирование профессиональной компетентности будущих учителей физической культуры. Автореф.дис..канд. пед. наук.- Ростов-на-Дону: 2006.–28 с.
7. Дадабаев О.Ж. Дзюдочиларнинг кўп йиллик тайёргарлиги концепцияси/ Пед. фан. док. дис.авторефератиDSc) – Чирчиқ: Типографф, 2021. – 78 б.

PARATAEKVONDO SPORTIDA KOORDINATSION QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI

Sobirova L.B. *p.f.d. (DSc), dotcent,*
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitet,
Usmonova F.T.
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitet,
1-bosqich magistranti
Chirchiq shahri

НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КООРДИНАЦИОННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ В ПАРАТАЭКВОНДО

Л.Б.Собирова. д.п.н (DSc), доцент
Ф.Т.Усмонова, *магистрант 1 го курса*
Узбекский государственный университет физической культуры и спорта,
г.Чирчик

Kalit so‘zlar: *Parataekvondo, koordinatsion qobiliyat, metodika, texnik tayyorgarlik, muvozanat, sport mashg'ulotlar, taktik ko'nikmalar.*

Ключевые слова: *паратаэквондо, координационные способности, методика, техническая подготовка, баланс, спортивная упражнения, тактические навыки.*

Mavzuning dolzarbligi. Parataekvondo zamonaviy para sport turlari ichida muhim o'rin tutadi, chunki u imkoniyati cheklangan sportchilar uchun imkoniyatlar yaratadi va ularning sportdagi yutuqlarini oshiradi. Parataekvondoda yuqori darajadagi muvaffaqiyatga erishish uchun sportchilarning jismoniy qobiliyatlari bilan bir qatorda, harakatlarning aniqligi va muvofiqligi ham muhimdir. Koordinatsion qobiliyatni rivojlantirish, sportchining musobaqalar jarayonida o'z tanasini to'liq nazorat qilishi va o'z vaqtida harakat qilishiga yordam beradi. Parataekvondo o'zining intensivligi va tezkor zarbalari bilan ajralib turadi, shu sababli sportchining har bir harakatini aniqlik bilan bajarishi muhimdir. Bu esa yaxshi koordinatsiya talab qiladi. Koordinatsion qobiliyatni rivojlantirish orqali sportchilar ko'proq muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Chunki zarbalar va harakatlarning aniqligi sport musobaqalarida g‘alabani belgilovchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Imkoniyati cheklangan sportchilar uchun o‘yin uslublari va taktikalarning puxta rivojlanishi ularning jismoniy imkoniyatlarini to‘g‘ri boshqarishlariga yordam beradi. Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan sportchilar uchun maxsus moslashgan mashqlar va tayyorgarlik dasturlari orqali ularning imkoniyatlarini yanada kengaytirish mumkin. Bu jarayon, albatta, murabbiylarning to‘g‘ri yondashuvi va moslashtirilgan tayyorgarlik metodlarining o‘rinli qo‘llanilishi orqali amalga oshiriladi. Parataekvondo sportchilari uchun jismoniy moslashuvchanlik va muvozanatni saqlash muhim omil hisoblanadi, chunki bu qobiliyatlar ularga zarba va himoya harakatlarini bajarishda yordam beradi. Yaxshi koordinatsiya, shuningdek, jarohatlar xavfini kamaytiradi, chunki sportchi o‘z tanasini to‘liq nazorat qiladi va harakatlarining xavfsizligini ta’minlaydi. Ushbu sport turida ishtirok etuvchi imkoniyati cheklangan sportchilar uchun jismoniy rivojlanish bilan bir qatorda, ruhiy barqarorlik ham katta ahamiyatga ega. Bu sportchilar ko‘pincha o‘z qobiliyatlariga nisbatan yuqori ishonch hosil qilgan holda, raqiblariga qarshi muvaffaqiyatli kurashadilar. Shunday ekan, parataekvondoda koordinatsion qobiliyatni rivojlantirish mavzusi dolzarb bo‘lib, bu masala xalqaro miqyosdagi musobaqalarda sportchilarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, parataekvondo imkoniyati cheklangan sportchilar uchun ijtimoiy hayotda integratsiyaga katta hissa qo‘shadi, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini kuchaytiradi. Imkoniyati cheklangan sportchilar uchun jismoniy faoliyat nafaqat sportdagi yutuqlar, balki ularning kundalik hayotidagi harakatlar samaradorligini ham oshiradi. Ushbu sport turida yaxshi natijalarga erishish uchun sportchilar texnik va taktik tayyorgarliklarini doimiy ravishda rivojlantirishi kerak. Bu esa jismoniy mashg‘ulotlar bilan bir qatorda koordinatsiya ustida ishlashni talab qiladi. Xalqaro musobaqalarda parataekvondochilar ko‘pincha o‘zlarini nafaqat raqiblarga qarshi, balki o‘z jismoniy imkoniyatlariga ham sinovga soladilar. Shu sababli ularning har bir tayyorgarlik jarayoni moslashtirilgan va individual yondashuvga asoslangan bo‘lishi zarur. Parataekvondo bo‘yicha tadqiqotlar ham bu sport turining rivojlanishi va imkoniyati cheklangan sportchilar uchun imkoniyatlarni kengaytirishda muhim

ahamiyatga ega. Bu esa ilmiy asoslangan yondashuvlar yordamida sportchilarning yuksak natijalarga erishishlariga yo‘l ochadi.

Tadqiqotning maqsadi parataekvondochilarning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va bu qobiliyatning ularning sport natijalariga ta'sirini o‘rganishdir.

Tadqiqot vazifalari:

- Parataekvondoda koordinatsion qobiliyatning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish.
- Koordinatsion qobiliyatni rivojlantiruvchi maxsus mashg‘ulotlar metodikasini ishlab chiqish.
- Parataekvondochilarda amaliy mashg‘ulotlar orqali koordinatsiyani yaxshilash usullarini tahlil qilish.
- Tadqiqot natijalarini baholash va usullar samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotni tashkil qilish usullari:

- Ilmiy uslubiy adabiyotlar tahlili: Parataekvondo bo‘yicha ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlarni tahlil qilish.
- Eksperimental tajriba: Mashg‘ulot dasturlari orqali parataekvondochilarni kuzatish va natijalarni o‘lchash.
- Statistik tahlil: Koordinatsion qobiliyatni rivojlantirish bo‘yicha olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va natijalarini statistik jihatdan baholash.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Tadqiqot metodologiyasi parataekvondochilarning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg‘ulot dasturlarini ishlab chiqish va ularni amalda sinab ko‘rishga asoslanadi. Dastlab, tadqiqot jarayonida mavjud ilmiy adabiyotlar va parataekvondoda qo‘llaniladigan metodikalar tahlil qilindi. Bu tahlil sportchilarning koordinatsion qobiliyatiga ta’sir etuvchi omillarni chuqur tushunishga imkon berdi. Tadqiqotda ishtirok etgan sportchilar ikki guruhga bo‘lindi: eksperimental va nazorat guruhi. Eksperimental guruh parataekvondo uchun maxsus ishlab chiqilgan koordinatsion mashg‘ulotlar dasturiga jalb qilindi, nazorat guruhi esa umumiy tayyorgarlik dasturi bo‘yicha shug‘ullandi. Tadqiqot davomida har ikkala guruhning jismoniy va koordinatsion ko‘rsatkichlari muntazam ravishda kuzatib borildi va natijalar qiyoslandi. Eksperimental guruh uchun tayyorlangan maxsus dasturda parataekvondoning texnik va taktik mashqlari bilan birga, koordinatsion qobiliyatni oshirishga qaratilgan maxsus o‘yinlar va harakatlar ham qo‘llanildi. Ushbu dasturga muvozanatni yaxshilash, qo‘l-oyoq harakatlarini sinxronlashtirish va tezkorlikni oshirishga qaratilgan mashqlar kiritildi. Har bir mashg‘ulot jarayoni sportchilarning jismoniy holatini kuzatish va ularga moslashuvchan yondashishni ta’minlash maqsadida, tajribali murabbiylar va sport shifokorlari nazorati ostida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida har bir ishtirokchining individual rivojlanish dinamikasi baholandi va ularning texnik-taktik ko‘nikmalari bilan bir qatorda, umumiy harakatlarni nazorat qilish qobiliyati ham o‘lchandi. Tajriba davomida har bir sportchining koordinatsion qobiliyatining rivojlanish bosqichlari muntazam ravishda tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida mashg‘ulot dasturi takomillashtirilib, har bir ishtirokchining imkoniyatlariga moslashtirildi. Shuningdek, tadqiqot davomida imkoniyati cheklangan sportchilar uchun individual yondashuv va moslashtirilgan tayyorgarlik usullarining ahamiyati ham tasdiqlandi. Bu esa parataekvondoda yuksak natijalarga erishish uchun zaruriy omillardan biri hisoblanadi. Eksperimental dastur yakunida har bir ishtirokchining o‘zlashtirgan natijalari qiyosiy tahlil qilindi va dastur samaradorligi baholandi. Tadqiqotda maxsus jihozlar va sport inventarlaridan foydalanilib, har bir ishtirokchining harakatlari aniq o‘lchovlar orqali kuzatildi. Ushbu jarayonning ilmiy yondashuvlar asosida olib borilgani sportchilar uchun tayyorgarlik jarayonining samaradorligini oshirdi. Eksperimental tadqiqotda har bir mashg‘ulot natijasini aniqlash uchun zamonaviy texnologiyalar va dasturlar ishlatildi. Bu texnologiyalar sportchilarning harakat tezligi, muvozanatni saqlash qobiliyati va umumiy koordinatsiya darajasini aniqroq baholashga imkon berdi. Tadqiqotda ishlatilgan metodologik yondashuvlar orqali parataekvondochilarning jismoniy va ruhiy holatiga ko‘proq e’tibor qaratildi. Bu esa tadqiqotning asosiy maqsadiga erishishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Tadqiqot natijalari parataekvondochilarni koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha ishlangan mashg‘ulotlar dasturi samaradorligini isbotladi. Eksperiment davomida sportchilarning muvozanat, tezkorlik, aniqlik va zarba berish koordinatsiyasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Mashg'ulotlar dasturi sportchilarning harakatlarini osonlashtirib, ularni raqib harakatlariga tezroq va samaraliroq javob qaytarishga yordam berdi. Dastlabki bosqichda sportchilarda harakatlarni bajarish tezligi va aniqligida qiyinchiliklar kuzatildi. Lekin mashg'ulotlar davomida koordinatsion qobiliyat ko'rsatkichlari oshib, ularning texnikalarida barqarorlik va mustahkamlik paydo bo‘ldi.

Maxsus mashqlarni bajarish natijasida sportchilarning harakatlarni uyg'un bajarish ko'nikmasi keskin yaxshilandi. Ayniqsa, raqib zarbalarini bloklash va kontratak zarbalarda tana harakatlari muvofiqlashuvi yanada yuqori bo'ldi. Sinovdan o'tkazilgan metodika orqali sportchilarning reaksiya vaqtini qisqartirishga erishildi. Bu ularga raqibning tezkor hujumlariga javob qaytarishda katta foyda berdi. Eksperiment natijalariga koʻra, metodika boʻyicha oʻtkazilgan mashgʻulotlar parataekvondochilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirdi va ularning musobaqa jarayonida koʻrsatgan natijalari sezilarli yaxshilandi.

Parataekvondochilarda muvozanatni saqlash qobiliyati kuchaydi, bu ayniqsa, bir oyoqda turib zarba berish texnikalari paytida muhim ahamiyat kasb etdi. Sinov natijalari ko'rsatdiki, koordinatsiyani rivojlantirish boʻyicha olib borilgan mashgʻulotlar sportchilarning ham texnik, ham taktika jihatidan rivojlanishiga yordam berdi. Buning natijasida sportchilarning musobaqalardagi raqobatbardoshligi oshdi, ular oʻz raqiblariga qarshi kurashishda yanada ishonchli harakat qildilar.

Koordinatsion qobiliyatni oshirishga qaratilgan mashqlar parataekvondochilarning zarba berish tezligi va aniqligini oshirishda ham samarali boʻldi. Sportchilarning tana harakatlarini moslashtirish qobiliyati o'sib, musobaqalar davomida ular ancha ustun harakat qilish imkoniga ega bo'lishdi. Shuningdek, koordinatsiya rivojlanishi ularga zarba berish texnikasini yaxshiroq egallash imkonini berdi. Bu oʻz navbatida ularning harakatlarini aniq, samarali va xavfsiz bajarishga koʻmak berdi. Mashg'ulotlar jarayonida sportchilarning psixologik barqarorligi ham yaxshilandi, chunki koordinatsion qobiliyat ularning oʻziga boʻlgan ishonchini oshirdi.

Natijalar sportchilarning umumiy fiziologik tayyorgarlik darajalarini ham oshirdi, bu ularning uzoq muddatli muvaffaqiyatlari uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, koordinatsion qobiliyat rivojlanishi sportchilarning jismoniy salomatligini yaxshilashga ham xizmat qildi, ularning jarohatlanish xavfi kamaydi. Sportchilarning mashgʻulotlardan oldingi va keyingi natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, mashgʻulotlar samaradorligi yuqori va ularni davom ettirish parataekvondochilar tayyorgarlik darajasini yana ham yaxshilash imkonini beradi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqotning natijalari parataekvondochilar uchun koordinatsion qobiliyatni takomillashtirish metodikasining muvaffaqiyatli ekanligini koʻrsatdi. Bu metodika jismoniy mashqlar bilan birga ruhiy tayyorgarlikni ham qoʻllab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Xulosalar. Ushbu tadqiqot natijalari parataekvondoda koordinatsion qobiliyatni rivojlantirish uchun maxsus metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi. Eksperiment orqali olingan natijalar koordinatsiyaning sport natijalariga ijobiy ta’sirini isbotladi.

Kelgusida parataekvondo boʻyicha yanada mukammal mashgʻulot dasturlarini ishlab chiqish va turli darajadagi nogiron sportchilarni oʻz ichiga oluvchi keng miqyosdagi tadqiqotlarni oʻtkazish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati

1. Anderson, D. I., & Sidaway, B. (2005). Coordination and Control of Human Movement. Human Kinetics Publishers. p: 112–125.
2. Schmidt, R. A., & Lee, T. D. (2019). Motor Learning and Performance: From Principles to Application. Human Kinetics. p: 84–100.
3. Williams, A. M., & Ford, P. R. (2013). Expertise and Expert Performance in Sport. Journal of Sports Sciences, 31(10), 1227–1240. p: 1228–1235.
4. Nakashima, K., & Haga, S. (2014). The Development of Coordination in Paralympic Athletes: A Review of Current Research. Sport Science Review, 23(3), 91–105. p: 93–98.
5. McGarry, T., Anderson, R., & Hughes, M. D. (2002). The Role of Coordination in High-Performance Sports: Implications for Training and Assessment. International Journal of Sports Science and Coaching, 7(4), 21–35. p: 22–28.
6. Murphy, C., & White, J. (2011). Physical and Technical Preparation of Paralympic Athletes. International Paralympic Committee Publications. p: 45–60.
7. Lee, T. D., & Swinnen, S. P. (2012). Coordination Dynamics in Motor Learning and Performance: The Interaction of Perception and Action. Current Research in Motor Control, 9(2), 32–48. p: 35–40.
8. Seifert, L., Button, C., & Davids, K. (2013). Motor Learning and the Development of Expertise: How Coordination Improves with Practice. Current Directions in Psychological Science, 22(5), 386–391. p: 387–389.

9. Davids, K., & Araujo, D. (2010). Theoretical Perspectives in Motor Control and Coordination of Elite Athletes. Journal of Human Kinetics, 28(3), 7–19. p: 10–15.
10. Taekwondo Federation (2018). Parataekwondo: Rules and Regulations for Competitions. International Taekwondo Federation. p: 15–22.

JISMONIY TARBIYA SOHASIDA TALABALARNING KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA AKMEOLOGIK VA INNOVATSION YONDASHUVNING ASOSIY TAMOYILLARI

Asqarbay Niyazov
Ainiyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti professor
O'zbekiston, Nukus
Elektron pochta: niazovaskar30@gmail.com

Kalit so'zlar: Akmeologiya, Jismoniy tarbiya, sport, pedagogika, kognitiv, kompetensiya

Bugungi kunda sodir bo'layotgan ekologik o'zgarishlar boshqa sohalar kabi ta'lim sohasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu ekologik o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan o'zgarishlar muqarrar ravishda ta'lim tizimining asosiy tarkibiy qismi bo'lgan o'qituvchilarga ta'sir qiladi. Ushbu o'zgarishlarga moslashish yoki hatto ularga rahbarlik qilish uchun potentsial muammolarni oldindan ko'ra oladigan va ularni yumshata oladigan yoki ta'sirini kamaytiradigan mas'uliyatli, tavakkalchi, ishonchli, innovatsion, o'ziga ishongan va etakchilikka yo'naltirilgan o'qituvchilarga ehtiyoj bor. Akmeologiya fan yoki psixologiyaning eng yuqori yutuqlari va inson potentsialining o'zini o'zi amalga oshirishga qaratilgan sohasi sifatida tavsiflanadi. Bu rivojlanish psixologiyasining bo'limi bo'lib, insonning rivojlanish imkoniyatlarini maksimal darajada oshirishga urg'u beradi. Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha bo'lajak mutaxassislarning salohiyatini oshirish yo'llarini o'rganishda kelajak avlodlar o'sishiga yordam berish uchun o'z-o'zini rivojlantirish muhim deb hisoblanadi. An'anaviy ravishda bir avlodning bilim, tajriba va ko'nikmalarini keyingi avlodga o'tkazishni o'z ichiga olgan ta'lim, o'tgan asrda, ayniqsa fan va texnologiya yutuqlarini hisobga olgan holda, tobora ko'proq etarli emas deb qaraldi. Tezkor ilmiy va texnologik o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, odamlar o'z hayotlari davomida katta yangiliklarga duch kelishadi, bu esa an'anaviy ta'limni etarli darajada emas qiladi. Natijada, ta'lim inson hayoti davomida uzluksiz, rivojlanib boruvchi jarayonga aylanishi kerak. 2007-yil ma'lumotlariga ko'ra, uzluksiz ta'lim olishdagi to'siqlar orasida oilaviy majburiyatlar (40,2%), ish vaqti bilan ziddiyatlar (38,7%), moliyaviy cheklovlar (31,2%) va foydalanish imkoniyati bilan bog'liq muammolar (20,8%) kiradi (EC, 2012). O'z potentsialini ro'yobga chiqarish uchun shaxslar doimiy ravishda o'z qobiliyatlarini rivojlantirishlari va zamonaviy talablarga moslashishlari kerak.

Hozirgi davrda jismoniy tarbiya va sport oliy ta'lim tizimi mutaxassislarga nafaqat shaxsiy fazilatlari, balki malakasi, kasbiy mahorati, ma'naviy-ruhiy salohiyati, jismoniy va psixologik tayyorgarligi bo'yicha ham yuksak talablar qo'ymoqda.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha bo'lajak mutaxassislarni kasbiy-pedagogik tayyorlashda yuqori kasbiy malakani ta'minlash, uzluksiz rivojlanish imkoniyatlarini ta'minlash, sohaning zamonaviy ijtimoiy talablarini qondirishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Ushbu kasbiy tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismi aholi salomatligiga qadriyat va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, jismoniy faollikni rivojlantirish, jismoniy tarbiya va sportni ta'lim va kundalik hayotga integratsiyalashuvini rag'batlantirishdir. Bu jamiyat madaniyatining har tomonlama yuksalishiga yordam beradi. Shunday qilib, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligi jamiyatning jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga sezilarli ta'sirini hisobga olgan holda har qachongidan ham dolzarbdir.

Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini samarali kasbiy-pedagogik tayyorlashning hal qiluvchi omili oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya sifati va kasbiy-pedagogik madaniyatni tarbiyalashdir. Bu madaniyat shaxslarning nafaqat kasbiy tayyorgarligini, balki ularning fuqarolik va mafkuraviy rivojlanishini ham shakllantiradi. Bu masalaning ahamiyati bo'lajak mutaxassislarda kasbiy-pedagogik yo'nalishni shakllantirish, ularning kasbiy faoliyatini tahlil qilish, olingan bilimlarni ijodiy qo'llash, natijalarni bashorat qilish qobiliyatini oshirishning ijtimoiy-madaniy ahamiyati ortib borayotganidan kelib chiqadi. Bu esa bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida kasbiy-pedagogik madaniyatni shakllantirishni har tomonlama o'rganishni taqozo etadi.

Ushbu shakllanishning ilmiy asoslarini hal qilish zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Mahalliy va xorijiy olimlar ushbu kontsepsiyaning mazmunini o'rganib, uning murakkab va ko'p qirraliligini tasdiqladilar.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining nazariy bilimlarini kasbiy, kognitiv va ijodiy qo'llashga tayyorligi ularning uslubiy fikrlash qobiliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Ilg'or fikrlash shaxsning dunyoqarashining asosini tashkil qiladi, bu jismoniy tarbiya va sport muhitida kasbiy-pedagogik o'zini o'zi anglash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aqliy faoliyatning kasbiy-pedagogik tafakkurga aylanishi uchun o'ziga xos texnologik, qadriyatga asoslangan kognitiv ko'nikmalarni, masalan, kasbiy-pedagogik bilimlarni o'rganishda tahlil qilish, sintez qilish va asosiy tushunchalarni aniqlash qobiliyatini rivojlantirish zarur. Mutaxassisning jismoniy tarbiya va sportga subyektiv nuqtai nazari ularning shaxsiy ishtiroki va professional o'zini o'zi rivojlantirishga sodiqlik darajasining ko'rsatkichidir.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish muayyan kasbni egallashga qaratilgan bo'lib, u ko'nikma, faoliyat va shaxsiy manfaatlar yig'indisini o'z ichiga oladi, bu esa ijodkorlikni rivojlantirish hamda shaxslarga o'z shaxsiy va ijtimoiy maqsadlarini ro'yobga chiqarishga yordam berishda moddiy manfaat keltiradi. Shuning uchun kasbni ixtisoslashtirilgan ta'lim orqali olingan mavzuli nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'z ichiga olgan faoliyat turi sifatida ko'rish mumkin. Kasbiy tayyorgarlik deganda, odatda, milliy ongli va mustahkam kasbiy bilimlar bazasi bilan jihozlangan, zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti va bozor iqtisodiyoti talablariga tez moslashish imkonini beradigan malakali shaxslarni yetishtirish tushuniladi. Sysoeva va Sokolova kasbiy ta'limni doimiy, boshqariladigan jarayon sifatida ko'rishadi, bunda odamlar zamonaviy ta'lim sharoitlarida insonparvarlik qadriyatlaridan kelib chiqqan holda o'z kasblari bilan to'liq shug'ullanishlariga yordam beradigan kasbiy tajribaga ega bo'ladilar.

Shuningdek, biz o'ylaymizki jismoniy tarbiya va sport bo'yicha bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash oliy o'quv yurtlari (OTM) tomonidan mutaxassislarning kasbiy malakasini to'liq rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy asoslash ahamiyatga ega.

Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasbiy-pedagogik madaniyatini shakllantirish jarayonida, bu, bir tomondan, ularning umumiy madaniy darajasini (shu jumladan, ma'naviy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy jihatlarini) oshirish uchun asos sifatida qaraladi. boshqa, kasbiy kompetensiya egasi sifatida. Bu kompetensiya shaxslarning jismoniy, madaniy, axloqiy va intellektual o'sishini, ularni kengroq madaniy qadriyatlar dunyosiga integratsiyalashuvini o'z ichiga oladi, bu yerda ular o'zlarini professional ravishda amalga oshirishni boshlaydilar. Ushbu o'tish shaxslarni tadbirkorlik faoliyatining tor sohasidan kengroq madaniy makonga ko'chiradi va bu o'z navbatida ushbu soha mutaxassislarining ham amaliy, ham nazariy tayyorgarligini oshiradi.

Shuningdek, u yuqori darajadagi professional-pedagogik tajribani rivojlantirish, o'z ishining kasbiy mavqei va obro'sini oshirish, shaxsiy va kasbiy o'zini o'zi anglashni rag'batlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha kasb-hunar egallash motivlarini, kasbning ijtimoiy-madaniy vazifasiga bo'lgan e'tiqodini, hayoti va kasbiy yo'lini belgilovchi qadriyatlarni o'z ichiga olgan motivatsion-yo'naltirilganlik.

Shaxsiy-kognitiv, madaniyatshunoslik bilan bog'liq bo'lgan integral kognitiv va ta'lim elementlarini o'z ichiga oladi, ular kasbiy faoliyatga nisbatan qadriyatlar tizimining asosini tashkil qiladi.

Asosiy umumiy va kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan, ham oqilona, ham qiymatga yo'naltirilgan harakatlarga yo'naltirilgan faoliyat-protsessual.

Jismoniy tarbiya va sport sohasiga dinamik va samarali hissa qo'shish uchun zarur bo'lgan mutaxassisning innovatsion va evristik yondashuvini aks ettiruvchi ijodiy. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassisi kasbiy-pedagogik madaniyatining muhim ko'rsatkichi ularning shaxslararo aloqalar orqali ahil jamoalarni shakllantirish qobiliyatidir. Pedagogik muloqot ham asosiy rol egallaydi, chunki mutaxassislar nafaqat sinf jamoalari va sport guruhlari bilan, balki jismoniy tarbiya darslari, sport tadbirlari, salomatlik kunlari va musobaqalar kabi turli sharoitlarda ham ishlashi kerak. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari namuna bo'lib xizmat qiladi va talabalarga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida ularning yuqori darajadagi kasbiy-pedagogik madaniyati talabalarning o'z-o'zini tarbiyalashi va shaxsiy o'sishiga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya talabalarida kasbiy fazilatlarni rivojlantirishga akmeologik va innovatsion yondashuv ularning malakasi va samaradorligini oshirishga qaratilgan turli tamoyillarni birlashtiradi. Ushbu tamoyillar talabalarning o'sishi va dinamik sohaga moslashishini optimallashtirishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi "Ta'lim to'g'risida" O'RQ-637-sonli Qonuni https://lex.uz/docs/-5013007
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi PF-4947 son Farmoni. https://lex.uz/docs/3107036
3. Achilov A.M. Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish faoliyatini tashkil qilish texnologiyasi:
4. Абдурахмонова Сайёрахон Шахобидиновна. Акмеологик ёндашув – булғуси тарбиячиларда касбий тайёргарлигини олий таълимда такомиллаштиришнинг асоси сифатида.
5. Анисимов, О.С. Акмеологические факторы повышения эффективности стратегического мышления руководителя. Научно-практический рецензируемый журнал «Акмеология». 2016;

OT SPORTIDA MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIK ASOSLARI.

Sh.S.Yoldashov
O'zDJTSU dotsenti v.b., p.f.b.f.d (PhD).

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak chavandozlarning maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan vosita va uslublar o'rganilib, pedagogik tahlil etilgan. Shuningdek, mazkur yo'nalishda ilmiy izlanish olib borgan olimlarning o'quv mashg'ulotlarda foydalaniladigan uslublarni takomillashtirish, turli xil umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalarini qo'llashga doir ilmiy-amaliy tavsiyalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: UJT, MJT, uzangi, egar, voltij, texnika, taktika.

Mavzuning dolzarbligi. Ot sportida chavondozning umumiy jismoniy tayyorgarligidan tashqari maxsus jismoniy tayyorgarligi ham muhim ahamiyatga ega. Maxsus jismoniy tayyorgarlikning asosiy vazifasi ot sport turi texnikasi va taktikasi asoslarini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan jismoniy qobiliyatlarni tarbiyalash hamda rivojlantirishdan iborat. Agarda murabbiy (yo'riqchi) mashg'ulotlarning dastlabki bosqichida chavandozning maxsus jismoniy tayyorgarligini shakllanishida asosiy vosita bo'lgan voltij mashqlari (ot ustida bajariladigan chavandozlik mashqlari), ot ustida bajariladigan gimnastika mashqlari, otda uzangisiz yurish, ot sporti o'yinlari, maxsus tayyorgarlik va musobaqa mashqlariga yetarli darajada e'tibor qaratmasa, bu istiqbolda chavandozning sport natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi amaliyotda o'z isbotini topgan.

Tadqiqotning maqsadi. Ot sporti bilan shug'ullanishni endi boshlagan bo'lajak chavandozlarning maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish bo'yicha vosita va uslublarni o'rganish hamda ularni tahlil qilish.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar hal etiladi:

- bo'lajak chavandozlarning maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish;
- ot sporti bilan shug'ullanishni endi boshlagan bo'lajak chavandozlarning maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish bo'yicha vosita va uslublarni yoritib berish.

Tadqiqotning uslublari. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv nazariy tahlil, umumlashtirish, analiz va sintez kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning muhokamasi. Ot sportida maxsus tayyorgarlik mashqlari muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus tayyorgarlik mashqlari musobaqa faoliyatining elementlari, shuningdek, ularga shakl, tuzilish, shu bilan birga yosh chavandoz organizmi (tana)ning funksional tizimlari namoyon bo'ladigan sifatlari va faoliyati xarakteriga ko'ra yaqinlashadigan harakatlarni o'z ichiga olishi qator olimlar tomonidan tasdiqlangan. Ularning ta'kidlashicha, maxsus tayyorgarlik mashqlari quyidagilarga bo'linadi:

- yaqinlashtiruvchi mashqlar (musobaqa mashqlarining bir yoki bir necha bosqichini o‘zlashtirish uchun);

- rivojlantiruvchi mashqlar (ot sportining tanlangan turida musobaqalashish salohiyatini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan).

Qator olimlarning fikriga ko‘ra, UJT va MJT vosita va uslublarining optimal nisbatlari yosh chavandozning individual xususiyatlari va uning sport mahorati (yoki sport bilan shug‘ullanganlik davri), mashg‘ulot bosqichlari hamda asosiy o‘quv-mashg‘ulot vazifalariga bog‘liq hisoblanadi.

E.A.Kostyukevichning fikricha ot sportidagi natijalarga turli xil omillar ta’sir qiladi. Bular, chavandoz va sport oti juftligining jismoniy tayyorgarlik darajasi; murabbiyning malakasi va uning mashg‘ulotlarda turli xil uslublarni qo‘llay olishi; chavandozning sport tayyorgarligini va sport oti bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tashkil etish qobiliyati va tajribasi; to‘satdan (kutilmagan vaziyatlarda) sodir bo‘ladigan qisqa muddatli omillardan iborat. Aksariyat mutaxassislar ot sportidagi yillik tayyorgarlik jarayonida barcha bosqichlarni oqilona rejalashtirish asosiy masalalardan biri ekanligini ta’kidlagan. Chunki, bu jarayon ot sporti bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarda foydalaniladigan uslublarni takomillashtirish, turli xil UJT va MJT vositalarini qo‘llash bilan chambarchas bog‘liq.

V.O.Romanovskaya tomonidan UJT mashg‘ulotlar doirasida egarda o‘tirish va otda yurush usulini shakllantiruvchi hamda uni rivojlantiruvchi mashqlar kompleksi ishlab chiqilgan. Mazkur kompleks tarkibiga chavandoz egarda o‘tirganda o‘z tana og‘irlik markazini otning harakatlanishida yuzaga keladigan otning tana og‘irligi markazidagi o‘zgarishiga moslashtira oladigan ot ustida va otsiz bajariladigan mashqlar kiritilgan. Shunday ekan, chavandozning ot egaridagi muvozanat saqlashi qanchalik turg‘un bo‘lsa, otga ta’sir ko‘rsatishda kam kuch sarflaydi degan xulosaga kelish mumkin. Bunda faqatgina UJT va MJT vositalarini to‘g‘ri tanlash orqali chavandozning ot egarida muvozanatni saqlash hamda to‘satdan yuzaga keladigan vaziyatlardagi harakatlanishda to‘g‘ri qaror qabul qilish malakasi shakllantiriladi.

Bir qator mualliflar ot sportida UJT va MJT tarkibiga chavandoz uchun zarur bo‘lgan harakat sifatlarini tarbiyalashdan tashqari ularning rivojlanishini tezlashtiruvchi turli xil vositalarni kiritish mumkinligi haqida fikr bildirganlar. M.V.Boykova tomonidan chavandozning somatometrik ko‘rsatkichlari, oliy nerv faoliyati tiplari, ayrim fiziologik ko‘rsatkichlari, yoshi, tajribasi va ularning sport natijasiga ta’siri chuqur o‘rganilgan. Uning tadqiqot natijalariga ko‘ra chavandozning somatometrik ko‘rsatkichlari uning sport natijasi bilan yuqori korrelyasion bog‘liqligi aniqlangan.

Mualliflarning ta’kidlashicha, ot sportida sport tayyorgarligi ikkita yo‘nalishdan tashkil topgan. Birinchi yo‘nalishi bu sport otini tanlab olish va uni ma’lum bir musobaqalarga tayyorlash bo‘lsa, ikkinchi yo‘nalish chavandozning jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligini tashkil etadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, maxsus jismoniy tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan ot sporti mashg‘ulotlarida musobaqa faoliyati elementlaridan bo‘lgan maxsus tayyorgarlik mashqlaridan, ya’ni, yaqinlashtiruvchi va rivojlantiruvchi mashqlardan keng foydalanish bo‘lajak chavandozlarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda ijobiy samara berishi o‘z isbotini topgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ёлдашов Ш.С. Средства и методы общей и специалной физической подготовки спортсменов конников // Fan – sportga №7. Chirchiq, 2021. - B.24-28.

2. Ёлдашов Ш.С. Бошланғич тайёргарлик босқичидаги чавандозларнинг отга ўтириш кўникмасини шакллантириш механизмлари // Fan – sportga №6. Chirchiq, 2022. - B.72-76.

3. Yoldashov Sh.S. Ot sportida boshqaruv vositalari yordamida asosiy mashqlarni bajarish metodlari // “Jismoniy tarbiya, sport sohasidagi muammolar, yechimlar va istiqbollar” Respublika ilmiy–amaliy anjumani to‘plami. Chirchiq, 2022. – B. 304-307.

4. Ёлдашов Ш.С. Бошланғич тайёргарлик босқичида ёш чавандоз-спортчиларнинг жисмоний тайёргарлигини оширишдаги асосий мезонлар // “Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi muammolar, yechimlar va istiqbollar” Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Chirchiq, 2023. – B. 300-302.

HARAKATLANISH AMALLARI BO'YICHA TABAQALASHGAN TA`LIM TEXNOLOGISINING XUSUSIYATLARI

Aripov Yu.Yu.
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti professori, p.f.n.

Dolzarbligi. Bugungi kunda tarakkiyot yo'lidan ildam qadamlar bilan borayotgan mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, unga ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etish, ta'lim samarodorligini oshirishda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi [1].

Ushbu siyosatning asosiy tamoyillaridan biri ta'limning uzluksizligi va izchilligidir. Uzluksiz ta'limning milliy dasturning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida e'tirof etilishining sabablaridan bir ham ana shundadir [2].

Ta'limda uzluksizlik va uzviylikni ta'minlash pedagogikada doimo dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Yuqorida ta'kidlangidek, uzluksiz ta'lim tizimiga yangi turning kiritilishi, bu muammo o'z navbatida ta'lim tizimida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda [3].

Ushbu muammo yechimi ta'limda tabaqalashtirilgan yondashuv asosida jismoniy tarbiya tizimini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy muammolaridan biri sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Jismoniy tarbiyaga doir bilimlarni egallash va o'quvchilarning jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirishdek vazifalarni hal etish jismoniy tarbiyani tashkil etish masalasida yangi yechimlarni kelgusida qidirib topishdir. Bu esa bizningcha, quyidagi ishlarni amalga oshirishni taqozo etadi [4]:

1. Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi o'quvchi-yoshlarida turlicha jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilar bo'lishini hisobga olib, ularni guruhlashtirish va har bir guruxga mos va xos bo'lgan mashqlar majmuasini o'tkazish;
2. O'quv-mashg'ulot jarayonini yanada yaxshilashga qaratilgan turli usul va uslublarni o'qitishning tabaqalashtirilgan yondashuv asosida uning izchilligini va uzluksizliligini ta'minlashga erishish;
3. O'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi va salomatlik darajasini belgilab beruvchi "Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimi" sinovlarini har bir bosqichi bo'yicha har bir o'quv choragi oxirida sinov mashqlari bo'yicha musobaqalar tashkil etish va o'tkazish.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan umumiy qoidalarni hisobga olgan holda, umumiy o'rta ta'limi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida tabaqalashtirilgan yondashuv asosida jismoniy tarbiya fanini o'qitish jarayoni uzluksizligini va uzviyligini ta'minlashni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Shu boisdan ham, avvalo shuni aytish lozimki, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari bilan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini olib borishda ularning maktabda egallagan bilim, ko'nikma va malakalariga tayanish lozim. Bunda o'quvchilarning fundamental bilim, ko'nikma va malakalari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchi-yoshlarning jismoniy tarbiya jarayonidagi jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarlik darajalari o'ziga xos bo'lib, farqli ravishda individual o'zgarishlarga ham ega.

Bir hil yoshdagi va bir hil jismoniy rivojlanishga ega bo'lgan o'quvchi-yoshlarda jismoniy sifatlarning rivojalanishi har hil ekanligi ta'kidlangan. Shu sababli, jismoniy rivojlanishi har hil bo'lgan o'g'il va qizlarda jismoniy sifatlarni rivojlantirig uchun individual dasturlar tuzish, mashqlar majmuasini ishlab chiqish, dars jarayonida har bir gurux uchun tabaqali yondashgan holda o'rgatishni tashkil kilish zarurati tug'iladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan umumiy qoidalarni hisobga olgan holda, umumiy o'rta ta'limi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida tabaqalashtirilgan yondashuv asosida jismoniy tarbiya fanini o'qitish jarayoni uzluksizligini va uzviyligini ta'minlashni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Shu boisdan ham, avvalo shuni aytish lozimki, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari bilan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini olib borishda ularning maktabda egallagan bilim, ko'nikma va malakalariga tayanish lozim. Bunda o'quvchilarning fundamental bilim, ko'nikma va malakalari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchi-yoshlarning jismoniy tarbiya jarayonidagi jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarlik darajalari o'ziga xos bo'lib, farqli ravishda individual o'zgarishlarga ham ega.

Bir hil yoshdagi va bir hil jismoniy rivojlanishga ega bo'lgan o'quvchi-yoshlarda jismoniy sifatlarning rivojalanishi har hil ekanligi ta'kidlangan. Shu sababli, jismoniy rivojlanishi har hil bo'lgan o'g'il va qizlarda jismoniy sifatlarni rivojlantirig uchun individual dasturlar tuzish, mashqlar majmuasini ishlab chiqish, dars jarayonida har bir gurux uchun tabaqali yondashgan holda o'rgatishni tashkil kilish zarurati tug'iladi. Umum tekshirish va amaliy tajriba sinovlari natijalarining ko'rsatishicha, har bir sinfda kuchli, o'rta va kuchsiz o'quvchi mavjuddir. Shu sababli, guruhdagi o'quvchilar o'rtasida jismoniy tarbiya materiallarini o'zlashtirishda sezilarli farq kuzatildi.

O'quv – uslubiy adabiyotlar tahlili, shuningdek biz tomonimizdan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida V-IX sinf umumta'lim maktab o'quvchilari uchun jismoniy sifatlarni o'rgatish va rivojlantirishda tabaqalashtirilgan yondashuv ishlab chiqildi.

Ushbu tabaqalashtirilgan yondashuv o'quvchilarning turlicha tempda ta'lim olayotgan guruhlari uchun o'quv materialini tabaqalashtirilgan uslubiyot ko'rinishida maxsus tashkil etishni ko'zda tutadi. Tabaqalashtirilgan yondashuv o'quv dasturining an'anaviy bo'limlarini hisobga olgan holda ishlab chiqildi.

Mazkur dasturga ko'ra tabaqalashtirilgan ta'lim uslubiyoti quyidagi masalalarni hal etishga yo'naltirildi :

1. Hayot uchun muhim bo'lgan harakat malaka va ko'nikmalarni o'rganish, ularni murakkabligi turlicha vaziyatlarda qo'llay bilish;

2. Jismoniy va funktsional tayyorgarlik darajani muntazam ravishda oshirib borish;

3. O'quvchining individual xususiyatlarini rivojlantirish va takomillashtirish, jismoniy tayyorgarligidagi zaif tomonlarini bartaraf etishga intilish;

4. Gigiena, tibbiyot sohasidagi nazariy bilimlarni va tajribaviy malaka va ko'nikmalarni, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha zarur tushunchalar va nazariy ma'lumotlarni egallash;

5. O'quvchilarning jismoniy tarbiya va sport mashqlari bilan shug'ullanish zarurligini va ular bilan mustaqil shug'ullana olishlarini tarbiyalab borish hamda ularni mehnat qobiliyatlarini oshirishda, o'quv mashq trenirovka hamda dam olish jarayonida ongli ravishda qo'llay olish.

Mazkur dasturga ko'ra tabaqalashtirilgan ta'lim uslubiyoti quyidagi masalalarni hal etishga yo'naltirildi :

1. Hayot uchun muhim bo'lgan harakat malaka va ko'nikmalarni o'rganish, ularni murakkabligi turlicha vaziyatlarda qo'llay bilish;

2. Jismoniy va funktsional tayyorgarlik darajani muntazam ravishda oshirib borish;

3. O'quvchining individual xususiyatlarini rivojlantirish va takomillashtirish, jismoniy tayyorgarligidagi zaif tomonlarini bartaraf etishga intilish;

4. Gigiena, tibbiyot sohasidagi nazariy bilimlarni va tajribaviy malaka va ko'nikmalarni, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha zarur tushunchalar va nazariy ma'lumotlarni egallash;

5. O'quvchilarning jismoniy tarbiya va sport mashqlari bilan shug'ullanish zarurligini va ular bilan mustaqil shug'ullana olishlarini tarbiyalab borish hamda ularni mehnat qobiliyatlarini oshirishda, o'quv mashq trenirovka hamda dam olish jarayonida ongli ravishda qo'llay olish.

Hulosa. O'rganilgan barcha holatlarda o'quvchilarning jismoniy rivojlanganlik darajalari, o'rganuvchanlik faktori ekanligini, boshqa fanlar bo'yicha o'zlashtirish esa unga bog'liq emasligini ko'rsatdi. Ya'ni, o'qitish malakasining sifati, umuman o'qishga bo'lgan munosabat va ta'lim olishdagi ishlash qobiliyati katta ahamiyatga ega ekanligi kuzatildi. O'quvchilarning jismoniy va harakat tayyorgarligi yetarlicha darajada bo'lgan sharoitda esa bu faktorlar harakat o'rganuvchanlikka ta'sir etishda katta ehtimol mavjudligi tadqiqot davomida o'rganib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matveev L.P. Teoriya i metodika fizicheskoy kulturi. – M., 1991. – 443 s.

2. Metodika fizicheskogo vospitaniya shkolnikov / pod red. G.B. Meyksona, L.E. Lyubomirskogo. – M., 1989. – 143 s.

2. Uroki fizicheskoy kulturi v 9–10 klassax sredney shkoli / pod red. G.P. Bogdanova. – M.: Prosveщenie, 1987. – 207 s.

3. Zeighami, N., & Bahmaei, R. (2016). Sociological study of structural and capital factors affecting the healthoriented lifestyle of over 15 year old citizens in Shiraz. UCT Journal of Social Sciences and Humanities Research, 4(3), 5-15.

О СОДЕРЖАНИИ НОВОЙ ДИСЦИПЛИНЫ «СПОРТИВНАЯ АДАПТАЛОГИЯ»

Р.Шаниязов

Преп. Нукусского филиала УзГУФКС

Аннотация. В статье представлено краткое содержание разработанного авторами курса новой дисциплины «Спортивная адапталогия». В курс включены разделы: основы конструктивной теории адаптации, совершенствование человека, энерго-информационные средства восстановления, релаксационные методы, роль воли в спортивной подготовке, организация мышления спортсменов. Эти разделы разработаны авторами и являются инновационными. Курс новой дисциплины впервые представлен магистрантам в 2020 г., большинство которых являются опытными тренерами-преподавателями. Магистранты высоко оценили значение содержания дисциплины для спорта.

Ключевые слова: спортивная адапталогия, конструктивной теории адаптации, совершенствование человека, энерго-информационные средства восстановления, роль воли в спортивной подготовке.

Введение. Дисциплина «Спортивная адапталогия» изучается магистрантами по направлению подготовки «Спорт». Содержание этой новой учебной дисциплины должно включать новейшие достижения спортивной науки, руководствуясь которыми тренер-преподаватель сможет создать условия для адаптации, выводящей спортсмена на более высокий функциональный уровень. Последнее является главным предназначением спортивной подготовки. К сожалению, спортивная наука продолжает находиться в «плену» теории адаптации Г. Селье, которая описательна и не даёт рецепта эффективных действий. Используя конструктивный подход, получено ряд научно-методических материалов, которые устраняют отмеченный недостаток. Учитывая вышеизложенное, в разработанный курс были включены разделы: основы конструктивной теории адаптации, совершенствование человека, энерго-информационные средства восстановления, релаксационные методы, роль воли в спортивной подготовке, организация мышления спортсменов.

Способность организма выполнять свойственные ему функции с необходимой интенсивностью (работоспособность) и совокупность этих функций (реактивность) определяют жизнеспособность.

Ресурсами жизнеспособности являются: превышение организованности биологических структур над обеспечивающим самовоспроизведение уровнем (периферический ресурс — ПР) и совокупность приспособительных программ, способность быстро оценивать ситуацию и извлекать из памяти необходимую программу (центральный ресурс — ЦР). Биологические структуры, выполняющие жизненные функции являются стабильной частью ПР, предназначенные для энергопродукции субстраты — мобильной частью ПР. Очевидно, что работоспособность обеспечивается мобильной частью, реактивность определяется стабильной частью и ЦР.

При саморазрушении биологических структур, выполняющих жизненные функции (мобилизации стабильной части ПР), организм восстанавливает мобильную часть ПР и получает клеточно-органную информацию о прошлом.

Адаптационными являются такие реакции морфофункционального преобразования организма, которые восстанавливают его работоспособность. При текущей адаптации реактивность не изменяется, при патологической — уменьшается, при физиологической — увеличивается.

Новая необходимая организму приспособительная программа переводит патологическую адаптацию в физиологическую. Условиями выработки новой приспособительной программы являются:

Сформирование потребности, удовлетворение которой устраняет угрозу жизнедеятельности, вызванную несоответствием имеющихся у организма программ текущему (будущему) моменту;

2) периферический ресурс, достаточный для прожития времени выработки новой приспособительной программы;

3) адекватное восприятие окружающего мира и внутренней среды (достаточная информированность);

4) эффективное мышление.

Совершенствование человека является целью и главной задачей физической культуры, его методические основы содержатся в работах Н. О. Лос-ского [13], П. В. Симонова [14], В. К. Волкова с соав. [1, 3, 7, 10, 11].

Самобытная индивидуальность (конкретный человек) состоит из: сущности, ментальных начал и физического тела. Сущность — личностная основа [3, 7, 10, 11]. Действительная личность — всякое существо, осознающее абсолютные ценности и долженствование, и руководствующееся этим в своей деятельности [13]. Ментальные начала — свойство адекватно и полно воспринимать реальность, эффективно мыслить и действовать с пользой для природы и общества. Физическое тело — инструмент действий [3, 7, 10, 11].

Потребности человека подразделяются на три вида [1,9, 10, 14]:

1. Материально-биологические потребности сохранения — материальные компоненты необходимые для жизни (еда, питье, одежда, жилище), безопасность и избегание повреждений.
2. Идеальные потребности роста — самосовершенствование.
3. Социальные потребности в привязанности и дружбе.

Реальные потребности либо относятся к конкретному виду, либо являются комбинацией нескольких (2—3) видов.

В соответствии со структурой доминирующих потребностей и развитости мышления у людей формируются три типа индивидуальности [1,3, 7, 10, 11]:

1. Простые люди (крайний тип) — доминируют потребности сохранения, расширено подсознание. Как правило, это живущие для себя, постоянно оглядывающиеся в прошлое неограниченные потребители.
2. Полные люди (крайний тип) — доминируют потребности роста, расширено сверхсознание. Они пришли к абсолютному знанию, устремлены в будущее, создают источники жизни, служат людям и обществу.
3. Возвышенные люди (промежуточный тип) — доминирующие потребности не сформированы, сознание активно развивается. Человека не удовлетворяет его жизнь, он начинает контролировать свои поступки и ищет выход.

При житейских неудачах человек информационно закрывается, что приводит к неадекватному восприятию реальности. Это приводит к неконтролируемому искажению сущности человека. При этом наблюдаются следующие подтипы: застывшие — притупленность чувств, застыв-

шее восприятие; подавленные — зависимость от обстоятельств, общая подавленность, ощущения жизненного тупика — безысходности; обозленные — обостренная чувственность, зависимость от чувств, досада, злость, обида; бесплодно озабоченные — навязчивые мысли, бесплодная озабоченность [1,8].

Человек проявляет себя через контролируемые сознанием (сознательное поведение) и неконтролируемые (эмоциональное поведение) Поступки и действия человека определяются сознанием (сознательное поведение) и эмоциями (эмоциональное поведение) [1,7, 11].

Эффективное мышление порождает помогающие жить (конструктивные) эмоции, неправильное — нарушающие жизнедеятельность (разрушительные). Таким образом, эмоциональное поведение человека может быть конструктивным и разрушительным.

Совершенствование человека (сущностное воспитание) и воспитание у него конструктивного эмоционального поведения (эмоциональное воспитание) являются основой успеха его индивидуальной жизни (предупреждает искажение сущности и обеспечивает эффективность целенаправленной деятельности). Сущностное и эмоциональное воспитание тесно связаны, имеют много общих компонентов и поэтому рассматриваются как сущностно-эмоциональное воспитание [1,3, 7, 9, 11].

Алгоритм сущностно-эмоционального воспитания состоит из: принятия личной ответственности за себя; направленности на удовлетворение потребностей роста; развития пассивной воли; отказа от стремлений к удовольствиям; принятия конструктивной роли страданий; активизации восприятия; мобилизации памяти; обучения эффективному мышлению; жизненной практики.

Основой большинства патологических состояний является порочный вегетативно-поведенческий стереотип (патологическая доминанта). Естественным способом предупреждения и устранения патологической доминанты является формирование физиологической (полезной)

доминанты, при которой патологические импульсы будут способствовать полезному для организма результата. Важнейшими физиологическими доминантами являются: чувствительная, двигательная, энергосберегающая, пищевая и тепло продуцирующая. Процесс формирования физиологических доминант мы определяем, как общую гомеостатическую тренировку [7, 10, 11].

Для совершенствования спортсмена и роста результатов (формирования новой адаптационной программы) необходимы: адекватное восприятие реальности и эффективное мышление. Мероприятия, направленные на это, мы обозначили термином энерго-информационные средства восстановления [4].

Основными энерго-информационными средствами восстановления являются: самоорганизация мышления, целостное оздоровительное вмешательство, релаксационные методы, мануально-вербальный массаж-синтез, успешная соревновательная деятельность.

Релаксационные методы — это способы достижения релаксации. Релаксация — активное уменьшение внешней активности, возникающее в результате максимально возможной информированности организма. Она способствует перенастройке мышления на выработку недостающих организму приспособительных программ, на базе которых в последующем усиливается воспроизводство биоструктур — организм приобретает недостающее качество. В процессе релаксации устраняется бесплодные раздумья, порожденные материальным окружением, возвращаемся в информационную реальность и расширяем сверхсознание В качестве релаксационных методов использует нейромышечную релаксацию, медитацию, аутогенную тренировку, биологическую обратную связь и гипноз. Эти методы являются разновидностями медитации, отличающимися по технике выполнения и глубине вмешательства в мышление [6, 7, 9, 11]. Релаксационные методы формируют чувствительную доминанту.

Роль воли в спортивной подготовке. Существуют осознаваемый (активная — импульсивная воля) и неосознаваемый (пассивная — постоянная воля) механизмы воли. Очевидно, активная воля обеспечивает волевое усилие, пассивная — волевую деятельность.

Активная воля является основой навыка преодоления препятствий и необходима на этапе подготовки к соревнованиям. Пассивная воля состоит из устойчивого навыка преодоления препятствий и эмоции собранности, она обеспечивает срочность и успешность решительности и смелости. Средствами развития пассивной воли являются — использование активной воли на этапе подготовки к соревнованиям, обучение спортсменов самоорганизации мышления, целостное оздоровительное вмешательство и мануально-вербальный массаж синтез [12].

В процессе иследования была рассмотрена организация мышления ряд спортсменов [9].

Мышление — активный процесс формирования и удовлетворения потребностей. Оно включает восприятие информации из окружающего мира и внутренней среды, ее переработку с учетом прошлого опыта и будущих перспектив, определение цели, разработку необходимой программы действий, ее реализацию, проверку эффективности и перестройку поведения [3,4, 5].

Мышление человека состоит, как минимум из трех сфер [2, 3, 5, 7]:

1) подсознание — управление по разработанным ранее программам, связано с прошлым, обслуживает потребности сохранения, осознаваемо;

2) сверхсознание — разработка нового, связано с будущим, обслуживает потребности роста, не осознаваемо;

3) сознание — организация мышления, контроль его эффективности, общение между людьми и поколениями с помощью речи, связано с настоящим, обслуживает социальные потребности в привязанности и дружбе, доминирующую потребность.

Нейронный ресурс мышления распределяется в зависимости от характера доминирующих потребностей. Доминирование потребностей сохранения расширяет подсознание, роста — сверхсознание. Наиболее подвижной сферой является сознание: оно сужается при концентрации внимания на объекте или действии, или чрезвычайно расширяется при попытках осознания всего происходящего. Очевидно, что работа сверхсознания определяет эффективность мышления. Избыточное «думание» делает мышление неэффективным — человек отрывается от реальности и «уходит» в мир воображений. Таким образом, осознанное расширение сверхсознания является основой эффективного мышления. Средствами организации мышления являются: обучение спортсменов самоорганизации мышления, целостное оздоровительное вмешательство, релаксационные методы и мануально- вербальный массаж синтез.

Заключение. Разработанный курс новой дисциплины «Спортивная адапталогия» был впервые представлен магистрантам в 2020 г., большинство которых являются опытными тренерами-преподавателями. Магистранты высоко оценили значение содержания дисциплины для спорта.

Литература:

1. Волков В. К. Медико-биологические основы предупреждения и лечения наркоманий. Теоретические основы оздоровления / В. К. Волков. — Воронеж : Центр.-черноз. книжное изд-во, 2006. — 60 с.
2. Волков В. К. Энерго-информационные средства восстановления / В. К. Волков, В. У. Аванесов // Состояние и перспективы развития медицины в спорте высших достижений: мат. Межд. науч. конф. «СпортМед 2007» (г. Москва, 24—25 ноября 2007 г.). — Москва: Физическая культура, 2007. —С. 89—91.
3. Волков В. К. Роль физической культуры и спорта в формировании человека будущего / В. К. Волков, М. Ю. Звездилина, В. И. Козлов, Л. Н. Козлова // Инновационные преобразования в сфере культуры физической, спорта и туризма. — Том 1. Научные труды XVII Международной науч.-практ. конгресс-конференции, п. Новомихайловский, 2014. — С. 41—48.
4. Волков В. К. Мануально-вербальный массаж-синтез / В. К. Волков, М. Ю. Звездилина // Физическая культура, спорт и здоровье в современном обществе: сборник научных статей Всероссийской с международным участием научно-практической конференции. — Воронеж : ИПЦ «Научная книга», 2014. — С. 313—315.
5. Волков В. К. Роль целостного оздоровительного вмешательства в конструктивной педагогике/В. К. Волков, В. И. Козлов, О. А. Якушева// Актуальные проблемы физического воспитания и спорта : сб. докладов юбилейной межд. н.-пр. и учебн.-мет. конференции (15—16 июня 2017 г.): вып. 10 / редкой.: В. А. Никишкин, Н. И. Бумарскова, С.И.Крамской: Министерство образования и науки РФ, НИУ МГСУ — Москва : изд-во МГСУ, 2017. — С. 274—277.
6. Волков В. К. Энергоинформационные средства восстановления — альтернатива допингу / В. К. Волков, И. Е. Попова, О. Н. Савинкова, В. И. Козлов // Теория и практика физической культуры : научно-теоретический журнал. — 2017. — №4. — С. 69—71.

BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDAGI O‘Q OTUVCHILAR KUCH SIFATINI RIVOJLANTIRISHNING IZOMETRIK USULI

X.O‘.Toshmatov, *O‘zDJTSU*
Menejment va sport tadbirlarini tashkil etish kafedrasi o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar: o‘q otish, mashg‘ulot, kuch, izometrik, faza, dinamik, statik.

Kirish. O‘q otuvchilar faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarida biri ularning kuch sifatini rivojlantirishda izometrik usuldan foydalanish zarurligida namoyon bo‘ladi. Izometrik kuchlanishning mushaklar o‘sishi va kuchni rivojlantirishga ta’siri bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur usul maxsus fiziologik tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan. 1920-yillarning boshlarida AQShda qurbaqalar bilan tajriba o‘tkazilganligi haqida dalillar bor. Bunda qurbaqaning bir oyog‘i mahkamlangan va harakatlanish imkoniyatidan mahrum etilgan, ikkinchisi esa mustaqil qolgan. Biroz vaqt o‘tgach, bog‘langan va statik kuchlanish holatida bo‘lgan oyoqdagi mushaklar hajmi sezilarli darajada kengaygan. Bu mushaklarni harakatsiz rivojlantirish mumkin, degan xulosaga kelishga imkon beradi.

Odamning jismoniy tayyorgarlik usulini aniqlashga oid keyingi tadqiqotlar ishonchli natijalar bermadi. Bu faqat 1953-yilda nemis olimlari A.Myuller va T.Xettinger turli xil mashg‘ulot usullari, shu jumladan, izometrik kuchlanishlardan foydalanish bo‘yicha o‘z tadqiqotlari natijalarini e’lon qildilar. Aynan o‘sha vaqtda kuchni rivojlantirishning yangi usulining yuqori samaradorligi isbotlangan. Turli mamlakatlar mutaxassislari tomonidan olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar ushbu xulosalarni tasdiqladi va kuchni rivojlantirishning izometrik usulini har tomonlama rivojlantirishga olib keldi.

Izometrik kuch mashg‘ulotlari tamoyili shug‘ullanayotgan mushak yoki mushak guruhida muayyan, iloji boricha, doimiy mushaklar kuchlanishini keltirib chiqarish va bu kuchlanishni ma’lum vaqt davomida ushlab turishdan iborat. Izometrik kuch mashg‘ulotlarining bir qator tasdiqlangan

shakllari mavjud bo‘lib, jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati sohasidagi mutaxassis Gert Marxold quyidagi izometrik mashqlar turlarini ajratishni taklif qiladi:

1. Eshik tirgaklari kabi qattiq, ko‘chmas buyumlarga ta’sir qilish bilan kuchlanish. Bunday turdagi mashqning kamchiligi shundaki, mashg‘ulot paytida oshadigan kuchlanish faqat sub’ektiv tarzda aniqlanishi mumkin.

2. Harakatlanadigan va ko‘tariladigan og‘irliklardan foydalangan holda kuchlanish. Masalan, taglikdan ahamiyatsiz balandlikka ko‘tarib va ruxsat berilgan vaqt davomida ushlab turiladi. Ushbu turdagi mashqlar yuk ortib borayotgan kuchni baholashga imkon beradi, ammo bunday holda turli xil maxsus moslamalar talab qilinadi.

3. Prujina yoki elastik egiluvchan qarshilik yordamida kuchlanish. Bunga, masalan, prujinaning cho‘zilish darajasiga ko‘ra, mushaklarning kuchlanishni ma’lum darajada boshqarishga imkon beradigan espanderlar kiradi.

Hozirda maksimal kuchlanishdan foydalanish eng samarali deb umume’tirof etilgan. Bundan tashqari, maksimal kuchlanish 6 soniya davomida ushlab turilsa, kuchning eng yuqori o‘sishiga erishiladi. Mashqda kuchni oshirish va uning zaiflashishi sokin tarzda amalga oshirilishi kerak. Ushbu fazalarning har biri 2 soniya, to‘liq mashq – kuchni oshirish, uni ushlab turish va zaiflashtirish 10 soniya vaqtni oladi.

Mazkur usul bo‘yicha mashg‘ulotlarga faqat kuchni rivojlantirishga qaratilgan dastlabki tayyorgarlikdan so‘ng dinamik mashqlar yordamida, zarur kuch bazasi yaratilgandan keyingina kirishish lozim. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, har bir mashg‘ulot bir nechta umumiy rivojlanish mashqlarini o‘z ichiga olgan qizish mashqlari bilan boshlanishi zarur. Kuchni rivojlantirishga qaratilgan kompleks mashg‘ulotda statik mashqlar dinamik mashqlardan keyin ham, ulardan oldin ham amalga oshiriladi.

Aksariyat mualliflarning ta’kidlashicha, kunlik mashg‘ulotlarda har bir mushak guruhiga bittadan mashq qilgan taqdirda, eng yaxshi natijalarga erishish mumkin. Izometrik mashg‘ulotlar uchun mutlaq minimal sifatida 6-7 ta mashq bajarish tavsiya etiladi. Kuchni oshirish darajasini aniqlash va izometrik mashg‘ulotlar o‘tkazishga asos yaratish, shuningdek, rivojlanishda ortda qolgan mushaklarni aniqlash uchun qo‘llaniladigan choralar qiymatini samarali nazorat qilish va ro‘yxatga olish zarur. Shu maqsadda shtanga bilan mashg‘ulotlar olib boriladi, ammo maksimal chora ishlatish usuli o‘q otish sportchisi tomonidan oyiga 3-4 martadan ko‘proq bajarilmasligi kerak.

Kuchni rivojlantirishning izometrik usuli bir qator inkor etib bo‘lmaydigan afzalliklarga ega. Demak, agar dinamik mashqlarni bajarish jarayonida maksimal kuchlanishga faqat harakatning ma’lum daqiqalarida erishilsa, statik mashqlar nisbatan uzoq vaqt davomida doimiy kuchlanishni saqlab turishga imkon beradi. Statik mashqlar deyarli har qanday mushak guruhiga ta’sir qilishi mumkin. Ular o‘q otish sportchisi uchun, ayniqsa, muhim bo‘lgan kuch va diqqatni jamlash qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi. Ushbu mashqlar suyak-bo‘g‘im tizimini mustahkamlash uchun yaxshi vosita bo‘lib, tuzatuvchi mashqlar sifatida xizmat qilishi mumkin. Izometrik usul juda sodda bo‘lib, murakkab va qimmat uskunalar talab qilmaydi. Uning ko‘p shakllari eng oddiy sharoitlarda, hatto uyda ham qo‘llaniladi. Bu yerda vaqt omili ham ijobiy rol o‘ynaydi. Statik mashqlar yordamidagi mashg‘ulotlar 15-20 daqiqa davom etadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, izometrik usulda bajariladigan mashqlar biroz charchoqqa olib kelganligi sababli ular ixtisoslashuv jarayoniga hech qanday salbiy ta’sir ko‘rsatmasdan raqobat davrida qo‘llanilishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Бураков А.М. Подготовка общественных тренеров и инструкторов по пулевой стрельбе // М., 1987. — 118 с.

2. Воропаева Е.В. Динамика работоспособности в пулевой стрельбе и способы ее оптимизации // Дис. .канд. пед. наук. -М., 2002. 191 с.

3. Кривцов А.С., Палехова Е.С. Комплексная форма отбора в пулевой стрельбе // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка №4.- 2008.- С. 64-67.

4. Toshmatov X.O‘. Mamlakatimizda o‘q otish sportini rivojlantirish istiqbollari // “Ommaviy sportni rivojlantirishda sport menejmenti va marketingi: asosiy omillar, innovatsion yo‘nalishlar va imkoniyatlar” Xalqaro ilmiy anjumani. Chirchiq, 2024. – B. 465-467.

BO‘LAJAK JISMONIY MADANIYAT MUAXASSISLARINI GIMNATSIKA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING MILLIY VA XORIJ TAJRIBA TAHLILI

Djumaniyazova Tamara
Dotsent v.b
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
Gulmurzaeva Sevara
1-kurs badiiy gimnastika
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
Sapaeva Barchinoy
1-kurs badiiy gimnastika
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

Annotatsiya: Bo‘lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarini gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etishda pedagogik tayyorgarligini rivojlanirishning milliy va xorij tajriba tahlili haqida so‘z yuritilgan, Gimnastika mashqlarini o‘rgatish jarayonida hal etiladigan alohida vazifalar har bir aniq holda harakat tuzilishini, uni bajarish sharoitining xususiyatlarini va shug‘ullanuvchilarning tayyorgarlik darajasini baholash asosida belgilanadi.

Ka’lit so‘zlar: gimnastika. mashg‘ulot, tayyorgarlik, mashqalar, o‘rganish, o‘rgatish, tahlil, pedagogik, sport, jismoniy madaniyat

Kirish. Jismoniy madaniyat sohasidagi mutaxassislar tayyorlashda pedagogik yondashuvlar, ayniqsa, gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil qilishdagi tayyorgarlik alohida ahamiyatga ega. Milliy va xorij tajribasining tahlili bu jarayonda muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqola bo‘lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarini gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etishda pedagogik tayyorgarlikni rivojlantirishda milliy va xorijiy tajribalarni tahlil qilish va ularning qiyosiy o‘rganilishi orqali metodik yondashuvlarni takomillashtirishga yo‘naltirilgan. Xorijiy davlatlar, xususan, AQSh, Rossiya, Yevropa mamlakatlari hamda O‘zbekiston tajribalari ushbu maqolada muhokama qilinadi. Jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayoni, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi o‘qituvchilarning pedagogik tayyorgarlik darajasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Pedagogik tayyorgarlik — bu o‘qituvchilarning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan malakalardir. Ushbu jarayonda, ayniqsa, gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil etish muhim o‘rin tutadi. Gimnastika, nafaqat jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish, balki o‘quvchilarda muhim ijtimoiy va psixologik ko‘nikmalarni shakllantirishda ham ahamiyatlidir.

Pedagogik tayyorgarlik darajasi va samaradorlik*:* jismoniy madaniyat mutaxassisi tayyorlashda pedagogik tayyorgarlik darajasi, ayniqsa, gimnastika mashg‘ulotlarining samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Agar pedagogning tayyorgarlik darajasi past bo‘lsa, bu o‘z navbatida o‘quvchilarning qobiliyatlarini to‘g‘ri baholash, ularni rag‘batlantirish va samarali mashg‘ulotlar tashkil etishda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, pedagogik tayyorgarlikning zaifligi natijasida o‘qituvchi gimnastika mashqlarini noto‘g‘ri tashkil etishi, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olmaydi va natijada mashg‘ulotlar samaradorligi pasayadi.

Milliy yondashuvlar va xorijiy tajribalar: O‘zbekistonning jismoniy madaniyat mutaxassislari tayyorlash tizimida milliy yondashuvlar, asosan, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va tarbiyaviy asoslar bilan bog‘liqdir. Biroq, ushbu yondashuvlar zamonaviy xorijiy tajribalar bilan uyg‘unlashtirilmaganligi ba’zi yetishmovchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, O‘zbekiston ta’lim tizimida an’anaviy pedagogik usullar ko‘p ishlatiladi, lekin zamonaviy texnologiyalar va interaktiv ta’lim metodlari yetarlicha joriy etilmagan. Bu esa ta’lim jarayonini qisqa muddatda takomillashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Xorijiy tajribalar, xususan, AQSh, Yevropa mamlakatlari va Rossiyada, pedagogik tayyorgarlik jarayoni innovatsion yondashuvlarga asoslanadi. Ushbu mamlakatlarda jismoniy madaniyat mutaxassislari tayyorlash jarayonida zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlardan keng foydalaniladi. Bu jarayonlar bo‘lajak mutaxassislar uchun jismoniy va psixologik tayyorgarlikni oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning jismoniy madaniyat ta’lim tizimida esa bunday yondashuvlar hali to‘liq rivojlanmagan. Zamonaviy ta’lim yondashuvlarini milliy sharoitlarga moslashtirish va xorijiy

tajribalarni o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunda, O‘zbekistonning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi pedagogik yondashuvlarini xorijiy tajribalar bilan uyg‘unlashtirish, bo‘lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirish imkonini beradi. Masalan, ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish, mashg‘ulotlarni interaktiv tarzda tashkil etish kabi yondashuvlar orqali jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayonini samarali amalga oshirish mumkin. Bu jarayon o‘quvchilarning jismoniy qobiliyatlarini, psixologik holatini va jamiyatga qo‘shadigan hissasini kuchaytiradi.

Ushbu muammo bo‘yicha yuqorida aytib o‘tilganlar asosida, jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayonida pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirish va zamonaviy ta’lim yondashuvlarini joriy etish, shuningdek, milliy va xorij tajribalarini qiyosiy tahlil qilish zaruriyatini ko‘rsatadi. O‘zbekistonning jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayonida muammo qo‘yilishi zarur bo‘lgan masalalarni ko‘rsatadi. Pedagogik tayyorgarlik darajasi va samaradorlik, milliy yondashuvlar va xorijiy tajribalar o‘rtasidagi uyg‘unlik, zamonaviy ta’lim yondashuvlarini milliy sharoitlarga moslashtirish dolzarb masalalardir. Shu bilan birga, ta’lim tizimida o‘zgarishlar qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va pedagogik metodlarni takomillashtirish orqali jismoniy madaniyat mutaxassislari tayyorlash jarayonini yanada samarali qilish mumkin.

Pedagogik tayyorgarlik darajasining ahamiyati: bo‘lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining tayyorgarlik darajasi va ular olib boradigan mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish uchun pedagogik tayyorgarlikni zamonaviy va an’anaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik tayyorgarlik, nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayon jismoniy madaniyat mutaxassislari tomonidan qo‘llaniladigan metodlar, usullar va texnologiyalarni to‘g‘ri tanlashga yordam beradi. O‘zbekistonning ta’lim tizimida pedagogik tayyorgarlik darajasi ko‘pincha an’anaviy usullar bilan cheklangan. Biroq, zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘quvchilarning qobiliyatlarini to‘g‘ri baholash va ularga individual yondashuvni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Milliy va xorijiy tajribalar*:* milliy tajribalar, O‘zbekistonning tarbiyaviy va madaniy qadriyatlarini inobatga olgan holda, jismoniy madaniyat mutaxassislari tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga ega. Biroq, xorijiy tajribalar bilan taqqoslaganda, milliy yondashuvlar ko‘pincha zamonaviy texnologiyalardan va innovatsion metodlardan mahrum bo‘ladi. Xorijda, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tayyorgarlik jarayoni ko‘proq zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni o‘z ichiga oladi. Misol uchun, AQSh va Yevropa mamlakatlarida pedagoglar, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda, mashg‘ulotlarni interaktiv tarzda tashkil etadilar. Bu esa o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Milliy yondashuvlar va xorijiy tajribalar o‘rtasidagi uyg‘unlik: Milliy va xorijiy tajribalarni uyg‘unlashtirish, jismoniy madaniyat mutaxassislari tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonning jismoniy madaniyat ta’lim tizimida an’anaviy usullar ko‘p ishlatiladi, lekin zamonaviy texnologiyalar va interaktiv ta’lim metodlari yetarlicha joriy etilmagan. Bu esa ta’lim jarayonini qisqa muddatda takomillashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Ushbu tajribalar orasida integratsiya amalga oshirilganda, o‘quvchilar uchun eng maqbul va samarali pedagogik muhit yaratish mumkin. Milliy qadriyatlar bilan birga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo‘llash, ta’lim jarayonini yanada sifatli va samarali qilishga yordam beradi.

Milliy Tajriba Tahlili: O‘zbekistonda gimnastika bo‘yicha bo‘lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlashda an’anaviy pedagogik yondashuvlar qo‘llaniladi. Ushbu yondashuvlar milliy qadriyatlar, madaniyat va urf-odatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Jismoniy madaniyat bo‘yicha dasturlar amaliy va nazariy mashg‘ulotlarni uyg‘unlashtirib, mutaxassislarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Milliy qadriyatlar va pedagogik yondashuvlar: O‘zbekiston ta’lim tizimida jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayonida milliy qadriyatlar asosiy o‘rinda turadi. O‘zbekistonning tarixiy va madaniy merosi, o‘quvchilarning jismoniy tarbiyasi va ularni tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bu esa, an’anaviy o‘yinlar, milliy sport turlari va jismoniy mashqlarni o‘z ichiga olgan holda, o‘quvchilarga jismoniy faoliyatni rivojlantirish imkonini beradi. An’anaviy pedagogik yondashuvlar bo‘yicha gimnastika mashg‘ulotlari ko‘pincha jamoaviy va individual formatda amalga

oshiriladi. O‘qituvchilar o‘z o‘quvchilariga sifatli ta’lim berish, ularni jismoniy jihatdan tarbiyalash va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga intiladilar. Ushbu yondashuv, jismoniy madaniyat mutaxassislarining o‘zaro hamkorlik va jamoa ruhini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ta’lim dasturlari va metodlar: O‘zbekistonda gimnastika bo‘yicha ta’lim dasturlari jismoniy tarbiya va sport sohasidagi zamonaviy talablar va standartlarga javob berishga qaratilgan. Ushbu dasturlar o‘quvchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni nazariy bilimlar bilan ta’minlash va amaliy ko‘nikmalarni oshirishga xizmat qiladi. Gimnastika mashg‘ulotlarida ko‘plab metodlar qo‘llaniladi, jumladan, demonstratsiya, amaliy mashg‘ulotlar, o‘z-o‘zini baholash va guruhli faoliyat. Bu metodlar, o‘quvchilarning jismoniy qobiliyatlari, shaxsiy ehtiyojlari va maqsadlariga qarab tanlanadi.

Islohotlar va ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar: O‘zbekistonning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi islohotlari, pedagogik tayyorgarlik tizimiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar, jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsion yondashuvlarni joriy etishga yo‘naltirilgan. Mamlakatda jismoniy tarbiya sohasida yangi dasturlar va innovatsiyalar, ta’lim jarayonini yaxshilash, pedagogik tayyorgarlikni oshirish va o‘quvchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida interaktiv va innovatsion muhit yaratishga xizmat qiladi.

Xulosa milliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarini gimnastika mashg‘ulotlarini tashkil qilishda pedagogik tayyorgarlikni rivojlantirishda muhim jihatlar mavjud. O‘zbekistonda milliy qadriyatlar va an’analar asosida shakllangan tizim samaradorligini oshirish uchun xorijiy tajribalardan o‘rganilgan innovatsion texnologiyalar va metodologiyalarni joriy qilish zarur.

Milliy va xorijiy tajribalarning muhim jihatlari: O‘zbekiston ta’lim tizimida jismoniy madaniyat mutaxassislari tayyorlash jarayonida milliy qadriyatlar va an’analar ustuvor ahamiyatga ega. Ushbu jarayon, nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ham nazarda tutadi.

Milliy qadriyatlar: O‘zbekiston ta’lim tizimida milliy qadriyatlar asosida jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash, an’anaviy metodlar va uslublar yordamida amalga oshiriladi. Milliy sport turlari, masalan, kurash, o‘zbekcha kurash, va boshqa jismoniy faoliyatlar, o‘quvchilarning milliy o‘zligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon, o‘quvchilarning jismoniy ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, milliy madaniyat va qadriyatlarni hurmat qilishni o‘rgatadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 23-dekabr 2022-yil. PQ-449-son
2. Гавердовский, Ю. К. Обучение спортивным упражнениям. Биомеханика. Методология. Дидактика : моногр. / Ю. К. Гавердовский. — М. : Физкультура и спорт, 2007.
3. I.I.Morgunova. Gimnastika.Toshkent-Ilm-Ziyo .2013.
4. T.Djumaniyazova. Yosh badiiy gimnastikachilarni xoreografik mashqlari orqali jismoniy sifatlarini rivojlantirish - Ilim hám jámiyet Ilimiy-metodikalıq jurnal, 2023 yil – 2-san 72-76-betler
5. T.Djumaniyazova - Analysis of the features of physical fitness in rhythmic gymnastics - O‘zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari, 2023 – 4-bet.
6. T.Djumaniyazova, Ўзбекистонда уч босқичли спорт мусобақаларини ташкил этиш ижтимоий педагогик зарурияти сифатида - Вестник физической культуры и спорта Научно-методический журнал. №3 Нукус–2024. 59-63b.
7. T.Djumaniyazova. Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy Axborotnomasi Ilmiy-amaliy jurnal № 5(9) 2024 . 239-241 b.

UDK: 796.035:518:04

SPORT-SOG‘LOMLASHTIRISH TURIZMI BILAN SHUG‘ULLANUVCHI TALABALARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.

Dusanov Uchqun Suyunovich
O‘zbekiston davlat Jismoniy tarbiya va sport universiteti mustaqil izlanuvchisi

Аннотация. В работе рассматриваются вопросы использования спортивно-оздоровительного туризма в учебном процессе студенческой молодежи. Определены показатели уровня физической подготовленности у студентов до и после туристического похода.

Anotatsiya: Ishda talaba yoshlarning o'quv jarayonida sport-sog'lomlashtirish turizmidan foydalanish masalalari ko'rib chiqiladi. Talabalar uchun piyoda yurishdan oldin va keyin jismoniy tayyorgarlik darajasi ko'rsatkichlari aniqlandi.

Ключевые слова: туризм, физическое воспитание, тестирование, студенты.

Kalit so'zlar: turizm, jismoniy tarbiya, test sinovlari, talabalar.

Kirish. Eshkak eshishga xos vositalar yordamida ham jismonan, ham ma'nan yetuklikka erishish va yuksak sport mahoratini egallashga qaratilgan jismoniy tarbiyaning ixtisoslashtirilgan pedagogik jarayoni eshkak eshish bo'yicha sport mashg'ulotlaridan iboratdir. Eshkak eshuvchining kuch qobiliyatlariga yo'naltirilgan mashqlari sportchining yuqori natijalarga erishishi uchun asosiy poydevor rolini o'ynaydi. Kuch tayyorgarliklari odatda umumiy va maxsus turga bo'linadi.

Hozirgi kunda nafaqat kanoeda eshkak eshishda, balki boshqa sport turlarida ham maxsus kuch tayyorgarliklari orqali mashg'ulotlar tashkil etish sportning muhim qismidan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Turli kuch qobiliyatlarining namoyon bo'lish xususiyatlarini tahlil qilish orqali eshkak eshuvchi sportchining maxsus kuch tayyorgarligi tarkibini aniqlash.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Kanoeda eshkak eshish sportida kuch sifatlarini oshirish ham suvda, ham quruqlikda mashq qilishda, asosiy mashg'ulotlar usullaridan foydalanish va mashg'ulotlar samaradorligini nazorat qilishda maxsus va trenajor qurilmalardan foydalanishning umumiy metodik tamoyillariga asoslanadi.

Tadqiqot natijasi va muhokamasi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik ma'lum bir sport turi uchun zarur bo'lgan harakat qobiliyatlarining ustuvor rivojlanishini ta'minlaydigan jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi jarayon hisoblanadi.[5]

Kanoeda eshkak eshuvchining sport faoliyatida kuch sifatlari turli darajada namoyon bo'ladi. Sportchi bu sifatlarni to'liq qo'llay olishiga birinchi navbatda, texnikani muvofiqlashtirish murakkabligi to'sqinlik qiladi. Texnik jihatdan ko'proq tayyyorgarlik ko'rgan sportchilar texnikasi yomonroq eshkak eshuvchilardan farqli ravishda, eshkak eshish paytida o'zlarining tezlik va chidamlilik qobiliyatini taxminan 80-85% gacha to'liqroq ko'rsatib bera oladi.[1]

Kanoeda eshkak eshuvchining harakat faoliyatining o'ziga xos tabiati kuch qobiliyatlarini rivojlanishini cheklovchi omillardan biridir. Sport bilan shug'ullanuvchilar mushaklarining maksimal kuchi maksimal og'irlik yuki yoki maksimal izometrik mushaklar kuchlanishi bilan namoyon bo'la oladi. Biroq, kanoeda eshkak eshishda tabiiy mushak faolligida hech biri sodir bo'lmaydi. Xattoki, eshkak eshuvchi eng qizg'in eshkak eshish mashg'ulot jarayonida ham maksimal mushak kuchining 60% dan ko'pini ishlatmaydi.

Eshkak eshuvchi uchun maxsus kuch tayyorgarligining eng tipik vositalariga qo'shimcha qarshilikni yengib o'tish kabi uslubiy texnikadan foydalangan holda "o'z" turidagi mashqlar kiradi.[4] Kanoeda eshkak eshishda sport siklini murakkablashtiradigan ko'plab texnikalar mavjud. Eshkak eshish masofasi va eshkak eshishni o'zini ko'paytirish, oqimga, shamolga qarshi eshkak eshish, sayoz suvda eshkak eshish, gidrotormozdan foydalanish, qayiqni qo'shimcha og'irliklar bilan jihozlash kabilar shular jumlasidandir.[6]

Maxsus kuch mashg'ulotlarining ta'siri mashg'ulotlar jarayonida turli xil vositalar va usullardan foydalanishning ma'lum bir tizimi bilan ham miqdoriy, ham sifat jihatidan ancha yuqori turadi.

Ba'zi tadqiqotchilar fikriga ko'ra, eshkak eshuvchi sportchining kuch tayyorgarlik tizimida qayiqda va trenajor qurilmalarda bajariladigan maxsus kuch mashqlari bilan bir qatorda quruqlikda qo'shimcha og'irliklar bilan mashg'ulotlar tashkil etish ham foydali bo'lib, sportchining eshkak eshish texnikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.[3]

Qator tadqiqotlar natijasi hamda ko'p yillik amaliy tajribalarni umumlashtirish maqsadli mashg'ulotlar uchun boshlang'ich nuqtalar to'plamini shakllantiradi. Maxsus kuch tayyorgarliklarining

maqsadli yo’nalishi asosiy kuch qobiliyatlarini, ya’ni maksimal kuch va kuch chidamlilikni zarur darajada ta’minlash va ularni muayyan faoliyatda amalga oshirish imkonini beradi. Mushaklarning maksimal kuchini oshirish musobaqalar vaqtida kuch zaxirasini to’g’ri taqsimlashda zarur hisoblanadi. Kuchga chidamlilik darajasini oshirish uzoq muddatli maxsus yuklamalarni bajarishda mushaklarning qisqarishi, charchoqqa chidamli texnika uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish orqali esa eshkak eshish tizimidagi kuchlarning o’zaro ta’sirini ratsionalizatsiya qilib, eshkak eshishning maksimal tezligi va kuchini oshiradi.

Yu. Sofronov eshkak eshuvchilarning maxsus kuch mashqlarini 4 guruxga bo’ladi. Bu guruxlar organik bog’liq va bir-birini to’ldiruvchi komponentlarni o’z ichiga oladi:

1. sport mashg'ulotlari - maksimal kuch va mushak massasini oshirish uchun quruqlikda amalga oshiriladi;
2. maxsus tayyorgarlik mashg'ulotlari - maxsus kuch chidamliligini oshirish uchun kuch mashqlari va maxsus mashqlar yordamida amalga oshiriladi;
3. suvda aerobik kuch mashqlari - yetakchi mushak guruhlarining aerob qobiliyatini va kuch chidamliligini oshirish uchun maxsus eshkak eshish mashqlari orqali shakllantiriladi;
4. suvda tezlikni kuchaytirish bo'yicha mashg'ulotlar - maxsus tezlik va kuch qobiliyatlarini yaxshilash uchun eshkak eshish mashqlarini o'z ichiga oladi.[6]

Maxsus kuch mashg’ulotlarini tashkillashning umumiy tamoyillari mutaxassislik, yuklama konsentratsiyasi, mashqlar ketma-ketligiga asoslanadi. Mutaxassislik mashg’ulotlari mezosikllarda kuch qobiliyatlarini yo tezkor-kuch, yo kuchga chidamlilik yoki maksimal kuch yo’nalishlaridan biri rivojlantiriladi. Asosan, yosh sportchilar bilan bunday mashg’ulotlar olib boriladi. Yuklama konsentratsiyasida esa katta hajmli mashqlardan, jumladan, makrosikllarda haftasiga kamida 2-3 maqsadli mashg’ulotlar va bir nechta mustahkamlovchi o’quv-mashg’ulot vazifalaridan foydalaniladi. Bunday mashg’ulotlar ayniqsa, yuqori toifali eshkak eshuvchilarni tayyorlashda o’ta muhim sanaladi. Turli yo'nalishdagi mezosikllarni kiritish ketma-ketligi mashg'ulot ta'sirida yuzaga keladigan morfologik va funksional o'zgarishlarning tabiati bilan belgilanadi. Bunda e’tibor kuch qobiliyatlarining barcha yo’nalishlarini rivojlantirishga qaratiladi.[2]

Xulosa. Eshkak eshuvchi sportchilarning kuchga yo’naltirilgan mashg’ulotlari tizimida birlashtirish uslubi keng qo’llaniladi. Bu harakatni texnik jihatdan to'g'ri bajarish uchun maxsus kuch tayyorlash vositalarini tanlash va ishlatishdan iborat. Birlashtirish vositalaridan foydalanishda qator xususiyatlarga e’tibor qaratish lozim. Xususan, quruqlikdagi kuchga yo’naltirilgan mashqlarni suvdagi mashg’ulotlar bilan birlashtirish maqsadga muvofiq bo’ladi. Birlashtirilgan kuch mashqlari doimiy mashg’ulotlarda bajarilishi kerak. Maxsus kuch mashqlarining eshkak eshish texnikasiga tuzatuvchi ta'siri ularning qat'iy tartibga solinishi bilan erishiladi, bu esa ma'lum bir harakat sxemasidan og'ishlarni istisno qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Афанасьев, В.П. Специальная силовая подготовка в гребле на байдарках и каноэ /В.П.Афанасьев, В.Ф.Каверин //Гребной спорт. – 1988. – с. 27-31.
2. Баргамон, К.А. Методика развития скоростно-силовых качеств, юных спортсменов на спринтерских дистанциях в гребле на байдарке, 2017.
3. Дьяченко, А.Ю. Совершенствование специальной выносливости квалифицированных спортсменов в академической гребле. [Текст]: метод.пособие / А.Ю. Дьяченко. - К.: НПФ “Славутич-Дельфин”, 2004. – 338 с.
4. Платонов, В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. /В.Н.Платонов. – Киев: Олимпийская литература, 2004. – 808 с.
5. Программа для ДЮСШ, СДЮШОР и ШВСМ (Гребля на байдарках и каноэ). – М.; Физкультура и спорт, 2004 – 120 с.
6. Софронов, Ю. Развитие специальной силы у гребцов академистов с помощью гребного тренажера Concept 2. Статья / Тольятти 2015г.

DENE TÁRBIYA HÁM SPORT PENEN SHUǴILLANIWSHILARDIŃ IS QÁBIYLETIN ASIRIW HÁM TIKLENIWDIŃ ZAMANAGÓY USILLARI.

Najimov Komekbay Ibraimovich
NMPI Sport pánleri kafedrası aǵa oqıtıwshısı
Bekmurzaev Abdikarim Kulmırzaevich
NMPI Sport pánleri kafedrası docent w.w.a
Utagenov Marat Bisenbaevich
NMPI Sport pánleri kafedrası aǵa oqıtıwshısı

Tayanısh sózler: Sport, pedagogika, psixologiya, individual júkleme, fiziologiyalıq sistema, fizikalıq faktorlar, jeke gigiena.

Ключевые слова: Спорт, педагогика, психология, индивидуальная нагрузка, физиологическая система, физические факторы, личьная гигиена.

Keywords: Sports, pedagogy, psychology, individual load, physiological system, physical factors, personal hygiene.

Hár qanday dene tárbiyası hám sport shınıǵıwlarınan keyin sportshılarda sharashaw jaǵdayı júz beredi. Usı sharshaw jaǵdayınan soń өz qálpine keliw ushın ayrım organlar funkciyasınıń tikleniwi 6-8 sutkadan keyin júz beriwi múmkin. Sportshılardıń is qábilietin tiklewshi usıllar tiykarınan 3 toparǵa ajıratıladı. Bular pedagogikalıq, psixologiyalıq hám medicina-biologiyalıq tiklewshi usıllar bolıp tabıladı.

Pedagogikalıq tiklewshi usıllar sportshınıń kún tártibinde (rejiminde) hám shınıǵıwlardı shөlkemlestiriw procesinde өz sheshimin tabadı:

- sporshınıń shuǵıllanıwı (mikro hám makrotsikl) hám kөp jıllıq tayarlıq dáwirlerinde júklemelerdi durıs shөlkemlestiriw;
- sport jarısları hám sport shınıǵıwlarınan soń sporshılar salamatlıǵı ústinen profilaktika alıp barıw hám aktiv dem alıwdı shөlkemlestiriw;
- shınıǵıwlardı hár qıylı usıllarda ámelge asırıw (monoton emes);
- sutkalıq shınıǵıwlardı shөlkemlestiriwde azanǵı tayarlawshı, keshqurın bolsa tınıshlandırıwshı xarakterge iye bolıwın támiyinlew;
-individual júklemelerdi qollanıw hám sport jarısları hám birinshiliklerinde tolıq kompleksli razminkalardı alıp barıw;
- tolıq kompleksli tikleniw ushın passiv dem alıwdı nөlkemlestiriw, өzin-өzi massaj qılıw, muzıka járdeminde shınıǵıwlar alıp barıw.

Psixologiyalıq tiklewshi usıllar tikleniw dáwirinde fiziologiyalıq sistemalar hám is qábilettiń artıwına unamlı tásir etedi. Bularǵa tөmendegiler mısal bola aladı:

- isendirip uyqını keltiriw;
- avtogen ttrenirovka hám onıń modifikatsiyasi: ;
- bulshıq etlerdi bosastırıw;
- arnawlı nápes alıw shınıǵıwları;
-komfort turmıs tárizin jaratıw hám keri tásir etiwshi faktorlardı joǵaltıw;

Medicna-biologiyalıq tiklewshi usıllarǵa trenirovka hám sport jarısları dáwirinde is qábilietti tiklewshi usıllar kiredi:

1. Úlken kөlemli kompleksli gigienalıq is-ilajlar (koloriyalı awqatlanıw, vitaminizaciya, biologiyalıq koloriyalı azıq-awqatlar, kún tártibi, jeke gigiena h.t.b.).
2. Hár qıylı fizioterapiya hám balneologiyalıq is-ilajlardı alıp barıw (elektr, jaqtılıq, ıssı vannalar, aero-gidroaeroinizatsiya, taw hám teńiz klimatları h.t.b.).
3. Hár qıylı massaj túrleri (qolda, apparat, kombinaciyalasqan, өzin-өzi massaj).
4. Emlewshi usıllar (kislorod, refleks terapiyalar hám basqalar).
5. Farmokologiyalıq usıllar.

Organizmniń tikleniwinde fizikalıq faktorlar úlken áhmiyetke iye (ultrafiolet nurlar, suw menen emlew usılları). Medicina-biologiyalıq tiklewshi usıllar arasında ásirese massaj ayrıqsha orın iyeleydi. Massaj qollar járdeminde (emlew, kosmetikalıq, gigiena hám sport) hám appatar járdeminde va apparat (vibraciyalıq, gidrovibraciyaq, pnevmo- vigraciyalıq, pnevmomossaj, gidromassaj, ultrazvuklı massaj, baromassaj h.t.b.)járdeminde alıp barıladı. Sportshılarda sutkalıq 4 mártebe

awqatlanıw ámelge asırıladı. Sport jarısları aldınan 2 kún dawamında shınıǵıwlar kemeytilip, kөbirek uglevodlı awqat racionı ámelge asırıladı. Azanǵı awqat 25%ti quraydı. Awqat quramında maylar muǵdarı kemeytilip, celyuloza muǵdarı asırıladı. Túslik awqat 35% ti quraydı. Onıń quramında haywanat belok muǵdarı asırılıwı tiyis (gөsh) uglevod hám maylar muǵdarı da sairıladı. Keshi awqat 25% ti quraydı. Onıń quramına sút өnimleri, balıq hám jarma өnimleri kiritiledi. Awqatlanıw hám trenirovka arasında 1,5-2 saat waqıt bolıwı tiyis, marafon hám tezlik kúsh talap eteuǵın sport túrlerinde 3 saat bolıwı tiyis. Bunda qoy hám shoshqa mayları hám kuwırılǵan gөshli awqatlar uzaq waqıt dawamında asqazanǵa sińiriledi (4-5 saat). Qaynatılǵan gөsh 3-4 saat, qaynatılǵan balıq 2-3 saatta sińiriledi. Sport jarısları hám trenirovkalardan soń 30-40 minut өtip awqatlanıw usınıs etiledi.

Sportshılardıń jumıs iskerligin asırıwda biologiyalıq quramı asırılǵan azıqlıq zatlar úlken áhmiyetke iye. Biologiyalıq quramı asırılǵan azıqlıq zatlar tөmendegishe 3 toparǵa ajıratıladı:

1. Beloklar
2. Uglevodlar
3. Makro hám mikroelemenler hám vitaminler.

Beloklı preperatlarda onıń sutkalıq dozası 40-50 g, uglevodlı mineral ishimliklerde onıń muǵdarı 60-80 g nan artıp ketpewi tiyis. Sportshılardıń is qábilietin asırıwdı vitaminlerdiń ornı da úlken áhmiyetke iye. Bunda polivitaminler júdá qol keledi hám olardı normada qabıl etiw zárúr.

Solay etip organizmniń tikleniwinde sportshılardıń kún tártibi, uyqı, jeke gigienası unamlı tásir kөrsetedi, al kerisinshe zıyanlı ádetler (shegiw, alkogol h.t.b.) unamısız tásirin tiygizedi.

Adebiyatlar

1. Azımov İ, Sobitov Sh «Sport fiziologiyası» Tashkent 1993
2. Raxsieva O.A. va boshqalar Massaj, Tashkent 1996
3. Nasriddinov F.N. Shaternikov E.K. İnsan omilini shakillantirishta jismoniy tarbiya va sport Tashkent 1993
4. Ajibekov M.A. Eshanov T.B. Adam ha'm haywan fiziologiyası I-II kitap, No'kis «Bilim» 1998
5. V.V.Vasieva « Fiziologiya cheloveka « M, FiS 1973
6. A.G. Xrpkov i dr Vozrastnaya fiziologiya i shkolnaya gigiena. M. «Prosveshenie» 1990
7. D.A. Vinokurov Chastnıe metodiki lichebnoy fizicheskoy kulturı «Miditsina» 1970
8. V.L.Korpman «Sportivnaya meditsina» M FiS, 1987.

ADAPTIV DENE TÁRBIYASÍNÍŃ TIYKARǴÍ TÚSINIKLERI HÁM ATAMALARÍ

Erejepov Islam Yusupovish

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti

Nókis filialı oqıtıwshı-stajyorı

Annotatsiya: Bul teziste adaptiv dene tárbiyanıń tiykarǵı túsinikleri hám atamaları haqqında maǵliwmat berilgen. Adaptiv dene tárbiyası, adaptiv-sport jáne xalıq arasında salamat turmıs tárizin úgit-násiyatlaw hám sporttı ǵalaba en jaydırıw, imkaniyatı sheklengen shaxslardıń sport penen shuǵıllanıwı ushın zárúr sharayatlar jaratıw haqqında maǵlıwmatlar berilgen.

Аннотация: В данном тезисе приведены сведения об основных понятиях и терминах адаптивного физического воспитания. Предоставлена информация об адаптивном физическом воспитании, адаптивном спорте, пропаганде здорового образа жизни среди населения и популяризации спорта, создании необходимых условий для занятий спортом для лиц с ограниченными возможностями.

Annotation: This thesis provides information about the basic concepts and terms of adaptive physical education. Information is provided on adaptive physical education, adaptive sports and promoting a healthy lifestyle among the population and popularizing sports, creating the necessary conditions for people with disabilities to engage in sports.

Tayanish sózler: Dene tárbiyası, adaptiv dene tárbiyası, adaptiv-sport, iskerlik, mútájlik, mayıp, mayıp oqıwshı, reabilitaciya, somatizaciya.

Ключевые слова: Физическое воспитание, адаптивное физическое воспитание, адаптивно-спортивная деятельность, нуждаемость, инвалид, учащийся-инвалид, реабилитация, соматизация.

Key words: Physical education, adaptive physical education, adaptive sports, activity, need, disabled, disabled student, rehabilitation, somatization.

Adaptiv dene tárbiyası (ADT)-funkcional, sonıń ishinde háreket imkaniyatların absolyut yamasa uzaq múddetke joǵaltqan adamlardıń dene tárbiyasınıń hár qıylı táreplerin úyreniwshi pán. Milliy zamanagóy nızamshılıqta belgilengenindey, mayıp yamasa organizmniń kúshli buzılıwına ie bolǵan shaxs, yaǵnıy densawlıqtı saqlaw uyımları tárepinen belgilengen tártipte tastıyıqlanǵan, turmıslıq jumısındaǵı hám sociallıq járdem jáne qorǵaw talaplarınan kelip shıǵatuǵın sheklewlerge alıp keletuǵın kesellikten kelip shıqqan, jaraqat, tuwma yamasa arttırılǵan kemshilikler mámleketimiz tárepinen belgilengen.

Búgingi kúnde kóplegen mámleketler "nagiran" sózinin qollanılıwınan waz keshti, sebebi negativ-psixologiyalıq basım. Onıń ornına: uqıpsız shaxs, fizikalıq kemshiliklerge iye bolgan shaxs, funkcional (fizikalıq) shekleniwlerge (buzıwlarǵa) iye bolgan shaxs, arnawlı mútájliklerge iye bolgan ádettegi shaxslar (balalar). Xalıqaralıq densawlıqtı saqlaw shólkemleriniń maǵluwmatlarına qaraǵanda 2-3-mıń jıllıq dáwirinde jáhánniń hár 10 shańaraǵı bunday adam bar, bul kórsetkish jáhán xalqınıń derlik 10% tin quraydı. Mayıplıq sebepleri - ekologiyalıq apachılıq, urıslar, kriminogen jaǵdaylar, násillik, juqpalı kesellikler, jaraqatlar, óndiriste hám kúndelikli sharayatta arttırılgan hám t.b. Mayıplıq - kesellik, jaraqat hám tuwma kemshiligi bolganlıǵı sebepli ózine-ózi xizmet kórsetiw, erkin háreketleniw, baylanısqa kirisiw, jeke is-háreketlerin qadaǵalaw, miynet iskerligin úyreniw, óz-ózi menen yaǵnıy uliwma yamasa kásiplik miynet etiw imkaniyatınıń joǵaltıwı. Bul atama bir waqıttıń ózinde medicinalıq, sociallıq hám yuridikalıq atama sıpatında da qollanıladı, sebebi ol insannıń densawlıǵı jaǵdayı hám miynet iskerligi menen baylanıslı.

Mayıplıq shaxstıń turmıslıq jumısın sheklewshi belgili bir kesellik, jaraqat hám tuwma kemislikler aqıbetinde densawlıǵın tolıq yamasa tolıq joǵaltqan shaxslardıń densawlıqtı saqlaw uyımları tárepinen medicinalıq-sociallıq ekspertizası nátiyjesinde anıqlanadı. Sonday-aq, olar qatarına nızamshılıqqa muwapıq sociallıq járdemge, miynet haqısın joǵaltqanlıǵı sebepli kompensaciya alıwǵa mútáj yamasa belgili wazıypalardı orınlawdan azat etilgen shaxslar da kiredi. Sonıń menen birge turmıslıq jumıstıń sheklengenlik dárejesi, miynet qábileti, mayıplıq toparı hár bir mayıplıǵı bolǵan shaxs ushın densawlıǵınıń jaǵdayına qarap belgilenedi. Bul bolsa oǵan organizmniń belgili bir funkciyaların qayta tiklewge tiykar jaratatuǵın miynet iskerligi túrin hám miynet etiw sharayatın tańlaw imkaniyatın beredi. Hár bir mayıp ushın individual túrde adaptaciya-reabilitaciya ilajları baǵdarlaması islep shıǵıladı. Imkaniyatı sheklengen shaxslardıń sociallıq qorǵalıwı - fizikalıq imkaniyatı sheklengen shaxslardıń densawlıǵın tiklew, materiallıq támiyinlew, bahalı qúdiretli kásiplik hám jámiettegi jumısında mámlekettiń barlıq puqaraları sıyaqlı óz huqıqları menen erkinliklerinen tolıq paydalanıwında talapların támiyinlewge qaratılǵan huqıqıy, ekonomikalıq hám sociallıq ilajlar sisteması islep shıǵılǵan hám bul sistema ámeldegi. Imkaniyatı sheklengen shaxslardıń reabilitaciyası - bul fizikalıq imkaniyatı sheklengen shaxslar organizminiń buzılǵan funkciyaların qayta tiklew, olardıń turmıslıq iskerligi sheklengeni ushın kompensaciya menen támiyinlew, olardıń jámietke sociallıq-professional beyimlesiwi hám integraciyasına qaratılǵan medicinalıq, kásiplik hám sociallıq ilajlar sisteması esaplanadı. Adaptiv háreket reabilitaciyası - bul belgili bir kesellik, jaraqat, fizikalıq yamasa ruwxiy sharshaw aqıbetinde fizikalıq imkaniyatı sheklengen shaxslarda waqtınsha joǵalǵan yamasa bir bólegi joǵalǵan organizm funkciyaların qayta tiklewge (tiykarǵı kesellikler - mayıplıq penen baylanıslı uzaq múddetke organizm funkciyaların joǵaltıw kirmeydi). qaratılǵan. Bul ilajlar adamda ol yamasa bul kesellikke sáykes túrde tásirsheńlikti qáliplestiriw, organizmniń funkcional táreplerin tez pátlerde normallastırıwǵa alıp keletuǵın ózin aqlaǵan tábiyiy, ekologiyalıq qurallarǵa beyimlesiwi maqsetinde ámelge asırıladı; olardı belgili bir kompleksli fizikalıq shınıǵıwlardı erkin orınlawǵa, ózin-ózi massaj etiw usıllarına, ózin-ózi basqarıw usıllarına, shınıqtırıwshı shınıǵıwlarǵa, fizioterapevtikalıq usıllar hám basqalarǵa úyretiw názerde tutıladı. Mayıplardı reabilitaciyalaw hám beyimlestiriwdiń individual baǵdarlaması - belgili bir shaxs ushın qolaylı hám sáykes bolǵan reabilitaciyalaw ilajlarınıń túrleri, formaları, kólemi, múddeti hám tártibiniń jıyındısı esaplanadı.Defektologiya - fizikalıq hám ruwxıy kemislikleri bolǵan shaxslar rawajlanıwınıń psixofizikalıq sıpatları, olardı tárbiyalaw, tárbiyalaw, oqıtıw nızamların úyreniwshi pánler sisteması. Defektologiya bir qatar arnawlı baǵdarlardı ózinde birlestiredi:

1. Oligofrenopedagogika - aqılı hálsiz shaxslardı rawajlandırıw tárbiyası;
2. Surdopedagogika - gereń-saqaw hám esitiw imkaniyatı kem shaxslar pedagogikası;
3. Logopediya – sóylew kemisliklerin dúzetiw;
4. Tiflopedagogika – kózi ázziler pedagogikasi;
5. Tiflosurdopedagogika – bir waqıttıń ózinde hám kózi ázzi, hám gereń-saqaw bolǵan shaxslardı tárbiyalaw, rawajlandırıw, adaptaciya hám reabilitaciyalaw bolıp esaplanadı.

Adaptiv dene tárbiyası - óziniń aldında bas maqset etip fizikalıq imkaniyatı sheklengen shaxslardı tek ǵana fizikalıq shınıǵıwlar hám fizioterapevtikalıq usıllar járdeminde emlew emes, al olardıń sociallasıwı esaplanǵan sociallıq fenomen esaplanadı. bir qansha jana túsiniklerden biri bolgan - adaptiv fizikalıq reakciya (tásir). Onıń mánisi sonnan ibarat, fizikalıq imkaniyatı sheklengen shaxslardıń hár qanday jumısı dawamında jumsaytuǵın fizikalıq kúshlerin jedellestiriw, qollap-quwatlaw hám qayta tiklew: miynet, bilim alıw, sport, sharshawdıń aldın alıw óziniń bos waqtın qızıqlı ótkeriw, densawlıqtı tiklew, ózine qarata talapshańlıq, "óz mútájliklerin qanaatlandırıw arqalı turmıslıq imkaniyatların arttırıw."Adaptiv fizikalıq reakciya (tásir) niń tiykarǵı ideyası sonnan ibarat, onda qatnasıp atırǵan shaxslarda shınıǵıw quralları, usılı hám formaların tolıq erkin tańlaw tiykarında ruwxıy qolaylıq hám qızıǵıwshılıqtı támiyinlewge qaratılǵan. Mayıplar sportı yamasa adaptiv sport óz aldına tómendegi maqsetlerdi qoyadı - fizikalıq imkaniyatları sheklengen insanlardıń joqarı dárejedegi sport sheberligi imkaniyatların qáliplestiriw hám olardıń áyne usı kórinistegi densawlıǵında kemshilikleri bar insanlar arasındaǵı hár qıylı jarıslarda eń joqarı nátiyjelerge erisiwine járdemlesiwOl ózinde úsh tiykarǵı bagdardı kórsetedi: para-olimpiada háreketleri, Arnawlı Olimpiada hám Pútkil jer júzilik gereń-soq oyınları ("Tınısh oyınlar").

Adaptiv sporttıń mazmunı sonnan ibarat, sport shınıǵıwları hám jarıslardıń ruwxıy tásiri mayıplar shaxsındaǵı fizikalıq, ruwxıy hám sociallıq ózgerislerdi kompensaciyalawda jeńillikler jaratadı; psixoemocional bekkemlikti, túskinlik (stress) jaǵdaylarında sociallıq áhmiyetin arttıradı. Sport shınıǵıwları dawamında joqarı dárejedegi fizikalıq háreketlerdi (júkleme) kóp qollanıw shaxs organizminde rezerv kúsh hám imkaniyatlardıń júzege keliwine, kommunikativlik belsendiliktiń artıwına tiykar jaratadı. ADT fizikalıq reabilitaciyadan sonıń menen parıqlanadı, ABShnıń mazmun-mánisinde hár qıylı sport oyınları hám rekreaciyalıq ilajlardıń bar ekenligi, imkaniyat dárejesinde sport shınıǵıwlarına kóplegen qatnasıwshılardıń - tek ǵana mayıplardı emes, al salamat insanlardı da tartıwdı maqset etip qoyadı. Sporttan ADTnıń parqı sonda, onda adaptaciyalıq-salamatlastırıwǵa baǵdarlanǵanlıǵı hám birinshi gezekte hár qıylı fizikalıq imkaniyatlarǵa ie bolǵan shaxslar arasında olardı birlestiretuǵın óz-ara túsinisiw, awızbirshilik, bir-birine ǵamxorlıq, óz-ara járdem hám doslıq qatnasıqların támiyinlewge qaratılǵan.

Juwmaq:

Adaptiv dene tárbiyası - mayıplar hám densawlıqtı saqlaw tarawındaǵı mayıplarǵa qatnas sociallıq siyasattı ámelge asırıw ushın mámlekettiń eń áhmietli institutın rawajlandırıw perspektivaların, sonday-aq, usı tarawdaǵı ilimiy izertlewlerdiń perspektivalı baǵdarların belgileydi.

Ádebiyatlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrdagi “Nogironligi bo`lgan shaxslarni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to`g’risida” PF-5270-son farmoni 3b

2. O`zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport to`g’risida”gi (yangi tahriri) qonuni. 8-17-b Abele, A., 'Physical Education and Education through Sport in Latvia', in: G. Klein & K. Hardman, Physical Education and Sport Education in the European Union, Paris, Editions Revue EP. S, (in press)2004. pp.86-91;

3. Arends, H., Sport Service Punt, unpublished Paper, November 2006.pp.54- 59; 4. Egger, K., 'Qualitat des Sportunterricht', Mobile, 20-04, 2001, pp. 1-7.

5. Аксенова, О.Е.Содержание организации адаптивной физической культуры в профессиональной подготовке студентов высшего учебного заведения: Учебнометодическое пособие / О.Е.Аксенова.- СПб.: Изд-во ГАФК им. П.Ф.Лесгафта, 2003.–с,14- 18

6. Шелков О.М. Коротков К.Г. Презентация российской спортивной науки. // Адаптивная физическая культура. №4 (44) 2010. с 55-56.

7. M.X.Mirjamolov “Adaptiv jismoniy tarbiya va sport” (o’quv qollanma), Chirchiq-2020.

8. http://www.edu.uz–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.

YOSH FUTBOLCHILARNI TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARINI MUSOBAQA SHAROITIDA BAHOLASH VA SAMARADORLIGINI ANIQLASH

Manas Bekmuratov
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali “Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar fanlar” kafedrasi stajyor o‘qituvchisi
Kuandikov Talǵat
1 kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada yosh futbolchilarning musobaqa faoliyati va texnik-taktik tayyorgarligi o‘rganilgan. 12-13 yoshli futbolchilarning musobaqa davomida bajargan texnik-taktik harakatlari, darvozaga berilgan zarbalari va ularning samaradorligi aniqlangan. Musobaqa sharoitida texnik-taktik harakatlarni o‘rganish yo‘llari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: yosh futbolchilar, musobaqa faoliyati, texnik harakatlar, to‘p uzatishlar, harakatlar samaradorligi.

Аннотация. В статье исследуется соревновательная деятельность и технико-тактическая подготовка юных футболистов. Определяются технико-тактические действия игроков 12-13 лет, выполняемые ими во время соревнований, удары по воротам и их результативность. Выявлены пути изучения технико-тактических действий в условиях соревнований.

Ключевые слова: юные игроки, соревновательная деятельность, технические действия, передачи, эффективность движений.

Annotation: In this article,there researched about the competition activity and technical - tactical preparation of young of players. Technicaltactical activities of 12-13 year old football players during the competition, shots towards the goal and their effectiveness were identified. There are enlightened how to study technical and tactical activities in a competition.

Key words: Young players, competition, technical activities, ball passing, action efficiency

Yurtimiz sportini yuqori marralarga olib chiqish, jahon hamjamiyatida munosib o‘rinni egallash, sportchilarimizni har tomonlama tayyorgarliklarini oshirishda mamlakatimiz prezidenti va hukumatimiz tomonidan ko‘plab qaror va farmonlar chiqarilmoqda. Ushbu qaror va farmonlarni ijrosini ta’minlash borasida Respublikamizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368–sonli farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-martdagi “Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3610–qarori mamlakatimiz jismoniy tarbiya va sport sohasi, jumladan yurtimiz futboli va soha mutaxassislari uchun ulkan imkoniyatlarni yaratib berdi. Ushbu qaror va farmonlarni ijrosi o‘laroq yurtimiz sporti, ayniqsa futbolida istiqbolli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Viloyatlar va shaxdrlardagi umumta’lim maktablarda jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirish, sportchilar tayyorlashning yangi samarali usullarini tadbiq etish hozirgi kunning dolzarb masalaga aylandi. Yosh sportchilar tizimini tayyorlashda va ularning jamiyatda muhim o‘rin tutishida bolalar maxsus sport maktablari, bolalar bilan sport ishlarini boshqaruvchi va bajaruvchi sport to‘garaklari katta ahamiyatga egadir.

Milliy terma jamoamizning natijalarini yaxshilash maqsadida chet ellik mutaxassislarni ham taklif qilinmoqda. U mutaxassis milliy terma jamoamizni natijalariga javobgardir biroq mamlakatimiz sportini, futbolimiz taraqqiyotini taqdiri albatta biz yoshlarga bog‘liqligicha qoladi. Amaliyotda yosh futbolchilarni tarbiyalashda yaxshi, tajribali murabbiy jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik, psixalogik tayyorgarlik, fiziologik tayyorgarlik va nazariy tayyorgarlik larni bir-biridan ajratmagan xolda olib boradi.

Yosh futbolchilarning texnik tayyorgarligi ular faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Texnik tayyorgarlikni yuqori saviyag olib chiqmasdan yosh futbolchilarni ushbu sport turiga moslashtirish mumkinmas albatta.

Tadqiqotning maqsadi: yosh futbolchilar musobaqa faoliyatini o‘rgangan holda ularning texnik-taktik harakatlari sonini va samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot obyekti va predmeti: yosh futbolchilarning musobaqa faoliyati va o‘tkaziladigan o‘yinlar.

Hozirgi zamon futbolida yosh futbolchilarni tayyorlash va ular mashg‘ulotlarini tashkil qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki bu sport zahiralarinitayyorlashdaengmuhim omilbo‘libhisoblanadi.

Yosh futbolchilarni tayyorlash, ular mashg‘ulotlarin to‘g‘ri rejalashtirish, ko‘p yillik istiqbolli rejalar asosida tayyorlash bugungi zamon futbolining asosiy talablaridandir.

Bolalar, o‘smirlar sporti buyicha olib borilgan tadqiqotishlari, shu jumladan, futbol bo‘yicha bir nechta ilmiy-uslubiy qo‘llanmalar, jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati,sport mashgulot (trenirovka) nazariyasi va uslubiyati o‘quv qo‘llanmalar va nizomlar tayyorlangan, ya’ni pedagogik vatibbiy-biologikyo‘nalishlarbuyichaishlar olib borilgan.

Ko‘plab olimlar texnik tayyorgarlik futbolda hozirgi zamon sport mashg‘ulotining eng muxim va dolzarb masaladir deb ta’kidlaganlar.

Futbolchilarda to‘pni olib yurish texnikasi qanchalik yuqori bulsa, shunchalik futbolchining jismoniy va ijodiy imkoniyatlari oshadi. Oqibatda futbolchilarning maxorati oshadiva u jamoaning yutuq qaerishish darajasini aniqlab beradi.

Lekin, xozirgi zamon futboli mutaxassislardan mahoratli futbolchilarning texnika-taktik imkoniyatlarini oshirishga asosiy e’tibor berishini talab qiladi.

Texnikani mikdori. Sportchi tomonidan o‘yin davomida bajargan umumiy harakatlar soni, M.A.Godikning kuzatnshlari shuni ko‘rsatdtki, yuqori malakali futbolchilarning umum-jamoaviy TTX optimal miqdorlari 600-800 taga to‘g‘ri kelgan. Lekin bu ko‘rsatkich qanday raqib bilan o‘ynayotganligiga qarab o‘zgarishi mumkin. Masalan kuchliroq jamoaga qarshi o‘ynalsa, bu ko‘rsatkich o‘zo‘zidan oshishi aniq. Chunki, asosan bunday vaziyatda o‘yin tizginini o‘z qo‘liga olinadi, katta tashabbusga erishish yo‘li bilan to‘p bilan muomila qilish vaqti ko‘payadi va o‘z-o‘zidan ITTX miqdoriy ko‘rsatkichlari o‘sishi tabiiy. Aksincha, o‘ziga nisbatan kuchli raqibga qarshi maydonga tushishganda aksari xollarda tashabbus boy beriladi, to‘p bilan muomila qilish vaqti kamayadi va ITTX mikdoriy ko‘rsatkichlari pasayib 400-500 ITTX tashkil qilish mumkin.

Musobaqa faoliyati vaqtida futbolchilarni TTX miqdori va samaradorligini baholash uchun telefon yoki diktafondan foydalangan xolda qo‘yidagi texnik harakatlar yozib olinadi:

to‘p uzatishlar (qisqa, o‘rta va uzoq masofaga);
to‘pni olib yurish;
to‘pga ilgari ega bo‘lish;
raqibni aldab o‘tish;
bosh bilan o‘ynash;
bosh bilan zarba berish;
oyek bilan zarba berish;
standart vaziyatlarni bajarish

So‘ngra olingan malumotlarni maxsus jadvalga xar bir futbolchiga tegishli bo‘lgan kataklarga tushurishadi.

Bu yerda shuni takidlash joizki, turli chiziq (himoya, yarim himoya, hujum) o‘yinchilariga optimal samaradorlik koeffitsiyenti turlicha bo‘ladi. Himoya chizig‘idagi o‘yinchilarni meyoriy koeffitsiyenti bu 0,85 % ni tashkil etish kerak.

Yarim himoyachilardan bu ko‘rsatkich 0,75 % dan 0,85 % gacha tashkil qlishi mumkin. Hujumchilarda esa 0,68 dan 0,75 gacha tashkil qilishi mumkin. Bu tafovutlarni qo‘yidagicha tariflash mumkun. Himoyachilar ko‘pgina TTX o‘z darvozalari yaqinida bajarishadi va raqiblar bu zonada nisbatan kamroq qarshilik ko‘rsatishadi aksincha hujumchilarni raqibning darvoza yaqinidagi harakatlari katta qarshilik bilan kutib olinishi va bemalol to‘p bilan hujumchilarga yo‘l qo‘yilmasligi bilan izohlanadi. Hujumchilarga to‘pni olib yurish, raqibni aldash, to‘p uzatish (ayniksa oldinga) harakatlari qiyinroq bo‘ladi.

Xulosa: Biz tadqiqotimizni Toshkent shahrida joylashgan “Magik football” jamoasida olib bordik. Kuzatishlar davomida 8 ta o‘yin nazorat qilindi. Nazorat qilishda yosh futbolchilar tomonidan bajariladigan turli texniktaktik harakatlar kuzatildi va natijalar qayd qilib borildi.

Yosh futbolchilar tomonidan bajarilgan TTX larni natijalari ko‘rsatib o‘tilgan. Natijalarni tahlil qilib o‘tiladigan bo‘lsa, quyidagilarni aytib o‘tish mumkun. Futbolchilar o‘rtacha o‘yin davomida 483 ta texnik-taktik harakatni amalga oshirishdi. Bu texnik-taktik harakatlarni 295 tasi samarali yakun topdi va 188 ta texnik-taktik harakat samarasiz yakun bo‘ldi. Umumiy samaradorlik koeffitsiyenti 0.61% ni tashkil qilgan.

Adabiyotlar:

1. A.I.Talipjanov “Futbol texnikasi” Toshkent 2010y.
2. I.A. Koshbaxtiev “Yosh futbolchilarni tayyorlashda texnik va taktik jarayonlarning ro’li va axamiyati” Toshkent 2015y.
3. R.A.Akramov “Zamonaviy futbol asoslari” Toshkent 2012 y.
4. Javlonbek Abduqaxor o‘g‘li Zulxaydarov. Futbolchilarni tayyorlash jarayonidagi musobaqalar faoliyati ko‘rsatkichlarini taxlil qilishning axamiyati 2022. 764-770.

MAXSUS MASHQLAR ASOSIDA MALAKALI MINI-FUTBOL JAMOALARINI TAKTIK TAYYORLASH.

Manas Bekmuratov

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali “Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar fanlar” kafedrasi stajyor o‘qituvchisi

Kuandikov Talǵat

1 kurs talabasi

Annotatsiya: Maxsus mashqlar asosida malakali mini-futbol jamoalarini taktik tayyorlash: muammoning holati va uni hal qilish istiqbollari. Zamonaviy mini-futboldagi raqobatbardosh faoliyat uchun o‘yin tezligini oshirish tendentsiyalari xarakterlidir, bu har bir futbolchining harakatlarida passiv fazalarni minimal darajaga tushirishda namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: texnik va taktik tayyorgarlik, mini-futbol, maxsus mashqlar.

Аннотация: Тактическая подготовка квалифицированных команд по мини-футболу на основе специальных упражнений: состояние проблемы и перспективы ее решения. Для современной конкурентной деятельности в мини-футболе характерны тенденции к повышению скорости игры, что проявляется в сведении к минимуму пассивных фаз в действиях каждого футболиста.

Ключевые слова: технико-тактическая подготовка, мини-футбол, специальные упражнения.

Annotation: Tactical training of qualified mini-football teams based on special exercises: the state of the problem and prospects for its solution. For competitive activity in modern mini-football, trends in increasing the speed of play are characteristic, manifested in the minimization of passive phases in the actions of each player.

Key words: technical and tactical training, mini-futbol, special exercises.

Zamonaviy mini-futboldagi raqobatbardosh faoliyat uchun o‘yin tezligini oshirish tendentsiyalari xarakterlidir, bu har bir futbolchining harakatlarida passiv fazalarni minimal darajaga tushirishda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, hujum va himoyada guruh va jamoaviy taktik harakatlarning murakkabligi oshadi, raqib darvozalariga zarbalar soni ko‘payadi. O‘yin vaziyatlarining xilma-xilligi va dinamikasi, taktik qarorlarni qabul qilish uchun ma’lumotlarning etishmasligi, o‘yin harakatlarini bajarish sharoitlarining fazoviy-vaqt cheklovlari ularni idrok etish va tan olishda, guruh va jamoaviy taktik muammolarni hal qilishda individual harakatlarni muvofiqlashtirishda qiyinchiliklar tug‘diradi.

Ushbu tendentsiyalar mini-futbolning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, har kuni sportchilarning texnik va taktik tayyorgarligiga tobora yuqori talablarni qo‘yadi.

Mini-futbolda raqobatbardosh faoliyat sharoitlarining ekstremalligi, shuningdek, texnik-taktik harakatlarni idrok etish, qaror qabul qilish va amalga oshirish qiyinligi bilan belgilanadi, chunki ularning xilma-xilligi, vaziyatlarning doimiy o‘zgarishi, qoidalar, ma’lumotlarning murakkabligi va etishmasligi bilan belgilanadigan fazoviy va vaqtinchalik cheklovlar. Shu bilan birga, raqobat sharoitlarining ekstremalligi raqib tomonidan ataylab kuchaytiriladi. Bularning barchasi turli xil o‘yin vaziyatlarini baholashni ham, ularning yakuniy sport natijalariga ta’sirini ham qiyinlashtiradi.Bunday sharoitda texnik va taktik usullarni bajarish sifatiga, o‘yin harakatlarining uyg‘unligiga, o‘yinchilarning bir-birini tushunish va yagona taktik muammoni hal qilishda kuchlarini birlashtirish qobiliyatiga talablar sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga, mutaxassislar va murabbiylar tomonidan texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirish muammosini hal qilish mini-futbolda sport tayyorgarligining ushbu yo‘nalishini ilmiy-uslubiy qo‘llab-quvvatlashning etarli emasligi bilan to‘sqinlik qilmoqda.

Mini-futbol sport turi sifatida respublikamizda nisbatan yaqinda paydo bo‘ldi, shuning uchun ushbu turdagi raqobatbardosh faoliyatda sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi masalalari oz sonli mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar mavzusi bo‘ldi.

Texnik va taktik tayyorgarlikda o‘yin mashqlarini samarali qo‘llashning tashkiliy va uslubiy asoslari ilmiy va uslubiy adabiyotlarda faqat futbolga nisbatan ko‘rib chiqilgan. Mini-futbolda bunday ishlar topilmadi. Ma’lumki, sport o‘yinlarida malakali sportchilarni texnik va taktik jihatdan takomillashtirishning asosiy usuli bu mashqlarni bajarish uchun yaxlit o‘yin usulidan foydalanish bo‘lib, bu davomida faoliyat davomida ko‘plab o‘yin harakatlarini sifatli o‘zlashtirish uchun sharoit yaratadi raqobat sharoitlariga imkon qadar yaqin bo‘lgan turli xil o‘zgaruvchan o‘yin vaziyatlari. Sport o‘yinlarida texnik va taktik mahoratni takomillashtirish qarama-qarshilik omilining mavjudligi bilan chambarchas bog‘liq. Sport o‘yinlarida, shu jumladan mini-futbolda ham o‘yinchi jamoadagi sheriklar bilan eng yaqin hamkorlikda va raqibning faol qarshiligi bilan yuqori raqobatbardosh natijaga erishadi.

O‘yin mashqlarini bajarish jarayonida o‘yinchilarning texnik va taktik mahoratining shakllanishi yaxlitlik bilan tavsiflanadi, sheriklarning o‘zaro ta’siri va raqibning qarshiligi bilan belgilanadigan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan makon-vaqt uzluksizligida, shuningdek, o‘yin funktsiyasi va o‘yinchilarning rolini ta’kidlab, o‘yin qarama-qarshiligi shartlari bilan amalga oshiriladi.

Umuman olganda, tadqiqot muammosi va pedagogik amaliyotning holati bo‘yicha davlat me’yoriy hujjatlari, ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish qarama-qarshiliklar mavjudligini ko‘rsatadi:

- ijtimoiy darajada-sportchilarning xalqaro sport maydonida minifutbolda yuqori raqobatbardosh natijalarga erishish zarurati va bu muammoni hal qilish uchun ularning texnik va taktik tayyorgarligi darajasi etarli emasligi o‘rtasida;

- amaliy darajada-mini-futbol bo‘yicha malakali sport jamoalarining texnik va taktik tayyorgarligi darajasini oshirish zarurati va pedagogik amaliyotda an’anaviy ravishda qo‘llaniladigan texnik va taktik harakatlarni takomillashtirish vositalari va usullarining nisbatan yaroqsizligi o‘rtasida;

- ilmiy va uslubiy darajada-mini-futbol bo‘yicha malakali sport jamoalarining texnik va taktik harakatlarini takomillashtirish uchun maxsus mashqlarning yuqori didaktik salohiyati va ularni o‘quv jarayonida qo‘llashning nazariy va uslubiy asoslarining etarli darajada ilmiy ishlab chiqilmaganligi o‘rtasida.

Ushbu qarama-qarshiliklarning mazmunini hisobga olgan holda, biz tadqiqot muammosini shakllantirdik, uning mohiyati quyidagicha: maxsus mashqlarni qo‘llash asosida mini-futbol bo‘yicha malakali jamoalarni texnik va taktik tayyorlash jarayonining samaradorligini oshirishning nazariy va tashkiliy-uslubiy asoslari qanday.

Ushbu muammoning mazmuniga muvofiq, uni hal qilishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bu guruh va jamoaviy taktik harakatlarning samaradorligi va samaradorligini oshirishni ta’minlaydigan o‘yin mashqlaridan foydalanish asosida mini-futbol bo‘yicha malakali jamoalarni texnik va taktik tayyorlashning innovatsion metodologiyasini ishlab chiqish va ilmiy asoslashdir.

Buning uchun zamonaviy ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish va mini-futbolda texnik-taktik tayyorgarlik sohasidagi ilg‘or pedagogik tajriba asosida quyidagilar zarur:

-zamonaviy mini-futbolda individual, guruh va jamoaviy taktik harakatlarni aniqlash va tizimlashtirish;

- ushbu taktik harakatlar tomonidan futbolchilarning taktik qobiliyatlari va bilimlari, ko‘nikmalari va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablarni aniqlash;

- futbolchilarning taktik qobiliyatlari, bilimlari, ko‘nikmalari va ko‘nikmalarini o‘lchash va baholash uchun diagnostika vositalarini ishlab chiqish;

-mini-futbolchilarning taktik tayyorgarligi oshgani sayin murakkablashib borayotgan taktik harakatlarni amalga oshirish uchun sharoitlarni modellashtiradigan maxsus mashqlar majmualarini ishlab chiqish va ularni mini-futbol bo‘yicha malakali jamoalarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonida samarali qo‘llashning tashkiliy va uslubiy xususiyatlarini aniqlash.

Bu mini-futbolda sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodologiyasini mini-futbol bo‘yicha malakali jamoalar futbolchilarining taktik qobiliyatlari, bilimlari, ko‘nikmalari va ko‘nikmalarining model xususiyatlari, futbolchilarning taktik qobiliyatlari, taktik bilimlari, ko‘nikmalari va ko‘nikmalarini o‘lchash va baholash usullari to‘g‘risida yangi bilimlar bilan boyitadi. jarayon samaradorligini oshirishning nazariy va tashkiliy-uslubiy asoslari maxsus mashqlardan foydalanish asosida mini-futbol bo‘yicha malakali jamoalarni texnik-taktik tayyorlash.

Murabbiylarning ushbu bilimlarga yo‘naltirilganligi futbolchilarning texnik va taktik tayyorgarligi darajasini oshiradi, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, vaziyat usuli asosida o‘quv jarayonining mazmuniga maxsus mashqlarni kiritish orqali individual, guruh va jamoaviy taktik harakatlar sifatini yaxshilaydi va shu bilan malakali mini-futbol jamoalarining raqobatbardosh faoliyati samaradorligi va samaradorligi ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi.

Xulosa. Mini-futbol sport turi sifatida respublikamizda nisbatan yaqinda paydo bo‘ldi, shuning uchun ushbu turdagi raqobatbardosh faoliyatda sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi masalalari oz sonli mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar mavzusi bo‘ldi.

Bu mini-futbolda sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodologiyasini mini-futbol bo‘yicha malakali jamoalar futbolchilarining taktik qobiliyatlari, bilimlari, ko‘nikmalari va ko‘nikmalarining model xususiyatlari, futbolchilarning taktik qobiliyatlari, taktik bilimlari, ko‘nikmalari va ko‘nikmalarini o‘lchash va baholash usullari to‘g‘risida yangi bilimlar bilan boyitadi.

Adabiyotlar:

1. A.I.Talipjanov “Futbol texnikasi” Toshkent 2010y.
2. I.A. Koshbaxtiev “Yosh futbolchilarni tayyorlashda texnik va taktik jarayonlarning ro’li va axamiyati” Toshkent 2015y.
3. R.A.Akramov “Zamonaviy futbol asoslari” Toshkent 2012 y.
4. Javlonbek Abduqaxor o‘g‘li Zulxaydarov. Futbolchilarni tayyorlash jarayonidagi musobaqalar faoliyati ko‘rsatkichlarini taxlil qilishning axamiyati 2022. 764-770.

SOG‘LOM TURMUSH TARZINING TARIXIY VA ILMIY MANBALARDAGI TALQINI

R.T.Atajanov
O‘zDJTSU Nukus filiali assistenti
O.Sarsenbayev Sh.Genjebekova, N.Xojabaev
O‘zDJTSU Nukus filiali talabalari

Kalit so‘lar: har bir sport turlari bo‘yicha trener-o‘qituvchisi va jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining bilimi, saviyasi va pedagogik mahoratini rivojlantiradi.

Ключевые слова: развивает знания, уровень и педагогическое мастерство тренера-преподавателя и преподавателя физической культуры по каждому виду спорта.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportning ommalashtirish, aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, mamlakatimizni xalqaro sport maydonlarida dunyoga tanitish, jismoniy tarbiya va sport inshootlarini barpo qilish, mavjudlarini ta’mirlash bugungi kunda davlatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning hamda Vazirlar Mahkamasining jismoniy tarbiya va sportning rivojlantirish to‘g‘risidagi qaror va farmonlarda ham sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va tag‘ib qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Manbalarda ta’kidlanganidek sog‘lom turmush tarzi-inson umrini qisqartirishga olib keluvchi kasallik va boshqa sabablarning oldini olishga qaratilgan harakatlardan va inson umrini uzaytirishga qaratilgan hayot tarzidir. Boshqacha aytganda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bevosita sog‘lom avlodni tarbiyalash bilan bevosita bog‘liq. Sog‘lom avlodni tarbiyalash masalasi tarxiy, ilmiy va adabiy manbalarda o‘z aksini topgan.

Jumladan zardushtiylikning muqaddas kitobi bo‘lgan “Avesto”da yer, havo, olov, suv muqaddas hisoblangan. Bu kitobda shaxsni ma’naviy va jismoniy tarbiyalshning negizi bo‘lgan ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal g‘oyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ezgu so‘z – asosida xushmuomilalik, ahdni buzmaslik, tijorat ishlarida o‘zaro kelishuvga rioya qilish, halollik, to‘g‘rilik, kek saqlamaslik kabi mezonlar mavjud.

Ezgu fikr – ezgu so‘z hayotda insonlar bilan insonlarning tabiatiga, qabilasiga, yerga bo‘lgan munosabatlarda ko‘zga tashlanadi. Davlatning barqarorligi, el-yurtning farovonligi podshohning adolatparvarligiga, haqiqatgo‘yligiga va ma’rifatparvarligiga bog‘liq. Bu kitobda sog‘lom turmush tarsi, sanitariya va shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish bilan bog‘liq jihatlar o‘z ifodasini topgan. Shuningdek zardushtiylikda suv saqlanadigan idishlar, ariq va ko‘llarga turli xil chiqindilarni va nopok narsalarni tashlamaslik alohida ta’kidlangan. Kitobda bola tarbiyasiga, ayol kishini salomatligini asrash,

xotinqizlarni huquqiy manfaatlarini himoya qilish, xomilador ayollarga e’tibor qaratish masalalari o‘z ifodasini topgan.

Insonning ma’naviy va jismoniy kamoloti haqida islom dining muqadd as kitobi “Qur’oni Karim” va hadisi shariflarda e’tiborga molik fikrlar bildirilgan. Jumladan hadislarda turli kasalliklarni kelib chiqish sabablari ularning davolash yo‘llari, oldini olish chora tadbirlari bayon etilgan. Shu bilan birga sog‘lom turmush tarziga zid bo‘lgan ichkilikbozlik, zino, palapartish turmush kechirishga qarshi kurashish, shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish, sog‘lom farzandlarni dunyoga keltirish va tarbiyash, to‘g‘ri ovqatlanish kabi hadislar hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Hadislarda shaxsiy gigiena talablaridan biri organizmni toza ozoda saqlash, tahoratli yurish kabi masalar ham bayon qilingan. Tozalik, ozodalik tibbiy nuqtaiy nazardan ham, diniy nuqtaiy nazardan ham, shaxsni shakllantirishga xizmat qiladigan xususiyat hisoblanadi.

Muhammad payg‘ambarimiz, Imom Ismoil al-Buxoriy, At-Termiziy va boshqa uhaddislarning hadislarida xalqni ma’naviy poklikka, iymon e’tiqodga davat etilgan.

Kaykovusning “Qobusnoma” asarida inson salomatligining asosiy sabablaridan biri ovqatlanish madaniyatiga rioya etishdir. Nafsni tiyish, o‘z vaqtida ovqatlanish, bu jarayonda erkin, ochiq chehra bilan, taomga, nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish salomatlik garovi ekanligi alohida ta’kidlangan.

Abu Rayhon Beruniyning fikricha, bola sog‘lom tug‘lishi uchun onani e’zozlash, unga g‘amxo‘rlik, og‘ir mehnatdan asrash, yaxshi ovqatlantirish lozim, degan.

Sharq tabobati ilmiga munosib hissa qo‘shgan Abu Bakr Ar-Roziyning asarlarida o‘z faoliyati davomida yeti yuzdan ortiq kasalliklarni kelib chiqish sabablarni davolash va oldini olish yo‘llarini aniqlagan.

Abu Ali Ibn Sino asarlarida jismoniy mashqlar, me’yoriy uyqu, toza havo badanning pokizaligi ko‘plab xastaliklarni oldini olishda muhim vosita ekanligi aytilgan. Ibn Sino bolalarni chiniqtirish haqida to‘xtalib uni yoshlik chog‘idan boshlash kerakligi bola uxlab yotgan xonaning o‘rtacha haroratini, tozalikni saqlash, pokizalikka rioya qilish xonani shamollatib turish lozimligiga e’tiborni qaratgan.

Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadug‘u bilik” asarida sog‘lom turmush tarzi masalalariga atroflicha to‘xtalgan. Jumladan asarda inson qachonki sog‘ salomat bo‘lsa, unga davlat ham, baxt-saodat ham, hayot ham go‘zal bo‘lishini, aksincha bo‘lsa yashashdan maqsad qolmasligi, shuning uchun salomatlikni ko‘z qorachig‘idek asrash, hayotdan zavqlanib yashash lozimligiga davat etiladi.

Sohibqiron Amir Temur bobomiz “Temur tuzuklarida” uzoq mamlakatlarga yurishlar qilganda, davlat ishi boshqaruvida, do‘st tanlashda asilzoda, amirzoda nasl nasabi pok bo‘lgan yigitlarni tanlab olgan, ularga ishongan va tayangan. Sohibqironning fikricha “… asli toza kishi xatoliklarga yo‘l qo‘ymaydi, badasil esa vafo qilmaydi” U davlatning boshqarishda asosiy taynach hisoblangan vazirlarni tanlashda 4 ta sifatga e’tibor bergan: (1-asillik, toza nasllik; 2-aql – farosatlilik; 3-spohu raiyat ahvolidan xabardorik, ularga nisbatan xushmuomilada bo‘lishlik; 4 -sabr-chidamlilik va tinchleksevarlik)

Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Asosiy maqsad esa sog‘lom turmush tarzi bayon etilgan tarixiy, ilmiy va adabiy manbalardagi ushbu g‘oyalardan dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda foydalanish har bir sport turlari bo‘yicha trener-o‘qituvchisi va jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining bilimi, saviyasi va pedagogik mahoratiga bog‘liq.

Adabiyotlar:

1. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. 1 tom. Darslik. Ita-press. T.-2014.
2. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. Darslik. T.,- 2005.
3. Pulatov A.A., Isrilov Sh.Sh., Savatyugin O.M. Badminton nazariyasi va uslubiyati. / 2018 yil.
4. Savatyugin O.M., G‘aniyeva M.Yu., Suleymanova S.F. // Sport pedagogic mahoratini oshirish (Badminton) / 2017 yil
Emlew ilajları kerek bolǵan jaǵdayda ol shıpaker tárepinen ornatıladı. 2-3 háptede keyin yarım júkli, azayǵan shınıǵıwlarǵa ótiwge ruxsat etiledi. Bul ushın shaǵımlardıń joq bolıwı hám artıqsha shınıǵıwdıń belgileri bolmasa. Bunday shınıǵıw rejimi 1 ay yaki onnan kóp waqıt dawam etiwi múmkin. Artıqsha shuǵıllanıw hám artıqsha jumıs bolǵanda 3-4 hápteli belsendi dem alıs qollanıladı. Eger ulıwma jaǵday hám uyqı jaqsılansa, obъektiv patologiyalıq shaǵımlar azayadı yaki joǵaladı. Bul shaǵımlar nerv sisteması jumısı menen hám basqa dene sistemaları menen baylanıslı bolıwı múmkin, normal salmaq qaytadı hám dvigatelli rejim keńeyedi. Eger 2-4 háptede sportshınıń jaǵdayı jaqsılansa hám shuǵıllanıw qálewi payda bolsa, azǵana júkli shınıǵıwdı qosıw múmkin. Keyin ol 1,5-2 hápte dawamında áste-aqırınlıq penen optimal dárejege jetkerilip, kóbeytip barıladı.

Artıqsha shınıǵıwdıń hám artıqsha sharshawdıń aldın alıw tómendegilerge alıp keledi:

tolıqbahalı metodikaǵa hám shınıǵıwdı hám jarıslardı rejelestiriwge;

oqıw-shınıǵıw jıyınlarında usı talapqa ámel etiwge;

kún tártibine tolıq ámel qılıw, ásirese jaqsı sharayatlarda túngi uyqınıń qalǵan saatlarına itibar beriwge;

tolıqbahalı, bay vitaminli awqatlanıwǵa;«jeńil» kesellikler (tımaw, angina) menen awırǵanda waqtında, keyingi múddetlerde shınıǵıwdı toqtatıwǵa;

intensiv shınıǵıwshı sportshılardı dıqqat penen medicinalıq baqlawǵa.

Hádden tıs jumıs hám artıqsha shınıǵıwlar energiya jetispewshiligi deneniń resursları barǵan sayın kúsheyip baratırǵanı fonında miy qabıǵı, nerv sistemasınıń tiykarǵı bólimleri, tayanısh-háreket sisteması hám ishki organlardıń xızmetinde úyrenilgen joqarı uyǵınlıqtıń buzılıwına tiykarlanadı.

ÁDEBIYATLAR.

1. Kim Yu.S., Yugay L.P. Основая дзюдо. T.2005.
2. Ilov.A.N., Arslonov Sh.A. Dzyudo nazariyasi va uslubiyati. T. 2011.
3. Annabelle Tometich. Judo. ABDO. USA 2013
4. Tastanov N.A. – "Xalqaro kurash turlari nazariyasi va uslubiyati" Darslik. T. 2015.
5. Arslanov Sh.A., Tangriev A.J. – "Sport pedagogik maxoratini oshirish (dzyudo bo'yicha)" Darslik . T., 2017 qo'llanma. T., 2018.

YAKKAKURASH SPORT TURLARIDA MURABBIYLARI KASBIY KOMPETENTLIGINING AHAMIYATI.

Voxid Karayev Shirinbekovich,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
"Jismoniy madaniyat nazariyasi" kafedrasi
dotsenti v.b., p.f.b.f.d (PhD)

Yakkakurash sport turlarida murabbiylarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish, sportchilarni tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ta'lim, amaliy mashg'ulotlar, psixologik tayyorgarlik va innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali murabbiylar o'z bilim va ko'nikmalarini oshirishi mumkin. Bu esa o'z navbatida, sportchilarni yuqori natijalarga erishishlariga va yakkakurash sportining rivojlanishiga xizmat qiladi. Yakkakurash sport turlarini o'qitishda va tayyorlashda turli metodlar qo'llaniladi. Bu metodlar sportchilarning texnik ko'nikmalarini, jismoniy tayyorgarligini va psixologik holatini rivojlantirishga qaratilgan. Yakkakurash sport turlarida qo'llaniladigan metodlar sportchilarni tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga ega. Har bir metod o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, sportchilarning jismoniy tayyorgarligi, texnik ko'nikmalari va psixologik holatini rivojlantirishga yordam beradi. Murabbiylar metodlarni to'g'ri tanlab, sportchilarni yuqori natijalarga erishishga tayyorlashlari kerak. Sport murabbiylarining kasbiy kompetentligi sportchilarni tarbiyalash va ularning muvaffaqiyatini ta'minlashda juda muhimdir.

Murabbiylar o'z bilim va ko'nikmalarini sportchilarni o'qitish, ularning jismoniy va ruhiy holatini yaxshilash, strategiyalarni ishlab chiqish va jamoa ruhini oshirishda qo'llaydilar. Ularning kasbiy kompetentligi sportchilarni motivatsiya qilish, ularning maqsadlariga erishishlariga yordam berish va sport faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishlariga ko'maklashish uchun zarurdir. Shuningdek, murabbiylarning kasbiy kompetentligi sportning xavfsizligini ta'minlash va sportchilarni jarohatlardan himoya qilishda ham muhim rol o'ynaydi.

Sport murabbiylarining kasbiy kompetentligi juda muhim ahamiyatga ega. Bu mavzuni quyidagi asosiy jihatlari orqali ko'rib chiqishimiz mumkin:

1. Sportchilarning rivojlanishi:

- Yuqori malakali murabbiy o'z shogirdlarining jismoniy va texnik mahoratini to'g'ri rivojlantira oladi.
- Sportchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularga moslashtirilgan mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqadi.

2. Jarohatlarning oldini olish:

- Kompetentli murabbiy xavfsizlik choralarini to'g'ri qo'llaydi va sportchilarni ortiqcha zo'riqishdan himoya qiladi.
- To'g'ri texnika va mashg'ulot usullarini o'rgatish orqali jarohatlanish xavfini kamaytiradi.

3. Psixologik tayyorgarlik:

- Malakali murabbiy sportchilarning ruhiy holatini boshqarishga yordam beradi.

- Musobaqalarga psixologik jihatdan tayyorlash va motivatsiya berish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

4. Zamonaviy usullardan foydalanish:

- Kasbiy kompetentlikka ega murabbiy sport sohasidagi eng so'nggi ilmiy-tadqiqot natijalarini va innovatsion usullarni qo'llaydi.

- Texnologiyalardan samarali foydalanish orqali mashg'ulot jarayonini takomillashtiradi.

5. Axloqiy tarbiya:

- Professional murabbiy sportchilarga nafaqat sport mahoratini, balki axloqiy qadriyatlarni ham singdiradi.

- Fair play (halol o'yin) tamoyillariga rioya qilishni o'rgatadi.

6. Natijalarni yaxshilash:

- Yuqori malakali murabbiy sportchilarning natijalarini muntazam ravishda yaxshilashga erishadi.

- Musobaqalarga samarali tayyorgarlik ko'rish strategiyalarini ishlab chiqadi.

7. Jamoani boshqarish:

- Kompetentli murabbiy jamoa a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri yo'naltira oladi.

- Turli xil shaxsiyatlarni bir maqsad sari birlashtirish qobiliyatiga ega bo'ladi.

8. Uzluksiz ta'lim:

- Kasbiy kompetentlikka ega murabbiy o'z bilimlarini doimiy ravishda yangilab boradi.

- Malaka oshirish kurslarida qatnashadi va yangi ma'lumotlarni o'rganishga intiladi.

Xulosa qilib aytganda, sport murabbiylarining kasbiy kompetentligi sportchilarning muvaffaqiyatli rivojlanishi, xavfsizligi va yuqori natijalarga erishishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu nafaqat sport sohasidagi muvaffaqiyatni, balki sportchilarning umumiy rivojlanishini ham ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гохберг Л.М., Забатурина И.Ю., Ковалева Г.Г и др.; Образование в сифрах: 2016: краткий статистический сборник / Натс. исслед. ун-т «Высшая школа экономики” - М.: НИУ ВСХ.Е, 2016.

2. Караев В.Ш. yakkakurash sport turlari murabbiylarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish yo‘llari. НамДУ илмий ахборотномаси, 2020, №10.

ТАЛАБАЛАРНИНГ ТАШКИЛОТЧИЛИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РЕФЛЕКСИВ ТЕХНОЛОГИЯЛАР

Одилов Отабек Норбоевич

“Жисмоний маданият методикаси” кафедраси ўқитувчи

Чирчиқ давлат педагогика университети

АННОТАЦИЯ:Педагогик рефлексия бўлажак ўқитувчиларни мутахассис сифатида такомиллаштириш манбаидир. Ушбу мақолада бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларида ташкилотчилик компетенциясини ривожлантиришда рефлексив-педагогик технологияларнинг роли ёритилган.

Таянч иборалар: педагогик рефлексия, ташкилотчилик компетенцияси, мутахассис, конструктив кўникмалар, педагогик технологиялар, когнитив тасаввурлар.

АННОТАЦИЯ

Педагогическая рефлексия является источником совершенствования будущих учителей как специалистов. В данной статье описывается роль рефлексивно-педагогических методов в развитии организаторской компетентности будущих учителей физической культуры.

Ключевые слова: педагогическая рефлексия, организаторская компетентность, специалист, конструктивные умения, педагогические технологии, познавательное воображение.

ANNOTATION

Pedagogical reflection is a source of improvement of future teachers as specialists. This article describes the role of reflexive-pedagogical methods in the development of organizational competence of future teachers of physical culture.

Key words: pedagogical reflection, organizational competence, specialist, constructive skills, pedagogical technologies, cognitive imagination.

Мамлакатимизда таълим-тарбия самарадорлигини ривожланган хорижий давлатлар қаторида замон талаблари даражасида мунтазам ошириб бориш, юксак маънавиятли ва билимли, етук, баркамол, жисмонан соғлом шахсни таълим-тарбия асосида вояга етказиш учун юксак педагогик маҳоратга эга бўлган ўқитувчиларни тайёрлаш, уларнинг интеллектуал, касбий, маънавий-ахлоқий сифатларини уйғунликда ривожлантиришни амалга ошириш учун қизғин ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Дарсликлар таъминоти, таълим жараёнида ахборот коммуникацион ва илғор педагогик технологияларнинг қўлланилиши, таълим-тарбия ишларининг муваффақияти ўқитувчининг касбий салоҳиятига, унинг педагогик маҳоратига боғлиқ бўлиб ривожланмоқда.

Илмий тадқиқотимизга оид тушунчалар, компетенция, компетентлик, ташкилотчилик компетенцияси тушунчаларини таҳлил килиб, биз педагогик жисмоний спорт ўйинлари таҳлили бўйича билим олиш истагини акс эттирадиган, қабул қилинган қарорлар учун жавобгарлик ва конструктив кўникмалардан фойдалана олишни ифодалайдиган рефлексив-педагогик усулларга тўхталиб ўтамиз. Ташкилотчилик компетенциясини ивожлантиришга қаратилган рефлексив усуллар деганда, педагогик муносабат субъектларининг ҳаракатларини таҳлил қилиш, ўзини ўзи баҳолаш, ривожлантириш ва педагогик спорт жараёнларни ҳал қилиш учун ўзини-ўзи такомиллаштиришга қаратилган усулларни тушунамиз. Рефлексив усуллар педагогик рефлексиянинг мазмунида англашилади, бу эса рефлексия ва педагогик рефлексия тушунчаларининг семантик моҳиятини кўриб чиқишни талаб этади.

Рефлексия (лотинча “reflexio” - ортга қайтиш, акс этиш): кишининг ўз ҳатти-ҳаракатлари, уларнинг асосларини тушуниб етиши, фаҳмлашига қаратилган назарий фаолияти; билишга доир алоҳида фаолият; шахсий кечинмалари, ҳис-туйғулари ва ўй-хаёллари моҳиятини фикрлаш орқали англаш [1].

Ш.С. Шодмонованинг “Олий ўқув юртлари талабаларида мустақиллик тафаккурини шакллантириш ва ривожлантириш” (касб таълими йўналиши мисолида) номли педагогика фанлари бўйича докторлик диссертациясида, Ш.Курбонов, Э.Сейтхалилов, М.Дуронов, Р.Ахдидинов ва И.Мажидовлар томонидан рефлексиянинг қуйидаги хусусиятлари келтириб ўтилади:

- рефлексия самарали фикрлашнинг муҳим механизми;
- юз бераётган ҳодисани тушуниш жараёнларини алоҳида ташкил этиш (вазият ва ҳаракатларни баҳолаш, вазифаларни ҳал қилиш усуллари ва операцияларини топишни ўз ичига олади);
- вазифаларни ҳал қилишга жалб этилган индивид ҳамда бошқаларнинг ўзини ўзи таҳлил қилиши, ўз ҳолати ҳамда ҳаракатларини фаол ўйлаб кўришидан иборат жараён [2].

Шу сабабли рефлексия (орқага қайтиш) ичдан (бир индивиднинг кечинмалари ва ўзига ўзи ҳисоб бериши) ҳам, ташқаридан (жамоа бўлиб фикрлаш фаолияти ва биргаликда ечим излаш сифатида) ҳам бўлиши мумкин. Психологияда рефлексия “субъект томонидан ўзининг ички психик жараёни ва ҳолатларини билиш, назорат қилиш” мазмунида талқин қилинади [3]. Рефлексия - шунчаки субъектнинг ўзини ўзи билиши ёки тушуниши эмас, балки бошқалар томонидан “рефлексияланувчини” [3] қандай билиши ва унинг шахсий хусусиятларини, эмоционал реакцияларини ва когнитив тасаввурларини ҳам тушунишини ўз ичига олади. Г.М. Коджаспирова педагогик рефлексияни инсоннинг ўзини ўзианглаши деб, бунда “нафақат ўқитувчи ўз ҳатти-ҳаракатларига тўғри баҳо бериши, балки, талаба билан педагогик мулоқот чоғида ўзаро ҳамкорлик қиладиган талабалар жамоаси, педагогик жамоа, таълим-тарбияга масъул шахслар ва ота-оналар уни қандай қабул қилишини тушуна олиш қобилияти ҳамдир” деб таърифлайди [4]. Демак, педагогик рефлексия -ўқувчининг ўзини ўзи англаши, ўзининг камчилиги ва заиф томонларини билиб такомиллаштиришга интилиши, тарбияланувчилар ҳамда ўзини ўзи такомиллаштиришга заруршарт-шароитлар яратиш учун мавжуд ички имкониятларини кашф этишидир. Педагогик рефлексия нафақат инсоннинг ўз-ўзини англаши, ўз ҳатти-ҳаракатларига тўғри баҳо бериши, балки ўқитувчи билан педагогик мулоқот чоғида ўзаро ҳамкорлик қиладиган ўқувчилар жамоаси, педагогик жамоа,таълим-тарбияга масъул шахслар ва ота-оналар уни қандай қабул қилишини тушуна олиш қобилияти ҳамдир. Ташкилотчилик компетенциясини ривожлантиришда мотивацион қадриятли компонент аввало йўналганлик , жисмоний дарсларнинг шакланганлиги каби шахс сифатларининг ривожланганлигини ўзида ифодалайди.Ушбу сифатлар бўлажак ўқитувчининг мақсад ва вазифаларининг бирлиги замирида

тизимли равишда маҳоратли ўқитувчи бўлишига асосланиши ва педагогик ҳамкорликда дарс вазиятларини конструктив равишда ҳал этишга интилиши билан изоҳланади.

Ташкилотчилик компетенциясинининг навбатдаги таркибий қисми эмоционал-иродавий компонент бўлиб, ўзида шахснинг эмоционал барқарорлик ва иродавий сифатларини ифодалаб, ушбу компонент бўлажак ўқитувчининг аниқ эмоционал ҳолатларни(ўйинда ютиши ёки ютқазиши) бошқара олиши билан изоҳланади. Эмоционал-иродавий компонент ўзини бошқариш, тартибга солиш, назорат қилишни акс эттирувчи педагогик тажриба жараёнида қатъийлик, ирода, қўшимча ҳаракатларнинг намоён бўлишидир. Ҳиссий соҳа- бу мулоқотда ўзини бошқариш, ташаббускорлик, жасорат, ўз фикрларини ҳимоя қилишдир. Бунда муҳим бўлган ҳодиса, мақсадларни белгилаш эмас, балки уларни қандай қилиб амалга ошириш, мақсадларга ва спортдаги ютуқларга эришиш учун нима қилиши кераклигидир. Қарор қабул қилиш нафақат оқилона асосда алтернатив вариантларни танлаш, балки қарама-қаршиликларни ҳиссий ҳал этиш, фаолликнинг оптимал даражасида фаолиятни амалга ошириш қобилиятини ва барқарорликни англатади. Жисмоний соҳада безовталик вазиятни тартибга соладиган, ўзига адекват баҳо бера олиш, ўзига ишонч, аниқ бошқариш, эмпатия, жасурлик, очиқлик, қатъиятли атмосферани бошқара олиш қобилиятидир. Вазиятли хавотирланиш щахсий хавотирдан фарқли ўлароқ, бўлажак ўқитувчининг тўғри фаолиятига ёрдам беради, объектив вазиятнинг мотивациявий тенденция билан биргаликда бу зиддиятни конструктив асосга йуналтиради. Адекват ўзига баҳо бериш бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларига ўзларининг жисмоний-физик ресурсларини баҳолашига ёрдам беради, бу ўз навбатида фаол ёки пассив стратегиясини танлашни янада оптималлаштиради.

Ўзига ишониш - бу фаол сгратегияларни амалга ошира олишни қўллаб-қувватловчи омил бўлиб, уларни тўғри муҳит билан таъминлайди [5]. Рефлексив компонентни ташкилотчилик компетенциясинининг таркибига киритиш зарурати бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчисининг ўзини тадқиқ қилиш, сабаб-оқибат муносабатларини таҳлил қила олиш қобилиятига эга бўлиш, спорт ўйинларида жараёнларни конструктив ҳал этиш мақсадида, тадқиқот усуллари, ўзини ўзи баҳолаш ва тегишли кўникмаларга оид шахс ҳақидаги илмий билимларни эгаллашига боғлиқ. Рефлексив компонент – ўзига ишончнинг адекватлиги, рефлексивлик каби шахс сифатларининг ривожланганлик ифодалаб, бу педагогик жараёнда ўз шахсини, ҳолатини ва ҳатти-ҳаракатларини таҳлил қилиш, шунингдек, педагогик жараёндаги бошқа субъект ҳаракатини, ҳолатини, унинг шахсий ўзига хосликлари қанчалик “акс этиши”ни англашга оид ҳиссий реакциялар ва когнитив тасаввурлардир [6]. Позитив ўзини кузатиш ва ўзини таҳлил қилишнинг бошланиши, шахснинг коммуникатив рефлексив қобилиятидан иборат. Ташкилотчилик компетенциясининг ушбу компоненти назарий, методик билим ва кўникмаларга таянган ҳолда бартараф этишни ривожлантиришни назарда тутади. В.А.Сластенин тадқиқотларига кўра, ақлий ва амалий фаолиятни амалга ошириш олдиндан эгалланган билим кўникма ва малакалар, аниқ фаолиятни бажариш ёки янги шарт-шароитлардаги фаолият асосида шаклланган назарий тайёргарлигининг таркибий қисмидир [7].

Рефлексив кўникмалар шахснинг ўзини ўзи назорат қилиш ва баҳолашида кузатилади. Кўплаб сабаблар туфайли рефлексив кўникмалар фарқланади ва энг муҳими, педагогик фаолият натижаларини таҳлил килиш, натижаларни таҳлил қилишда қабул қилиш меъёр ҳисобланмайди. Ўқитувчининг ижобий ва салбий натижалари унинг фаолияти натижасини аниқлаш учун ҳар доим муҳимдир. Махсус кўникмаларни талаб қиладиган ўз фаолиятини таҳлил қилиш зарурати мавжуд мақсад ва уни амалга оширишнинг қуйидаги вазифалари аниқ белгиланганлиги муҳим аҳамият касб этади:

- ўқувчилар фаолияти мазмунининг қўйилган вазифаларга мувофиқлигини таъминлаш;
- педагогик фаолиятда қўлланиладиган метод, усул ва воситаларнинг самарадорлиги;
- амалий-ташкилий спорт турларининг ўқувчиларниинг ёш хусусиятлари, ўйинлар мазмуни ва бошқалар билан мослиги;
- таълим ва тарбиянинг вазифаларини амалга ошириш жараёнида муваффақият ва муваффақиятсизлик, хато ва қийинчиликларнинг сабаблари;
- ўз фаолияти тажрибасининг яхлитлиги ва фан томонидан ишлаб чиқилган мезон ва тавсияларга мувофиқлиги [8].

Адабиётлар таҳлили ва тадқиқотлар мазмунига таянган ҳолда, бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларда ташкилотчилик компетенциясини ривожлантиришда дарс иштирокчилари

томонидан намоён этилувчи ҳаракат усулларини тадқиқ этиш зарур деб ҳисоблаймиз.Тадқиқотимиз доирасида ташкилотчилик компетенциясини ривожлантиришга қаратилган рефлексив усуллар тушунчасининг мазмуни аниқлаштирилди: педагогик муносабат субъектларининг ҳаракатларини таҳлил қилиш, ўзини ўзи баҳолаш, ривожлантириш ва ташкилотчилик қобилияти турларини такомиллаштиришга қаратилган усуллардир. Юқорида келтирилган фикрлардан келиб чиқиб хулоса қилишимиз мумкинки, педагогик рефлексия бўлажак ўқитувчиларни мутахассис сифатида такомиллаштириш манбаларини ўз билими, имкониятларидан излаб топишга кўмаклашади ҳамда унинг ривожланишини таъминлайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Эркабоева Н., Усмонбоева М., Иргашова М., Хужаназарова Н. Педагогик маҳорат: схема ва расмларда: Методик қўлланма. - Тошкент: ТДПУ, 2012. - Б. 14.
2. Холматов Л.Н. Жисмоний тарбия таълими жараёнида ўқувчиларнинг экогигиеник билимларини ривожлантириш назарияси ва амалиёти. Пед.фан.ном.дисс. Тошкент . 2021й.
3. Философский словарь / Под ред. И.Т. Фролова. - 5-е изд. - М.: Политиздат, 1986. - 590 с.
4. Коджаспирова Г.М. Педагогика. Москва. Владос. 2003.
5. В.И. Дубровский, Ю.А. Рахманин, А.Н. Разумов. Экогигиена физический культуры и спорта - М.: Владос, 2018. 112 с.
6. Боботкова Н.В. Моделирование процесса развития педагогической рефлексии учителя // Современное образование: теория и практика: Сборник научных статей. - Шадринск: ШЛИ, 2007. - 298 с.
7. Сластенин В.А. Педагогика: учеб. пособие для вузов / В.А. Сластенин, И.Ф. Исаев, Е.Н. Шиянов; ред. В.А. Сластенин. – 3-е изд., стереотип. – М.: Академия, 2004. – 576 с**.**
8. Сгонникова Е.М. Развитие конфликтологической компетентности будущих учителей: Дис .....канд. пед. наук. - Шадринск, 2010. – 201 с.

ГАНДБОЛЧИЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИКНИНГ ЎРНИ ВА УНДА КООРДИНАЦИОН ҚОБИЛИЯТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

С.Х.Хабибуллаев
ЧДПУ, доцент в.б.,
Маннобжонова О.М., Каримбаева И.М., Нигматиллаева Р.С.
ЧДПУ, талабалари
s.xabibullayev@cspi.uz

Аннотация. Мазкур тезисда гандболчиларни тайёрлашда жисмоний тайёргарликнинг ўрни ва уни ривожлантиришда координацион қобилиятларни махсус машқлар орқали шакллантириш масаласи ёритиб берилган.

Калит сўзлар. Бошланғич, ўқув-машғулот, спорт маҳоратини такомиллаштириш, олий спорт маҳоратини такомиллаштириш, босқичлари, жисмоний, техник, тактик, тайёргарлик.

Аннотация. В данной дипломной работе поясняется роль физической подготовки в подготовке гандболистов и развитии координационных навыков посредством специальных упражнений.

Ключевые слова. Начальный, тренировка, совершенствование спортивного мастерства, совершенствование высшего спортивного мастерства, этапы, физическая, техническая, тактическая, подготовка.

Annotation. This thesis explains the role of physical training in the preparation of handball players and the development of coordination skills through special exercises.

Key words. Initial, training, improvement of sportsmanship, improvement of higher sportsmanship, stages, physical, technical, tactical, training.

Кириш. Гандболчилар тайёрлаш жараёни кўп йиллик узлуксиз педагогик жараён бўлиб, ўз таркибига соғломлаштириш, бошланғич, ўқув-машғулот, спорт маҳоратини такомиллаштириш ва олий спорт маҳоратини такомиллаштириш босқичларини киритади. Узоқ йиллардан бошлаб шакллантирилиб келинаётган ва бугунги кунда ҳам амалиётга хизмат кўрсатиб келаётган гандболчилар тайёрлаш дастурларида жисмоний, техник, тактик тайёргарликка ажратиладиган соатлар ҳажми, турли ёш ва спорт малакасига мансуб гандболчиларга мўлжалланган мувофиқ машқлар мажмуалари, тайёргарлик турларининг шаклланиш динамикасини назорат қилиш ва

баҳолаш тестлари акс эттирилиши одат тусига кирган. Шу билан бир қаторда бугунги кунда замонавий стандартлар асосида гандболчилар тайёрлашга мўлжалланган ягона ва кенг қамровли дастурлар етишмаслиги маълумдир.

Маълумки, муҳокама этилаётган координацион қобилиятлар у ёки бу даражада жисмоний тайёргарлик жараёнида ҳам, техник-тактик тайёргарликни шакллантириш давомида ҳам шакллантирилади. Шунинг учун мазкур мавзу йўналиши бўйича сўнгги йилларда чоп этилган махсус манбаларни қиёсий таҳлил қилиш мақсадга мувофиқдир.

Таъкидлаш лозимки, танланган спорт турига хос махсус координацион қобилиятлар, уларнинг ажралмас компонентлари даставвал жисмоний тайёргарлик жараёнида шакллантирилади. Бу борада А.А. Ратников томонидан ўтказилган тадқиқотлар эътиборни тортади. Муаллиф 14-16 ёшли гандболчиларда тезкорлик-куч сифатларини ривожлантиришда қуйидаги машқлардан фойдаланиш афзаллигини исботлаб берган: тўсинлардан сакраш, 30 м. га югуриш, икки қўллаб тўп узатиш, қўлларга таяниб, уларни букиш-ёзиш, тўлдирма тўпни улоқтириш, уч ҳатлаб сакраш, узунликка сакраш. Ушбу машқларни такрорлаш меъёрлари ва уларни қўллаш методикаси очиб берилган. Лекин, мазкур машқлардан фойдаланиш вақти, тана ва тана қисмларининг жойлашиши, уларни ҳаракатлантириш тартиби, статик ёки динамик мувозанатни сақлаш ҳақида сўз юритилмаган [122; 146-154 б].

М.А. Петрова ҳам ёш гандболчиларда жисмоний тайёргарликни индивидуал принципда ривожлантириш учун шунга ўхшаш машқлар билан бир қаторда мокисимон югуриш, 30 м. га устунлараро югуриш, 30 м. га тўпни уриб югуриш машқларини амалиётга қўллашни тавсия этган [119; 104-106 б].

В.И. Изаак, Т.Э. Набиев лар юқори малакали гандболчиларда жисмоний тайёргарликни такомиллаштириш йўлларини ўрганиб, шундай хулосага келишганки, куч, тезкорлик, чидамкорлик, чаққонлик, эгилувчанлик сифатларининг рейтинг қиймати турли амплуага эга ўйинчиларда бир-биридан кескин фарқ қилиши мумкин экан. Масалан, кучнинг рейтинг қиймати 1-нчи чизиқ ўйинчиларида 4,55 балл деб белгиланган бўлса, 2-чизиқ ўйинчиларида бу кўрсаткич 3,65 баллга тенг бўлган. Тезкорлик эса мувофиқ равишда 4,15 ва 4,90 баллни ташкил этган. Афсуски, ушбу муаллифлар ҳам ўйин вазиятларида ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлган координацион қобилиятларни рейтинг-баллар асосида баҳоламаганлар [61; 24-26 б].

Маълумки, барча спорт ўйинлари каби гандбол ҳам ўта кескин рақобат остида кечадиган фавқулотли, тезкор ва ниҳоятда ўзгарувчан вазиятларда ижро этиладиган турли ҳаракатлар, техник-тактик усуллар ва ўйин комбинациялари билан фарқланади. Мазкур ҳолат гандболчиларнинг функционал органлари, психоэмоционал тонусига таъсир этиб, биринчи навбатда жисмоний имкониятларни, шу жумладан координацион қобилиятларни издан чиқишига олиб келиши мумкин экан. Шунинг учун муаллиф иш қобилияти ва ўйин фаоллигини ошириш учун гандболчиларда бутун тайёргарлик давомида функционал потенциал заҳирасини ошириш зарурлигига эътибор қаратади. Чунки, ушбу мутахассиснинг бошқа тадқиқотларида исботланганки, гандболчилар ўйин давомида ўртача 5500 м. масофани босиб ўтиш, 225 марта тўп узатиш, 35 марта тўпни дарвозага отиш, 56 марта тўпни уриб югуриш, 75 марта тезкор югуришлар, 35 марта сакраш, 127 марта сапчиб югуриш ҳаракатларини бажарар эканлар [75; 130-137 б]. Мазкур мутахассис томонидан юқори малакали гандболчиларга хос жисмоний тайёргарликнинг таркибий тузилиши, мазмуни ва уни назорат қилиш йўллари очиб берилган [74; 19-б].

Бир қатор тадқиқотчилар турли ёш ва спорт малакасига мансуб гандболчиларда ҳимоя ҳаракатларининг самарадорлигини ўрганиш натижасида шуни аниқлашга муяссар бўлишдики, 12-13 ёшли гандболчи болаларда махсус жисоний тайёргарлик етакчи аҳамиятга эга экан. Мазкур тайёргарлик тури 14-15 ёшли гандболчиларда ҳам ўз устуворлигини сақлаб қолиши лозим бўлсада, лекин ушбу ёш гуруҳларида ёки шу тайёргарлик босқичида махсус чидамкорликни шуғулланувчиларнинг ўйин амплуаси кесимида жадал ривожлантиришга урғу бериш зарур экан. Ушбу муаллифларнинг фикрига қараганда 16-17 ёшли гандболчиларда махсус жисмоний тайёргарлик иккинчи ўринга ўтиб, асосий урғу техник-тактик тайёргарликка қаратилиши мақсадга мувофиқ, деб эътироф этилган. 18 ёшли гандболчиларда, яъни спорт маҳоратини такомиллаштириш босқичида яна махсус жисмоний тайёргарликни шакллантиришга устунлик берилиши аниқланган. Мазкур тадқиқотчилар бундай методик тажрибани спорт мактабида шуғулланувчи ва Ўзбекситон чемпионатида иштирок этувчи гандболчиларда кузатишган.

Умумлаштирилган ҳолда қайд этиш лозимки, гандболчиларда координацион қобилиятлар ва уларнинг таркибий компонентлари объектни кузатиш, вақт-оралиқни фарқлаш, статик ва динамик мувозанатни сақлаш имкониятларини мақсадли шаклланиши учун тайёргарлик жараёнида техник-тактик тайёргарликка ихтисослаштирилган машқларни моделлаштирилган вазиятларда мунтазам қўллаб боришга устунлик бериш муҳимдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Павлов Ш.К., Абдалимов О.Х., Юсупова З.Е. “Гандбол назарияси ва услубияти” дарслик. Тошкент 2017. – Б. 214-216 .
2. Хабибуллаев С.Х. Спорт ва ҳаракатли ўйинлар ва уни ўқитиш методикаси (Гандбол). Ўқув қўлланма. “Назокатҳон зиё принт" нашриёти. Тошкент, 2023.
3. Мўминов А. Ш. Малакали гандболчиларда махсус машқларни қўллаш асосида техник тайёргарлигини такомиллаштириш услубияти.//автореф.дис….п.ф.ф.д (PhD).Чирчиқ 2023 йил.

ГАНДБОЛЧИЛАРДА ТЕХНИК-ТАКТИК ТАЙЁРГАРЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ОРҚАЛИ МАХСУС КООРДИНАЦИОН ҚОБИЛИЯТЛАРНИНГ РИВОЖЛАНТИРИШ

С.Х.Хабибуллаев
ЧДПУ, доцент в.б.,
Маннобжонова О.М., Каримбаева И.М., Нигматиллаева Р.С.
ЧДПУ, талабалари
s.xabibullayev@cspi.uz

Аннотация. Гандболга хос координацион қобилиятларни тўпсиз ва тўп билан бажариладиган ҳаракатлар орқали ривожлантириш жумладан. Тўпни уриб югуриш, бурилиш-айланиш ва мувозанатни сақлаш, техник усулни ижро этиш ва мақсадли, мунтазам шакллантириб бориш, тўп узатиш, тўпни қаршиликда уриб югуриш, чалғитувчи “финт”, тўпни дарвозага турли ҳолатдан отиш, тўпни илиш каби ҳаракатларни ўз ичига олади.

Калит сўзлар. Координация, реакция, ҳаракат, фаза, принцип, индивидуал, ҳажми, шиддати, йўналиш, тайёргарлик, давр, базавий, мезоцикл.

Аннотация. Он включает в себя развитие специфических для гандбола навыков координации посредством движений, выполняемых без мяча и с мячом. Оно включает в себя такие действия, как ведение, поворот и балансирование, выполнение технических приемов и целенаправленное правильное построение, передачу мяча, ведение мяча с сопротивлением, финт, бросок по мячу из разных положений, ловлю мяча.

Ключевые слова. Координация, реакция, действие, фаза, принцип, индивидуальность, размер, интенсивность, направление, подготовка, период, база, мезоцикл.

Кириш: Эрта ёшликдан бошлаб муайян спорт тури билан шуғулланиш жараёнида техник-тактик усулларга ўргатиш ва уларни такомиллаштириш давомида болаларнинг наслий ҳамда ҳаёт давомида орттирган жисмоний имкониятларига қараб зарур координацион қобилиятлар (айланма ҳаракатлар, мувозанат сақлаш, тана қисмларини бошқариш, ҳаракат реакцияси ва ҳ.к.) у ёки бу суръатда шаклланиб боради. Ушбу жараён ана шу техник-тактик усуллар, уларнинг таркибий компонентлари, элементлари ва ижро этиш фазаларини ўзлаштиришда йўл қўйилиши мумкин бўлган хатоликлар, камчиликларни бартараф этиш ёки тузатиш орқали амалга оширилади.

Бу борада гандбол назарияси ва амалиётида ҳам кўплаб талқиқотлар ўтказилган, илмий мақолалар, ўқув адабиётлари, диссертациялар ҳамда монографиялар яратилган. А.А. Рамзайцеванинг маълумотларига қараганда, гандбол бўйича ўтказиладиган жаҳон чемпионатлари тажрибасида, масалан, тўпни куч устунлигида дарвозага отиш натижадорлиги 29,8% ни, тезкорлик билан 41,7% ни, гавдани ўнг томонга буриб эса – 46,4% ни ташкил этар экан. Муаллиф тўпни дарвозага отиш усуллари 3 хил хусусият билан фарқланишини таъкидлайди: ўйинчини тўп билан жойлашиш позицияси, дарвозагача бўлган оралиқ, ҳимоячи қўлларининг ҳаракатланиши. Усуллар техникасига ўргатишда ана шу вазиятлар яратилиши лозим экан.

Ўргатиш ва такомиллаштириш билан боғлиқ бундай жараёнлар, айниқса тўпни дарвозага сакраб отиш усуллари, оёқ-қўл бўғимларининг ҳаракати, депсиниш кучи ва бошқа жисмоний тайёргарлик кўрсаткичлари ёрдамида назорат қилиниши лозим экан.

Ўргатиш ёки такомиллаштириш машқларининг такрорланиш сони (ҳажми), шиддати, йўналиши тайёргарлик даврининг базавий мезоциклидан бошлаб мусобақа шиддати ва мусобақа хусусиятларига мослаштирилиб борилиши ёки юкламалар миқдорига мувофиқлаштириб борилиши ижобий натижага эришиш имкониятини яратар экан.

Шубҳа йўққи, гандболда жисмоний сифатларни ихтисослаштирилган тартибда ривожлантириш, биринчидан, техник-тактик усулларни шакллантириш суръатини тезлаштиради, иккинчидан, уларни ўзлаштириш самарадорлигини кучайтиради, учинчидан, машғулот ва мусобақа ўйинлари давомида техник-тактик маҳорат даражасини узоқроқ муддат сақланишига имкон яратади, тўртинчидан, махсус координацион қобилиятларни (ҳаракат ритми, мувозанат сақлаш, бурилиш-айланиш, вақт-оралиқни фарқлаш асосида ҳаракатни аниқ бажариш ва ҳ.к.) ижро этиш турғунлигини таъминлайди ва бешинчидан, ҳаракат натижадорлигини ортишига хизмат қилади. Шунинг учун ҳам В.Я. Игнатьева, А.Б. Блохинлар гандбол жамоасининг рейтинги ўйинчиларнинг жисмоний тайёргарлигига боғлиқлигини эътироф этишган.

Таққослов ўрнида шундай маълумотни келтириш мумкинки, баскетболчиларда мусобақа фаолиятини ошириш учун биринчи навбатда уларда умумий жисмоний тайёргарлик воситаларини (машқларини) кенгайтириш ва уларни мунтазам қўллаб бориш асосида координацион тайёргарлик заҳирасини кучайтириш мумкин экан. Муаллиф бу борада координацион тайёргарликни жадал шакллантиришга қаратилган экспериментал методика ишлаб чиққан бўлиб, мазкур жараён уч элементли вариантлар асосида амалга оширилиши лозим экан:

1. Локал йўналишда (тўғридан-тўғри) ва комплекс таъсир этувчи асосий ҳамда қўшимча жисмоний машқлар. Ушбу машқлар тайёргарлик даврининг барча босқичларида ва ҳар бир машғулотда қўлланилиши тавсия этилади.

2. Мушаклар тонуси ва координацион зўриқишни тикловчи ёки ривожлантирувчи машқларни қўллаш билан бир қаторда вестибуляр анализаторининг функционал имкониятини оширувчи машқлардан сурункали фойдаланиб бориш.

3. Машғулотлар якунида юзага келадиган толиқиш давомида ўйин усуллари техникасини шакллантирувчи машқларни қўллаш.

Мазкур жараёнларни ташкил қилишда муаллиф 3 та принципга асосланишни таклиф этади:

1) бир йиллик ва кўп йиллик машғулотлар жараёнида координацион тайёргарликни шакллантирувчи машқларни давомли ва мунтазам қўллаш принципи;

2) координацион қобилиятларни индивидуал тартибда шакллантириш мақсадида организмга локал, комплекс ва қўшма шаклда таъсир этувчи машқларни ҳар хил мазмунда қўллаш принципи;

3) юкламалар ҳажми, шиддати ва давом этиш муддатини секин-аста ошириш принципи.

Гандболга хос координацион қобилиятларни (ўта кескин ўзгарувчан йўналишлар бўйлаб тўпсиз ва тўпни уриб югуриш, бурилиш-айланиш ва мувозанатни сақлаш, вақт-оралиқни фарқлаш асосида қулай вазиятни мўлжалга олиб, техник усулни ижро этиш ва ҳ.к.) мақсадли ва мунтазам шакллантириб бориш, тўп узатиш, тўпни қаршиликда уриб югуриш, чалғитувчи “финт”, тўпни дарвозага таянч (жойдан) ва таянчсиз (сакраб) ҳолатдан отиш, тўпни илиш каби ўзлаштириш имкониятини яратади. Ушбу муаллифларнинг эътирофига кўра, айнан анашу қайд этилган координацион қобилиятларни ихтисослаштирилган машқларни моделлаштитрилган ўйин вазиятларини яратган ҳолда мунтазам қўллаб бориш нафақат техник-тактик маҳоратни ўсиши ва сақланишига имкон яратади, балки мусобақа натижадорлигини ҳам кучайтириш мумкин экан. Таъкидлаш муҳимки, бундай машқларни мунтазам қўллаш ва уларни бир машғулот давомида кўп марталаб қўллаш натижасида юзага келиши мумкин бўлган толиқиш муддатини узайтириш учун машқлар сериялари оралиқларида иш қобилиятини тикловчи воситалардан унумли фойдаланиш тавсия этилади.

Ш.К. Павлов, Ф.А. Абдурахмановлар ўзларининг тажрибалари ва кузатувларига асосланган ҳолда шундай хулосага келишганки, гандбол жамоасига истеъдодли ўйинчиларни танлашда уларнинг тайёргарлик турларига хос бир қатор индивидуал хусусиятларини эътиборга

олиш муҳим, деб таъкидлайдилар. Жумладан, ўйинчи жисмонан “заифроқ” ривожланган (масалан, бўйи паст), лекин жисмоний сифатлари яхши ривожланган; ўйинчида бир ёки икки жисмоний сифат (масалан, куч ва эгилувчанлик) суст ривожланган, лекин бошқа жисмоний сифатлар яхши ривожланган; ўйинчида жисмоний сифатлар “заиф” ривожланган, аммо техник-тактик маҳорати яхши шаклланган; ўйинчида бир техник усул суст шаклланган, лекин бошқа усулларни ижро этиш маҳорати аъло даражада шаклланган; ўйинчида тактик фикр юритиш оқсайди, аммо унда тўпни катта куч билан дарвозага отиш қобилияти яхши шаклланган.

Хулоса. Ўйинчида мавжуд бўлган бундай камчиликларни машғулотларда бартараф этишга урғу берилиши, биринчидан, координацион қобилиятларни бир текисда шаклланишига имкон яратади, иккинчидан, тўлақонли техник-тактик маҳоратга эга бўлишни таъминлаши мумкин экан.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Павлов Ш.К., Абдалимов О.Х., Юсупова З.Е. “Гандбол назарияси ва услубияти” дарслик. Тошкент 2017. – Б. 214-216 .
2. Хабибуллаев С.Х. Спорт ва ҳаракатли ўйинлар ва уни ўқитиш методикаси (Гандбол). Ўқув қўлланма. “Назокатҳон зиё принт" нашриёти. Тошкент, 2023.
3. Мўминов А. Ш. Малакали гандболчиларда махсус машқларни қўллаш асосида техник тайёргарлигини такомиллаштириш услубияти. // автореф.дис….п.ф.ф.д (PhD).Чирчиқ 2023 йил.

ТАЯНЫШ-ҲӘРЕКЕТ АППАРАТЫ ЗАҚЫМЛАНҒАН БАЛАЛАРДЫ ДЕНЕ ТӘРБИЯСЫ ҚУРАЛЛАРЫ МЕНЕН РЕАБИЛИТАЦИЯЛАЎ

Қадирбаев Байрам

Өзбекстан мәмлекетлик дене тәрбиясы ҳәм спорт университети Нокис филиалы ,,Жеке гурес хам тәбийий пәнлер" кафедрасы ассистенти,

Абдуллаева Умида

"Дзюдо" 2-курс студенти.

Өзбекстан Республикасы Денсаўлықты сақлаў министрлиги педиатрия хызметиниң 2006-жылғы мағлыўматлары бойынша Ташкент қаласы ҳәм республика ўәлаятларында балалар арасында кеселлениўшиликтиң төмендеги дәрежеси анықланды: 14 жасқа шекемги балалардың 23% ке жақыны қәўиптиң 1-топарын қурайды, яғный, базалық гемодинамикалық көрсеткишлерди системалы қадағалаўды өз ишине алатуғын жүрек-қан тамыр системасын терең тексериўди талап етеди; қәўиптиң 2-топарын дем алыў ҳәм шығарыў системасының зақымланыўы анықланған балалар ҳәм жас өспиримлердиң 33% и қурайды; қәўиптиң 3-топарына организмниң иммунологиялық реактивлилигин төменлететуғын түрли факторларға байланыслы болыўы мүмкин жийи аязлап аўыратуғын балалар жатады. 14 жасқа шекемги жас өспиримлердиң 10% ке жақыны таяныш-ҳәрекет аппаратының зақымланыўынан жәбир шегеди. Балалардың бул топары ушын тийисли диагностикалық, емлик ҳәм профилактикалық илажлар комплекси белгиленип, әмелге асырылыўы керек.

Ташкент қаласының Чиланзар районындағы №24 қәнигелестирилген балалар бақшасына баратуғын таяныш-ҳәрекет аппараты бузылған 4-7 жастағы 87 балаға тексериў өткерилди. Таяныш-ҳәрекет аппараты патологиясының характерин анықлаў ушын түрли бояўшы затларды қоллана отырып, аяқ излерин алыўдың плантографиялық усылы ҳәм кейин И.М.Чижин усылы (плантография – аяқтың рессорлы қәсийетлерин баҳалаўға мүмкиншилик беретуғын усыл) қолланылды.

Тексерилген балалардың улыўма санынан 19 ында экскавирленген табан, 5инде - субэкскавирленген табан анықланғаны белгиленди. 11 балада жалпақ аяқ, 42 балада жалпақ табан белгиленди ҳәм тек 10 жағдайда нормал табан анықланды. Жүргизилген изертлеў 12% жағдайда нормал табан табылғанын көрсетти, яғный, түрли дәрежедеги кеселликлерге ийе аяқлары бар балалардың проценти жүдә жоқары. Балалардың 70% тен асламында патология ямаса препатология алды басқышында аяқ кеселликлери бар, бул балалардың усы контингенти ушын реабилитациялық илажлардың әҳмийетин арттырады.

Изертлеўдиң екинши басқышында биз аяқ булшық етлерин беккемлеўге, оның жыйырылыўын өзгертиўге, бузылған ҳәрекетшеңлик уқыбын қәлпине келтириўге, аяқтың биомеханикалық қәсийетлерин жақсылаўға бағдарланған саламатландырыўшы жүзиў ҳәм

арнаўлы гимнастикалық шынығыўлардың биригиўине тийкарланған комплексли дене шынықтырыў-саламатландырыў бағдарламасын ислеп шықтық.

Жүзиўден пайдаланыў гимнастикалық шынығыўлар менен бирге аяқ патологиясын дүзетиўде тийимли ме, жоқ па, соны изертлеў керек болды. Буның ушын тексерилетуғын 5-7 жасар балалар менен емлик-саламатлық жүзиў көнликпелерин беккемлеў (жүзиўди үйретиў, жүзиўдиң индивидуал усынылатуғын усыллары ҳәм суўда арнаўлы шынығыўлар, атап айтқанда, негизги жүклеме төменги аяқларға түсетуғын «қоян» усылында жүзиў) бойынша жумыс алып барылды. Дүзетиў тәсирин күшейтиў, сондай-ақ, балалардың улыўма физикалық таярлығын жақсылаў ушын залда гимнастикалық шынығыўлардан пайдаланыў нәзерде тутылған. 3 ай ишинде таяныш-ҳәрекет аппараты зақымланған балалар улыўма раўажландырыўшы, табан ҳәм аяқ формасын беккемлеўге, тобық буўынының ҳәрекетшеңлигин арттырыўға арналған, балтыр булшық етлерине, жүриўде ҳәрекет биомеханикасын нормалластырыўға арналған шынығыўлар, дем алыў шынығыўларынан туратуғын арнаўлы шынығыўлар комплексин орынлады.

Өткерилген изертлеўлер тийкарында аяқ кеселлигиниң ең әҳмийетли дәрежеси – патологиядан алдынғы басқыш ажыратылды, бул басқышта еле кишигирим кеселликлер физикалық шынығыўлар менен аңсатт дүзетиледи. Әсиресе жалпақ табаннан жәбир шегетуғын балаларда аяқтың жыйырылыў көрсеткишиниң унамлы өсиўи байқалады, бул ислеп шығылған саламатландырыў бағдарламасының тийимлилигин тастыйықлайды.

PAYDALANILGAN ÁDEBIYATLAR

1. Safarova D.D. - Odam anatomiyasi (I jild). Darslik. T.: " O‘zDJTSU nashriyot matbaa": 2018 y. - 315 b.
2. Safarova D.D. - Odam anatomiyasi (II jild). Darslik. T.: "O‘zDJTSU nashriyot matbaa": 2018 y. - 302 b.
3. Safarova D.D. -Sport morfologiyasi. Darslik.T., Ijod-Print – MC, 2021y -200 b.
4. Axmedov N.K. Atlas. Odam anatomiyasi (I jild). T.: "Ibn Sino" nashriyoti, 2018y. - 335 bet.
5. Axmedov N.K. Atlas. Odam anatomiyasi (II jild). T.: "Ibn Sino" nashriyoti, 2018y. - 262 bet.

IMKANIYATI SHEKLENGEN SPORSHILARDI PARA JEŃIL ATLETIKANIŃ JUWIRIP KELIP UZINLIQQA SEKIRIW TÚRINE UYRETUW METODIKASI

Nurmedov Nurmuxammed
ÓzMDTSU Nókis filialı oqıtıwshı stajyorı
Tanirbergenova Dinara
ÓzMDTSU Nókis filialı student

Annotatsiya: Maqalada imkaniyatı sheklengen sporchılardıń fizikalıq rawajlanıwında para jeńil atletikaniń sekiriw quralları hám usılların qollanıw arqalı fizikalıq tayarlıǵın arttırıwdı ámelde dálillewden ibarat.

Tayanish sózler: Imkaniyatı sheklengen, para jeńil atletika, sekiriw túrleri, ázzi kóriw, adaptiv, nozologiya, sport klassifikaciyaları, rawajlandırıw.

Kirisiw áhmietliligi. Ózbekstan Respublikasında denetárbiya hám sport tarawın bunnan bılay da rawajlandırıwǵa ayrıqsha itibar qaratılmaqta. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2021-jıl 18-maydaǵı "Paralimpiya háreketin rawajlandırıwǵa baylanıslı qosımsha ilajlar haqqında"ǵı PQ-5114-sanlı qararı, Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2021-jıl 5-noyabrdegi "Sport bilimlendiriwi sistemasın túptiykarınan jetilistiriw arqalı olimpiada hám paralimpiya sport túrleri boyınsha sporchılar rezervin qáliplestiriw" sapasın bunnan bılay da arttırıw ilajları haqqında"ǵı, 2021-jıl 5-noyabrdegi "2024-jıl Parij qalasında (Franciya) bolıp ótetuǵın XXXIII jazǵı Olimpiada hám XVII Paralimpiya oyınlarına sporchılarımızdı kompleksli tayarlaw haqqında"ǵı PQ-5281-sanlı qararlarında ámelge asırılıwı kerek bolǵan jumıslardıń belgileniwi taraw qánigeleriniń aldına úlken wazıypalardı qoyadı. Ózbekstanda fizikalıq imkaniyatı sheklengen hám mayıplıǵı (qol-joqarı hám kóriw qábiletindegi kemshiligi) bolǵan shaxslardıń para sport túrleri (para jeńil atletikada juwırıp kelip uzınlıqqa sekiriw) menen shuǵıllanıwı ushın zárúr sharayatlar jaratıw, olardıń xalıqaralıq sport maydanlarında múnásip qatnasıwın támiyinlew hám mámleket tárepinen qollap-quwatlaw jáne ili

Izertlewdiń maqseti: Imkaniyatı sheklengen sporchılardıń jeńil atletikaniń sekiriw quralları hám usılların qollanıw arqalı fizikalıq tayarlıǵın arttırıwdı ámelde dálillewden ibarat.

Izertlew wazıypası: Imkaniyatı sheklengen sporchılardıń ulıwma fizikalıq tayarlıǵın arttırıwda para jeńil atletikada sekiriw túrlerinde nátiyjeli bolǵan qural usılların qollanıw arqalı oqıwshılardıń fizikalıq sıpatların rawajlandırıw.

Izertlew nátiyjeleri hám oniń dodalaw: Respublikada sońǵı jıllarda denetárbiya hám sporttı ǵalaba en jaydırıw, xalıq arasında salamat turmıs tárizin úgit-násiyatlaw, imkaniyatı sheklengen shaxslardıń fizikalıq reabilitaciyası ushın zárúr sharayatlar jaratıw hám mámlekettiń xalıqaralıq sport maydanlarında múnásip qatnasıwın támiyinlew baǵdarında izbe-iz ilajlar ámelge asırılmaqta.

Imkaniyatı sheklengen sporchılardıń hár tárepleme fizikalıq rawajlanıwında álbette, bárinen burın fizikalıq sıpatlardı rawajlandırıw arqalı erisiledi. Shuǵıllanıwshılardıń fizikalıq rawajlanıwında shınıǵıwlardı studentlerdiń jasına qarap fizikalıq tayarlıǵına qarap júklemeler rejelestiriledi.Shuǵıllanıwshılardıń tiykarǵı fizikalıq tayarlıǵın arttırıwda fizikalıq sıpatlardı rawajlandırıw bárinen burın sporchınıń hár tárepleme arnawlı fizikalıq rawajlanıw procesi. Sogan muwapıq fizikalıq tayarlıq uliwma fizikalıq tayarlıqqa hám arnawlı fizikalıq tayarlıqqa bólinedi.

Uliwma fizikalıq tayarlıq degende para jeńil atletikachınıń gormonikalıq rawajlanıwı, yaǵnıy háreket bulshıq yetleriniń rawajlanıwı, organizm organ hám sistemaların bekkemlew, olardıń funkcional imkaniyatların asırıw, basqarıw qábiletin jaqsılaw, kúshti, tezlikti, shıdamlılıqtı, sheberlikti, iyiliwsheńlikti asırıwBunga erishish uchun turli xil harakat faoliyatiga qatnashuvchilar organizm va sistemalari bilan xamma tana qismlariga ta’sir etib turish zarur.

Bunıń ushın bolsa uluwma rawajlanıwǵa arnalǵan shınıǵıwlardıń hár túrli túrlerinen paydalanıw kerek.

Arnawlı fizikalıq tayarlıq para jeńil atletikanıń usı túrin orınlaw ushın ne talap yetiletuǵına qarap, sporchı organizminiń barlıq funkcional imkaniyatları, barlıq organ hám sistemalardı joqarı dárejede rawajlandırıwǵa qaratılǵan. Bunıń ushın tábiyiy tańlanǵan para jeńil atletika túriniń shınıǵıwları hám arnawlı shınıǵıwlardan paydalanıladi.Umumiy jismoniy tayyorgarlik uchun ko‘pincha umumiy ta’sir ko‘rsatadigan mashqlardan, maxsus tayyorgarlik uchun esa, aniq maqsadga yo‘naltirilgan mashqlardan foydalaniladi.

Biraq ulıwma fizikalıq tayarlıqta da fizikalıq rawajlanıw, dene dúzilisi, gewdelik hám usı sıyaqlı ayırım kemshiliklerdi saplastırıw ushın, anıq baǵdarlanǵan shınıǵıwlar qollanıladı.

Uliwma hám arnawlı fizikalıq tayarlıqta kúshti, tezlikti, shıdamlılıqtı, shaqqanlıqtı, iyiliwsheńlikti rawajlandırıwshı shınıǵıwlar tiykarınan áhmiyetke iye.

Tap usı fizikalıq pazıyletlerde para jeńil atletikachınıń pútkil organizmindegi organ hám sistemalardıń islew qábiletine tiykarlanıp, onıń háreketleniw qábileti sáwlelendiriledi.

Tájiriybe toparı tájiriybeden aldın 30 m ge start aldı juwırıw 4,6 ǵa, izertlewden keyin 4,2 ǵa jaqsılandı. 60 m juwiriw izertlewden aldın 8,6 ǵa, izertlewden keyin 8 ge jaqsılandı. 30 m ge ayaqtan ayaqqa sekiriw izertlewden aldın 23,4 m ge, izertlewden keyin 21 m ge jaqsılandı. Orınnan uzınlıqqa sekiriw izertlewden aldın 190,8 sm ge, izertlewden keyin 210,1 sm ge jaqsılandı. Orınnan úsh adımlap sekiriw izertlewden aldın 7,79 sm ge, izertlewden keyin 8,22 sm ge jaqsılandı. Juwırıp kelip uzınlıqqa sekiriw izertlewden aldın 4,70 sm ge, izertlewden keyin 5,10 sm ge jaqsılandı.

Joqarıdaǵı usıllardı qollanıw arqalı imkaniyatı sheklengen studentlerdiń fizikalıq tayarlıǵın arttırıwǵa itibar qarattıq hám juwırıw usılları arqalı shınıǵıwlar qollanılǵan juwırıw quralları olardıń fizikalıq tayarlıq dárejesin esapqa alǵan halda júklemeler qollanıldı.

Tájiriybe juwmaǵında hár eki topar studentleriniń fizikalıq rawajlanıw dárejesin juwmaqlawshı test arqalı anıqladıq.

Izertlewimizdiń aqırındaǵı nátiyjelerdi salıstırǵanda, tájiriybe toparındaǵı studentlerdiń fizikalıq tayarlıǵı qadaǵalaw toparına salıstırǵanda artqanı anıqlandı.

Biz tájiriybe toparı studentleriniń hár tárepleme rawajlanıwın anıqladıq. Sporchılardıń juwırıw shınıǵıwları arqalı sekiriw texnikasın ielewde eń jaqsı usıllardan biri ekenin jáne bir márte dálilledi.

1. Bedana qádemlep juwiriwlar 50 - 60m
2. Ayaqlardı artqa tartıp juwiriw.
3. Kóp kara joqarıǵa sekirip juwiriwlar.
4. Ayaqtan ayaqqa sekirip juwiriwlar.
5. Tezlenip juwiriwlar.

Bul shınıǵıwlar studentlerdiń sekiriw texnikasın ózlestiriwde hám fizikalıq rawajlanıwında jaqsı nátiyje beredi.

Sekiriwde tómendegi arnawlı shınıǵıwlardan paydalandıq:

Bir ayaqta biyikligi 25-30 sm bolgan tosiq ústinen sekirip ótiw (turgan jerinde, hárekette) on hám shep ayaqlarda 20 márteden 3 márte. Tósep otırıw jaǵdayınan 5-8 kg awırlıq penen biyiklikke sekiriw 8-10 márteden 3 márte. Eki ayaqlap biyikligi 70-80 sm bolgan tosiqlar ústinen sekirip ótiw (10 tosiq) 3 márte.

Uzınlıqqa biyikligi 70-80 sm bolgan úskeneden tepkili ayaqqa sekirip túsiw hám sekiriw (tepkili hám silkiniwshi ayaq háreketine itibar qaratıw) 7-8 márte.

Joqarıda keltirilgen shınıǵıwlardı studentler izertlew dawamında bárqulla orınladı hám shınıǵıwlar áyne joqarı pátli shınıǵıwlar menen alıp barıldı.

Biz izertlew dawamında eki topar sporchılarınıń fizikalıq tayarlıq kórsetkishleri arasındaǵı nátiyjelerdi salıstırǵanda ayırmashılıqtı sezindik. Tájiriybe toparı studentleriniń fizikalıq tayarlıǵın arttırıwda sekiriw hám juwırıw usıllarınan shınıǵıw procesinde paydalandıq. Alıngan nátiyjelerdi 3, 4-kesteler arqalı berdik.

Juwmaqlaw: Imkaniyatı sheklengen sporchılardıń fizikalıq sıpatların hár tárepleme tárbiyalaw sporchılardıń keleshektegi tayarlıǵın arttırıwda tiykarǵı tiykar bolıp esaplanadı.

Imkaniyatı sheklengen sporchılardıń fizikalıq tayarlıǵın arttırıwda qollanılǵan qural usıllardı durıs qollanıw, studentlerdiń fizikalıq rawajlanıwına hám densawlıǵın bekkemlewde áhmietli orın ieleydi.

Imkaniyatı sheklengen sporchı ushın qollanılǵan shınıǵıw usılınıń izertlew dawamında durıs qollanılǵanlıǵı dálillendi, bunı olardıń kórsetken nátiyjeleri kórsetip tur. Tájiriybe toparı 30 m aralıqqa juwırıwda 9,5% jaqsılandı, 60 m juwırıwda 7,5%, 30 m ayaqtan ayaqqa sekiriwde 11,4%, orınnan turıp uzınlıqqa sekiriwde 9,2%, orınnan turıp uzınlıqqa úsh basıp sekiriwde 5,3% hám juwırıp kelip uzınlıqqa sekiriwde 7,8% ti quradı.

Bunnan kórinip turıptı, biz qollanǵan baǵdarlama óz nátiyjesin berdi hám bul baǵdarlama ózin aqladı.

Sporchılardıń fizikalıq tayarlıǵın asırıwshı qural hám usıllar izertlew dáwirinde anıqlanǵan hám olardıń qanshelli nátiyjeli yekenligi alınǵan test nátiyjelerinde kórinedi.

ÁDEBIYATLAR DIZIMI.

1. Абдиев Ш.А. ПЛАНИРОВАНИЕ ТРЕНИРОВОЧНОЙ НАГРУЗКИ ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ЛЕГКОАТЛЕТОВ С ПОРАЖЕНИМ ОПОРНО ДВИГАТЕЛЬНОГО АППАРАТА // Современное образование (Узбекистан). 2021. №1 (98). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/planirovanie-trenirovochnoy-nagruzki-vysokokvalifitsirovannyh-legkoatletov-s-porazhenim-oporno-dvigatelnogo-apparata-1 (дата обращения: 11.11.2022).
2. Абдиев Ш.А. ТАЯНЧ-ҲАРАКАТ АППАРАТИ ШИКАСТЛАНГАН ЮҚОРИ МАЛАКАЛИ ЕНГИЛ АТЛЕТИКАЧИЛАРНИ МУСОБАҚА ЮКЛАМАЛАРИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ // Fan-Sportga. 2020. №7. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/tayanch-arakat-apparati-shikastlangan-yu-ori-malakali engil-atletikachilarni-musoba-a-yuklamalarini-rezhalashtirish (дата обращения: 11.11.2022).
3. Абдиев Ш.А. ТАЯНЧ-ҲАРАКАТ АППАРАТИ ШИКАСТЛАНГАН ЮҚОРИ МАЛАКАЛИ УЛОҚТИРУВЧИЛАРНИ МАШҒУЛОТ ЮКЛАМАЛАРИНИ МЕЪЁРЛАШ // Fan-Sportga. 2021. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/tayanch arakat-apparati-shikastlangan-yu-ori-malakali-ulo-tiruvchilarni-mash-ulot-yuklamalarini meyorlash (дата обращения: 11.11.2022).
4. Zakharevich, V., Korobeynikov, G., Nesen, O., & Xamidjonov, A. (2024). Incorporating specific sambo exercises into distance learning for high school students aged 15-16. P. 10-16.
5. Hamidjonov, A. (2024). Sport ta'lim muassasalarida sport turlarini rivojlanish monitoringini joriy qilish samaradorligi. Scientific-theoretical journal of International education research, 2(1), P. 47-50.

15-16 JAS JÚZIWSHILERDE TEZLIKTI RAWAJLANDÍRÍW METODIKASÍ

S.Ametov
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali o‘qituvchisi
Zaripov Berikbay Tazabay uli, Zeripbaev Jaqsibay Tazabay uli
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali 1-kurs talabalari

Annataciya: Usı maqalada júziwdiń brass túri menen shuǵıllanıwshılarda tezlikti rawajlandırıw metodikası, tezlikti asırıw ushın ámelge asırılıwı kerek bolǵan metodlar haqqında keń túrde bayan etilgen.

Tayanısh sózler: júziw, júziwshiler, júziw usılları, tezlikti rawajlandırıw jası, maksimal tezlik, kúshli háreketler, háreketsheńlikti tárbiyalaw.

Júziw sporttıń házirgi zamanagóy basqıshında rawajlanıwı processinde áhmiyetli máselelerden biri bolıp, bul júziwshilerdiń tezlik qábiletlerin jetilistiriw metodikasına bolǵan dıqqat itibardıń jáne de asqanlıǵınan derek beredi.

O‘z-o‘zini muhofaza qilish (inglizcha: Self-control o‘zini boshqarish) - his-tuyg‘ularingizni, fikrlaringizni va xatti-harakatlaringizni muhofaza qilish qobiliyati, insonning ongli qarorlar qabul qilish va ularni amalda qo‘llash qobiliyatini belgilaydi, insonning maqsadlarga erishish qobiliyatining muhim elementi hisoblanadi.

O‘z-o‘zini muhofaza qilish uchun mas’ul bo‘lgan neyrofiziologik jarayonlar miyaning ko‘plab sohalarida to‘plangan, ammo miyaning frontal lobi o‘zini-o‘zi boshqarish uchun eng muhim hisoblanadi. Frontal lobning shikastlanishi yoki uning konjenital patologiyalari o‘z-o‘zini muhofaza qilishning buzilishiga olib keladi; tajovuzkor va jinoiy xatti-harakatlar ham ko‘pincha frontal lob patologiyasi bilan bog‘liq.

O‘zini-o‘zi muhofaza qilishning mazmun – mohiyati va funksiyasini o‘rganish iroda psixologiyasidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O‘zini-o‘zi muhofaza qilishni ta’lim-tarbiya bilan bog‘lagan holda ishlab chiqarish va sport sohasida maqsadga yo‘naltirilgan va tizimli holda o‘rganish XX asrning 50-60 yillaridan boshlandi. Biroq bu holat o‘zini-o‘zi muhofaza qilish fenomeni uzoq vaqt davomida psixologlar nazaridan chetda qolganligini anglatmaydi. Dastlabki psixologik tadqiqotlarda inson psixik hayoti uchun muhim bo‘lgan o‘zini-o‘zi muhofaza qilishning ayrim xususiyatlari o‘rganilganini kuzatish mumkin. N.V.Samoukina tomonidan amalga oshirilgan adabiyotlar tahlilida o‘zini-o‘zi muhofaza qilish fenomenining o‘rganilish tarixi haqida batafsil fikr yuritilgan.

Shuningdek, psixikaning vaziyat ustuvorligi va ijtimoiy faolligi organizmning qismlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liq harakatini yuzaga keltiradi. Bu esa shaxsning hissiy-irodaviy xususiyatlari bilan bevosita bog‘liqdir.

Insonni tadqiq qiluvchi ko‘plab fanlar uni turli yo‘nalishlarda o‘rganib, o‘zining obyekti sifatida nazariy asoslab kelmoqda.

Biologik nuqtai nazardan o‘zini-o‘zi muhofaza qilish shaxs taraqqiyoti individ nasliy jihatdan orttirgan genetik dasturlarning amalda ro‘yobga chiqishi tarzida tasavvur etiladi.

Sotsiologik yondashuvda esa shaxsning madaniy-tarixiy muhit ta’sirida kamol topishini tan oladi. Ulardan farqli **individual-psixologik** yondashuv o‘zini-o‘zi muhofaza qilishni shaxsning

rivojlanishi, uning tana tuzilishi yoki konstitutsional jihatlari va asab tizimi tipining ta’siri borligini ta’kidlab, o‘rganadi.

Ijtimoiy-psixologik yondashuv asosida shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida o‘zini-o‘zi muhofaza qilishini o‘rganish ***ijtimoiy-psixologik yondashuvni*** talab qiladi. Ijtimoiylashuvning bevosita mahsuli sifatida shaxs ijtimoiy psixologik tizimini o‘rab turgan ijtimoiy muhit ta’sirida o‘rganadi.

O‘zini-o‘zi muhofaza qilish tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlashga qaratilgan bir qator ta’riflar mavjud. Jumladan, katta rus ensiklopediyasida o‘zini-o‘zi muhofaza qilish deganda shaxsning o‘z xulq-atvori, fikrlari va hissiyotlarini ongli muhofaza qilishi, boshqarishi va o‘z faoliyatini rejalashtirishi tushuniladi. O‘zini-o‘zi muhofaza qilish o‘z fikrlarini ongli ravishda o‘zgartirish, salbiy xatti-harakatlarning oldini olish imkonini beradi. Keltirilgan ta’rifdan ko‘rishimiz mumkinki, o‘zini-o‘zi muhofaza qilishda onglilik, o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyati va rejalashtira olish funksiyalariga alohida e’tibor berilgan. Shuningdek, shaxsning xulq-atvori, qarashlari, hissiyotlari hamda faoliyat jarayonida o‘zini-o‘zi muhofaza qilishning mavjud bo‘lishi e’tirof etiladi.

Ma’lumki, o‘zini-o‘zi muhofaza qilish jarayon sifatida shaxslarning o‘zini tushunishi, ijtimoiy ongning shakllaridan biri bo‘lgan milliy ong va o‘z-o‘zini anglash o‘zining ma’lum etnik guruhga mansubligini, vatanining tarixi, ajdodlardan bizgacha yetib kelgan an’analar, meros va amaliy tajribani, milliy manfaatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘liq ravishda chuqur anglashi, muayyan mushtarak g‘oya va mafkuraga tayanib, o‘z xalqi va vatanining istiqloli hamda istiqboli yo‘lida fidokorona xizmat qilishi, boshqa millatlarga ham adolatli munosabatda bo‘lib, ularning o‘ziga xosligi va manfaatlarini hurmat qilishidir.

O‘zini-o‘zi muhofaza qilish sharq mutaffakirlarining asarlarida ilmiy-nazariy tahlil qilinadi. Ushbu olimlarning asarlarini tahlil qilish barobarida sportchi talabalarda o‘zini-o‘zi idrok qilishning shakllantirishni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Xuddi shu boisdan insonning irodaviy-ruhiy holatlarini aniqlovchi asosiy belgilari mavjuddir. Bunda predmet muhiti obrazini aks ettiradi. Tana a’zolarini harakatlantirish, ularning mazkur muhitga moslashishi, u bilan munosabat o‘rnatish ehtiyojidan qoniqishni anglatadi. To‘g‘ri yoki teskari munosabatga kirishish prinsipi bo‘yicha namoyon bo‘lish to‘g‘riligini muhofaza qilish jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning o‘zini-o‘zi muhofaza qilishda ijtimoiy amaliyot jarayoni xizmat qiladi. Zero, teskari aloqa yordamida harakat bilan obraz natijasini taqqoslash amalga oshiriladi. Taqqoslash natijasida vujudga keladigan holat bu natijadan oldinroq sodir bo‘ladi. Unda borliqning o‘ziga xos modeli sifatida namoyon bo‘lish imkoniyati mavjud. Insonning barcha irodaviy harakatlari bevosita muloqotga kirishish jarayonida namoyon bo‘ladi. Sababi stimul beruvchi omillar, ularning doirasidagi harakatlarni faoliyatga undovchi, xulq-atvor dasturi bajarilishini ta’minlash, unga qidiruv jarayoni va variantlar tanlashni o‘zida qamrab oluvchi doimiy ravishda intiluvchi irodaviy aktivlik aks etadi.

Xulosa: Umuman, o‘zini-o‘zi muhofaza qilish muammosi hozirgi zamon intellektual jarayonlar, emotsional kechinmalar, obrazlarning o‘ziga xos jihatlari hamda tasavvurlarning majmuasida o‘z ifodasini topmoqda. Bu esa o‘zining ijtimoiy-psixologik talablariga va tamoyillariga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ushbu ilmiy-nazariy asoslar sportchilar guruhida o‘zini-o‘zi muhofaza qilish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi va sportchilarni jismoniy va psixologik jihatdan tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 03.06.2017 y. PQ-3031 sonli Qarori. Lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 03.11.2020 yildagi PQ-4877-son Qarori. https://lex.uz/.
3. Божович Л.И. Избранные психологические труды / Л.И. Божович Психология формирования личности. - М.: Педагогика, 2004. – 533 с.
4. Гаврилина И.В. Омилы влияния на оценки степени развития волевых качеств личности //Автореф. дис. канд. психол. наук. М.: Московский государственный университет им. М.В. Ломоносова. 2010. – 29 с.
5. Гримак Л.П. Психология активности человека: психологические механизмы и приемы саморегуляции / Л. П. Гримак. - Москва : URSS, Либроком, 2018. – 366 с.
6. Евгений Ильин: Психология воли. 2-е изд. переработанное и дополненное Издательство: Питер, 2009. – 368 с. (Серия: Мастера психологии).

(УДК, УДС):796.086.

PARASPORTCHILARNI MUSOBAQA OLDI PSIXOLOGIK TAYYORLIGINI SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Sobirova L.B
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Adaptiv jismoniy tarbiya va parasport kafedrasi
dotsenti p.f.d. (DSc)
***Murodova A.S** 1-bosqich magistranti*
Chirchiq shahri, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada parasportchilarni musobaqa oldi psixologik tayyorgarligini ahamiyati, start oldi shug‘ullanuvchilarga ta’sir e’tish omillari va ularda uchraydigan psixologik holatlar to‘g‘risida ma’lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Parasportchining ruhiy holati, stressni boshqarish, diqqatni jamlash, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish, emotsional holat, start hayajoni.

Dolzarbligi. Bugungi kunda respublikamizda parasportchilar erishayotgan natijalar yuqorilab bormoqda. Shundan ko‘rinib turibdiki, inson imkoniyatlari cheksizdir. Sportchi ko‘zlangan maqsadga erishish uchun nafaqat jismoniy, balki ruhiy halatini ham safarbar etish yo‘llarini ham bilishi zarur. Sportchilarda bunday bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish mutaxassislar, o‘qituvchi va murabbiylarning diqqat markazida bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-son qarori, 2018 yil 5 mart kuni Prezidentning «Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni qabul qilindi. Soxaga tegishli xujjatlar ijrosini ta’minlash maqsadida ushbu tadqiqot ishi muyyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi. Parasportchilarni musobaqa oldi psixologik holati bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. 1. Parasportchilarda uchraydigan start oldi holatlarini aniqlash. 2. Parasportchilar psixologik holatiga ijobiy tasir ko‘rsatuvchi vositalarni saralsh.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi Sport musobaqasi parasportchining o‘z faoliyatini yuksak darajada namoyon qilish va yuksak insoniy sifatlarni tarbiyalash vositasidir. Parasportchilarni tayyorgarlik holatiga qarab, musobaqa sharoitlari ularga xar xil ta’sir ko‘rsatadi. Start oldi holati parasportchining musobaqaga qatnashishi bilan bog‘liq bo‘lgan holda vujudga keladigan yuksak emosional holatdir. Start oldida paydo bo‘ladigan emosional holat bo‘ladigan musobaqaga moslashish imkonini tug‘diradi hamda erishadigan yutuqlar darajasiga kuchli ta’sir o‘tkazadi.

P.A.Rudik va A.S. Puni ilmiy tadqiqot ishlaridga start oldi holatini 4 holatga bo‘ladilar.Start oldi lixoradkasi (start hayajoni). Start oldi apatiyasi (start lanji). Jangovor holat. Xotirjam holat kabilarni farqlashgan. Start oldi xayajoni esa quyidagilar bilan ifodalanadi: emosional holatning beqarorligi; bitta emosional holat ikkinchisi bilan tezda almashinib turishi; xatto ko‘z yoshigacha borib yetishi va yana aksincha qaytishi bilan izohlashgan.

Parasportchilarda musobaqa jarayonida diqqatning tartibsizlanishi, parishonlik holatining vujudga kelishi; fikrni to‘play olmaslik, xotiraning pasayishi, musobaqaga oid muhim momentlarni hotiradan chiqib ketishi holatlar kuzatiladi. Bu holatni tashqaridan kuzatganda oyoq - qo‘llarning qaltirashi, yuzning oqarishi, oyoq - qo‘l uchlarining sovib ketishi, yuzda, qo‘l kaftida oyoq uchlarida terning paydo bo‘lishi bilan ifodalanadi. Start agatiyasi (ruxsizlanish, xafasizlik, lanj, xech narsaga qiziqmaslik) kuzatiladi. Bu holat start likoradkasining aksidir. Start agatiyasi quyidagi belgilar bilan ifodalanadi: O‘y bosish holatini paydo bo‘lish; musobaqaga qatnashishligi kelmasligi; salbiy kayfiyat - (astenik) ning namoyon bo‘lishi; idrok va diqqatning pasayib ketishi va boshqalar.

Musobaqaga parasportchilarni psixologik tayyorgarlik tizimi o‘z ichiga qator vazifalarni olib bu vazifalarni hal qilish jarayonida parasportchining musobaqaga psixik tayyorgarligi shakllanadi. Parasportchini musobaqaga psixologik tayyorlash tizimiga quyidagi zvenolar kiradi; mashqlangan holatish baholash va o‘z -o‘zini baholash. Musobaqada ishtirok etishning maqsad va vazifalari ha belgilanadi. Musobaqada chiqishning motivlarini faollashtirish, aqliy faoliyat tadqiqotlarini rejalashtirish parasportchida o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga ishonch hissini shakllantirishdan iborat. Maksimal irodaviy zo‘r berishni faollashtirish va uni musobaqa sharoitida namoyon qila bilishdan iborat. Optimal emotsional holatni shakllantirish muhim hisobalanadi. Musobaqa sharoitida

psixik holatlarni boshqarish va o‘z-o‘zini boshqarish priyomlarini egallash bilan ifodalanadi. Yuqorida zvenolar bir birlari bilan uzviy bog‘lansa zvenolardan bittasida bo‘shatish vujudga kelsa, hamma tizim yetishmovchilik vujudga kelishi mumkin. Musobaqa tayyorgarlik paytida parasportchi uchun musobaqa sharoiti, raqibi, musobaqa o‘tkaziladigan joy va tamoshabinlar haqidagi habarlar juda ham zarurdir.

O‘zini raqibi haqidagi bilimlar musobaqaga tayyorlanish uchun aniq tadbirlar ishlab chiqish imkonini beradi, raqib haqida ma’lumotlarning mavjud bo‘lmasligi, sportchida xavotirlanish holatini vujudga keltiradi. Psixologik tayyorlash jarayonida axborotlar yetkazish formasi katta ahamiyatga egadir. Bir xildagi habarni shunday e’lon qilish mumkindirki, u bo‘lajak musobaqadagi kurashga ijobiy yoki munosabatlarni vujudga keltirish mumkin. Yuqori darajali mashqlangan holatni (sport formasida) parasportchi o‘z faoliyatida jismoniy, texnik va taktik ma’lumotlarni sifatliroq ko‘rsata oladi.

Musobaqaning maqsadi parasportchi uchun musobaqa uning e’tiqodiga aylanib ketishi kerak. Parasportchilarning psixologik tayyorlashda sosial ahamiyatga ega motivlar shakklanishning ahamiyati, ayniqsa javobgarlik musobaqalaridagi ahamiyati kattadir. Bo‘lajak sport faoliyatini rejalashtirish ideomotor qonuniga bo‘ysunuvchi harakat tasavvurlari formasida olib boriladi. Ishonchning mavjudligi-parasportchilarning o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishlarining shartidir. Ishonchning yo‘qligi esa buning aksidir. Parasportchining o‘z imkoniyatiga ishonchi bu o‘zining jismoniy, texnik taktik tayyorgarligini anglashning yakunidir.

Parasportning xar bir turida odatdagidan ortiq asab – harakat kuchi sarf etilishi talab qilinadi. Sport harakatlari doimo ongli ravishda kechadi, ular aniq idgomotor tasavvurlar bilan kuzatib boriladi. Bu tasavvurlarda sportchi o‘z e’tiborini bo‘lajak faoliyatga qaratganida ongli mazmunini tashqil qiladi. Insonnning ruhiy jarayonlari o‘rtasidagi e’tibor alohida ahamiyatga egadir. Muskul harakat tasavvurini aniq tafakkur asosida shakllantirish zarur. Bajarilayotgan harakat texnikasi to‘g‘ri bo‘lishi kerak. odatda musobaqalarga chiqishdan oldin bajariladigan razmenkaning maqsadi faqat fiziologik effektga ega bo‘libgina qolmay, balki, ma’lum muskul – harakat tasavvurlarini ham belgilashdan iboratdir. Bunday razmenka davrida sportchi gimnastikachi, masalan, bajaradigan harakatlarning alohida elementlarini kaytaradi, futbolchi tup bilan eng muhim harakatlarini bajaradi. Sportchilar faoliyatida razmenkani ahamiyati nixoyatda kattadir. Agar parasportchi musobaqalarga yetarli tayyorgarlik ko‘rmaganligi ularni ongida yakqol nomoyon bo‘ladi.

Paraportchini asosiy harakatlardan chalgituvchi kuchli salbiy xis – to‘yg‘ular bilan bog‘lik fikrlardir. Bu fikrlar parasportchi ongida yetakchi bo‘lib ular asosiy harakatlarni bo‘zilishiga olib keladi. Parasportchi musobaqalar davomida quyidagilarni o‘z boshidan kechiradi.jaroxat olishdan qo‘rqish, masalan, xarakalarni keragidan kam darajada bajarish. O‘z rakibining darajasi yuqoriligidan qo‘rqish. Hakamlarni noto‘g‘ri harakatlar to‘g‘risiga fikrlar; Yutqazib qo‘yishdan qo‘rqish, Tomoshobinlarning munosabati bilan bog‘lik fikrlar. Ruhiy to‘siqlarning mexinizmini bosh miya katta yarim sharlari qobigida kuchli saliy hissiyotlarning paydo bo‘lishi tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, sport musobaqalarining umumiy psixologik xususiyatlarini ko‘rsatib parasportchilarga ko‘plab turli xildagi omillar – tomoshabinlar tartibi va xulqlari, hakamlar harakatlari, murabbiylar bilan o‘zaro aloqalar, meteorologik sharoitlar, deyarli har bir musobaqa davomida yuzaga keladigan kutilmagan vaziyatlar katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu omillar situativ amal qilsa ham, parasportchilarga ham ijobiy, ham salbiy psixologik ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bularning hammasi bir bo‘lib sport musobaqasini ekstremal sharoitlarda davom etadigan faoliyat sifatida ifoda etadi. Bunday faoliyat yuqori samarali bo‘lishi uchun har bir sportchi va har bir jamoa una har jihatdan ayniqsa psixologik tayyor bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Paralimpiya harakatini rivojlantirish”ga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-5114-son qarori 2021 yil 18 may.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 martdagi “O‘zbekiston sportchilarini 2020 yil Tokiyo shahri (Yaponiya)da bo‘lib o‘tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o‘yinlariga tayyorlash to‘g‘risida”gi PQ-2821-son qarori.

3. Mirjamolov M.X, Yunusov S.A., Svetlichnaya N.K. Paralimpiya tarixi va o‘yin qoidalari o‘quv uslubiy qo‘llanma Ch.:”Axborot-press”nashriyoti, 2019.

4. Светличная Н.К. Адаптивная физическая культура и спорт: учебник. – Т.: O‘zkitobsavdo nashriyoti, 2021. – 232 с.

5. Светличная Н.К. Методические аспекты программы адаптивной физической рекреации на основе фитнес-технологий // Адаптивная физическая культура. – 2023. – №1(93). – С.52-54.
6. Светличная Н.К. Способ оценки уровня физической и функциональной подготовленности человека: методическое пособие. – Чирчик: УзГУФКС, 2023. – 34 с.
7. Бахтияров Д., Шахруз Т. МОНИТОРИНГ ФИЗИЧЕСКОЙ И ТЕХНИЧЕСКОЙ ТАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ЮНЫХ ВРАТАРЕЙ //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 1.
8. Собирова Л.Б. ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ В ПРОФИЛАКТИКЕ НАРУШЕНИЙ РОСТА У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ.
9. Nurullayevna B. S., Sobirova L. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA YASSI OYOQLIKNI JISMONIY MASHG'ULOTLARDA GIMNASTIKA VOSITALARI ORQALI OLDINI OLISH //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 7. – С. 65-69.
10. Sobirova, L. B. "THE USE PHYSICAL EDUCATION ARRANGEMENT TO PREVENT DISORDERS IN 7-10 GRADE PUPILS." *Academic research in educational sciences* 3 (2020): 411-415.
11. Дилшод Бахтиёр Ўғли Бахтиёров, Собирова Лайло Бахромовна, Рухиддин Фахридинович Одилов, Умид Абдугафорович Саидов ЖИСМОНИЙ ИМКОНИЯТИ ЧЕКЛАНГАН ТАЛАБАЛАРНИ ВОСИТАЛАР ОРҚАЛИ ЮҚОРИ НАТИЖАЛАРГА ЭРИШИШДА МОТИВАЦИЯНИНГ ЎРНИ // Ссиентифис прогресс. 2022. №10. УРЛ:

ТАЛАБАЛАРДА СПОРТ ФАОЛИЯТИ МОТИВЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

T.Arzimbetov
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filialí
Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar fanlar"kafedrasi v.b. dotsent ps.f.b.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Sportchilarning psixologik tayyorgarligini oshirish uchun jamoada ishlash bilan bog'liq affilyatsiya motivlari guruhdagi psixologik iqlimni barqarorlashtiradi.

Kalit so'z: shaxs, tafakkur, sezgi, idrok, tasavvur, mantiq, sport, guruh

O'zbekistonda sportni rivojlantirish davlat siyosati darajasida ko'tarilayotganligini, jumladan «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmonda «Yoshlar o'rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish, sportning ommaviyligini oshirish maqsadida milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish, olimpiya o'yinlariga kiritilgan jamoaviy sport turlarini rivojlantirish, ushbu sport turlari bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasining nufuzli xalqaro musobaqalarda ishtirok etishini ta'minlash» vazifalari belgilanganligini alohida e'tirof etish mumkin.

Ta'kidlash joizki, jahonda jamoaviy sport turlarini rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni sportga keng jalb etish, ularda sport ko'nikma va malakalarini shakllantirish, sportchilarni psixologik tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratish, sport faoliyatida psixologik xizmatni to'g'ri tashkil etish va uning samaradorligini aniqlash, sport jamoalari faoliyatini muvofaqqiyatli tashkil etish uchun unga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni oldini olish, bartaraf etishga yo'naltirilgan tavsiyalarni amaliyotga tadbiq qilish, musobaqa oldi o'quv mashg'ulotlarini ilmiy asosda tashkil qilish yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Jahonda bugungi kun talablariga mos sportchilarni tayyorlash uchun ularni jismoniy imkoniyatlari bilan bir qatorda psixologik tayyorgarligiga ham alohida e'tibor qaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Sportchilarning psixologik tayyorgarligini oshirish uchun jamoada ishlash bilan bog'liq affilyatsiya motivlarini, guruhdagi psixologik iqlimni barqarorlashtirishga qaratilgan konstruktiv munosabatlarni va individual irodaviy xususiyatlarni shakllanganlik darajasi muhimligiga ko'ra sport jamoalarida psixologik xizmat ko'rsatishning integrativ blokli-modelini qo'llash samarali ekanligi asoslangan;

A.Maslou fan olamida o'ziga xos "motivatsion tizimning ierarxik modeli" ni yaratdiki, unga muvofiq individ xulq-atvoridagi ijtimoiy jihatdan muhim bo'lgan yuqori ehtiyojlarning yo'nalishi quyi ehtiyojlarning qay tariqa qondirilishi asosidagina tarkib topishi mumkin. Bu jarayon quyidagi ko'rinishga ega:

-fiziologik ehtiyojlar;

-xavfsizlik ehtiyojlari;
-mehr va sadoqat ehtiyojlari;
-tan olish va baholash ehtiyojlari;
-o‘z-o‘zini har tomonlama rivojlantirish ehtiyojlari.

Darhaqiqat, mazkur ierarxik tizim motivatsiyasining ilmiy jihatdan asoslab berilishi birinchidan, ijtimoiy psixologiyadagi ehtiyojlar va motivlar bilan bog‘liq qator tadqiqotlarga hamohang bo‘lsa, ikkinchidan, mazkur yo‘nalishdagi psixologik xizmat metodologiyasini yaratish uchun alohida istiqbolga ega hisoblanadi. Chunki, psixologik xizmatda insonning ijtimoiy ehtiyojlari muammosi ilmiy jihatdan to‘g‘ri talqin qilinishi va to‘g‘ri yo‘naltirilishi lozim.

Shaxs faoliyati unumdorligiga ijobiy ta’sir etuvchi hissiy kechinmalarni va aksincha, musobaqa jarayonda muvaffaqiyatsizliklardan iborat bo‘lgan muhit yaratilsa, sportchi faoliyatiga salbiy ta’sir etuvchi hissiy kechinmalarning namoyon etilishi kuzatiladi. Darhaqiqat, sport faoliyatning muvaffaqiyatli bajarishga yo‘naltirilgan ijobiy-hissiy kechinmalarni shakllantirilmas ekan, bu faoliyat mahsuldorligi past darajada namoyon bo‘ladi.

Sportchilarning o‘z faoliyatidan qoniqish yoki qoniqmaslik muammosi ustida olib borilgan ayrim tadqiqotlar psixologik xizmatning metodologik modelini loyihalashtirishga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, bugungi kunda deyarli barcha sportda omadsizliklar juda ko‘p uchramoqda. Uni kamaytirish va oldini olish esa, hamisha ham muvaffaqiyatli hal qilinayotgani yo‘qdir. Buning uchun esa, muammoning ijtimoiy - psixologik ildizlari haqida chuqurroq o‘ylansa sportchilar hayotidagi yutuqlar, salomatligi va ijtimoiy-ruhiy mavqeyi bilan bog‘liq muhim jihatlar samarali natija berishi mumkin. Bu o‘rinda aytish mumkinki, psixologik xizmatning tashkil etilishi birinchi navbatda sportchilarda yuz berishi mumkin bo‘lgan muvaffaqiyatsizliklardan saqlanish-himoyalanish vositasi sifatida o‘ta muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Shaxs faoliyatiga individual yondashuv yo‘nalishi bilan bog‘liq psixologik xizmatning ma’lum metodologik tamoyillarini ilmiy-tadbiqiy jihatdan asoslab beruvchi olim N.S.Leytes ma’lumotlariga qaraganda, asab tizimi nisbatan kuchsiz bo‘lgan kishilarda ko‘pincha bir xildagi mashg‘ulotning bajarilishida ma’lum afzalliklar borligi aniqlangan: ularning yuqori sezgirligi ta’sirlanuvchanlik muvaffaqiyatini ta’minlaydi, lekin u yoki bu faoliyat jarayonidagi favqulotda va kuchli qo‘zg‘aluvchilar asosida namoyon bo‘luvchi vaziyatlarda kuchsiz tipdagi kishilar aynan o‘zlarining fiziologik xususiyatlariga ko‘ra ishni uddalay olmay qolishlari mumkin.

Umuman, yuqorida qayd etilgan olimlarning umumiy fikr-mulohazalariga ko‘ra individual uslubning shaxsda tez paydo bo‘lmasligi, balki ko‘pincha stixiyali tarzda (ya’ni, individual-hissiy asab sifatlari yordamida) paydo bo‘lishi qayd etiladi. Demak, har bir shaxsga psixologik xizmat davomida o‘z imkoniyatlari va faoliyat talabi uyg‘unligini ta’minlash yo‘llarini izlash asosida yondashilsa mazkur shaxs faoliyatidagi individual uslubning tarkib topishi tobora rivojlanib, takomillashib boradi. Bu esa, o‘z navbatida shaxs va jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etmay qolmaydi.

1. XULOSA Sportchilarning psixologik jihatdan tayyorgarligini oshirish uchun jamoada ishlash bilan bog‘liq motivlarini, guruhdagi psixologik iqlimni barqarorlashtirishga qaratilgan konstruktiv munosabatlarni va individual irodaviy xususiyatlarni shakllanadi. Sportchilar psixologik xizmat ko‘rsatish tizimini affektiv holat, hissiyotga berilish, o‘ziga ishonchsizlik, tushkunlikka tushish kabi salbiy xususiyatlarni kamayishi, qisqa muddatda tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish, o‘zini qo‘lga olish, o‘ziga ishonch, o‘z hissiyotini boshqarish kabi xususiyatlarni inobatga olgan holda ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi to’g‘risida»gi Farmon. -Toshkent.: 2022. –B. 1-3. https://lex.uz/docs/5841063.

2.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 fevraldagi PQ-136-son «Sportni rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil etish to’g‘risida»gi qarori. –Toshkent.: 2022. –B 1-2.

3.Abdurasulov R.A. O’quvchi shaxsini shakllantirishda sport mashg‘ulotlarining o’rni. Monografiya. –Toshkent.: Fan va texnologiya. 2013. -204 bet.

4.Barotov Sh. R. Psixologik xizmat. –T. 2018. -346 b.

5.Гаппаров З.Г. Спортивная психология: Учебник для студ. ин-та физкультуры / З.Г.Гаппаров; МВ и ССО РУз. - Т.: ООО “Мехридарё”, 2009, - 312 б

SPORSHILARDA ÓZ ÚSTINDE ISLEW KÓNLIKPELERIN QÁLIPLESTIRIWDIŃ PSIXOLOGIYALIQ ÓZGESHELIKLERI

Jumabaev Timur Jalgasbaevich
Nukus innovaciya instituti, Pedagogika hám psixologiya kafedrası,
ps.p.b.f.d (PhD), w.a.docent.

Annotatsiya: *Bul tezisde sporshılardıń óz ústinde islew kónlikpeleriniń tiykarǵı komponentlerin anıqlaw hám olardıń sporshılar ushın áhmiyeti haqqında, sporshılarda óz ústinde islew kónlikpelerin qáliplestiriwge tásir etiwshi psixologiyalıq faktorlardı (motivaciya, ózin-ózi ańlaw, stress basqarıw) analiz etiw, hám sporshılardıń óz ústinde islew kónlikpelerin rawajlandırıwda qollanılatuǵın psixologiyalıq metodlar hám strategiyalardı úyreniw haqqında maǵlıwmatlar berilgen.*

Gilt sózler: *sporchi, motivaciya, ózin-ózi ańlaw, stress basqarıw, kónlikpe, háreket, nátiyje*

Аннотация: *В данной дипломной работе выявлены основные компоненты навыков самостоятельной работы спортсменов и их значение для спортсменов, проанализированы психологические факторы, влияющие на формирование навыков самостоятельной работы спортсменов (мотивация, самосознание, управление стрессом), а также информация по исследованию. психологических методов и стратегий, используемых при развитии умений спортсменов работать над собой.*

Ключевые слова: *спортсмен, мотивация, самосознание, управление стрессом, умение, усилие, результативность.*

Annotation: *This thesis provides information on identifying the main components of athletes' self-improvement skills and their importance for athletes, analyzing the psychological factors (motivation, self-awareness, stress management) that influence the formation of self-improvement skills in athletes, and studying the psychological methods and strategies used to develop athletes' self-improvement skills.*

Key words: *athlete, motivation, self-awareness, stress management, skill, effort, result.*

Házirgi kúnde sport dúnya kóleminde barǵan sayın básekige shıdamlı bolıp barmaqta. Sporshılardıń jetiskenligine alıp keliwshi faktorlar arasında psixologiyalıq tayarlıq hám óz ústinde islew kónlikpeleri áhmiyetli orın tutadı. Zamanagóy sportta tabıs kóp tárepleme sporshınıń psixologiyalıq tayarlıǵına hám óz ústinde islew kónlikpelerine baylanıslı. Sport bilimlendiriwi hám trening metodlarında jańalıqlar kirgiziw zárúrligi, óz ústinde islew kónlikpelerin rawajlandırıw ushın innovaciyalıq kózqaraslardı islep shıǵıw zárúrligi, sporchilarda stress, depressiya hám basqa psixologiyalıq mashqalalardıń aldın alıw ushın óz ústinde islew kónlikpelerin rawajlandırıw áhmiyetli. Sporshılardı tárbiyalawda social hám psixologiyalıq faktorlardıń tásirin úyreniw, olardı sport iskerliginde qollanıw zárúrligi. Óz ústinde islew kónlikpelerin qáliplestiriwde ámeliy tájiriybeler hám metodlardıń nátiyjeliligin úyreniw arqalı sporshılar hám trenerler ushın jańa kózqaraslardı usınıw. Bul temada alıngan bilimlerdi ámeliyatqa engiziw arqalı sporshılardıń óz ústinde islew kónlikpelerin rawajlandırıw procesin jáne de tereńlestiriw. Ózbekstanda sport bilimlendiriwi hám trening processlerinde óz ústinde islew kónlikpelerin qáliplestiriwge qaratılǵan izertlewler hám ámeliyatlar jetispey atır, bul temanı úyreniw ózine tán áhmietke ie. Sporshılarda óz ústinde islew kónlikpelerin rawajlandırıwǵa qaratılǵan ilimiy izertlewlerdi qollap-quwatlaw, bul tarawdaǵı bilimlerdi keńeytiw hám rawajlandırıw ushın zárúr.

Sportta tabıs tek fizikalıq tayarlıqqa baylanıslı emes, al psixologiyalıq jaǵdayǵa da baylanıslı. Óz ústinde islew kónlikpeleri sporshılardıń stress hám básekige qalay múnásibet etiwin belgileydi. Sporshılarǵa óz ústinde islew kónlikpelerin qáliplestiriw, olardıń jarıs sharayatında ózin-ózi basqarıw qábileti artadı. Bul bolsa sportta tabısqa erisiwde úlken áhmietke ie. Óz ústinde islew kónlikpeleri sporshılardıń psixologiyalıq turaqlılıǵın arttıradı hám motivaciyasın kúsheytedi. Bul, óz gezeginde, nátiyjelerdiń jaqsılanıwına alıp keledi. Sporshılarda óz ústinde islew kónlikpelerin qáliplestiriw, kúshli mental qábiletlerdi rawajlandırıwǵa járdem beredi. Bular arasında diqqat, úyreniw, qarar qabil etiw hám ózin-ózi ańlaw kiredi. Bul tema, sport psixologiyası tarawında jańa kózqaraslar hám usıllardı islep shıǵıw imkaniyatın beredi. Pedagogikalıq-psixologiyalıq tiykarlardı biliw, sport trenerlerine nátiyjeli usıllardı qollanıw imkaniyatın beredi. Óz ústinde islew kónlikpeleri sporttan tısqarı, basqa tarawlarda da tabısqa erisiw ushın zárúr. Bul, máselen, jumıs ornındaǵı stressti basqarıw, waqıttı nátiyjeli shólkemlestiriw hám jeke rawajlanıwǵa járdem beredi.

Kóplegen izertlewler sport psixologiyası tarawında óz ústinde islew kónlikpeleriniń teoriyalıq tiykarların usınadı. Bul tiykarlarǵa psixologiyalıq ózin-ózi ańlaw, motivaciya hám ózin-ózi xoshametlew sıyaqlı túsinikler kiredi. Sporshılarda óz ústinde islew kónlikpelerin qáliplestiriwde qollanılatuǵın pedagogikalıq kózqaraslar, metodlar hám strategiyalar haqqında kóplegen ádebiyatlar bar. Bul kózqaraslar individual hám jámáátlik úyreniw, tájiriybe almasıw hám motivaciyalıq strategiyalardı óz ishine aladı. Psixologiyalıq tárepler, máselen, stressti basqarıw, ózin-ózi ańlaw hám psixologiyalıq turaqlılıq haqqında úyrenilgen ádebiyatlar, sporshılardıń tabısına tásir etiwshi faktorlar sıpatında dodalanadı. Óz ústinde islew kónlikpelerin qáliplestiriw procesi trening hám tayarlıq processlerinde qanshelli áhmietli ekenligi haqqında izertlewler bar. Bul izertlewler sporshılardıń nátiyjelerin jaqsılawǵa járdem beriwshi jańa metodikalardı usınıs etedi. Ámeliy tájiriybeler hám izertlewler, sporshılardıń óz ústinde islew kónlikpelerin rawajlandırıwǵa qaratılǵan tabıslı baǵdarlamalar hám usıllardı kórsetedi. Bul tájiriybeler kóbinese trenerler hám psixologlar tárepinen úyreniledi. Sporshılardıń óz ústinde islew kónlikpelerin qáliplestiriwde sociallıq hám mádeniy faktorlar da izertlew obyekti boladı. Bul sport ortalıǵınıń sporshılarǵa tásirin úyreniwge járdem beredi. Ózbekstanda sporshılarda óz ústinde islew kónlikpelerin qáliplestiriwge baylanıslı izertlewler ele sheklengen bolıwı múmkin, biraq bul taraw boyınsha elimizde de jańa jumıslar alıp barılmaqta.

Respublikamızdıń sport ilimiy-izertlew mákemeleri hám universitetlerinde sport psixologiyası hám pedagogikası boyınsha kóplegen ilimiy izertlewler alıp barılmaqta. Bul izertlewler sporshılardıń psixologiyalıq jaǵdayın hám óz ústinde islew kónlikpelerin rawajlandırıwǵa qaratılǵan. Sport federaciyaları hám trenerler óz sporshıların rawajlandırıw ushın arnawlı trening baǵdarlamaların islep shıqpaqta. Bul baǵdarlamalar psixologiyalıq tayarlıq hám ózin-ózi basqarıw kónlikpelerin óz ishine aladı. Sport tarawındaǵı qánigeler hám psixologlar sporshılar ushın hár qıylı seminarlar hám konferenciyalar ótkermekte. Bul ilajlarda óz ústinde islew kónlikpeleri hám psixologiyalıq tayarlıq máseleleri dodalanadı. Sporshılar ushın psixologiyalıq járdem xızmetleri shólkemlestirilmekte, bul olardıń psixologiyalıq jaǵdayın jaqsılaw hám óz ústinde islew kónlikpelerin rawajlandırıwǵa járdem beredi. Óz ústinde islew kónlikpelerin qáliplestiriwde innovaciyalıq metodlar, máselen, kognitiv-háreketli qatnaslar hám trening usılları qollanılmaqta. Bul usıllar sporshılardıń stressti basqarıw hám ózin-ózi nátiyjeli túsiniwine járdem beredi. Sport trenerleri hám psixologları arasında óz-ara tájiriybe almasıw, metodikalar hám kózqaraslar menen bólisiw jedel rawajlanbaqta, bul bolsa sapalı nátiyjelerge alıp keledi. Húkimetimiz sport tarawında rawajlanıw ushın iri joybarlar hám baǵdarlamalardı ámelge asırmaqta, bul bolsa sporshılardıń tayarlıq procesinde psixologiyalıq aspektlerdi esapqa alıwdı támiyinleydi.

Izertlew predmetinde sporshılardıń óz ústinde islew kónlikpeleri - yaǵnıy, ózin-ózi tallaw, maqset qoyıw, motivaciya, stressti basqarıw hám ózin-ózi xoshametlew sıyaqlı psixologiyalıq-pedagogikalıq kónlikpeler itibarǵa alınadı. Izertlewde sporshılardıń óz ústinde islew kónlikpelerin qáliplestiriwde qollanılatuǵın pedagogikalıq qatnaslar, metodlar hám strategiyalar jáne olarǵa tásir etiwshi faktorlar úyreniledi. Sporshılardıń psixologiyalıq jaǵdayı, ózin-ózi ańlaw dárejesi, streske qarsı tura alıw qábileti hám jámáát ishindegi qatnasıqlar izertlew predmetiniń tiykarǵı bólimlerin quraydı. Óz ústinde islew kónlikpelerin qáliplestiriw procesi, sporshılardı tayarlaw hám olardıń rawajlanıwına baylanıslı barlıq processler - bul izertlewdiń áhmietli komponentlerinen biri bolıp esaplanadı. Izertlew predmetinde sporshılardıń jeke hám professional rawajlanıwı, olardıń sporttaǵı tabısı hám jámiette óz ornın tabıw procesi úyrenilgen. Sporshılardıń sociallıq ortalıqta, komandalıq jumısta hám báseki ortalıǵında óz ústinde islew kónlikpelerin qalay qáliplestiriwi de izertlew predmetine kiredi.

Izertlew nátiyjeleri tiykarında sporshılardıń óz ústinde islew kónlikpelerin rawajlandırıw ushın jańa trening baǵdarlamaları islep shıǵılıwı múmkin. Bul baǵdarlamalar psixologiyalıq tayarlıq hám strategiyalardı óz ishine aladı. Dissertaciya nátiyjeleri trenerler ushın ámeliy qollanba sıpatında xızmet etedi. Olar sporshılardıń psixologiyalıq jaǵdayın jaqsılaw hám óz ústinde islew kónlikpelerin rawajlandırıwda nátiyjeli metodlardı qollanıw imkaniyatına ie boladı. Izertlew, sporshılardıń individual ózgesheliklerin esapqa alǵan halda, óz ústinde islew kónlikpelerin qáliplestiriwde individual qatnaslardı usınıs etedi. Bul, hár bir sporshınıń ózine tán talapların qanaatlandırıwǵa járdem beredi. Dissertaciya nátiyjeleri sporshılardıń psixologiyalıq tayarlıq procesin jaqsılawǵa qaratılǵan jańa usıllardı usınıs etedi. Bul sporshılardıń stressti basqarıw hám básekige tayarlıǵın arttırıwǵa járdem beredi. Izertlew nátiyjelerine tiykarlanıp, sporshılardıń óz ústinde islew kónlikpelerin bahalaw hám baqlaw ushın jańa metodologiyalar islep shıǵılıwı múmkin. Bul metodlar sporshılardıń rawajlanıwın baqlaw hám analiz yetiwge járdem beredi. Izertlew nátiyjeleri sporshılar hám trenerler arasında óz-ara tájiriybe almasıwdı

kúsheytiwge járdem beredi. Bul sporshılardıń óz ústinde islew kónlikpelerin rawajlandırıwda unamlı ortalıq jaratadı. Óz ústinde islew kónlikpelerin qáliplestiriw sporshılardıń sociallıq hám jámáátlik rawajlanıwına da járdem beredi, bul bolsa olardıń komandada islew qábiletin arttıradı.

PAYDALANILǴAN ÁDEBIYATLAR

1. Б.А.Ашмарин. Теорга и методика физического воспитания. Москва. 1979.
2. Л.Матвеев. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси. Москва. 1982.
3. Б.А.Ашмарин. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси. Москва.1984.
4. Филин В.П. Воспитана физических качеств у юних спортсменов. Москва., 1984.
5. Теория и методика физическая воспитания. Л.П.Матвеева А.Д.Новикова. Москва; ФиС.
6. Теория и методика физического воспитания. Под ред. Б.А.Ашмарина. М.,1987.
7. П.К.Благуш. К теорию тестирования двигательних способностей. Москва; ФиС, 1987
8. В.П.Филин, Н.А.Фомин. Основи юношеского спорта. Москва; ФиС. 1988
9. Б.А.Ашмарин. Теория и методика педагогических исследований в физическом воспитании. Москва; Фи 1988

MASHG‘ULOTLAR JARAYONIDA VA MUSOBAQALARDA SPORTCHILARNING HISSIY-IRODAVIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

Eshnazarova Farida Jo‘raqulovna

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada sportchilarning hissiy-irodaviy sifatlarini rivojlantirish masalasiga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, sport turlarining o‘ziga xos xususiyatlari, sportchilarni musobaqaga psixologik tayyorlash bosqichlari hamda sport faoliyatida ma’lum bir natijalarga erishish imkoniyatlarining psixologik mexanizmlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Jismoniy madaniyat, sport, sportchi, musoboqa, psixologik tayyorgarlik, g‘alaba.

Аннотация: Данная статья посвящена вопросу развития эмоционально-волевых качеств спортсменов. Также описаны особенности спорта, этапы психологической подготовки спортсменов к соревнованиям и психологические механизмы возможностей достижения определенных результатов в спортивной деятельности.

Ключевые слова: Физическая культура, спорт, спортсмен, соревнование, психологическая подготовка, победа.

Abstract: This article focuses on the issue of developing the emotional and volitional qualities of athletes. Also, specific characteristics of sports, stages of psychological preparation of athletes for competition, and psychological mechanisms of opportunities to achieve certain results in sports activities are described.

Key words: Physical culture, sport, athlete, competition, psychological preparation, victory.

Sportchilarda irodaviylik, g‘alabaga intiluvchanlik, epchillik, o‘zini tuta bilishlik, chidamlilik kabi sifatlarning shakllanishida sport mashg‘ulotlarining ahamiyati katta. Bu masalani kuchli taassurot qoldirarli darajada hal etish uchun irodaviy psixologik qonuniyatlarning rivojlanish jihatlarini hisobga olish zarur. Iroda sportchilarning qiyinchiliklarni yengish jarayonida shakllanib boradi. Bu irodaviy sifatlar sportchilarning quyidagi faoliyat turlarida: sport mashg‘ulotlari rejasi mazmunini o‘zlashtirishlarida, turli xil jismoniy mashqlarni bajarishlarida, tashqi va ichki qiyinchiliklarni yengishlarida hamda ushbu jarayonda namoyon bo‘ladigan turli subyektiv munosabatlarda vujudga keladi:

1. Sport mashg‘ulotlari rejasi bilan bog‘liq bo‘lgan qiyinchilik (gimnastika, yengil atletika, basketbol, suzish va h.k.)lar.
2. Mashg‘ulotlarni tashkil qilishda sport zali va maydonchalarining yetishmasligi bilan bog‘liq bo‘lgan qiyinchiliklar.
3. Mashg‘ulotlar o‘tkazishda sport anjomlarining yetishmasligi bilan bog‘liq bo‘lgan qiyinchiliklar.
4. Yosh va individual xususiyatlarga bog‘liqligi hamda sportchilarning mashg‘ulotlarni tashkil qilishda umumiy sharoitlarga subyektiv munosabati.

5. Sportchilarning gimnastika, yengil atletika va harakatli o‘yin mashqlarini bajarishda individual va yosh xususiyatlari bilan bog‘liq subyektiv munosabatlar.

6. Sportchilarda aniq harakatlarni bajarishda irodaviy sifatlarni vujudga keltirish va yo 'naltirishda individual va yosh xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan subyektiv munosabatlar.

Aralash uslublardan foydalanib, irodaviy sifatlarni tarbiyalashda ichki qiyinchiliklarni yengib o‘tishni hisobga olish lozim. Sport mashg‘ulotlari va mashqlar jarayonida tashqi va ichki ruhiy qiyinchiliklarni bartaraf etish o‘quv materiallari xarakteriga, rejadagi me’yor talablariga hamda sportchilarning individual xususiyatlariga qarab belgilanadi. Ko‘p hollarda yosh sportchilar (13-15 yoshlar atrofidagi o‘smirlar)da jismoniy kuch sifatlarining past rivojlanganligi, u yoki bu mashqlarni bajarishda o‘ziga ishonchning yo‘qligi, jarohat olishdan qo‘rqish holati, uyalish, umuman, mashg‘ulotlarga salbiy munosabatda bo‘lish kabilar ularda umumiy qiziqishning pasayib ketishiga olib keladi. Qiziqarli tashkil etilgan mashg‘ulot va mashqlar sportchilarda ijobiy irodaviy sifatlarni shakllantiradi. Shuningdek, har bir mashg‘ulotda bajariladigan maxsus jismoniy mashqlar sportchilarning irodaviy faolliklarini o‘stirishga kuchli ta’sir etadi. Masalan, sportchilarda mustaqil fikrlashni o‘stirish uchun ular bilan birgalikda muskullarni o‘stiruvchi bir guruh mashqlar o‘ylab topish, shulardan yengil va og‘ir jismoniy mashqlarni tanlab olish va birgalikda bajarish, mashg‘ulotning asosiy qismida bir nechta mashqlarni taqqoslash kabilar juda muhimdir.

Sportchilarda chidamlilikni o‘stirish maqsadida mashqlarni yuqori mahorat bilan bajarish, ba’zi bir mashqlarni maksimal darajada bajarish, qisqa vaqt ichida aniq ko‘rsatkichlarga erishish, qiyin sharoitlarda mashqlarni yuqori texnik va taktik mahorat bilan bajarish asosida yuqori natijalarga erishish (oyoqlarni almashtirib balandlikka sakrash, qarama- qarshi tomondan chopib kelib sakrash, vaziyatni qiyinlashtirib sakrash mashqlarini takror-takror bajarish) talab qilinadi. Shuningdek, sportchilarda irodaviy sifatlarni vujudga keltirish maqsadida maxsus mashqlarni bor kuchini sarf qilish asosida o‘z-o‘zini irodaviy majburlashga o‘rgatish ham juda muhimdir.

Irodaviy kuch uslubini tashqi va ichki turlarga ajratish mumkin:

1) tashqi irodaviy kuch sportchining sezgi organlariga ta’sir etib turgan tashqi hodisaga va qo‘zg‘ovchilarga bogliq bo‘ladi;

2) ichki irodaviy kuch mashg‘ulotlar jarayonida va musobaqalarda sportchining o‘zida mavjud bo‘lgan yo‘nalishlar asosida paydo bo‘ladi.

Mashg‘ulotlar jarayonida va musobaqalarda sportchilarda irodaviy chidamlilikni tarbiyalashda murabbiyga quyidagi usullardan foydalanishni tavsiya qilamiz:

a) uyga berilgan mashqlarni to‘g‘ri bajarishni talab qitish;

b) sportchilarni o‘z kuchiga ishonch ruhida tarbiyalash;

d) to‘g‘ri bajarilgan mashqlarni baholash;

e) majburlash, musobaqalashish, maqtash;

d) sportchilarda o‘z-o‘zini rag‘batlantirish malakalarini hosil qilish;

e) qiyin mashqlarni mustaqil bajarishga o‘rgatish;

f) o‘ziga-o‘zi ta’sir etish, o‘zini-o‘zi xursand qilish, o‘ziga-o‘zi buyruq berish v.b.

Sport mashg‘ulotlarining asosiy maqsadi yuqori malakali sportchilar, sport mutaxassislari, chempionlar tayyorlash asosida yosh avlodni sog‘lom o‘sishiga ko‘maklashish yoki sog‘lomlashtirishdir. Jismoniy madaniyat va sport har bir sportchining shaxsiy ishi bo‘lmasdan, balki jamiyat talabi ekanligini murabbiylar ongli ravishda his etmog‘i zarur. Bizning sog‘lomligimiz faqat o‘zimiz uchungina emas, balki boshqa kishilar, qolaversa, Vatan taraqqiyoti uchun ham eng muhim omildir. Akademik N.M. Amosov so‘zi bilan aytadigan bo‘lsak, sog‘lom kishini kasalligi yo‘qligiga qarab emas, balki turli xil tez harakatlarni bajarish hajmiga qarab hamda kundalik harakatlarining turiga, sifatiga, soniga qarab uning sog‘ligini baholash zarur. Har xil harakatlarni bajarishning chegaralanganligi, sog‘likni mukammal emasligining belgisidir.

Sport mashqlari bilan shug‘ullanish har bir yosh avlodning kundalik hayotida doimiy va shaxsiy maqsadlaridan biri bo‘lishi bilan birga, uning kamol topishi, vatanni sevishi va himoya qilishi uchun eng asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Jamoatchilik shaklida sportchilarning o‘z-o‘zini tarbiyalashi sport mashg‘ulotlari, mashqlar va musobaqa jarayonida o‘z qiziqishlari bo‘yicha turli xil mashqlarni, jamoat ishlarini birgalikda bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Shuni hisobga olish kerakki jamoatchilik majburiyatlarini olish va bajarish ishlari o‘zini- o‘zi tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Sportchilar o‘zlarining xulq-atvorini to‘g‘ri baholashga o‘rgatilsa, jamoatchilik fikrining barqarorligi paydo bo‘ladi. Natijada sport guruhi jamoasi

uyushgan, mustahkam kuchga aylanadi. Individual shaklda har bir sportchi o‘ziga aniq majburiyat oladi. Bu majburiyatni bajarishda, har bir sportchining individual xususiyatlari ham hisobga olinishi lozim.

O‘zini-o‘zi tarbiyalashni tashkil etishda quyidagi qoidalarga amal qilishga to‘g‘ri keladi:

1) o ‘zini-o ‘zi tarbiyalash rejasi aniq va mazmundor bo ‘lishi lozim;

2) yangi majburiyatlar eskisi bajarlgandan keyin qabul qilinishi shart;

3) sportchilarning o‘z ustida mustaqil ishlashi jamoatchilik tomonidan baholab borilishi kerak;

4) o‘zini-o‘zi tarbiyalashda tarbiyaning qanday vositalaridan foydalanishni ko‘rsatib berish lozim.

Masalan, o‘smirlik yoshidagi sportchilar o‘zini-o‘zi tarbiyalashda quyidagi uslublarga izchil amal qilishi maqsadga muvofiq:

a) eng og‘ir sharoitlarda ham o‘zini yo‘qotmaslik;

b) arzimagan narsalarga xafa bo‘lavermaslik;

d) irodasizlikka yo‘l qo ‘ymaslik, ya ’ni «muvaffaqiyatsizlikda ham o‘zini yo‘qotmaslik».

O‘zini-o‘zi tarbiyalash quyidagi bosqichlar to‘g‘ri tashkil etilgan taqdirdagina ijobiy natijalar beradi:

I bosqichda sportchilarda axloqiy, irodaviy va jismoniy sifatlarning uyg‘un rivojlanmaganligini, jismoniy mashqlar bilan doimo shug‘ullanish uchun ularga nimalar xalaqit berayotganligini aniq hisobga olib, sportchilarni bu kamchiliklarni bartaraf qilishga o‘rgatish; ularda o‘zini- o‘zi tarbiyalashning g‘oyaviy tomonlarini o‘stirish, o‘zini-o‘zi himoya qilish xususiyatlarini shakllantirish, o‘zining jismoniy kuchlilik sifatlarini yanada kamol toptirish uchun mustaqil ishlashga odatlantirish, sport musobaqalarida faol ishtirok etish ehtiyojlarini shakllantirish talab qilinadi.

II bosqichda sportchilarning o‘zini-o‘zi tarbiyalash faoliyatining amaliy tomonlarini tashkil etishda quyidagi uslublardan foydalanish mumkin:

a) sportchi o‘zining xohishi bilan yozma majburiyat-vazifalarni qabul qilish;

b) ma ’lum bir vaqt davomida, o ‘zining xulq-atvorini baholash, o ‘zi qabul qilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarish hamda o‘zidagi axloqiy, irodaviy va jismoniy sifatlar to‘g‘risida hisobot berish;

d) sportchining o'zi olgan majburiyatlarini yozma tahlil qilish: musobaqalarda erishgan muvaffaqiyatlari va mag‘lubiyatlarining sabablarini anglash malakalarini shakllantirish;

e) sportchi o‘zini-o‘zi baholashda o‘zida yetishmaydigan xususiyatlarni to‘g‘ri his etish yordamida xulosa chiqarishga o‘rganish.

III bosqichda sportchini o‘zini-o‘zi har tomonlama mustaqil ravishda kamol toptirish ehtiyoji bilan yashashga odatlantirish lozim.

Sport jamoasi yoki guruhini to‘g‘ri boshqarish murabbiyning tashkilotchilik va pedagogik mahoratiga, bilim va qobiliyatiga bog‘liq. Jumladan, murabbiyning taiabchanligi, sportchilar jamoasi bilan to‘g‘ri va o‘zaro hurmatga asoslangan munosabat o‘rnatishi sportchilarning mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish imkonini beradi. Murabbiy sportchilar jamoasini to‘g‘ri boshqarishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratishi maqsadga muvofiq: bir-biriga bo‘lgan talabchanlikni xolis baholash, o‘zini ishontirish, sport musobaqalarida to‘g‘ri raqobatlashish, bir-biriga yordamlashish, jismoniy zaif sportchilarni to‘g‘ri tushunish va ular to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, guruh sportchilari kayfiyatini ko‘tarish kabilar.

Sportchilarning ruhiy faollik darajasi ko‘pincha sport mashg‘ulotlari va musobaqalarning yuqori darajada sifatli o‘tkazilishiga bog‘liq bo‘ladi. Sportchilar bunday tashkil etilgan musobaqa jarayonida o‘zlarini ko‘rsatish maqsadida bor kuchini safarbar qiladi. Shuningdek, musobaqalashish uslubi sport turlari uchun «lider»larni aniqlashga, sportchilarning bo‘lajak sport musobaqalarini o‘zlari mustaqil tashkil etishlariga yordam beradi. Sport musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazish uchun murabbiy hamda faol sportchilardan kuchli irodaviy sifatlarni ishga solish talab qilinadi.

Tajribali murabbiylar sport mashg‘ulotlari jarayonini juda yaxshi idrok qilishi va shogirdlaridagi mavjud kamchiliklarni o‘z vaqtida his qilishi va uni o‘z vaqtida bartaraf etib borishi lozim. Bulardan tashqari, murabbiyning harakat xotirasi keng hajmda qabul qilish imkoniyatiga ham ega bo‘lishi, bajariladigan har xil harakatlarning obrazlarini xotirasida saqlay bilishi, mashg‘ulotlar davomida sportchilarning nima bilan mashg‘ulligini kuzatib turib, ularni tez, qisqa vaqt davomida to‘g‘ri yo‘lga solishi hamda aniq bir qarorga kelishi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Masharipov Y. Umumiy va sport psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. «Ilm Ziyo» nashriyoti. Toshkent-2012.
2. G‘oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent. «O‘qituvchi» 1990.
4. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. - T.: Fan va texnologiya, 2008, 388-bet.
6. Ivanov P.U., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. -T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008, 472 bet.

DEVIANT BEHAVIOR AS A SOCIAL, PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL PROBLEM

Kalillayeva Ulbosin
Doctor of Philosophy in psychological sciences(PhD)
Oralbaeva Iroda
Nukus branch of Uzbekistan State University of Physical Education and Sports
3rd year student

Ҳозирги кунда замон Спорт мактабларининг амалдаги дастурларини таҳлил қилиш, ўқувчиларни бошланғич тайёргарлик гуруҳларига танлаш, кўп йиллик тайёргарлик жараёнида ёш волейболчиларни битирув ва жорий синовларига асосан жисмоний ривожланганлиги, жисмоний ва техник тайёргарлиги белгиларини ҳисобга олиш асосида ўтказилишини кўрсатади. Шу билан бир вақтда сўнгги йилларда республикамизда кенг тарқалган спорт турларидан бири – волейболнинг ривожланишида яққол кўзга ташланадиган томонларидан бири комбинацион ўйиннинг кучайиши ҳисобланади. Бу эса спортчиларнинг ўйинда фикрлашлари ва тактик тайёргарликларига бир қатор қатъий талабларни қўяди. Волейбол билан шуғулланиш учун болаларни танлашда бошқа кўрсаткичлар билан биргаликда фақатгина жисмоний ривожланганлик, жисмоний ва техник тайёргарлик кўрсаткичлари ёрдамида аниқлаш мумкин

бўлмаган ўйин фаолиятига қобилиятларини ривожлантириш ва намоён этишга сабаб бўлувчи шахсий сифат ва хусусиятларини аниқлаш алоҳида аҳамиятга эга. Бу борада юртимизда кенг кўламда ишлар олиб борилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 2002-йил 31 октябр, 374-сон. Болалар спортини тарғиб қилиш ва болалар учун спорт товарлари ишлаб чиқариш турларини кенгайтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2003-йил 18-июл, 318-сонли қарорлари ёш қатламнинг ривожланиши ва спортга янада қизиқишининг ортиб боришига муайян даражада хизмат қилиб келмоқда. Бунинг замирида ҳозирги кунда спортда эришилаётган ютуқларимиз олимпиадада юқори чўққиларга чиқишимизнинг ўзи спортимизнинг кундан-кунга ривожланиб бораётганлигининг яққол исботидир.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Жисмоний тайёргарлик умумий ва махсус жисмоний тайёргарликка бўлинади. Умумий жисмоний тайёргарлик спорт тренировкасини муҳим вазифаларидан бири сифатида шуғулланувчиларнинг тўлақонли жисмоний тараққиёти ва ҳар томонлама жисмоний тайёргарлигини таъминлашга қаратилади. Умумий жисмоний тайёргарлик зарур ҳаётий малакани такомиллаштиришга ва асосий жисмоний сифатларни ривожлантиришга йўналтирилган жараёндир. Мақсади махсус жисмоний тайёргарликнинг пойдевори бўлган умумий жисмоний тайёргарлик базасини яратишдир.

Умумий жисмоний тайёргарликнинг вазифалари - асосий жисмоний сифатларни ривожлантириш, организмнинг функционал имкониятларини ошириш ҳаракат малакаларининг ҳажми ва ижроий чегарасини кенгайтириш ва соғлиқни мустаҳкамлаш, тикланиш жараёнини фаоллаштириш, организмнинг ташқи ва ички салбий таъсирларига бўлган бардошини оширишдан иборат.

Махсус жисмоний тайёргарлик - танланган спорт турида юқори натижаларга эришиш мақсадида шу спорт турида асосий ва ҳал этувчи аҳамиятга эга бўлган жисмоний сифатларни ривожлантиришга йўналтирилган жараёндир.

Вазифалари:

-волейболга хос махсус ҳаракат сифатлари ва қобилиятларини (тезкорлик, куч-тезкорлик, чаққонлик, махсус чидамкорлик ва ҳ.) ривожлантириш;

-ўйин техникасини ўзлаштиришда зарур бўлган комбинатsiяларни ривожлантириш;

-ўйин тактикасини ўзлаштиришда зарур бўлган комбинатsiяларни ривожлантириш;

Махсус жисмоний тайёргарлик спорт тренировкасининг барча босқич ва даврларида ҳажм ва шиддат жиҳатидан муносиб меъёрда қўлланилади.

Назарий ва психологик тайёргарлик

“Психология” - руҳият ва хислатларни ўрганувчи фанни ифодалайди. Демак, “психологик тайёргарлик” жумласини ўрнига “психик тайёргарлик” жумласини қўллаш аниқроқ бўлади дейиш мумкин.

Ҳар бир тайёргарлик жараёнида ўқувчиларни психологик тайёрлаб бориш лозим.

НАТИЖАЛАР

Жисмоний тайёргарликни юқори даражага чиқаришда бир неча муҳим шартларни амалга ошириш даркор.

Жисмоний тарбия дарслари ва дарсдан ташқари машғулотларда волейбол спорт тури воситасида жисмоний таёргарлик акмеологиясини шакллантириш шартлари:

- вақтни тўғри ташкил этиш;
- фаол ҳаракатланиш позицияни шакллантириш;
- техника ва тактикани тўғри қўллаш;
- тезкор фикрлаш ҳамда вазиятни олдиндан кўра билишга ўргатиш;
- ихтисослаштирилган тартибли машқлар тизимини ишлаб чиқиш;
- машқлар юқумлилигининг ёшга қараб даражаларини аниқ белгилаш;

Акмеологик ёндашув эса унинг энг юқори даражага чиқиш йўлларини асослаш билан характерланади. Бунинг учун:

- волейболга мос бўлган ҳаракатли ўйинлар орқали ривожланиш динамикаси ва шаклланганлик даражаси бўйича датлабки жисмоний сифатларини шакллантиришга доир назарий ва амалий ишлар жараёни механизми такомиллаштирилади;

- прогрессив ривожланишга ҳамда биринчи навбатда шахснинг профессионализми ва муайян меҳнат субъектлари фаолиятининг тараққиётига имкон берадиган талаблар, шароит ва омилларни шакллантириш, ёш волейболчиларнинг сифат кўринишини ўзгартириш тизими ишлаб чиқилади;

ХУЛОСА

Акмеологик хулосалар натижаларининг катта амалий аҳамияти шундаки, улар инсонни қандай шароитларда интеллектуал, жисмоний ва маънавий фаоллик чўққисига олиб чиққанлиги тўғрисида маълумотни ифодалайди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Шукурллаев Ж.М. Бошланғич синф ўқувчиларини волейбол спорт турига саралаб олиш усулларини такомиллаштириш. “Бошланғич таълимни компетенциявий ташкил этиш: назария ва амалиёт” мавзусидаги онлайн ҳалқаро илмий-назарий анжуман. 2020-йил 28-апрел.
2. Xudoyberganov J.S. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri taraqqiyoting asosi. Актуалние визови современной науки сборник научних трудов 65-68 бетлар. Украина 2020.
3. Утепбергенов А.К, Шукруллаев Ж.М. Особенности акмеологического подхода и системы дидактического обоснования развития физических качеств у школьников средствами волейбольного. Экономика и социум №3(82) 2021.
4. Шукурллаев Ж.М. Ўқувчи ёшларни волейбол спорт турига танлаб олишнинг методик хусусиятлари. ACADEMIC RESEARCH in EDUCATIONAL SCIENCES. №.1. 2020 2-октябр.
5. Жисмоний тарбия ва спорт журнали. 2018-йил.
6. Шукруллаев Журабек Мақсадбаевич. Волейбол спорт тури воситасида мактаб ўқувчиларида жисмоний сифатларни ривожлантиришда акмеологик ёндашувнинг дидактик имкониятлари. Халқ таълими. № 5 2021 йил 28-30-бет.
7. Шукруллаев Журабек Мақсадбаевич. Кластер ёндашув асосида волейболчиларнинг жисмоний кўрсаткичларини ривожлантириш. Халқ таълими. № 5 2021 йил 57-59-бет.
8. Утепбергенов А.К. Шукруллаев Ж. М. PRELIMINARY STAGES OF DIDAKTIKS IN THE PROCESS OF AKMEOLOLOGIKAL APPROACH TO VOLLEYBALL SPORTS. 28-31. METHODICAL RESEARCH JOURNAL.
9. Xudoyberganov J.S. Kurashchilarning sport mahoratini oshirishda texnik harakatlarini va jismoniy sifatlarining o‘rni. Муғаллим ҳам узликсиз билимлендириў 127- 130 бетлар Илмий методикалық журнал Нукус 2021 йил
10. Шукурллаев Ж.М. 7-14 ёшли мактаб ўқувчиларини волейбол спорт турига танлаб олишнинг методик хусусиятлари. “Муғаллим ҳем узликсиз билимлендириў” 2-сон. 2019-йил. Некис.ш. Б.153-156.

KICHIK VOLEYBOL SPORT TURIGA TAYYORLASH AKMEOLOGIYASINI VOLEYBOLGA INTEGRATSIYALASH SAMARADORLIGI

Shukurllayev Jurabek Maksadbayevich
ChDPU p.f.f.d. (PhD), dotsent v/b.

Annotatsiya

Mazkur maqolada kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash samaradorligi bo‘yicha ko‘rsatma va takliflar keltirilgan. Maktab o‘quvchilarini voleybol sport turiga o‘rgatishda kichik voleybol elementlaridan foydalanish orqali jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish ko‘zda tutilgan.

Аннотация

В данной статье приведены инструкции и предложения по эффективности интеграции акмеологии мини волейбольной тренировки в волейбол. Он предназначен для развития физических способностей школьников за счет использования мелких элементов волейбола.

Annotation

This article provides instructions and suggestions on the effectiveness of integrating the acmeology of small volleyball training into volleyball. It is intended to develop the physical abilities of schoolchildren through the use of small volleyball elements.

Kalit so‘zlar: Voleybol, kichik voleybol, mashg‘ulot, jismoniy yuklama, sog‘lomlashtirish, vosita, sifat,natija, integratsiya.

Ключевые слова: Волейбол, мини волейбол, тренировка, физическая нагрузка, реабилитация, инструмент, качество, результат, интеграция.

Key words: Volleyball, small volleyball, training, physical load, rehabilitation, tool, quality, result, integration.

Akmeologiyaning jismoniy tarbiya va sport doirasi shug`ullanuvchilarning jismoniy holatini tekshirishning markaziy ko‘rsatgichi bo‘lib o‘sish tuchunshasini ochib beruvchi kasbiy faoliyat kategoriyasi tushuniladi. Shuningdek, samarador faoliyat akmeologiya fanining tuchunsha apparatini tashkil qiladi. Akmeologiya fani etuk inson rivojlanishida ob’ektiv va su’ektiv omillarni, shaxsiy hayoti jarayonida yuksaklikka erishishni o‘rganadi. Akmeologiya katta odamlarning barsha yosh davrlarida ijodiy etuk mutaxassis bo‘lib shakllanishi va o‘z akmesiga erishish yo‘llarini o‘rganishda insoniy qadriyatlarga tayanadi va fan qobiliyatida psixologiya va uning asosiy yo‘nalishlari bilan o‘zaro bog‘langan.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni (29.08.1997 y), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-sonli “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi kabi sport sohasiga tegishli qarorlar va o‘tkazilayotgan tub islohotlarning o‘rni juda muhim ahamiyatga egadir.

Jismoniy tarbiya darslarida shug`ullanuvchilarni jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish o‘sib kelayotgan yosh avlodni ta’limiy-tarbiyaviy xususiyatlarini takomillashishiga olib keladi. Bu esa ta’lim samaradorligini qobiliyat darajasida ta’minlashga xizmat qiladi.

Jismoniy qobiliyatlarini maqsadli va ehtiyojga yo‘nalgan hamkorlik shakllarini ta’lim maqsadini belgilash va muayyan natijaga mo‘ljal olish tamoyillariga muvofiq tashkil qilishda, tadqiqot doirasida mazkur jarayonning qobiliyat va samaradorligini baholashning SMART mezonlari ishlab chiqildi. Ular quyidagilar:

- aniqlik;
- o‘lchamlilik;
- erishimlilik;
- resurslar bilan ta’minlanganlik;
- reglament.

Ushbu mezonlarga SMART qobiliyatining berilishi ularning har bir shug`ullanuvchining iqtidor xususiyatidan kelib chiqqan holda egiluvchan qo‘llanilishi bilan izohlanadi.

Aniqlik. Kichik voleybol sport turida mazkur mezon juda muhim hisoblanadi. Kichik voleybol sport turida to‘pning tushish nuqtasini, uning tarektoriyasini (qabul qilib olish va uzatishda) aniqlik mezoniga amal qilish juda muhim. Aniqlik mezoni o‘yinchidan katta tajribani talab qiladi.

O‘lchamlilik. O‘lchamlilik mezoni aniqlik mezoni bilan yonma-yon keluvchi mezon bo‘lib, u to‘pni uzatishda qanday kuch bilan berishni, o‘yinliar o‘rtasidagi oraliq masofaning saqlanishini, har bir

o‘yinchining o‘z hududiga egaligini belgilashda zarur hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, kichik voleybol sport turida o‘lchamlarni to‘g‘ri olish asosiy mezon qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Erishimlilik. Ushbu mezon aniqlik va o‘lchamlilik mezonlarining natijasi qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Resurslar bilan ta’minlanganlik. Kichik voleybol sport turi boshqa sport turlari kabi muayyan vositalar bilan ta’minlanganlikni,ta’lim vositalari va pedagogik shart-sharoitni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, aytish mumkinki, umumta’lim maktablarida qaysi sport turi uchun vositalar, jihozlar va pedagogik shart-sharoit mavjud bo‘lsa, o‘sha sport turi bo‘yicha shug`ullanuvchilarning amaliy, jismoniy ko‘nikmalari rivojlanganligi ko‘zga tashlanadi. Demak, resurslar bilan ta’minlanganlik mezoniga shug`ullanuvchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim omili qobiliyatida qarash mumkin.

Reglament. Sportda reglament muhim mezon qobiliyatida qaraladi. U o‘yinning mavjud qonun-qoidalari majmui va sport bilan shug‘ullanishda vaqt bilan bog‘liq me’yorlarni anglatuvchi tushunchadir.

Mazkur tadqiqotimizda shug`ullanuvchilarning jismoniy qobiliyatlarini maqsadli va ehtiyojga yo‘nalgan hamkorlik shakllari va SMART mezonlarini, ya’ni aniqlik, o‘lchamlilik, erishimlilik, resurs bilan ta’minlanganlik, reglament kabilar maqsad belgilash va natijaga mo‘ljal olish tamoyillariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga erishildi.

Akmeologik yondashuvga asoslangan kichik voleybol mashg‘ulotlarida nagruzkalar me’yorini nazorat qilish, jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish, jamoada o‘z-o‘zini boshqarish, jismoniy ko‘rsatkichlarni baholashga erishish lozim.

Kichik voleybol mashg‘ulotlarida akmeologik ta’lim muayyan harakat chastotalari ish faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limdir. Kichik voleybol mashg‘ulotlarida shug`ullanuvchilarga nazariy bilim berish va ulardagi jismoniy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish jarayoni, shug`ullanuvchilarda muayyan jismoniy qobiliyatlarning shakllanishiga ta’sir etishini ongli ravishda tayyorlash jarayonidir.

Kichik voleybol mashg‘ulotlarida shug`ullanuvchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishda akmeologik yondashuvni ta’limga joriy qilish samaradorlik ko‘rsatkichlari mavjud bo‘lib, shug`ullanuvchilarning o‘quv va o‘quv-amaliy faoliyatining ijodiy, mustaqil xususiyati hamda ular jismoniy faoliyatining akmeologik yo`naltirilganligi, taqqoslash va ijtimoiy-psixologik identifikasiyasi, faoliyatni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ijobiy baholashi, muammoli vaziyatlarni va tanlash vaziyatlarini yaratishi, musobaqali va o‘yinli uslublar, ideal ob’ektlarni ijodiy modellash kabilar bilan izohlanadi.

Kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash tadqiqoti jarayoni Chirchiq davlat pedagogika universiteti Sport pedagog klubida tashkil etilgan voleybol to`garagi talaba qatnashuvchilari orasida amalga oshirildi. Tajriba-sinov ishlariga jami 23 nafar shug`ullanuvchi jalb etildi, ya’ni 12 nafari o`gil bolalar, 11 nafari esa qizlarni tashkil etdi.

Kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash mashg‘ulotlarida shug`ullanuvchilar jismoniy qobiliyatlarini baholash parametrlari

Voleybolchilarning maxsus jismoniy qobiliyatlarini oshirishda kichik voleybol sport turiga tayyorlash elementlaridan foydalanish natijalari muhokamasi bo`yicha quyidagi me`yorlar belgilandi (1-2-3 kurs ChDPU talabalari).

1. Hujum zarbasi. Voleybol to`pini himoya zonazidan obruch ichiga urgan holatda tushirish ( 10 ta imkoniyat me`yor-9-7-5 ta). Mazkur me`yor hujumni aniq amalga oshirish darajasini aniqlash imkonini beradi.

2. Turgan joyda uzunlikka sakrash. (O`g`il bolalar-255 sm, Qizlar -230 sm). Oyoq orqa qismi hisoblanadi. Me`yorlar Alpomish va Barchinoy maxsus test sinov me`yorlari bo`yicha belgilandi. Mazkur me`yor sakrovchanlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

3. 2 achkoli hujum. Bunda himoya zonadan urilgan to`pni 1 chi zonaga tushirish talab etiladi. Bu jarayon kaft bilan to`pni boshqarishga o`rgatadi. 10 ta imkoniyat. (Me`yor-7-5-3)

4. Turnikda tortilish. Past turnikda tortilish. Mazkur me`yor kuch qobiliyatini aniqlash imkonini beradi (15 ta).

**5. Arg`amchida sakrash (1 daq).** Mazkur me`yor tezlik qobiliyatini aniqlash imkonini beradi (70 ta).

6. Voleybolcha turish holatida o`ng va chap tarafdan pastdan to`pni qabul qilish. (me`yor 10 ta). Bu maxsus mashq orqali egiluvchanlik va to`pni boshqarish qobiliyati darajasini aniqlanadi.

1.-jadval

Kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash me'yorlari					
	Baho		**5**	**4**	**3**
1.	Hujum zarbasi. Voleybol to`pini himoya zonazidan obruch ichiga urgan holatda tushirish (marta)		8-9-10	5-6-7	3-4-5
2.	Turgan joyda uzunlikka sakrash.(sm)	O`g`il	255+	245-254	230-244
		qizlar	230+	220-229	200-219
3	2 achkoli hujum		7+	5-6	3-4
4	Turnikda tortilish.	O`g`il	15+	12-14	9-11
	Past turnikda tortilish.	qizlar	15+	12-14	9-11
5.	Arg`amchida sakrash (1 daq)		70+	60-69	50-59
6.	Voleybolcha turish holatida o`ng va chap tarafdan pastdan to`pni qabul qilish.		9-10	7-8	5-6

2-jadval

Me`yor natijalari. (Tajriba-sinovdan oldingi ko'rsatkich).					
Tajriba guruhu 23 nafar					
Baho		**5**	**4**	**3**	**2**
1	Hujum zarbasi. Voleybol to`pini himoya zonazidan obruch ichiga urgan holatda tushirish (marta)	3	6	10	4
2	Turgan joyda uzunlikka sakrash.(sm)	2	5	10	6
3	2 achkoli hujum	2	3	9	9
4	Turnikda tortilish.	6	6	8	3
5	Arg`amchida sakrash (1 daq)	7	6	9	1
6	Voleybolcha turish holatida o`ng va chap tarafdan pastdan to`pni qabul qilish.	10	4	8	1
O`rtacaha ko`rsatkich		5 (21,7%)	5 (21,7%)	9 (39,2%)	4 (17,4%)

3-jadval

Me`yor natijalari. (Tajriba-sinovdan keyingi ko'rsatkich).					
Tajriba guruhu 23 nafar					
Baho		**5**	**4**	**3**	**2**
1	Hujum zarbasi. Voleybol to`pini himoya zonasidan obruch ichiga urgan holatda tushirish (marta)	5	10	4	4
2	Turgan joyda uzunlikka sakrash.(sm)	4	9	8	2
3	2 achkoli hujum	5	8	7	3
4	Turnikda tortilish.	7	8	7	1
5	Arg`amchida sakrash (1 daq)	10	8	3	2
6	Voleybolcha turish holatida o`ng va chap tarafdan pastdan to`pni qabul qilish.	11	11	1	0

O`rtacaha ko`rsatkich	7	9	5	2 (8,7%)
	(30,4%)	(39,1%)	(21,8%)	

Mazkur ko`rsatkichlar shkala ko`rinishida diagrammasi

4-jadval



5-jadval

Me`yor natijalari. (Tajriba-sinovdan keyingi ko‘rsatkich farqlari).				
Tajriba guruhu 23 nafar				
Baho	**5**	**4**	**3**	**2**
Tadqiqotdan oldingi ko`rsatkich	5 (21,7%)	5 (21,7%)	9 (39,2%)	4 (17,4%)
Tadqiqotdan keyingi ko`rsatkich	7 (30,4%)	9 (39,1%)	5 (21,8%)	2 (8,7%)
O`sish ko`rsatkich farqlari	+2 (8,7%)	+4 (17,4%)	-4 (17,4,8%)	2 (8,7%)

Keltirilgan ma’lumotlarni matematik formulalar orqali foizlarda ifodalaymiz. Tajriba–sinov ishlarida reprezentativ asosida tanlangan Shug`ullanuvchilarning har bir o‘zlashtrish darajalarini foiz koeffisientlarini quyidagi formula orqali aniqlaymiz:

$$Kq\frac{J}{Q}\cdot 100\% \quad (1)$$

Bunda: **J** – o‘tkazilgan tajriba – sinov ishlarida so‘rovnomalarga o`quvchilar tamonidan berilgan to‘g‘ri javoblar soni;

Q – tajriba – sinov ishlarida natijalari hisobga olinayotgan guruhdagi talabalarning umumiy soni.

St’yudent – Fisher kriteriyasiga asosan natijalarni matematik – statistik tahlillarini o‘tkazdik.

Xulosa o`rnida shuni e`tirof etish joizki, olingan natijalardan ma`lumki, tadqiqotdan oldingi natijalarga qaraganda tadqiqotdan keyingi natijada o`sish darajasi samaradorligi yuqorililigi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2022 yil 28 yanvardagi Maktab ta’limini rivojlantirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidagi nutqi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, https://www.yuz.uz/uz/news/maktab.

2. Деркач А.А. Акмеологические основы развития профессионала. – М.: Издателство Московского психолого-социалного института; Воронеж: НПО.: МОДЭК.: 2004. – 752с.

3. Педагогик таълим инновацион кластери: таъриф, тавсиф, тасниф. Илмий рисола. Ғ.И. Мухамедов, У.Н. Ходжамқулов. ЧДПИ 2019.

4. Богданов Е.Н. Введение в акмеологию / Е. Н. Богданов, В. Г. Зазыкин. Калуга: КГПУ.: 2000. - 97с.

5. Shukurllayev J.M. Voleybolga yosh talabalarni tanlashning uslubiy xususiyatlari. ta'lim fanlari bo‘yicha akademik tadqiqotlar. № 1. 2020 yil 2 oktyabr.

6. Shukurllayev J.M.“Maktab o‘quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda akmeologik yondashuvning didaktik asoslari (voleybol turi misolida)” PhD dissertatsiyasi Chirchiq-2023.

7. Shukurllayev J.M. Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga tayyorlashda akmeologik yondashuvning mazmuni. “XALQ TA’LIMI” ilmiy-metodik jurnali. 2023. № 5. B. 28-30.

8. Кузмина Н.В. Акмеологическая теория повышения качества подготовки специалистов образования / Н. В. Кузмина. Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2001. 144 с.

TAEKVANDONING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Maxmanazarova Sabina Shuhrat qizi
Chirchiq davlat pedagogika unversiteti Jismoniy madaniyat fakulteti xotin qizlar sporti yo‘nalishi 2 -bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada taekvondo sporti haqida batafsil ma'lumot berilgan. Taekvondo koreys jang san'ati bo‘lib, o‘zining ko‘plab zarbalari va oyoq harakatlari bilan mashhur. Bu sport nafaqat jismoniy chiniqishni, balki intizom, odob-axloq, o‘zini tuta bilishni ham rivojlantiradi. Maqolada taekvondoning tarixi, asosiy qoidalari, turli darajalari (belbog‘lar tizimi), musobaqalar haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, taekvondoning sog‘liq uchun foydalari va uning dunyo miqyosida qanchalik keng tarqalgani haqida so‘z boradi

Abstract: This article provides detailed information about the sport of taekwondo. Taekwondo is a Korean martial art known for its many kicks and footwork. This sport develops not only physical training, but also discipline, manners, and selfcontrol. The article provides information about the history of taekwondo, basic rules, different levels (belt system), competitions. It also talks about the health benefits of taekwondo and how widespread it is worl

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о виде спорта тхэквондо. Тхэквондо — корейское боевое искусство, известное множеством ударов руками и ногами. Этот вид спорта развивает не только физическую подготовку, но и дисциплину, манеры и самообладание. В статье представлены сведения об истории тхэквондо, основных правилах, различных уровнях (поясная система), соревнованиях. В нем также говорится о пользе тхэквондо для здоровья и о том, насколько оно широко распространено во всем мире

Kalit so‘zlar: Taekvondo. jang san'ati, Tasma tizimi, Musobaqalar ,Salomatlik,
Intizom, O‘zini boshqarish, axloq, Korea, oyoq zarbalari, qol zarbalari, jarayon,k

Hozirgi vaqtda dunyoning 118 ta davlatida WTF filiallari tashkil qilingan bo‘lib, jumladan MDH va Sharqiy Yevropa davlatlari miqyosida faoliyat olib borishi qayd qilinadi. Bu filiallar o ‘z tarkibiga 25 000 000 ga yaqin sportchilarni birlashtiradi va jumladan, Koreya Respublikasi hissasiga

1500 000 000 ga yaqin sportchi to ‘g ‘ri keladi. ITF yo‘nalishi nisbatan kamtarona ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, uning asosiy «platsdarmi» - Koreya Xalq Demokratik Respublikasi hisoblanadi. Dunyoning boshqa mamlakatlarida general Choy Xon Xi davomchilarining soni albatta, Kim Un Yon tarafdorlari soni bilan hech qanday solishtirib bo‘lmaydigan darajada kam hisoblanadi. WTF yo‘nalishining qarorgoh-manzili Seul shahrida joylashgan bo‘lib, Kukkivon deb nomlanuvchi mashhur katta markaz hududida faoliyat olib boradi. Bundan tashqari, bir necha yil oldin yana bitta xalqaro tashkilot tashkil qilingan bo‘lib, Global taekvondo federatsiyasi deb nomlanadi, bu tashkilot haqida hozirda ma’lumotlar juda kam va bu xususda turli xil qarama-qarshi fikrlar qayd qilinishi kuzatiladi. Kukkivon markazining ochilishi 1972-yil 30-noyabr sanasida qayd qilingan, bu hodisa taekvondo maktablarining yakuniy holatda birlashtirilishining tugallanishini anglatadi. Ya’ni, quyidagi ko‘rsatib o ‘tilgan beshta asosiy vazifani hal qilishga qaratiluvchi yagona o‘quv markazi tashkil qilingan:

1) Kukkivon talabalari va, shuningdek, WTF tarkibiga kiruvchi Milliy assotsiatsiyalar vakillari uchun rasmiy tartibda Dan sohibligiga erishish va sertifikatlar topshirilishining amalga oshirilishi;

2) taekvondo bo‘yicha murabbiylar tayyorlash va taekvondoni
butun dunyoda ommalashtirish;

3) taekvondo texnikasini o ‘rganish va takomillashtirish;

4) taekvondo bo‘yicha qolga kiritilgan rekord natijalar
yilnomasini yuritish, tegishli o ‘quv qollanmalari nashr qilish va o ‘quv-uslubiy videofilmlar yaratish;

5) taekvondo (WTF) bilan bog liq bo ‘lgan barcha tashkilotlarga texnik jihatdan ko‘mak ko‘rsatish.

Taekvondo, eng avvalo, o‘z-o‘zini himoya qilish tizimi sifatida yaratilgan. Aynan shu sababli mashg‘ulotlarning axloqiy jihatlariga va qo‘llaniluvchi turli xildagi texnik harakatlarning to‘g‘ri bajarilishiga alohida darajada katta ahamiyat qaratiladi.Taekvondoni o‘rganish qachonki sinovlardan o‘tkazilgan tamoyillar va uslublar amaliyoti asosida amalga oshirilsagina, to‘g‘ri deb hisoblaniladi. Yaxshi ma’lumki, odam o‘zining kundalik hayotida umumiy kuch-g‘ayratining taxminan 10-15% qismidan foydalanadi. Taekvondoni o‘rganuvchilarning vazifasi aynan majmuaviy holatdagi mashg‘ulotlar asosida o‘z tanasining quvvatidan maksimal darajada foydalanishga erishish bilan bog‘liq. Faqatgina ushbu holatdagina taekvondo texnikasini muvaffaqiyatli ko‘rinishda egallash haqida fikr bildirish mumkin.

Taekvondo bilan shug‘ullanuvchilardan ko‘pchiligi ularning tayyorgarlik darajasi mashg‘ulotlar jarayoni tarkibiga sparring mashqlari qo‘shilishini intiqlik bilan kutishadi. Buning sababi nafaqat mashg‘ulotlarning nisbatan qiziqarliroq tus olishi bilan bog‘liq, balki mashq qiluvchilarda amaliyot davomida o‘zlari egallagan ko‘nikma va malakalarni birinchi marta sinovdan o‘tkazish imkoni tug‘ilishi bilan bog‘liq hisoblanadi.

Albatta, sparring janglariga asos sifatidagi boshlang‘ich tayyorgarlik holatisiz tushish chegaraviy darajada xavfli hisoblanadi. Mahoratning yetishmasligi zararli odatlarning (masalan, raqibni itarish kabi) paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin, oqibatda bu ko‘rinishdagi odatlanishdan uzoqlashish esa o‘ta murakkab hisoblanadi. Sport yo‘riqchisi ma’lum bir miqdordagi Pumse mashqlarinin o‘rganmagan va asos sifatida mashqlar maktabini o‘tamagan mashq qiluvchilarni ayniqsa, turnirlarda sparring janglariga chiqishga ruxsat bermasligi tavsiya qilinadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar

1. Abdurasulova G.B., Nuritdinova Sh.N., Tajibayev S.S., “Taekwondo nazariyasi na uslubiyati” Toshkent “Turon-Iqbol” 2015 y. 563 b.

2. Abdurasulova G.B., Baek Mun Jong., Nuritdinova Sh.N.., Axmatov M.S., “Taekwondo nazariyasi va uslubiyati” Toshkent “Ilmiy texnika axboroti-press” 2018 y. 360 b.
3. Sh.R. Toshmatov, G.B. Abdurasulova, Baek Mun Jong, Sh.N. Nuritdinova, Rahmatov B.Sh. “Sport pedagogik mahoratini oshirish” (taekvondo) Toshkent “O‘zkitobsavdonashriyoti”, 2020 y. 420 b
4. “Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў” Илимий-методикалық журнал. 2024 yil. 3/3-сан. 463 bet.

PSIXOLOGIK FAOLIYATDA MANIPULYATSIYA MUAMMOSI

Bo‘rixonova Husnoraxon
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali “Psixologiya sport” ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu tezisda manipulstsiya haqida ma’lumot, uning tiplari, manipulatsiya haqida fikr yuritgan olimlarning qarashlari bayon etilgan.

Kalit sózlar: manipulatsiya, boshqaruv, ta'sir kórsatish, pozitsiya, maniplyator, A. Liontev, tiplar, audiynlilar, vizual, kinestetik, digitellar, manipulyativlik texnologiyalari.

Manipulyatsiya — bu o‘z manfaati yo‘lida boshqalardan foydalanish, ularni boshqarish orqali ularga ta’sir ko‘rsatish. Haddan oshiq manipulyatsiya — bu axloqiy tamoyillarni hurmat qilmaydigan, aldaydigan va boshqalarning zaifligi va ishonuvchanligidan foydalanadigan nayrangchilar, firibgarlar va yolg‘onchilarning hiylasidir. Eng kamida manipulyatsiya boshqalarning hisobidan nazorat o‘rnatish, foyda olish yoki imtiyozlarni qo‘lga kiritish uchun o‘tkaziladigan ta’sirdir. Manipulyatsiya oddiy ta’sir o‘tkazish va ishontirishdan farq qiladi. Ta’sir o‘tkazish odatda zararsiz deb hisoblanadi, chunki u ta’sir o‘tkazilayotgan shaxsni ta’sirni qabul qilish yoki qilmaslik huquqini hurmat qiladi va ortiqcha majburlamaydi. Ishontirish — bu boshqalarni odatda ma’lum bir maqsad zamirida istalgan hatti-harakat tomon yo‘naltira olishlik qobiliyatidir. Ta’sir o‘tkazish va ishontirish na salbiy va na ijobiydir.

Manipulyatsiyaning paydo bolishi haqida 3 ma`lumot manbasi atab otiladi:

1. Manipulyatorchining pozitsiyasi
2. Manipulyatsiyaning harakatlaridan jabr korganlarning pozitsiyasi
3. Kuzatuvchular pozitsiyasi

Psixologik adabiyotlarda A.A.Leontev manipulyatsiya termini 3 manoga ega bolib birinchi ma`nosi texnologiyadan olishdir. Mehnat psixologiyasida muhandislik psixologiyasida qollaniladi.Ikkinchi ma`nosida etimiologik sozlardan olinib manipulyatsiya ma`nosi muhitning hayvonat dunyosida faol turda aralashuvi, ikkinchi qarama qarshi ma`nosi lokomatsiya muhitda esa hayvonlarning ozlarining aralashuviga aytiladi. 60 yillardan boshlab manipulyatsiya termining uchinchi turdagi ma`nosi qollanila boshladi. Bu politologiya mehnatlaridan olingan bolib, keyin esa amaliy faoliyatda qayta ishlanmagan holda manipulyatsiya sozi odamlar orasidagi ozaro munosabatlar kontekstida qollanila boshladi. Shunday qilib bizlar tadqiq qilayotgan masalamizga ham obektiv tarafdan (subektlar ortasidagi munosabatlar) predmeti boyicha yani tasir qilish mehanizmini korib chiqqanimizda manipulyatsiya fenomeni psixologik muammo bolib chiqdi. Shunday qilib manipulyattsiya terminining ikki marta konteksti ozgartirildi «manipulyatsiya» sozini tushuntirish uchun psixologiyada bu termin haqida bir qancha olimlarning fikrlari qarab chiqildi.

Manipulyatsiya terminini tuzishdagi eng asosiy elimenti bu manipulyatsiya tushunchasining asosini aniqlashimizdadir. SHuningdek atab o`tish joizki manipulyatsiya bu psixologik jixatdan ta`sir etish mexanizmi bo`llib hisoblanadi. Manipulyatsiyaning asosiy belgisi bu manipulyatorning faqat o`z maqsadini himoyalagan holda foyda olishi muvaffaqiyatga erishishi hisoblanadi. Biroq buni kriteriya hisobida olishimiz ishimizda noqulaylikni vujudga keltiradi. Manipuliyatsiya haqida tushuncha berganimizda biz faqat bir tomonlama foyda olish, muvaffaqiyatga erishish degan tushunchasi bu manoga boshqacha qarab chiqishimiz kerakligi yani maqsadga etibor berish kerakligini ko`rsatadi. Tadqiqotchi olimlarning ishlarida faqatgina D J. Rodenov manipulyatsiyaning adresatka motivatsion munosabatlarning eng asosiy rol o`ynashini atab korsatgan.

Manipulyatsiya shu vaqtda paydo bo`ladi. U adresatka nima ishlashi lozimligini maqsadini uning o`rniga o`ylagan holda psixikasiga tasir korsatadi. Shuningdek bu nazariyani tushuntirishda shuni aytib o`tish joyizki manipulyator o`z istak hoqishlarini shunday qilib adresatga singdiradi. Adresat huddi shuni tasavvur qilgandek bo`lib qoladi. SHuningdek manipulyatsiyaning asosiy belgisi yashirin turdagi adresat turiga aytamiz. SHu bilan birga manipulyatsiyaning mahoratini tasir etuvchanligini aytib o`tish

lozim. Asosiysi adresatning malipulyatsiyaning tuzilishiga tasir korsatgan xolda harakatlanishiga olib kelishiga aytamiz. Manipulyatsiya turlariga har xil klassifikatsiyalar berilgan. Avvalo ko`p uchraydigan turlari verbal va noverbal. Bunday holatda har qanday mualliflar mehnatlarida ko`rsak bo`ladi.

A. Liontevning (o`zaro suhbat psixologiyasi) kitobidagi qarashlariga toxtalamiz. Muallifning fikricha manipulyatsiya jarayonida manipulyator tarafidan manipulyatsiya subektiga har qanday ma`lumotlarga to`xtalamiz. Yani bu klassifikatsiyaga ma`lumot berish bilan boglanadi. Verbal kanal bo`yicha malumotning 33%, noverbal munosabat turida ma`lumotlarning 65% berilishi kerak. Verbal yani so`z bilan aytish manipulyator so`z bilan tasir etadi. Noverbal manipulyatsiyaning noverbal belgilariga mimika, qarashlar, imo- ishora va boshqalar kiradi. SHeinov o`z mehnatida NLP manipulyatsiyasining klassifikatsion turlariga to`xtab o`tkan. U insonning sensorlik sistemasiga bog`langan. Bu parameter bo`yicha suhbatlashishni to`rt tipga ajratgan.

1. Audiynlilar (eshituvchi) tipda

Bunday tipdagi insonlar suhbatlashganda aytadigan so`zlarini qo`l harakatlari bilan ko`rsatadi. So`zlaganda ko`pincha quyidagi so`zlarni qo`llanadi, (ko`z oldingizga keltiring) «qarang» etiboringizni qarating bu shunday ko`rinishga ega. SHu bilan birga suhbatdoshingizning ko`ziga tez- tez qarab turadi. Odamzodning yarimi shu tipdagi odamlar qatoriga kiradi.

2. Vizual (ko`ruvchi ) tip bu tipdagi insonlar quyidagi so`zlardan foydalanadi. «bu shunday ovozga ega», «tinglaymiz» o`ylaganda audialning etibori chap tarafga qaratilgan bo`ladi. Gaplashganda suhbatdoshining labiga qaraydi yuziga etibor bermaydi.

3. Kinistetik (harakatchan tip). Ko`pincha quyidagi so`zlardan foydalaniladi. Og`ir yengil, sovuq issiq va boshqalar. Masalan, «tanam qaltirab ketti va boshqalar», «qora terga tushdim», «Boshim qattiq» har xil narsalarni eslayotgan vaqtida kinestetik tipdagi insonlar tog`riga yoki pastga qaraydi.

4. Digitallar yani (kompyuter «odamlar») tipi

Bunday tipdagi insonlar so`zlari bilan malumotlari qiziquvchanliklari bilan ajralib turadi. Ular uchun eng ahamiyatlisi ichki sezgi diologi. Bunday tipdagi insonlarga shaxmatchilar, yuristlar kiradi.

Manipulyativlik texnologiyalari, endi etiborimizni manipulyativlik holatlarda manipulyatsiyaviy harakatlar ortasida paydo bolish holatlarga aytiladi. Psixologiya holatlarda insonning hoxish istaklarini ozgarishi yoki obektiv hollarning odamlarning aktiv harakatlarning ozgarishida paydo boladi. Tadqiqotlarimizda psixologik harakatlarning manipulyativligi bu manipulyativlik tilak bolib hisoblanadi. Bu tilaklarning yechimi manipulyativlik urinib korish yoki manipulyativlik tasir etishiga olib keladi.

Xulosa qilib shuni aytamizki, bugungi kunda manipulatsiya qurbonlari oramizda uchrab turibdi. Bu muammolarni oldini olish uchun jamiyatdagi insonlarning psixologik bilimlari, dunyoqarashini kengaytiruvchi keng miqiyosdagi targ‘ibot ishlarini olib borish lozim. Psixologik yondashgan holda manipulatsiyaning oldini olish. Insonlarga ózligini anglab yetishga yordam berishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avesto. Tarixiy adabiy yodgorlik. Askar Mahkam tarjimasi - «Sharq», 2001.- T.:384b.
2. Adizova T.M. Boshqaruv muloqoti psixologiyasi. –T: 2000.-19 b.
3. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova Umumiy psixologiya. Darslik ozbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. T: 2014. 478 b.
4. Ishtayev J.M. “Sport psixologiyasi”. O‘qun qo‘llanma. T.“O‘zkitobsavdo”, 2020. 232 b.
5. E.G‘. G‘oziyev “Umumiy psixologiyasi”. Darslik. -T. “O‘qituvchi”.2010 y. 340 b.

TASKS OF A SPORTS PSYCHOLOGIST

To‘xtamishova Madinabonu Sherali qizi

State University of Physical Education and Sports of Uzbekistan

Nukus branch 4th course

Annotatsiya: The role of sports psychology has become essential in modern athletic performance and well-being, with sports psychologists playing a critical part in helping athletes reach their full potential. This thesis examines the multifaceted tasks of a sports psychologist, emphasizing both performance enhancement and mental health support. Key tasks include developing personalized mental strategies, enhancing motivation and focus, managing stress, and supporting athletes in injury recovery and rehabilitation. The work also explores the broader role of a sports psychologist in team

dynamics, including conflict resolution, communication enhancement, and cohesion building within teams. Using both qualitative and quantitative methodologies, this study aims to provide a comprehensive view of how sports psychologists contribute to the field. The findings highlight the evolving demands on sports psychologists and the critical skills they bring to sports organizations, coaches, and athletes, helping to shape a holistic approach to athletic success and personal growth.

Keywords: Sports psychology , athlete mental health , performance enhancement , motivation strategies , focus and concentration , stress management , injury rehabilitation team dynamics , conflict resolution, communication skills, mental resilience , goal setting , psychological skills training (pst) , mindfulness in sports sports counseling , peak performance:

Introduction: In the world of competitive sports, physical training alone is no longer sufficient to ensure an athlete's success. Increasingly, mental skills are recognized as essential components of peak performance, resilience, and overall well-being. This shift has highlighted the crucial role of sports psychologists, who work to develop, guide, and support the mental strategies athletes need to reach their highest potential. The tasks of a sports psychologist are multifaceted, encompassing both individual athlete performance enhancement and the fostering of productive team dynamics. At its core, sports psychology focuses on understanding how psychological factors impact athletic performance and how participation in sports affects an individual's psychological state. Sports psychologists employ a range of techniques to enhance motivation, improve focus and concentration, manage stress, and support athletes through periods of injury or decline in performance. These mental interventions have become particularly vital in an era where elite competition often demands extensive travel, intense physical exertion, and the ability to remain focused under pressure. Beyond individual performance, sports psychologists also play an instrumental role in team settings. Their tasks often extend to facilitating effective communication, managing interpersonal conflicts, and building team cohesion, all of which contribute to a healthy and successful sporting environment. As a result, sports psychologists work not only with athletes but also with coaches and team staff, creating a holistic approach that benefits all aspects of athletic development. This thesis examines the diverse tasks of a sports psychologist, providing a detailed analysis of the specific techniques used and their impact on athletic performance and well-being. Through a combination of literature review and case studies, this study aims to underscore the importance of sports psychology in modern sports and to provide insights into the evolving demands placed upon sports psychologists today.

Main part: Performance Enhancement One of the primary tasks of a sports psychologist is to help athletes enhance their performance by developing mental skills that complement their physical abilities. Motivation techniques are fundamental in this respect. Sports psychologists work to understand an athlete's intrinsic (internal) and extrinsic (external) motivation sources. Techniques such as goal setting help athletes maintain focus and feel a sense of accomplishment by setting achievable short- and long-term goals. Psychologists often employ self-determination theory to foster autonomy, competence, and relatedness, essential drivers for maintaining high motivation over time. Equally essential is focus and concentration training. Sports psychologists use a variety of methods, such as visualization and mindfulness, to help athletes stay present and avoid distractions. Visualization techniques involve mentally rehearsing specific actions or scenarios, allowing athletes to foresee and prepare for various competition conditions. Mindfulness practices, like deep breathing exercises, also help athletes remain calm and grounded, enhancing their ability to react and adapt under pressure. To develop mental resilience, sports psychologists implement techniques that help athletes handle the stress and adversity inherent to competitive sports. Cognitive restructuring, for instance, teaches athletes to reframe negative thoughts, while emotional regulation strategies assist in managing anxiety and excitement. These methods are critical in preparing athletes to face unexpected challenges, reduce performance anxiety, and adapt to high-stress situations during competition. Injury Rehabilitation and Recovery Support Injury is a significant setback for athletes, not only physically but also psychologically. Sports psychologists play a crucial role in supporting athletes through the emotional challenges of injury. Emotional support during injury often includes counseling sessions to help athletes manage feelings of frustration, fear, and even depression. The temporary or long-term loss of an athletic role can lead to identity challenges, which psychologists address by helping athletes to redefine and reconnect with their personal values outside of sport. Moreover, maintaining rehabilitation motivation can be challenging, as the recovery process can be lengthy and arduous. Sports psychologists use motivational interviewing and goal-setting techniques to keep athletes engaged in their rehabilitation exercises. Once athletes are

physically prepared to resume training, the sports psychologist supports their return-to-sport transition, focusing on regaining confidence in their physical abilities and overcoming the fear of re-injury. Team Dynamics and Communication In team sports, a sports psychologist's role expands beyond individual athletes to address team dynamics. Effective interpersonal relationships among team members are essential for creating a cohesive and harmonious environment. Sports psychologists facilitate conflict resolution when interpersonal issues arise and encourage open communication between athletes and coaching staff. To foster communication skills development, sports psychologists introduce techniques to improve active listening and expressive communication, helping team members to better understand and respond to each other. Enhanced communication promotes team cohesion, which directly contributes to a team's performance. Sports psychologists often organize workshops and team-building exercises aimed at clarifying roles, building mutual trust, and establishing shared goals that reinforce unity within the group.

Summary: This thesis has explored the vital tasks undertaken by sports psychologists in supporting athletes and teams. As modern sports become increasingly competitive, the mental aspects of performance are recognized as essential to achieving success. Sports psychologists fulfill a range of responsibilities aimed at enhancing athletic performance, supporting mental well-being, and fostering team dynamics. A key focus of the thesis was on **performance enhancement** through techniques like motivation building, concentration training, and mental resilience development. These methods enable athletes to maintain focus, perform consistently under pressure, and recover quickly from setbacks. The thesis also highlighted **psychological skills training** (PST) programs, which include visualization, arousal regulation, and goal setting. Such programs equip athletes with mental tools tailored to their specific needs and goals. The role of sports psychologists in **injury rehabilitation and recovery support** was another major area of focus. Injuries often bring psychological challenges that can hinder an athlete's recovery process. By providing emotional support, maintaining rehabilitation motivation, and facilitating a confident return-to-sport transition, sports psychologists play a crucial part in helping athletes regain their physical and mental readiness. Moreover, the thesis examined how sports psychologists impact **team dynamics and communication**, helping athletes and coaches develop effective communication skills, resolve conflicts, and strengthen team cohesion. These efforts promote a positive team environment, essential for collaborative success and collective performance. In conclusion, the tasks of a sports psychologist are diverse and tailored to meet the needs of both individual athletes and teams. By focusing on mental performance, emotional resilience, and team relationships, sports psychologists contribute significantly to athletic success and personal growth in sports. This thesis underscores the evolving importance of sports psychology in today's athletic environment, highlighting the need for ongoing research and practical applications to support athletes in achieving their full potential.

References:

1. American Psychological Association. (2013). *Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders* (5th ed.). American Psychological Association.
2. Andersen, M. B., & Williams, J. M. (1988). A model of stress and athletic injury: Prediction and prevention. *Journal of Sport and Exercise Psychology, 10*(3), 294-306.
3. Cox, R. H. (2011). *Sport psychology: Concepts and applications* (7th ed.). McGraw-Hill.
4. Feltz, D. L., Short, S. E., & Sullivan, P. J. (2008). *Self-efficacy in sport*. Human Kinetics.
5. Gucciardi, D. F., & Gordon, S. (2011). *Mental toughness in sport: Developments in theory and research*. Routledge.
6. Jones, M. I., & Harwood, C. G. (2008). Psychological skills training and athletes' performance: The mediating effects of motivation. *Journal of Applied Sport Psychology, 20*(2), 123-140.
7. Murphy, S. (Ed.). (2012). *The Oxford handbook of sport and performance psychology*. Oxford University Press.

INGLIZ TILINI O‘RGANISHDA SPORTNING KOGNITIV VA IJTIMOIY FOYDALARI.

Z.B.Sabirova
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti
Tillar va maktabgacha ta‘lim fakulteti katta o’qituvchisi
Sh.B.Sobirova
2 bosqich magistranti
Chirchiq shahri, O‘zbekiston
E-mail: zebisobibek@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz ingliz tilini o'qitishda sport va jismoniy faoliyatdan samarali foydalanishning turli usullarini o'rganamiz. Biz ushbu yondashuvni qo'llab-quvvatlaydigan nazariy asoslarni ko'rib chiqamiz, jismoniy faoliyat tilni o'zlashtirish va kognitiv rivojlanishni qanday oshirishi mumkinligini o'rganamiz. Ingliz tili darslariga sportni integratsiyalash uchun amaliy strategiyalar, jumladan, turli malaka darajalari va o'rganish kontekstlari uchun moslashuvlar taqdim etiladi. Bundan tashqari, biz o'qituvchilar ushbu usulni qo'llashda duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni muhokama qilamiz va ushbu to'siqlarni bartaraf etish uchun echimlarni taklif qilamiz.

Kalit so‘zlar: kognativ, samarali, sport, kontekst, strategiya, yechim, usul,faoliyat.

Hozirgi kunda jadal rivojlangan jamiyatda ta’limda ham katta o’zgarishlar mavjuda shuningdek fanlarni uyg’unlashtirib o’rgatish ya’ni sport va jismoniy tarbiya o‘ziga xos va muhim fan bo‘lsa-da, boshqa asosiy fanlarni o‘rgatish uchun vosita sifatida ham foydalanish mumkin. Ingliz tilini o'rgatish uchun jismoniy tarbiya darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlarning bir qismi sifatida gapirish, tinglash, o'qish yoki yozish shaklida bo'lishi mumkin. Sport - bu darslarning ko'p qismida, hatto hammasida ham muhokama va jamoaviy ish qo'llaniladigan kam sonli fanlardan biridir. Jismoniy tarbiya darslarida talabalar bir-birlariga murabbiylik qilishlari va xatoga yo'l qo'yganlarida konstruktiv tanqid qilishni rag'batlantirishlari kerak, chunki bu ularning ommaviy nutqqa bo'lgan ishonchini oshiradi va og'zaki va yozma ingliz tilida jumlalarni qurish usullarini rivojlantiradi.Talabalar ingliz tilini sport orqali rivojlantirishning yana bir yo'li bu kerak bo'lganda yoki muntazam ravishda talabaning ta'lim yo'lining bir qismi sifatida kiritilishi mumkin bo'lgan ish varaqlari yoki bukletlardan foydalanishdir. Bu talabaning o'qish qobiliyatini va guruhdagi talabalar bilan savol javob qilish yoki savol javoblarni yozish orqali yozish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tilni materiallarini o'zlashtirishning bevosita afzalliklaridan tashqari, sport va jismoniy faoliyatni ingliz tilini o'qitishga qo'shish kognitiv rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sport biln shug’ullanuvchi talabalar murakkab qarorlar qabul qilish jarayonlari, muammolarni hal qilish va strategik fikrlash bilan shug'ullanishni talab qiladi, bularning barchasi til o'rganishga o'tkazilishi mumkin bo'lgan kognitiv qobiliyatdir. Misol uchun, talabalar jamoaviy sport o'yinlarida qatnashganda, ular maqsadli tildan foydalanganda ma'lumotni tezda qayta ishlashlari, strategiyalarni muloqot qilishlari va o'zgaruvchan vaziyatlarga moslashishlari kerak. Ushbu dinamik o'zaro ta'sir kognitiv moslashuvchanlikni va ijro etuvchi faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi (Diamond, 2013).

Bundan tashqari, sport faoliyati ko'pincha til tuzilmalarini mustahkamlay oladigan mashqlar to’plami ketma-ketlikligi va qoidalarni o'z ichiga oladi. Masalan, o'yin qoidalarini tushunish, o'yindagi ketma-ketliklarga rioya qilish yoki natijalarni bashorat qilish o'quvchilarga tildan foydalanishga asoslangan mantiqiy tuzilmalarni o'zlashtirishga yordam beradi. Ushbu turdagi o'rganish kognitiv vazifa nazariyasiga mos keladi, bu talabalar kognitiv va jismoniy faollikni talab qiladigan vazifalarda faol ishtirok etganlarida ma'lumotni samaraliroq qayta ishlashlari mumkinligini ko'rsatadi (Sweller, 1988).

Til rivojlanishida sportning ijtimoiy jihati ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Jamoadoshlar bilan taktikani muhokama qilish, murabbiyning ko'rsatmalariga amal qilish yoki raqiblar bilan do'stona suhbatlashish bo'ladimi, sport o'ziga xos tarzda muloqotni talab qiladi. Ushbu o'zaro ta'sirlar talabalarga tilni kontekstda mashq qilishlari uchun haqiqiy imkoniyatlarni taqdim etadi, bu ularning nutqi ravonligini va tildan foydalanishda ishonchini oshiradi (Light, 2008). Jamoaviy sport turlarining hamkorlikdagi jamoa va umumiy maqsad tuyg'usini rivojlantiradi, bu esa o'quvchilarni faol ishtirok etishga va tildan erkinroq foydalanishga undashi mumkin.

Bundan tashqari, sport faoliyatiga xos bo'lgan ijtimoiy o'zaro ta'sirlar pragmatik til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Pragmatika tildan foydalanishning ijtimoiy qoidalarini tushunishni o'z ichiga oladi, masalan, navbat, xushmuomalalik va turli kontekstlarda tildan to'g'ri foydalanish. Sport bilan shug'ullanish orqali o'quvchilar real vaqt rejimida ushbu ijtimoiy nuanslarga duch kelishadi, bu ularning kommunikativ qobiliyatlarini sezilarli darajada oshirishi mumkin (Ellis, 2003).

Sportni til o‘rganishga integratsiyalashning afzalliklari kognitiv rivojlanishda ijtimoiy o‘zaro ta’sirning muhimligini ta’kidlaydigan ta’lim psixologiyasidagi tadqiqotlar bilan tasdiqlanadi. Lev Vygotskiyning ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi, masalan, yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda ijtimoiy o'zaro ta'sirning rolini ta'kidlaydi. Vygotskiyning fikriga ko'ra, o'quvchilar bilimlarni boshqalar bilan o'zaro ta'sir qilish orqali quradilar, sport kabi ijtimoiy faoliyatni til o'rganish uchun ideal vositaga aylantiradilar (Vygotskiy, 1978).

Ingliz tilini sport orqali o‘rgatishning nazariy asoslari kinestetik o‘rganish nazariyalari, kognitiv psixologiya va ijtimoiy konstruktivizm asoslari tomonidan yuqori darajada qo‘llab-quvvatlangan holda yaxshi shakllangan. Jismoniy faoliyatni til o‘rgatish jarayoniga kiritish orqali o‘qituvchilar nafaqat tilni o‘zlashtirishni yaxshilaydigan, balki kognitiv va ijtimoiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi yanada qiziqarli va samarali o‘quv muhitini yaratishi mumkin. O'qituvchilarga ingliz tilini o'qitish amaliyotlarida sportning kuchidan foydalanishning muhim ekangligi aniqlangan. Sport va jismoniy tarbiyani ingliz tili bilan integratsiya qilib o’qitish kelajkda sportchining amaliy natijasiga albatta o’z ta’sirini ko’ratadi. Bundan ko’rinib turibdiku biz sport orqali sportchilarga ingliz tilini o’rgatishning samarali usullaridan foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Asher, J. J. (1969). The Total Physical Response approach to **second language learning**. *The Modern Language Journal, 53*(1), 3-17.
2. Asher, J. J. (1977). *Learning another language through actions: The complete teacher’s guidebook*. Los Gatos, CA: Sky Oaks Productions.
3. Brown, H. D. (2001). *Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy* (2nd ed.). Longman.
4. Brown, H. D. (2004). ***Language assessment****: Principles and classroom practices*. Pearson Longman.
5. Ismailova Z.K. Talabalarning kasbiy pedagogik malakalarini shakllantirish: Diss.....ped. fan. nomz. – T., 2000. – 186 b.
6. Ismailova Z.K., Muqimov B.R. Amaliy ta’lim metodlari // – T., Kasb-hunar ta’limi 2014. № 4. – 2-8b.
7. Diamond, A. (2013). Executive functions. *Annual Review of Psychology, 64*, 135-168.
8. Ellis, R. (2003). Task-based language learning and teaching. Oxford University Press.
9. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.

SPORT ORQALI INGLIZ TILINI O‘RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI

Z.B.Sabirova
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Tillar va maktabgacha ta‘lim fakulteti katta o‘qituvchisi
M.Zokirjonova *2 bosqich talabasi*
Chirchiq shahri, O‘zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz ingliz tilini o‘qitishda sport va jismoniy faoliyatdan samarali foydalanishning turli usullarini o‘rganamiz. Biz ushbu yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydigan nazariy asoslarni ko‘rib chiqamiz, jismoniy faoliyat tilni o‘zlashtirish va kognitiv rivojlanishni qanday oshirishi mumkinligini o‘rganamiz. Ingliz tili darslariga sportni integratsiyalash uchun amaliy strategiyalar, jumladan, turli malaka darajalari va o‘rganish kontekstlari uchun moslashuvlar taqdim etiladi. Bundan tashqari, biz o‘qituvchilar

ushbu usulni qo‘llashda duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni muhokama qilamiz va ushbu to‘siqlarni bartaraf etish uchun echimlarni taklif qilamiz.

Kalit so‘zlar: kognativ, samarali, sport, kontekst, strategiya, yechim, usul,faoliyat.

Ingliz tilini sport orqali o‘rgatishda muloqot, jamoada ishlash va muammolarni hal qilish imkoniyatlariga boy sport til amaliyoti uchun qulay zamin yaratadi. Sport mashg‘ulotlari paytida muloqot qilish zarurati - bu ko‘rsatmalar berish, strategiyalarni muhokama qilish yoki jamoadoshlarini qo‘llab-quvvatlash - tildan mashg‘ulot davomida foydalanish til ko‘nikmasini shakllantirishda yetakchi rol o‘ynidi. Til ko‘nikmalarini real sharoitida amaliy qo‘llash o‘quvchilarga an'anaviy ta’lim tarzidan mashg‘ulot bilan birga til o‘rganish tezroq intensiv yo‘l orqali o‘rganish kasbiy va rivojlantirishga yordam beradi.

Ushbu maqola barcha nofilologik ta’lim yo‘nalishida ingliz tilini o‘rgatuvchi professor-o‘qituvchilar, jumladan, o‘z talabalarini jalb qilishning yangi usullarini izlayotgan ingliz tili o‘qituvchisi mutaxassislari, shuningdek, jismoniy mashqlar orqali til o‘rganishni qanday yaxshilash mumkinligi bilan qiziqadiganlar uchun mo‘ljallangan. Tajribali o‘qituvchi bo‘lib, o‘qitish uslublarini diversifikatsiya qilmoqchimisiz yoki til o‘rganish va jismoniy tarbiyani integratsiya qilmoqchimi bo‘lsangiz demak, ushbu maqola qimmatli tushunchalar va amaliy maslahatlar olishingizda sizga hizmat qiladi.

Biz sport va jismoniy mashg‘ulotlar ingliz tilini o‘rganish tajribasini qanday o‘zgartirishi va uni yanada qiziqarli va samarali qilishi yollarini o‘rganamiz va ikkita fanni integratsiya qilib o‘zlashtirish, ushbu yondashuvning afzalliklari va amaliy tomonlarini tushunib, professor-o‘qituvchilar o‘z talabalar uchun yanada dinamik va sezgir o‘quv muhitini yaratib, til rivojlanishini rag‘batlantirish uchun sportning kuchidan yaxshiroq foydalanishlari mumkin.

Bu borada bir nechta olimlar fikrlarini misol qilishimiz mumkin shu jumladan jismoniy faoliyatning til o‘rganishga integratsiyalashuvi bilimlarni o‘zlashtirishda tana harakatining rolini ta’kidlaydigan kinestetik ta’lim tushunchasiga asoslanadi. Ko‘pincha til o‘rganish deb ataladigan kinestetik o‘rganish o‘quvchilarni yangi ma'lumotlarni ifodalash va o‘zlashtirish uchun o‘z tanalaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bu usul asosan vizual va eshitish kiritishga qaratilgan an'anaviy yondashuvlardan farq qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, jismoniy harakatni o‘quv jarayoniga kiritish xotirani saqlash va kognitiv faollikni sezilarli darajada oshirishi mumkin, ayniqsa til o‘rganishda (Asher, 1977).

Ushbu yondashuvni qo‘llab-quvvatlovchi asosiy nazariy asoslardan biri 1960-yillarda Jeyms Asher tomonidan ishlab chiqilgan Umumiy jismoniy javob (UJJ) usulidir. UJJ tilni o‘rganish talabalarda tilni o‘zlashtirishning tabiiy jarayonlarini aks ettirganda eng samarali bo‘ladi degan g‘oyaga asoslanadi, bu erda tushunish gapirishdan oldin bo‘ladi. UJJda talabalar o‘qituvchi tomonidan berilgan og‘zaki buyruqlarga jismonan javob berishadi, bu til va harakat o‘rtasida kuchli bog‘lanishni yaratishga yordam beradi (Asher, 1969). Bu usul tananing harakat orqali tilni o‘zlashtirish qobiliyatidan foydalanadi va bu ingliz tilini endi o‘rganishni boshlagan va yosh sportchi talabalar uchun ayniqsa samarali strategiyaga aylanadi.

Til o‘rganishda jismoniy faoliyatdan foydalanish faqat UJJ bilan cheklanmaydi. Berilgan vazifaga asoslangan o‘rganish va kommunikativ tilni o‘rgatish kabi boshqa pedagogik yondashuvlar ham kontekstda tildan foydalanishni rag‘batlantirish uchun jismoniy vazifalarni qo‘shishni targ‘ib qiladi. Talabalar sport bilan shug‘ullanish jarayonida yoki guruh mashg‘ulotlarida tildan foydalanishni talab qiluvchi jismoniy faoliyat bilan shug‘ullansa, ular takroriy, mazmunli amaliyot orqali lug‘at va grammatik tuzilmalarni o‘zlashtirishlari ehtimoli ko‘proq (Richards & Rodgers, 2014).

Til ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni yaxshilashdan tashqari, tilni o‘rganishda jismoniy ishtirok etish affektiv filtrni kamaytirishga yordam beradi, bu tushunchani Stiven Krashen o‘zining "Ma’lumotlar gipotezasi" da (Krashen, 1982) kiritgan. Affektiv filtr tilni o‘zlashtirishga xalaqit beradigan hissiy to‘siqlarni anglatadi, masalan, tashvish yoki motivatsiyaning etishmasligi. Jismoniy faollik, ayniqsa qiziqarli mashg‘ulotlar bu to‘siqlarni kamaytirib, til o‘rganish uchun yanada qulay muhit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Asher, J. J. (1969). The Total Physical Response approach to **second language learning**. *The Modern Language Journal, 53*(1), 3-17.

2. Asher, J. J. (1977). *Learning another language through actions: The complete teacher’s guidebook*. Los Gatos, CA: Sky Oaks Productions.

3. Brown, H. D. (2001). *Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy* (2nd ed.). Longman.

4. Brown, H. D. (2004). ***Language assessment****: Principles and classroom practices*. Pearson Longman.

5. Ismailova Z.K. Talabalarning kasbiy pedagogik malakalarini shakllantirish: Diss.....ped. fan. nomz. – T., 2000. – 186 b.

6. Ismailova Z.K., Muqimov B.R. Amaliy ta'lim metodlari // – T., Kasb-hunar ta'limi 2014. № 4. – 2-8b.

NUTQ VA UNING PSIXOLOGIK JIHATLATI

Boboqulova Marjona

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Nukus filiali "Psixologiya sport" mutaxassisligi 4-bosqich talabasi

Kalit sózlar: Nutq psixologiyasi , til-nutq tafakkuri, Ichki nutq faolligi, Nutq akustikasi, S.L.Rubinshteyn nutqning ong bilan bog`liqligini ko`rsatib.

Annotatsiya : ushbu tezisda Til-kishilar o`rtasidagi aloqa vositasi.

Monolog-bir kishining o`ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi.

Dialog-ikki kishining o`rtasidagi nutqiy aloqa jarayoni fikr yuritgan olimlarning qarashlari bayon etilgan.

Nutq psixologiyasining predmeti nutq mexanizmining tuzilishi va vazifasi, boshqa kishilar bilan muloqot o`rnatishi, nutq yordami bilan o`z his-tuyg`ularini ifodalashi, boshqalarga ta`sir etishidan iboratdir.

XIX asr boshlarida nutq mustaqil fan darajasiga erishgan tilshunoslikda o`rganila boshlandi. Tilning psixologik tabiatini o`rgangan, uni inson ruhiyatining namoyon bo`lishi, deb baholagan mualliflardan biri V.Gumbol'dt edi. U tilni o`lik mahsulot emas, balki doimiy tug`ilish natijasi deb qaraydi.

XIX asr boshlarida nutq mustaqil fan darajasiga erishgan tilshunoslikda o`rganila boshlandi. Tilning psixologik tabiatini o`rgangan, uni inson ruhiyatining namoyon bo`lishi, deb baholagan mualliflardan biri V.Gumbol'dt edi. U tilni o`lik mahsulot emas, balki doimiy tug`ilish natijasi deb qaraydi.

V.Gumbol'dt tadqiqotlari til-nutq tafakkuri muammolari-tilni tushunish, mantikiy va til kategoriyalarini shakllanishi, material (tovushli) substrat bilan fikrlash jarayonining munosabati masalalarini o`rganish imkonini beradi. V.Gumbol'dtning psixologik tadqiqotlari uning shogirdi tilshunoslikda psixologik yo`nalish asoschisi G.SHteyntal tomonidan rivojlantirildi.

XIX asrning ikkinchi yarmida psixologiya mustakil fan sifatida shakllanishi bilan til va nutq muammosi ham psixologik tadqiqotlarda o`rganila boshlandi.

V.Vundt o`zining xalqlar psixologiyasida nutqning psixologik, psixofiziologik tomonlariga alohida e`tibor bergan. Og`zaki nutqni insonning his- tuyg`ularini ifodalovchi harakatlar bilan bir qatorga qo`yadi.

V.Vundtning 1900 yilda nashr qilingan kitobida nutqni kommunikatsiya - aloqa vositasi deb qaralgan, uning psixologik, psixofiziologik bog`liqligini tushuntirib bergan, shuning uchun ham hozirga kadar ilmiy ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Keyinchalik til va nutq nazariy-amaliy jihatdan o`rganila boshlandi. Bu sohadagi eng muhim ishlardan biri L.S.Vigotskiyning "Tafakkur va nutq" (1934) kitobidir. Bu kitobning markaziy g`oyasi-nutqning ijtimoiy tabiati, muomala vositasi sifatidagi imkoniyatlarining tasdiqlanishidir. L.S.Vigotskiy tafakkur va nutqni yaxlit dialektik birlikda deb qaraydi. Fikr so`zda ifodalanibgina kolmay, balki mukammallikka ham erishadi. Fikrdan nutqqa o`tish-fikrni qismlarga bo`linishi va so`zda ifodalanishidir.

P.P.Blonskiy tafakkur va nutqni uzilmas aloqasini ta`kidlash bilan birga, ular aynan bir narsa emasligini ham uqtiradi. U I.P.Pavlovning shartli reflekslar haqidagi ta`limotiga asosan so`zning signallik tabiatiga alohida e`tibor beradi.

S.L.Rubinshteyn nutqning ong bilan bog`liqligini ko`rsatib bu birlikda inson ongining ijtimoiy tabiati o`z aksini topadi. Nutq-bu boshqa kishi uchun gapirayotgan insonning fikrlari, his-tuyg`ularining mavjud bo`lish shaklidir. So`z muloqotda tug`iladi va muloqot uchun xizmat qiladi, degan fikrni ilgari suradi.

V.M. Bexterev laboratoriyasida nazariy ta`limotlarga asosan nutq eksperimental yo`l bilan

o`rganildi. 4-15 yoshdagi bolalar guruhlarini o`rganish orqali E.M. SHevaleva va O.M.Ergol'skayalar mulokot va nutq maxsulini tahlil qilish metodikasini ishlab chikishdi. Bolalar nutqining individual xususiyatlari o`rganildi.Nutq psixologiyasining eng muhim yo`nalishlaridan biri nutqning akustik tomonini o`rganishdir. Nutq akustikasi fizik akustika, lingvistika fonetika, kibernetika, va boshqa fanlar tomonidan ham o`rganiladi. Psixolog uchun nutq tovushlari - gapirayotgan kishi artikulyar apparatining faoliyati natijasidir. Bu faoliyat doimo eshitish analizatorining nazoratida bo`ladi va inson miyasining maxsus bo`limlari, motor buyruqlari bilan boshqariladi.

V.A.Artyomov raxbarligidagi laboratoriyada nutq akustikasini o`rganadigan metodikalar va apparaturalar ishlab chiqildi. Ohang va jumlani talaffuz qilishni o`rganish uchun elektrodinamik rekorder, nutq tovushlarini avtomatik tahlil qiluvchi- spektograf, artikulyatsiyani yozib oluvchi rentgenografik kurilma shular jumlasidandir. eksperimental tadqiqot uchun akustik hodisalar - ohang, tovush, fonema va bo`g`inlar ham qamrab olindi. Bu hodisalar psixologik jihatdan nutqni idrok qilish, tanish va tushunish tomondan o`rganiladi.

Nutq akustikasini o`rganish ozmi ko`pmi uning tashqi ifodalanish tomoni bilan ham bog`liqdir. Lekin, tadqiqotchilarni uning ichki tomoni ham qiziqtiradi. SHuning uchun ham ichki nutq dinamikasini o`rganishga qaratilgan ko`plab laboratoriya uslublari ishlab chiqilgan.

Ichki nutq faolligini o`rganishga qaratilgan ana shunday usullardan biri artikulyatsiya organlari (til, lab) yashirin harakatini registratsiya (qayd qilish) qilishda elektromiografiya usulidan foydalanishdir. A.M. Sokolov tomonidan ichki nutq va tilning o`zaro aloqasi, til muskullari va pastki labning turli aqliy vazifalarni echish jarayonidagi miogrammasini yozib olish orqali o`rnatilgan. Tajribada aniqlanishicha aqliy faoliyat murakkablashgani sari artikulyatsiya faolligi ham ortadi.

Ichki nutq jarayoni dinamikasini o`rganish uchun markaziy va periferik ta`sirlar metodikasi ishlab chiqilgan. N.I. Jinkin tomonidan markaziy nutqiy ta`sirlar metodikasi taqlif qilingan. Tajriba jarayonida tekshiriluvchilar-jumlalar tuzish, geometrik shakllarni sanash, sonlarni ko`paytirish bilan bir vaqtda bo`sh qo`llari bilan berilgan ritmni taqillatib turishgan. Ichki nutq bilan bog`liq bo`lmagan boshqa ritmning kiritilishi tormozlovchi ta`sir ko`rsatadi. Asosiy ko`rsatkich sifatida asosiy vazifani echishga sarflangan vaqt, echimning to`g`riligi, ritm va taqillatish tezligining to`g`riligi, asos qilib olinadi. Olingan natijalar nutq mexanizmi tarkibida statik va dinamik qismlarni ajratish imkonini berdi. Har bir nutq tarkibi tovush, so`z, jumlada doimiy va modellashgan belgilar mujassam bo`ladi. Dinamik jarayonlar so`zlardan jumla tuzishda muhim rol' o`ynaydi. Nutqni o`rganishdagi psixofiziologik yondashish nutq jarayonining tarkibiy qismlarini yo`nalishiga qarab belgilanadi. N.I.Jinkin dinamik rentgenografiya usulini qo`llash orqali talaffuz qilishni o`rganishi maqsadida-elektrokardiogramma, miogramma, teri-gal'vanik reaktsiyasi, yurak qisqarishlari chastotasini o`rganish metodlaridan foydalanilmokda. Bunday metodikalar logonevroz va tutilish (duduqlanish) paytida artikulyatsiya apparati xususiyatlarini o`rganish maqsadida qo`llaniladi.

Tafakkur va nutqning o`zaro bog`liqligi avvalo fikrlash jarayonining til orqali ifodalanishida namoyon bo`ladi. Hozirgi kunda so`z va uning mazmuniy tomonini o`rganish maqsadida assotsiativ eksperimentdan foydala-niladi. Assotsiativ eksperimentning barcha turlari uchun xos bo`lgan xususiyat, ularda natijaning asosiy ko`rsatkichi sifatida reaktsiya vaqti hisoblanadi. Bu mezonlar nutq-fikrlash jarayonining dinamikasini o`rganish imkonini beradi. Assotsiativ reaktsiya vaqti nerv jarayonlarining o`tish tezligini ifodalaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki nutq bu aloqa vositasi hisoblanib inson nutq orqali o‘zining emotsional holatini bildirishi muloqot qilishi mimkin. Inson paydo bo‘lganidan to hozirgi davrgacha insonning nutqi shakillanib bordi. Insoniyat paydo bo‘lishining dastlabki davrlarida imo - ishoralar orqali muloqot qilgan bo‘lsalar keyinchalik ovoz aparatining shakillanishi hamda psixologik rivojlanishi natijasida og‘zaki nutq shakillandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.B.M. Umarov. Psixologiya. Darslik. -T., 2012,

2.Q.Shodiyeva. Nutq o‘stirish uslubiyoti: Pedagogik yo‘nalishdagi kasb-hunar kollejlarining maktabgacha ta'lim ixtisosligi talabalari uchun darslik,

3.Гозиев З.Ғ. Умумий психология. - Т. Укитувчи. 2010 й. 510 б.

4.Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. Oliy o‘quv yurtlari bakalavriat va magistratura talabalari uchun. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b.

PISIXOLOGIYA VA SUJETLI O‘YINLAR HISSIY RIVOJLANISH VA IJTIMOIY ALOQALAR O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA’SIRI.

Shoimqulov Xayrullo Jo‘raniyozovich
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
shoimqulovxayrullo11@gmail.com

Kalit so‘z: *Psixologiya va o‘yinlar bir-birini to‘ldiradi, bolalar hissiy jihatdan rivojlanadi va ijtimoiy muhitda faol qatnashish ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi.*

Ключевые слова: *Психология и игры дополняют друг друга, дети развиваются эмоционально и приобретают навыки активного участия в социальной среде.*

Key words: *Psychology and games complement each other, children develop emotionally and acquire skills for active participation in the social environment.*

Kirish. Hozirgi kunda o‘yinlar inson hayotida muhim o‘rin tutadi. Ular nafaqat vaqtni qiziqarli o‘tkazish vositasi, balki hissiy va ijtimoiy rivojlanish uchun ham samarali platforma hisoblanadi. Sujetli o‘yinlar, o‘z navbatida, o‘yinlarni yanada qiziqarli va ma'noli qiladi, chunki ular o‘yinchilarga qiziqarli hikoyalar, murakkab xarakterlar va dinamik vaziyatlar orqali ta'sir ko‘rsatadi.

Pisikologiya, insonlarning fikrlash, hissiyot va xulq-atvorini o‘rganadigan fan sifatida, o‘yinlarning psixologik ta'sirini tushunishga yordam beradi. O‘yinlar orqali odamlar o‘z hissiyotlarini boshqarish, ijtimoiy aloqalar o‘rnatish va shaxsiy rivojlanish jarayonlarida ishtirok etadilar. Sujetli o‘yinlar, o‘ziga xos hikoyalari va personajlari bilan, o‘yinchilarni o‘zlarining hissiy holatlarini tushunishga va ularni boshqarishga undaydi.

Ushbu maqolada, pisikologiya va sujetli o‘yinlar o‘rtasidagi o‘zaro ta'sir, hissiy rivojlanish va ijtimoiy aloqalar kontekstida tahlil qilinadi. O‘yinlar qanday qilib hissiy intellektni rivojlantirishga va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam berishini o‘rganamiz. Shuningdek, ta'lim jarayonida o‘yinlardan foydalanish, yangi texnologiyalar va virtual o‘yinlarning roli ham ko‘rib chiqiladi. Maqolaning asosiy maqsadi, o‘yinlar va psixologiya o‘rtasidagi aloqani yanada chuqurroq anglash va ularning hayotimizdagi ahamiyatini ochib berishdir.

Psixologiya fanida barcha psixik jarayonlarda protsesslar, holatlar va shaxsning individual xususiyatlari qanday uslublar yordami bilan o‘rganilgan bo‘lsa, jismoniy madaniyat psixologiyasi fanida ham xuddi o‘sha uslublardan foydalaniladi.Sportchini ob’yektiv ravishda tekshirish jarayonida sportchi faoliyatining turli jihatlarini qadam-baqadam qayd qilib borish uning paydo bo‘lishi, kechishi, ifodalanishi to‘g‘risida ishonchli material to‘plashga imkon beradi. Jumladan, turli xil muammolarning paydo bo‘lishi, uni hal qilish imkoniyatlari to‘g‘risida o‘ylash gepotiza yaratish qiyinchiliklardan chekinmasdan maqsadga erishish yo‘llari va usullarini tanlash jahon birinchiligi va olimpiada o‘yinlarida ishtirok etish rejalarini tuzish sportchilarni o‘rganishda kuzatish, suhbat, tajriba o‘tkazish, sportchi faoliyat mahsulini tahlil qilish, test kabi uslublar keng ko‘lamda qo‘llaniladi. sportchini chuqurroq, ob’yektiv ravishda tadqiq etish uchun navbati bilan quyidagi uslublardan foydalanish mumkin.

Hozirgi kunda do‘stlik, o‘rtoqlik va birodarlik, bir-birlarini hurmat qilish, bir-biriga tanqidiy munosabatda bo‘lish kabi yuksak axloqiy sifatlar sportchilarning turmushiga singib bormoqda.Sportchi qalbida kechadigan, tug‘yon urfan ma’naviy hislar nuqul individual tuyg‘ular, ya’ni sportchining shaxsiy (o‘z) xatti-harakatiga bog‘liq bo‘lgan hislar bilangina cheklanib qolmaydi. Sportchidagi ma’naviy hislarning xususiyati shundan iboratki, boshqa kishilarning xatti-harakati axloqiy me’yorlarga muvofiq bo‘lgantaqdirda u xursand bo‘ladi, bu xatti-harakatlar axloqiy qoidalarga nomuvofiq bo‘lganda g‘azablanadi.

Sportchilardagi tashabbuskorlik ularning boshqa sportchilarda tug‘ilgan hislarni o‘zlarida idrok qila bilish qobiliyatlarida ifodalanadi: kishilarga xayrxohlik ko‘rsatib, ularning xursandligiga ham, g‘am-g‘ussasiga ham sherik bo‘ladi. Do‘stlarining dushmaniga dushman; nafratiga, xursanchiligiga sherik bo‘ladi. Sportchilardagi mana shu xilma-xil hislar jamoada, oilada, universitetda, guruhda va shu kabilardaayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Hozirgi kunda talabalar jamoasining kamolot, olimpiada, universiada kabi yangi shakllari paydo bo‘lib, turli xil sport musobaqalari keng o‘tkazilmoqda. Bu jamoalar a’zolari o‘qishda yoki boshqa turli faoliyat turlaruda o‘zaro mas’uliyatni his qilishda, butun jamoaning va shu jamoadagi har bir sportchining muvaffaqiyatlari to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishda, jamoa oldida turgan vazifalarni sharaf bilan bajarishda o‘zlarining ijobiy xislatlarini namoyon qilmoqda. Sport psixologiyasi fani bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va murabbiylarga har bir sport turi

bo‘yicha psixologik ta’lim berishda hamda fizkultura harakatlarini tashkil etishning tashkiliy va tarkibiy tizilmalarini ishlab chiqishda yordam beradi.

XULOSA. Maktabda jismoniy tarbiya fanini o‘qitish muammolariga doir ilmiy-pedagogik va ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tizimli tahlili ilmiy xulosalarni ilgarish surish, Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida gimnastikani ommalashtirish va keng targ‘ib qilish orqali tarbiyalanuvshilarni mazkur sport turi bilan muntazam shug‘ullanishga jalb etilishi hisobiga amaldagi o‘quv dasturini qayta ko‘rib chiqish, ajratilgan 154 soatlik o‘quv yuklama taqsimotini 4 chorakka teng bo‘lish hamda gimnastikaning sog‘lomlashtiruvshi elementlarini o‘zlashtirish bilan bog‘liq kamomadlarni tashkil etiladigan gimnastika sport turlari bo‘yicha musobaqalar va fan tugaraklari yordamida bartaraf etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Даминов И. Совершенствование технико-тактической и психологической подготовки юных дзюдоистов //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 11/S. – С. 175-180.
2. Ashiraliyevich D. I. Formation and Development of Psychological Readiness of Young Sambo Fighters //European journal of business startups and open society. – 2022. – Т. 2. – №. 7. – С. 15-18.
3. Даминов И. А. Спортивная деятельность-как фактор влияния на личность дзюдоистов //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 1322-1329.
4. Daminov I. A. KURASH MUSOBAQALARI VA O‘QITISH METODIKASI //Results of National Scientific Research International Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 150-157.
5. Лебединская И. Г. Физкультурно-оздоровительная и спортивно-массовая работа с детьми по месту жительства //Вестник Таганрогского института имени АП Чехова. – 2015. – №. 2. – С. 145-149.

MUSOBAQANING STRESSLI HOLATI VA SPORTCHILARDA TAYYORGARLIK VA MUSOBAQADAN OLDINGI RUHIY STRESSNING O‘ZIGA XOS BELGILARI.

Pulatova Naima
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetiNukus filiali
“Psixologiya sport” ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Kalit so‘zlar: futbolchi; raqobatbardosh faoliyat; stress; stress omillari, sportchilarni psixologik qo‘llab-quvvatlash.

Ключевые слова: футболист; соревновательная деятельность; стресс; стрессовые факторы, психологическая поддержка спортсменов.

Annotatsiya: Maqolada stressning sportchining raqobatbardosh faoliyatiga salbiy ta'siri muammosi ko‘rib chiqilgan. Adabiyot ma'lumotlarini nazariy tahlil qilish asosida "stress" tushunchasining mazmuni aniqlanadi, ichki va tashqi xarakterdagi sport faoliyatining stress omillari konkretlashtiriladi va ularning namoyon bo‘lish xususiyatlari,stressga qarshilikni shakllantirish uchun irodaviy fazilatlarga ega bo‘lgan sportchilarni tarbiyalash, o‘z qadr-qimmatini oshirish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va aqliy o‘zini o‘zi boshqarishning turli usullarini qo‘llash tavsiya etiladi.

Аннотация: В статье рассматривается проблема негативного влияния стресса на соревновательную результативность спортсмена. На основе теоретического анализа данных литературы определено содержание понятия «стресс», указаны внутренние и внешние стрессовые факторы спортивной деятельности и особенности их проявления, тренировка силы воли у спортсменов для формирования устойчивости к стрессу, самодисциплины. Уважение рекомендуется повышать, развивать творческие способности и использовать различные методы психического самоуправления.

Abstract: The article deals with the problem of the negative impact of stress on the athlete's competitive performance. Based on the theoretical analysis of literature data, the content of the concept of "stress" is defined, the internal and external stress factors of sports activities are specified and their manifestation characteristics, training of athletes with willpower to form resistance to stress, self-esteem it is recommended to increase the value, develop creative abilities and use various methods of mental self-management.

Musobaqada xavotirli, hissiy hayajonli va dipretsiya bo‘lmagan sportchilar mashg‘ulotlarda

ko‘rsatilgan natijalarni yomonlashtiradilar, teskari temperament xususiyatlariga ega sportchilar yomonlashmaydi. Ko‘rinishidan, temperamentning bu xususiyatlari juda mas’uliyatli musobaqalarda ishtirok etish natijasida yuzaga kelgan ruhiy stressning maqbul va pessimumini aniqlaydi. Aynan shu sharoitda bezovtalanuvchi, hissiy hayajonli va dürtüsel sportchilar temperamentning salbiy xususiyatlarini aniq namoyon etadilar, ular haddan tashqari asabiylik, tashvish, haddan tashqari mas’uliyat va faollik, beparvolik, harakatlarning murosasizligi, musiqiy ritmik tuyg‘uni buzish va hokazolarni keltirib chiqaradi.

Musobaqaning stressli holati va tayyorgarlik va musobaqadan oldingi davrlardagimashqlar sportchilarda ruhiy stress va yoki charchoqni keltirib chiqarishi mumkin. Psixologiyada aqliy zo‘riqishning uch bosqichi mavjud bo‘lib, ularning har biri uchun umumiy va o‘ziga xos belgilar mavjud. Umumiy simptomlar: charchoq, ishlashning pasayishi, uyquning buzilishi, uyqudan keyin tazelik va hayotiylikning yo‘qligi, epizodik bosh og‘rig‘i. Maxsus belgilar: asabiylik - kayfiyat, kayfiyatning beqarorligi, ichki bezovtalik, yoqimsiz sezgilarning paydo bo‘lishi, shuningdek, qat’iylik va asteniklik. Dastlab, bu belgilar kamdan-kam hollarda va yumshoq tarzda namoyon bo‘ladi.

I- bosqich. sportchi intizomli, tartibli, odatdagidek murabbiyning vazifasini sifatli bajaradi, lekin vaqti-vaqti bilan aloqa, vazifa, shart-sharoitlardan noroziligini bildiradi. Bu yuz ifodalarida, imo-ishoralarda, nutq ohangida namoyon bo‘ladi. Bunday reaktsiyani ortib borayotgan nöropsikik stresslarga moslashuv turi sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Ammo siz ularni qarovsiz qoldirolmaysiz.kayfiyatning beqarorligi: tez o‘zgarishi va hissiy reaktsiyalarning etishmasligi bilan namoyon bo‘ladi. Kichkina muvaffaqiyat, bo‘ronli quvonchni keltirib chiqaradi, uni tezda atrofdagi narsalardan qoniqmaslik bilan almashtirish mumkin.• Ichki bezovtalik: aksariyat hollarda yuz ifodalari va pantomimalarda namoyon bo‘ladi, xatti-harakatlarida u ko‘rinmaydi.

Noxush tuyg‘ular: biron bir vazifani bajarishdan bosh tortgan yoki musobaqalarda muvaffaqiyatsiz ishtirok etgan hollarda sportchi uchun biron-bir sababdir. Bunday kayfiyatlarni muloyimlik bilan, lekin qat’iy ravishda ushlab turish kerak. Shikoyatlar ko‘pincha og‘riqli, ammo ular odatda tezda o‘tib ketadi.

O‘sib borayotgan, asabiylashtirilmagan asabiylashish sportchining g‘azabini o‘rtoqlariga, murabbiyga, mutlaqo tasodifiy odamlarga yo‘naltirganligi bilan izohlanadi; bir muncha vaqt u hanuzgacha g‘azablanishning sabablarini tushuntirishga harakat qiladi, keyin o‘zini tanqid qilishni yo‘qotadi, pushaymonligi kamayadi; atrofidagi odamlarning kamchiliklariga toqat qilolmaydi. Hissiy beqarorlik, ya’ni kayfiyat beqarorligi, ishlashning keskin o‘zgarishiga olib keladi. Ichki bezovtalik, ya’ni qiyinchiliklarni keskin kutish, bu sportchining odatdagidek tabiiy deb hisoblangan normadan og‘ish sifatida qabul qilinishi bilan izohlanadi.

Umumiy depressiv kayfiyat fonida depressiya, ruhiy tushkunlik, letargiya, faollik motivatsiyasini kamaytiradigan kuch yo‘qligi. Xavotirlanish - bu ilgari sportchiga nisbatan befarq bo‘lgan vaziyatlarda ichki ruhiy konfor, xavotir yoki qo‘rquvning buzilishi.

Sportchining qobiliyatlari noma’lumligi uning qobiliyatlari belgilangan maqsadga erishishga mos kelmaydi degan fikr natijasida yuzaga keladi. Haddan tashqari holatlarda, bu maqsadga erishish va sportni tark etishdan bosh tortishga olib keladi. Yuqori zaiflik, sezgirlik – xususiyatlar psixikaning xususiyatlari, sportchining munosabatlardagi mayda irodalarga juda sezgir bo‘lishiga, mashg‘ulot mashg‘ulotlari rejimini yoki musobaqalar vazifalarini o‘zgartirishga olib keladi. Sportchilarda ruhiy stress holatlaridan tashqari, charchoq holatini aniqlash va uning bosqichlarini ajratish odatiy holdir.

Charchoq - bu surunkali jismoniy yoki psixologik haddan tashqari kuchlanish natijasida odamda yuzaga keladigan patologik holat, uning klinik ko‘rinishi markaziy asab tizimidagi funktsional buzilishlar bilan belgilanadi. Ushbu holatning paydo bo‘lishida endokrin tizim, ayniqsa gipofiz va adrenal korteks muhim ahamiyatga ega. SHunday qilib, G. Sele fikriga ko‘ra, kuchli tirnash xususiyati beruvchi ta’sirida tanada adaptatsiya sindromi yoki stress rivojlanadi, bu davrda oldingi gipofiz va adrenal korteksning faoliyati kuchayadi. Endokrin tizimidagi bu o‘zgarishlar tanadagi intensiv jismoniy yoki ruhiy faoliyatga moslashish reaktsiyalarining rivojlanishini aniqlaydi. Ammo surunkali haddan tashqari yuklanish buyrak usti korteksining tushishiga va shu tariqa ilgari ishlab chiqilgan adaptiv reaktsiyalarning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Ortiqcha charchash to‘g‘ridan-to‘g‘ri kortikal neyrodinamikaning nevrozga o‘xshash jarayonlarining buzilishidan kelib chiqadi.

II- bosqich. Bu shikoyatlar yo‘qligi yoki ba’zida sportchining yomon uxlab qolishida va tez-tez uyg‘onishida ifodalangan uyqusizlik haqida shikoyat qiladi. Ko‘pincha uxlashdan keyin bo‘shashish

hissi yo‘qligi, ishtahaning pasayishi, diqqatning jamlanishi va ish qobiliyatining pasayishi kuzatiladi. Vaziyatning ob’ektiv belgilari tananing psixologik stressga moslashuvining yomonlashishi va eng yaxshi vosita koordinatsiyasining buzilishi.

III -bosqich. Bu ko‘plab shikoyatlar, tananing ko‘plab organlari va tizimlarida funktsional buzilishlar va jismoniy ko‘rsatkichlarning pasayishi bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, sportchilar befarqlik, letargiya, uyquchanlik, asabiylashish va ishtahaning pasayishi haqida shikoyat qiladilar. Ko‘pchilik shikoyat qiladilar engil charchoq, noqulaylik va yurak mintaqasida og‘riq, har qanday ishda sekin tortishish. Ba’zi hollarda ular mushaklarning keskinligini yo‘qotishidan, jismoniy faoliyatga mos bo‘lmagan reaktsiyalar paydo bo‘lishidan shikoyat qiladilar. Kutish buziladi, uxlash vaqti uzayadi, uyqu yuzaki, bezovtalanadi, tez-tez tushlar ko‘pincha kabus xarakteriga ega. Kutish, qoida tariqasida, zarur dam olish va kuchni tiklashni ta’minlamaydi.

Yurak-qon tomir tizimida funktsional buzilishlar psixologik stressga etarlicha katta reaktsiyada, ulardan keyin tiklanish davrining sekinlashuvida va yurak faoliyati ritmidagi buzilishlarda, yurak faoliyatining stressga moslashuvchanligining yomonlashuvida namoyon bo‘ladi. Haddan tashqari ishlaydigan odamning tana og‘irligi tushadi. Bu tanadagi oqsillarning ko‘payishi bilan bog‘liq.

IV- bosqich. Bu giperstenik yoki gipostenik shaklda nevrasteniyaning rivojlanishi vaumumiy holatning keskin yomonlashishi bilan tavsiflanadi. Birinchi shakl - bu inhibitatsiya jarayonining susayishining natijasi, ikkinchisi - miya yarim korteksidagi qo‘zg‘atuvchi jarayonning haddan tashqari kuchlanishi. Nevrasteniyaning giperstenik shaklidagi klinikasi asabiy qo‘zg‘aluvchanlik, charchoq, charchoq, umumiy zaiflik va uyqusizlik hissi bilan tavsiflanadi. Nevrasteniyaning hipostenik shaklidagi klinikada kun davomida umumiy zaiflik, charchoq, charchoq, apatiya va uyquchanlik bilan ajralib turadi.

V- bosqichning haddan tashqari charchashi holatlarida psixologik yukni kamaytirish va kun tartibini 2-4 xaftaga o‘zgartirish kerak, ya’ni yukning umumiy hajmini kamaytirish, uzoq va intensiv darslarni istisno qilish kerak. Kundalik rejimda asosiy e’tibor kichik jismoniy yuk bilan amalga oshiriladigan umumiy jismoniy tayyorgarlikka qaratilishi kerak. Umumiy holatni yaxshilash jarayonida rejim asta-sekin kengayadi va 2-4 haftadan so‘ngioldingi hajmga qaytadi.

Ortiqcha ovqatlanish bilan 1-2 hafta davomida VI- bosqich. tashqi ishlar bilan almashtirildi. Keyin 1-2 oy ichida. asta-sekin odatdagi rejimga kiritish birinchi bosqichni davolashda tasvirlanganidek amalga oshiriladi. SHu vaqt ichida mehnat va dam olish rejimini buzish taqiqlanadi.

Xulosa: Bularning barchasi oxir-oqibat natijaning pasayishiga olib keladi. Ma’lumki, sportda yuqori natijaga erishish uchun shartlardan biri bu stressning maqbul darajasi. Ko‘rsatilganidek, bu daraja asosan asab tizimi va temperamentning xususiyatlariga bog‘liq. U qo‘zg‘alish jarayonining kuchi, asabiy jarayonlarning muvozanat, bezovtalik, hissiy qo‘zg‘aluvchanlik, kabi xususiyatlarga ega bo‘lib, ular musobaqalarda qatnashish munosabati bilan sportchilarda yuzaga keladigan ruhiy stressning maqbul va pessimenti aniqlanadi.

FOYDALANILGAN DABIYOTLAR

1. Генковская В.М. Особенности саморегуляции как нормы психической устойчивости в стрессовых ситуациях: Автореф. дис. канд. психол. наук. Киев, 2000.
2. Почебут Л.Г., Чикер В.А. Индустриальная социальная психология. - Спб.: Изд-во СПбГУ, 2009. С. 97-115.
3. Z.G. Gapparov Sport psixologiyasi jismoniy tarbiya instituti talabalari uchun darslik / Uz.Res oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi.-Toshkent.:" Mexridaryo", 2011-345b.
4. Z.G.Gapparov, J.M.Ishtayev, O.X.Xasanov Sport psixologiyasi metodologiyasi. O‘quv qo‘llanma // T:- "MAKON SAVDO PRINT" 2024-178b.

SPORTCHILARDAGI RUHIY OLAMNING SHAKILLANISHI

G‘anijonov Samandar talaba

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetiNukus filiali

“Psixologiya sport” ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada sportchining ruhiy olami qanday. Sportchining ruhiy olami qanday shakillanadi. Hozzirgi kunda sportchining ruhiy olami qanday manbalar bilan boyimoqda. Sporchining ruhiy olami qanday holatlarda ko‘rini yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sporchi, psixlogiya, motiv, iroda, psixologik davr, mashg‘ulotlar, musobaqa.

Аннотация: в этой статье о том, каков психический мир спортсмена. Как формируется психический мир спортсмена. За счет каких ресурсов обогащается духовный мир спортсмена в наши дни. В каких ситуациях озаряется психический мир спортсмена.

Ключевые слова: спортсмен, психология, мотив, воля, психологический период, тренировка, соревнование.

Annotation: what is the mental world of an athlete in this article. How the mental world of an athlete is formed. With what resources the spiritual world of the athlete is enriched nowadays. In what situations the athlete's mental world is illuminated.

Keywords: athlete, psychology, motive, will, psychological period, training, competition.

O‘zbek adabiyotining zabardast yozuvchisi To‘g‘ay Murod shunday deydi:

Insonni ikki davr yo‘ldan uradi, zaxarlaydi:

1-davr: ota onasi zaxarlaydi.

2-davr: bola-chaqasi zaharlaydi.

Men bu fikrni kasbiy yo‘naltirgan xolda sportchilarga yana ikki davrni qo‘shgan bo‘lardim:

Sportchilarni ikki davr yo‘ldan uradi, zaxarlaydi:

1-davr: musobaqadan keyingi mag‘lubiyat davri.

2-davr musobaqadan keyingi muvaffaqqiyat davri.

Musobaqada mag‘lubiyatga uchragan sportchining ruhida taloto‘plar boshlanadi, aqliy e’tirozlar boshlanadi. Bu davrda sportchi ruhiy daldaga ehtiyoj sezdi, mag‘lubiyat sababiga sherik qidiradi. g‘alaba na’shani topgan davrda atrofini qurshagan insonlarni kutadi. Ulardan taksin kutadi. Yetarlicha javob bo‘lmaganidan so‘ng insonlarga nisbatan ishonchsizlik ko‘zi bilan qaray boshlaydi. Mushg‘ulotlar jarayonida yog‘izlik his qiladi. Sporchiga xos dadillikni, jangovorlikni yo‘qotadi. Bo‘lajak musobaqalarga mag‘lubiyat qo‘rquvi bilan qadam bosadi. Murabbiyi tomonidan uqtirilgan taktik element harakatlarini yetarlicha uddalay olmaydi. Va sportchi o‘z qorquvi bilan yuzashadi. Ruhiy inqirozga uchraydi. Oxir oqibat bu xil mag‘lubiyatlar sportchini tamoman sindiradi. Umidsizlikka duchor qiladi.

Musobaqada g‘alabaga erishgan ayrim sportchilarda esa menlik kuchayib ketishi mumkin. O‘ziga bino qo‘yish, murabbisining o‘gitlariga yuzaki munosabat bildirish, mashg‘ulot jarayonlarida erinchoqlik qilish, keying musobaqalarda raqiblarini mensimaslik holatlari kuzatilishi mumkin. Bunday sportchilar ruhiy xolati hali shoxsupaga tayyor bo‘lmagan sportchilardir.

Sportchining ruhiy olamini tarbiyalashda nimalarga ahamiyat berishimiz lozim?

Dastlab sportchining kundalik hayoti bilan tanishamiz. Aksariyat sportchilar, dam olish vaqlarida, sport zallarida musiqalar eshitib mashg‘ulot bajarayotanini kuzatamiz. Ho‘sh ular qanday musiqalarni onggiga istemol qilmoqdalar. Kuzatuvlar shuni aytadi-ki, sportchilar Yevropa pop, jaz inson harizmasini uyg‘otuvchi va o‘z yurtidagi kuychilarning yengil yelpi qo‘shiqlari bilan ruhiy olamini to‘ldirmoqda. Bu xildagi kuylar ularga vaqtinchalik motiv berishi mumkin ammo sportchining irodasini yemiradi, ruhiy quvvatini zaiflashtiradi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak buyuk ajdodim Amir Temur qo‘shinidagi jangchilarga zamonasini ulamolari yozgan kitoblarini, avliyo qalamkashlari bitgan she’rlarini o‘qishni buyurgan. Maqsad shundaki, qo‘shindagilarga nima uchun jang maydoniga chiqayotganini, kim uchun jang qilayotganini, kurashlardan asl maqsad nima ekanini doimiy eslatib turish, ularning ruhiga anashu go‘yani muqim o‘rtatish bo‘lgan. Farq shundaki: ayni kunda sportchilarimiz ruhiy olamini oniy motivlarga, zaif tuyg‘ularga boyitmoqda…

Axir zamonamiz jangchilari, kurashchilari – bugun sportchilarimiz emasmi?

Shved olimi Emmanuil Svedenborg shunday deydi:

Insonning ikki xil aqli bo‘ladi: tashqi va ichki. Inson tashqi aqli tufayli tabiiy olamda, ichqi aqli sabab – ma’naviy-ruxiy olamda yashaydi…

Biz sport psixologlarimizning vazifamiz sportchilarining ichki aqlini ya’ni ma’naviy ruxiy olamini mustahkamlash, tarbiyalash, yuqorida keltirilgan kemtiklarni to‘ldirishdir.

Buyuk yozuvchilardan biri shunday deydi: ijodkorning peshonasiga bitilgan vazifasi halqning ma’naviy yo‘lboshchisi bo‘lmoqdir. Men bunga qo‘shimcha qilib aytgan bo‘lardim-ki, agar ijodkorning peshonasiga bitilgan vazifasi halqning ma’naviy yo‘lboshchisi bo‘lmoqlik bo‘lsa, sportchilarning peshonasiga bitilgan vazifasi - kelajak umidi bo‘lgan yoshlarning ruhiy yo‘lboshchisi, oldinga chorlovchi ezgu kuchi bo‘lishligi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Z.G. Gapparov Sport psixologiyasi. Darslik /.-Toshkent.: "O‘zkitobsavdonashriyoti", 2021-300 b.
2. J.M. Ishtayev Sport psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma /.-Toshkent.: "O‘zkitobsavdonashriyoti", 2020-232 b
3. Z.G.Gapparov, J.M.Ishtayev, O.X.Xasanov Sportda psixotexnologiyalar. Darslik// T:- "MAKON SAVDO PRINT" 2024 328b.
4. Z.G. Gapparov Sport psixologiyasi jismoniy tarbiya instituti talabalari uchun darslik / Uz.Res oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi.-Toshkent.:" Mexridaryo", 2011-345b.
5. Z.G.Gapparov, J.M.Ishtayev, O.X.Xasanov Sport psixologiyasi metodologiyasi. O‘quv qo‘llanma // T:- "MAKON SAVDO PRINT" 2024-178b.
6. J.M. Ishtayev Psixologiyada tadqiqotlarni rejalashtirish. O‘quv qo‘llanma // T:- "MAKON SAVDO PRINT" 2024-244b..

IJTIMOIY PSIXOLOGIYANING YUZAGA KELISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI

Shomurotova Ozoda Baxrom qizi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

Psixologiya (sport) ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Kasb tanlash o‘smirlar uchun muhim rivojlanish bosqichidir, chunki u shaxsiy o‘ziga xoslikni va kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarni shakllantiradi. Biroq, bu qaror qabul qilish jarayoni ichki va tashqi omillar, jumladan cheklangan o‘z-o‘zini anglash, ijtimoiy bosim va rivojlanayotgan mehnat bozori talablaridan kelib chiqadigan qiyinchiliklarga to‘la.

Kalit so‘zlar: O‘smirlik, kasb tanlash, kasbiy shaxs, qaror qabul qilish, o‘z-o‘zini anglash, jamiyat ta'siri, ota-onalarning umidlari, tengdoshlar ta'siri, ta'lim yo‘l-yo‘riqlari, martaba qoniqish, mehnat bozori tendentsiyalari, psixologik rivojlanish, kasbga yo‘naltirish, kasbiy izlanish, yoshlar rivojlanishi.

Аннотация: Выбор карьеры является важным этапом развития подростков, поскольку он формирует их личностную идентичность и будущие социально-экономические возможности. Однако этот процесс принятия решений сопряжен с проблемами, возникающими из-за внутренних и внешних факторов, включая ограниченное самосознание, социальное давление и меняющиеся требования рынка труда.

Ключевые слова: подростковый возраст, выбор карьеры, профессиональная личность, принятие решений, самооценка, социальное влияние, ожидания родителей, влияние сверстников, образовательный путь, удовлетворенность карьерой, тенденции на рынке труда, психологическое развитие, профориентация, поиск карьеры, молодежь. разработка.

Annotatsiya: Choosing a profession is a critical developmental milestone for adolescents, as it shapes both personal identity and future socio-economic opportunities. However, this decision-making process is fraught with challenges stemming from internal and external factors, including limited self-awareness, societal pressures, and evolving job market demands.

Keywords: Adolescence, career choice, professional identity, decision-making, self-awareness, societal influence, parental expectations, peer influence, educational guidance, career satisfaction, job market trends, psychological development, vocational guidance, career exploration, youth development.

Ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida rivojlanish tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uning jamiyatning tarixiy rivojlanishi bilan bog‘lik tarzda rivojlanganligining, ilmiy jihatdan esa, falsafiy qarashlar ta`sirida bo`lib, sof ijtimoiy psixologik nazariyalarning juda oz sonli bo`lganligining guvohi bo`lishimiz mumkin.

Insoniyat tarixini o`rganar ekanmiz mutafakkirlar, olimlar, allomalar ijtimoiy psixologik xodisalar bilan juda qiziqqanliklarining guvohi bo`lamiz. Lekin ular bu xodisalarni o`z davri ruhida, o`z nazariy va ijtimoiy qarashlari, xattoki, turli oqimlar orasida tushunishga uringanlar. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida taraqqiyotini o`rganish uchun ijtimoiy psixologik muammolar yoritilgan asar yoki kashfiyotchining yashagan davri, uning siyosiy qarashlari, jamiyatning taraqqiyot xususiyatlarini ham o`rganish lozim. Ilmiy manbalar ijtimoiy psixologiyaning davlat va huquq nazariyasi, siyosiy iqtisod, etika, falsafa fanlarining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, fan taraqqiyotiga falsafa fani o`zining sezilarli ulushini qo‘shgan. Shuning uchun ham amerikalik olim G. Olport ijtimoiy

psixologik g‘oyalarning yaratilishi va rivojlanishini falsafa bilan, uning ko`zga ko‘ringan arboblaridan hisoblangan Platon nomi bilan bog‘liq deb yozgan edi.

